Аннотация. *В статье рассматриваются уникальные подходы к интерпретации концепции наставник и ученика Мусахана Дахбиди, видного представителя ордена Накшбанди-Муджаддидийа. В своих трудах Дахбиди широко освещал вопросы «совершенного человека», «совершенного общества», «несовершенства», «зрелости», «сотворения человека» в учении Накшбандийа. Статус пир-шейха также является одним из аспектов, которому учёний уделяет особое внимание, и он называет этот уровень «самым совершенным статусом».*

Ключевые слова: *наставник, ученик, пир, мюрид, совершенный человек, вдохновение, совершенство, чудо, благочестивый, образование, духовное воспитания.*

A PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE MENTOR AND DISCIPLE RELATIONSHIP IN THE WORKS OF MUSOKHONKHOJA DAKHBIDI

Annotation. *The article examines the unique approaches to interpreting the concept of mentor and student Musakhan Dahbidi, a prominent representative of the Naqshbandi-Mujaddidiya order. In his works, Dahbidi widely covered the issues of the “perfect man”, “perfect society”, “imperfection”, “maturity”, "creation of man" in the teachings of Naqshbandiya. The status of pir-sheikh is also one of the aspects that the scholar pays special attention to, and he calls this level “the most perfect status”.*

Key words: *mentor, disciple, pir, murid, perfect man, inspiration, perfection, miracle, pious, education, spiritual upbringing.*

Kirish. Vujudi kasal odamlar o‘z kasalligini bilmasdan o‘zlarini soppa-sog‘ deb o‘ylab, tabibning maslahatlarini olmagani kabi ruhan kasal odamlar ham o‘zlarini soppa-sog‘ deb o‘ylab, ustozining nasihatlariga quloq solmaydilar. Maqsadni amalga oshirishda jahd va g‘ayrat mo‘ljallangan ishni bajarishda zo‘r ta’sirga egadir. Nazariy bilimlarni ustozlar hamda hikmatlar o‘rgatadilar.

Tasavvuf ta’limotida ustoz shogirdlik masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Shuning uchun tasavvufdagi “maxdum”, “mustamliy”, “robita”, “uvaysiylik”, tushunchalarida so‘fiylar o‘rtasidagi ustoz shogirdlik munosobatlari berilgan. Musoxonxoja Dahbidiy risolarida pir-u murshid masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Mutafakkir fikricha, shogird ustoziga butun vujudi bilan bog‘lanib, beradigan ilmiga amal qilishi kerakligini ta’kidlaydi. “Bilgilki tolib dili nozini barcha jihatlardan o‘girib, o‘z piriga mutavajjih qilsin (yuzlansin). Pir borligi tufayli, undan ruxsatsiz navofil (nafs ibodatlar) va azkor (zikrlar)ga kirishmasin va uning huzurida undan boshqaga iltifot ko‘rsatmasin (qaramasin). Butun vujudi bilan unga mutavajjih bo‘lib o‘tirsin. Andisha qilmoq kerakki, bu pastkash dunyo ishlariga rioyati daqiqa kerakdir. Murid piri oldida batamom odob rioyasi lozim bo‘ladi. Imkon qadar unga (pirga) yaqinroq turmoq kerakki, uning muborak badanining soyasi uning kiyimiga yoki soyasiga tushsin”.[1]

Demak, murid butun qalbi bilan, turli xil xayollarga bormasdan, chalg‘imasdan, e’tiborini ustoziga qaratishi lozim bo‘ladi. Jumladan, ustozining oldiga odob saqlashi, norozi fikr bermasdan, o‘z-o‘zini idora qilish kerak. Bu fikrlar hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mutasavvif shogirdning ustozni oldidagi burchlarini keltirib, tohoratsiz borishi mumkin emasligini uqtiradi. “Pirning joynamoziga oyoq qo‘ymasin, uning ostonasida

[1] Даҳбидий Мусохон. Навадир ал-Маориф. Тошкент, ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар асосий фонди, инв. № 542/1. В.46А-45Б.

tahorat qilmasin. Uning xos idishlaridan ovqat iste'mol qilmasin (idishni ishlatmasin). Uning huzurida suv ichmasin va ovqat tanovul qilmasin. Biror kishi bilan so'zlashmasin, balki biror kishi tomon nozlanmasin. Va ayzan (yana) unda pirga nisbatan muhabbat paydo bo'lgach, muhib nazarida mahbubdan nimaiki sodir bo'lsa, o'sha ishni ham mahbub bo'lib tuyulsin. Bas, e'tirozga o'rin yo'q. kulliy va juz'iy (holatda) pirga iqtido qilsin. Yemoq, ichmoq, kiyinmoq, uxlamoq, toat qilmoq va namoz o'qimoqni pir ado etgan tarzda ado etmog'i kerak. Va fiqhini uning amalidan ahz qilmoq (olmoq, o'rganmoq) kerak. Bayt:

Onroki dar saroyi nigorist, forig'ast
Az sayri bo'stonu tamoshoi lolazor.[1]

Mazmuni: Demak, mutasavvif muridlikka qabul qilishning zohiriy va botiniy tomonlariga ahamiyat bergan. Xos ustozlarning alomatlaridan yana biri himmatini (g'ayrati) botin ilmiga, qalb muroqabasiga, oxirat yo'llari va unda yurish qoidalarini o'rganishga qaratilgan bo'lishi hamda ularning inkishofi uchun mujohada va muroqabaga jiddiy kirishishidir. Chunki mujohada (nafsni vujudiy mashaqqatlar bilan qiynash, havo va havasga qat'iyan qarshi kurashish) muroqabaga (biror narsaga diqqat ila nigoh tashlamoq, xudo fikriga berilib, dunyoga taalluqli xayol, o'tkinchi mayllardan forig' bo'lmoq) yo'l ochadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Musoxonxoja Dahbidiy fikricha, pirning harakatlari, yurish-turishiga nisbatan, garchi qalampir urug'iga bo'lsa-da e'tirozga o'rin qolmasligi kerak. Chunki e'tirozdan mahrumlikdan boshqa natija yo'q. Xaloyiq jumlasining eng besaodat kishisi bu toifaning aybini oxtarguvchi kishisidir. "Najonallohu subhonahu'an hozihil-baloil-azim". Pirdan xavoriq va karomat talab qilmasin. Garchi bu talab xavotir va vasvasa tariqasida bo'lsa ham. Biror mo'min biror payg'ambardan mo'jiza talab qilganini eshitganmisan? Mo'jiza talab qiluvchilar kofirlardir va inkor ahlidir. Bayt:

Mo'jizot az bahri qahri dushmanast,
Bo'yi jinsiyyat payi dil burdanast.
Mujibi imon naboshad mo'jizot,
Bo'yi jinsiyyat kunad jazbi sifot.

Mazmuni: Ibn Arabiyning ta'vil usuli payg'ambar va so'fiylarga berilgan ilohiy mo'jiza va ilhomlarning tabiatini aniqlashga qaratilgan. Mutasavvif Qur'ondagi "Va Musoning onasiga: "Uni emizaver. Bas. (unga yomonlik yetishidan) qo'rqqan chog'ingda, uni daryoga tashla, qo'rqma, xafa bo'lma, biz, albatta, uni senga qaytaruvchimiz va payg'ambarlardan qiluvchimiz"[2] (Qasos: 7-oyat) oyatini keltiradi. Ibn Arabiy bu oyatni ta'vil qilib, mo'jizalar vahiy va amr orqali amalga oshadi, deydi. Oyatda vahiyning ta'siri natijasida Musoning onasida bolasini daryoga tashlasa, cho'kib ketishi mumkinligi haqidagi qo'rquv yo'qoldi. Mo'jiza Musoni daryoga tashlash to'g'risidagi amr orqali amalga oshdi.

Tahlil va natijalar. Musoxonxoja Dahbidiy muridda nuqson bo'lsa, sababini boshqa joydan izlamasligi, o'zini isloh qilish lozimligini keltirib o'tadi. "Agar xotirida biror shubha paydo bo'lib qolsa, uni to'xtovsiz aytsin. Tolibga munkashif bo'lgan ta'birni ham pirga aytsin. Ta'birning to'g'ri yoki noto'g'riligini undan oxtarsin va o'z kashfiga e'timod qilmasin. Chunki bu dunyoda haq va botil mustazijdir".[3]

Ya'qub Charxiy "Al-Maorij" surasida kofirlarning Payg'ambarimiz (s.a.v.)ni yolg'onchiga chiqarmoqchi bo'lganlari to'g'risidagi oyatni tafsir qiladi. Mutasavvif shogirdlariga bid'at hamda zalolatdan uzoq bo'lishlikni tavsiya berib, bu yo'lga kirganlarning ko'rinishidan yaxshi odamga o'xshasa-da, aslida, qalbi nopok bo'lib, yuzida nur yo'qligini ta'kidlaydi.[4] Demak, mutasavvif fikricha, bid'at va zalolat bilan qilingan uzoq toatdan, qalbdan qilingan qisqa toat afzaldir.

Ya'qub Charxiy shogirdlariga pirning huzurida o'tirganda tartibli bo'lishi, ustozidan nuqson qidirmasligi, suhbat va harakatiga e'tiroz bildirmasligini tavsiya beradi.[5]

Dahbidiy fikricha, murid pirining ruxsatisiz hamda zaruratsiz undan ayrilmasin. Chunki pirdan boshqa kishini yoqtirib qolsa, irodatga (munofiyi irodat) xilofdir. Xos fayzga aloqador bo'lgan latofatlardan biri shayx suratida zohir bo'ladi. Ibtilo (mubtalolik) natijasida murid o'sha latofatni boshqa shayxga deb xayol qilishi va fayzni o'shandan deb xayol qilishi mumkin. Bu juda katta xatodir.[6] Forobiy fikricha, inson ustoz-

---

[1] Даҳбидий Мусохон. Навадир ал-маориф. Тошкент, ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар асосий фонди, инв. № 542/1. В.46А-46Б.

[2] Ўзбекча таржимаси. Тафсири Ҳилол. 2006. дан олинган.

[3] Даҳбидий Мусохон. Навадир ал-маориф. Тошкент, ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар асосий фонди, инв. № 542/1. В.46А-47Б.

[4] Тафсири Яъқуби Чархий. 68-бет.

[5] Тафсири Яъқуби Чархий. 69-бет.

[6] Даҳбидий Мусохон. Навадир ал-маориф. Тошкент, ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар асосий фонди, инв. № 542/1. В.47А-47Б.

ga muhtojdir. Shunday (ustozga muhtoj) kishilardan ba'zilari biror narsa, hodisa haqida tasavvurlarning (bahsli yoki) soxta ekanligini bilib qolsa, boshqa haqiqatga yaqinroq tasavvur darajasiga ko'tariladilar va ular uchun shu masalada bahsli o'rin qolmaydi. Agar u mana shu tasavvur bilan qanoatlansa, shu tasavvurda qolaveradi. Ammo (qanoatlanmasa) u har gal keyingi tasavvurida ham nuqsonlar borligini sezib qolsa, u yanada yuqoriroq bosqichga ko'tariladi. Mabodo, unga barcha (keyingi) tasavvurlari ham yolg'on ko'rina boshlasa, u haqiqatga yetishishiga yaqinlashadi.[1]

Musoxon Dahbidiyning Abdulxoliq G'ijduvoniy bilan suhbat masalasida umumiylik mavjud. Yana shuki, soliq boshqa jins suhbatidan, imkon boricha, go'yo sherdan qochganday qochar.

Z-ahmoqan big(u) riz chun Iso girext,
Suhbati ahmoq base xunhoki rext.

Mazmuni: Bu harfning ma'nosi shuki, nojins suhbatidan hazar qiling. Chunki odamzod qobil yaratilgan. Kim bilanki o'tirmasin, uning rangini oladi, ya'ni uning ta'siriga beriladi[2].

Xojagon tariqatining piri Abdulxoliq G'ijduvoniy (1103–1179) "pok taqvodor sufiy yuqori mansabdor shaxslar, hokim-u salotin ahli bilan aloqada bo'lmasligi lozim, chunki bunday shaxslar ko'proq mazkur dunyo maqsadu manfaatiga berilib, toat-u ibodatdan, Haq taologa sig'inishdan uzoqlashgan jamoadirlar", deb ta'kidlagan.

Mutasavvif "Sherdan qo'rqqaningdek, sulton odamlaridan Haq yo'lidagilar shunday qo'rqingiz". "Sultonlar bilan birga o'tirmangiz, chunki bu tariqatga e'tiqodingizni susaytiradi",[3] deb hukmdorlar bilan har qanday aloqani rad etadi.

Naqshbandiya tariqatida keltirilishicha, "Bizning tariqatimiz doimiy huzur va ogohlikdir".

Naxust mav'izati piri suhbat in harfst,
Ki az musohibi nojins ehtiroz kuned.[4]

Mazmuni: piri suhbat ma'ruzalarining harfi (so'zlari), shubhasiz, shunday bo'ladi: "Nojins kishi bilan hamsuhbat bo'lishdan hazar qiling".

Maxdumi A'zamning fikricha, odam avlodlarining barchasi, aslida, har qanday bulg'anishliklardan pokiza bo'lgan. Bu dunyodagi nopokliklarga yovuz niyatli safdoshlarining suhbati, xulq-atvori orqali yo'liqqan ekanlar, suhbatdoshlarning eng yomoni, yomon insonlardur.

Musoxon Dahbidiy suhbatni yoqimli ekanligini quyidagicha keltiradi: "Ey aziz, suhbat tariqasida bir yoqimli so'z aytay. Kishi o'z murodotlaridan ba tamom bo'shasa, ko'p murodlarga muttahid bo'lsa, barcha af'ol va avsofidan qo'rqmaydi Hech qanday e'tiroz uning xotiriga xutur qilmaydi. Agar shu qabilda bo'lmasa, suhbatdan neki hosil bo'lsa, sababga e'tiroz qolmaydi.

Mushironi guruh, az zulfi yor boz kuned,
Shabi xushastu badin qissaash daroz kuned.[5]

Mazmuni: Tasavvuf keng ko'lamli ijtimoiy faollikka ega bo'lib, irfon ahlining aksariyati ijtimoiy faol hayot tarzini afzal ko'rishgan, irfoniy suhbatlar uyushtirishgan, odamlarni o'z-o'zi bilan, oilasi bilan, jamiyat bilan, sultonlar bilan murosaga keltirishgan. Musoxon Dahbidiy ustozlarni odobi muridga ta'sir qilishi haqida to'xtalib, "agar pir tarki adab sababli biror shaxsni rad qilsa, unday kishi dunyo va oxiratning mardudi bo'lgay",[6] deb quyidagi fardni keltiradi:

Az adab purnur gashtast in falak,
Va-z adab ma'sumu pok omad malak
Be alab tanho na xudro dosht bad
Balki otash dar hama ofoq zad.
Gah-gahe zin qavmi shumu beadab,
Andarin olam biyaftodi lahab.[7]
Mazmuni:
Adabdan bu dunyo charog'on bo'lgandir.
Adabdan farishtalar ham ma'sum-u pok bo'ldi.

---

[1] Аликулов Ҳ. Абу Наср Форобийнинг ижтимоий-маънавий мероси. Т., "Noshir", 2013, 76-бет.
[2] Мусохон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақāиқ. Т., ФА ШИ, қўлёзма, инв № 6576/I, 38А.
[3] Абдул – Холиқ ал-Ғиждувоний. Васиятнома. Т., Ғафур Ғулом. 1993, 15-бет.
[4] Мусохон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақāиқ. Т., ФА ШИ, қўлёзма, инв № 6576/I, 101Б-102А.
[5] Мусохон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақāиқ. Т., ФА ШИ, қўлёзма, инв № 6576/I, 119А.
[6] Мусохон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақāиқ. Т., ФА ШИ, қўлёзма, инв № 6576/I, 119А.
[7] Мусохон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақāиқ. Т., ФА ШИ, қўлёзма, инв № 6576/I, 119А.

Beadab, faqat o‘zinigina yomonga chiqar maydi,
Balki butun olamga o‘t qo‘yib yuboradi.
Goho bu shum va beadab qavmning kasofatidan bu olamga o‘t tushib turadi.

Demak, ustoz shogirdga nisbatan shafqatli bo‘lishi va ularga o‘z bolalari kabi muomala qilishi, har xil topshiriq bermasligi kerak. Rasululloh (s.a.v.): “Ota o‘z farzandiga qanday bo‘lsa, men ham sizlar uchun shundayman”, deganlar. Bu vazifani ustoz shogirdlarni oxirat azobidan saqlanishi bilan ado etishi mumkin. Mana shu niyat ota-ona farzandini dunë olovidan saqlashidan ko‘ra muhimrokdir. Shuning uchun ustozning haqqi ota-onaning haqqidan ustun qo‘yiladi. Chunki ota vujud va foniy hayotning sababchisi bo‘lsa, ustoz abadiy hayotning sababchisidir.

Xulosa va takliflar. Musoxon Dahbidiy ustoz-shogird masalasini tahlil qilib, naqshbandiya tariqati nomoyandalari g‘oyalaridan misollar keltiradi. “Tariqat mashoyixlari debdurlar: Shayx muridni talqin qilmoqchi bo‘lsa, xilvatga kirsin va o‘zini muridning hafsalasiga munosib holda jam qilsin. Shundan keyingina, muridni talqin qilsin. Yana debdurlarki, Toshkentda bir qalandar darvish bor edi. Bozor bilan ko‘cha orasida nimaiki oldida ko‘rinsa, unga qarab yaqinroq kelib, sekingina: “xudo sizlarni bu musulmonliklardan xalos qilsin”, derdi. Ey aziz, haqiqiy musulmon shunday kishidirki, mosivalloh uning ko‘ngliga mutlaqo yo‘l topa olmasin. Chunonchi, sulton Abusaid Abulxayr (qad ruh) Abu Ali Sinodan nasihat qilishni so‘radilar. Alloma javobda yozdi: “Nega majoziy islomdan voz kechib, haqiqiy islomga qo‘shilmaysan?”[1]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Даҳбидий Мусохон. Навадир ал-Маориф. Тошкент, ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар асосий фонди, инв. № 542/1, В.46А-45Б.
(2). Ўзбекча таржимаси. Тафсири Ҳилол. 2006. дан олинган.
(3). Тафсири Яъқуби Чархий. 68-бет.
(4). Алиқулов Ҳ. Абу Наср Форобийнинг ижтимоий-маънавий мероси. Т., “Noshir”, 2013, 76-бет.
(5). Мусохон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақāиқ. Т., ФА ШИ қўлёзма, инв № 6576/I, 38А.
(6). Абдул-Холиқ ал-Ғиждувоний. Васиятнома. Т., Ғафур Ғулом, 1993, 15-бет.

Karimov Zafarbek Ataboyevich (Urganch davlat Pedagogika instituti “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi dotsenti., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); zafar.karimov.1988@bk.ru)

TA’LIM FALSAFASI VA UNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim falsafasining nazariy va metodologik asoslari, uning tarixiy ildizlari hamda yondashuvlari va amaliyotdagi ahamiyati muhokama qilinadi. Shuningdek, turli falsafiy maktablar va ularning ta’limga munosabati falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim falsafasi, nazariy va metodologik asoslar, antik falsafa (Suqrot, Platon, Arastu), mayyevtika (Suqrot usuli), ideal jamiyat modeli (Platon), aqliy salohiyat, axloqiy tarbiya, sharq falsafasi (Muso Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino), Bayt ul-hikma, Markaziy Osiyo uyg‘onish davri, o‘rta asr ta’limi, Al-G‘azzoliy, Ibn Sino, XX–XXI asr falsafiy yondashuvlari (pragmatizm, ekzistentsializm, postmodern), kasbiy tayyorgarlik, global muammolar va ta’lim.*

Каримов Зафарбек Атабоевич (доцент кафедры “Национальная идея и философия” Ургенчского государственного педагогического института, доктор философии по философским наукам (PhD); zafar.karimov.1988@bk.ru)

ФИЛОСОФИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ЕЕ ТЕОРЕТИКО - МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы философии образования, её исторические корни, подходы и значение в практике. Также проводится философский анализ различных философских школ и их отношения к образованию.*

Ключевые слова: *философия образования, теоретические и методологические основы, античная философия (Сократ, Платон, Аристотель), майевтика (метод Сократа), модель идеального общества (Платон), умственные способности, нравственное воспитание, восточная философия (Мухаммад аль-Хорезми, Аль-Фараби, Бируни, Ибн Сина), Байт аль-Хикма, эпоха Возрождения Центральной Азии, средневековое образование, Аль-Газали, Ибн Сина, философские направления XX–XXI веков (прагматизм, экзистенциализм, постмодерн), профессиональная подготовка, глобальные проблемы и образование.*

[1] Мусохон Даҳбидий. Зубдат ал-ҳақāиқ. Т., ФА ШИ, қўлёзма, инв № 6576/I, 109Б.

Karimov Zafarbek Ataboyevich (Associate Professor of the Department of National Idea and Philosophy of the Urgench State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in the specialty of Philosophical Sciences; zafar.karimov.1988@bk.ru)

EDUCATIONAL PHILOSOPHY AND ITS THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS

Annotation. *This article discusses the theoretical and methodological foundations of the philosophy of education, its historical roots and approaches, and its importance in practice. It also analyzes philosophically different philosophical schools and their approaches to education.*

Keywords: *philosophy of education, theoretical and methodological foundations, ancient philosophy (Socrates, Plato, Aristotle), maieutics (Socratic method), model of ideal society (Plato),* intellectual *abilities, moral education, Eastern philosophy (Muhammad al-Khwarizmi, Al-Farabi, Central Asia, Biruni, Biruni), Renaissance, medieval education, Al-Ghazali, Ibn Sina, philosophical approaches of the 20th-21st centuries (pragmatism, existentialism, postmodernism), professional training, global problems, education.*

Kirish (Introduction). Har qanday rivojlanayotgan davlat o‘zining buyuk kelajagini, avvalo, ta’lim tizimi orqali belgilaydi. Ta’lim – bu faqat bilim berish jarayoni emas, balki barkamol avlodni shakllantirish, unda ma’no, qadriyat, javobgarlik va maqsadli hayot falsafasini yuzaga keltirish vositasi sifatida hizmat qiladi. Bugungi murakkab va tez o‘zgaruvchan dunyoda ta’lim-tarbiya masalalari nafaqat nazariy, balki amaliy zaruratga aylandi. Ta’lim falsafasi bu ta’lim jarayonining mohiyati, maqsadi, usullari va natijalari haqidagi falsafiy fikr yuritish tizimidir. U ta’limning nazariy-amaliy jihatlarini, uning jamiyat va shaxs taraqqiyotidagi o‘rnini chuqur tahlil qiladi. Zamonaviy davrda ta’lim falsafasi nafaqat ta’lim tizimidagi muammolarni hal etishda, balki yangi ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi bir jamiyat a’zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o‘zgarishi barobarida jamiyat tafakkurining o‘zgarishida namoyon bo‘lmoqda 89–92-b.]. Ta’lim falsafasining tarixiy ildizlari qadimgi falsafiy maktablarga borib taqaladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ta’lim falsafasi va uning nazariy va metodologik asoslari mavzusidagi adabiyotlarni tahlil qilish, bu tushunchalarning tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstda qanday rivojlanganini va hozirgi zamon jamiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tushunishga yordam beradi. Antik falsafada (Suqrot, Platon, Arastu): ta’lim – insoniylik va aqliy kamolot vositasi sifatida qaralgan. Platon “Davlat” asarida ideal ta’lim tizimi modelini taklif qilgan. Antik falsafa davrida ta’lim inson tabiati va jamiyat rivoji uchun juda muhim vosita sifatida qaralgan. Bu davr mutafakkirlari ta’lim orqali insonning ruhiy va aqliy salohiyatini yuksaltirish, uni haqiqatni anglashga yetaklash mumkin, deb hisoblashgan.

Suqrot ta’limni inson ongini uyg‘otish jarayoni, deb tushungan. Uning “mayyevtika” deb atalgan usuli – suhbat va savol-javob orqali talabani o‘z bilimini kashf etishga undashdan iborat edi. Unga ko‘ra, haqiqiy bilim inson ichida mavjud, ta’lim esa bu bilimni “tug‘dirish” vositasidir. Shuning uchun Suqrot fikrlash, tanqidiy savol berish va axloqiy ma’naviyatni shakllantirishga alohida ahamiyat bergan [2;416-b.]. Ta’lim falsafasi buyicha birinchi bo‘lib Pifagorlar Ittifoqi, Sokrat maktablari doirasida paydo bo‘lgan. Antik davrda ta’lim falsafasining rivojlanishida ikki ziddiyat kuzatiladi. Ulardan biri ta’limning inkor etgan og‘zaki ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalashga qaratilgan sofistlar faoliyati bo‘lsa, ikkinchisi esa doimiy maktablarni tashkil etishda murakkabliklar bilan belgilanadi. Suqrot Afinadagi uch yillik falsafadan dars beruvchi doimiy maktabni yaratdi. Suqrotning qarashlari dialogga asoslanib, ma’no dialektikasi turli fikrlarda o‘z ifodasini topadi va haqiqatga erishishda turli fikrlarni eshitish zarurligini ko‘rsatib, suhbat Suqrot ta’limining asosi sifatida ko‘riladi. Suqrotcha suhbatlar mohiyati shundan iboratki, u rad qilish orqali suhbatning mohiyatiga yetib boradi. Suhbatdan maqsad mohiyatni birgalikda topish. Suqrot o‘quvchiga o‘zini bilimliligi uchun tepadan qarab emas, balki xech narsani bilmaydigan odam singari munosabatda bo‘ladi. Suqrot o‘zining uslubini “ta’sir qilish san’ati”, deb atagan. Bu usulning o‘ziga xosligi u insondagi eng yaxshi jihatlarini namoyon qilish, ularni rivojlantirish, qayta dunyoga keltirishga yo‘naltirilgan [3;4002–4006-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ta’lim falsafasi va uning nazariy va metodologik asoslari mavzusida olib boriladigan tadqiqotning metodologiyasi, asosan, ijtimoiy fanlar doirasida qo‘llaniladigan turli metodlarni o‘z ichiga oladi.

Platon o‘zining mashhur “Davlat” (Res Publica) asarida ideal jamiyat modelini taqdim etadi. Unda ta’lim markaziy o‘rinda turibdi. Platonga ko‘ra, har bir insonda aqliy salohiyat mavjud, ammo uni rivojlantirish uchun to‘g‘ri va sqichma-bosqich ta’lim zarur. U ta’limni bolalikdan boshlab falsafagacha olib boradigan yo‘l sifatida ko‘radi. Platon ta’lim orqali insonlarni tabiatlariga mos ravishda jamiyatdagi o‘rniga tayyorlashni maqsad qilgan, ya’ni, hokimlar, qo‘riqchilar va ishlab chiqaruvchilar tabaqalari uchun alohida

ta’lim tizimi. Arastu ta’limga amaliy yondashuv bilan qaragan. U inson tabiatiga va maqsadiga mos ta’lim berish zarur, deb ta’kidlagan. Unga ko‘ra, ta’lim nafaqat nazariy bilim berish, balki axloqiy tarbiya, fikrlash qobiliyatini shakllantirish va hayotda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni o‘rgatishi lozim. Arastu ta’limni ikkiga ajratadi: nazariy (falsafa, matematika, tabiat ilmlari) va amaliy (etika, siyosat, iqtisod). U ta’lim orqali inson “aql fazilati”ni, ya’ni hayotni ma’rifiy yo‘l bilan boshqarish qobiliyatini qo‘lga kiritadi, deb hisoblaydi [4; 416-b.].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqotning birinchi bosqichi ta’lim falsafasi va uning nazariy va metodologik asoslarini tahlil qilishdir. Ushbu bosqichda, ayniqsa, tarixiy va zamonaviy falsafiy qarashlar, estetika va axloqiyotga oid adabiyotlar o‘rganildi. Platon, Arestotel, Kant, Shiller kabi faylasuflarning ta’lim falsafasi va uning nazariy asoslari haqidagi qarashlari asosida nazariy tahlil o‘tkazildi. Bu yondashuv yordamida ta’lim falsafasi va uning nazariy va metodologik asoslari va ularning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati aniqlandi.

O‘rta asrlarda ta’lim tizimi, asosan, diniy falsafa ta’sirida shakllangan bo‘lib, bu holat ham Islom, ham Xristian dunyoqarashlarida umumiy tendentsiya bo‘lgan. Ta’lim insonni Allohga yaqinlashtirish, uni ruhiy tarbiyalash va aqlni ilohiy haqiqatni anglashga yetaklash vositasi sifatida qabul qilingan. Bu davrda falsafa, ilm va diniy ilmlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Islom falsafasida ta’lim – insonni ma’rifatga, haqiqatga va Allohga olib boruvchi yo‘l sifatida qaralgan. Qur’on va hadislarda ilmning fazilati haqida ko‘plab dalillar keltirilgan. Qur’onning ilk oyatlaridan biri: *“*O‘qi! Sening Robbing esa eng karim Zotdir – U qalam bilan o‘rgatdi. Insonga bilmagan narsasini o‘rgatdi” [5;96:3–5-b.]. Qur’onda ilmga chaqiriq: Qur’onning ilk oyatlarida ham izohlab beriladi. Bunda, “O‘qi! Sening Robbing esa eng karim Zotdir – U qalam bilan o‘rgatdi. Insonga bilmagan narsasini o‘rgatdi” [6-Сунан, илм бобида].

Falsafiy ta’limning rivojlanishi Sharqda, xususan, Markaziy Osiyoda ilk o‘rta asrlar davrida keng tarqalgan tasavvuf ta’limotidagi komil inson maqomi, nafsni tiyish, bag‘rikenglik, diniy donishmandlik, Muso al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk allomalarning ilmiy va falsafiy qarashlarida o‘z aksini topgan. Ularning fandagi yangi yo‘nalishlari birinchi galda musulmon Sharqi, qolaversa, butun jahon tabiiy-ilmiy va falsafiy tafakkurining ravnaqiga ta’sir o‘tkazib kelgan. Ma’lumki, VIII–IX asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari arab xalifaligi tarkibiga kirgan. Bu davrda xalifalik markazlari – Bag‘dod va Damashqda madaniyat, ilm-fan ravnaq topdi. IX asr boshida Bag‘dodda “Bayt ul-hikma” – “Bilimlar uyi”, Xorazmda esa “Ma’mun akademiyasi” tashkil etildi. Bu dargohda turli shaharlardan taklif qilingan olimlar falsafa va boshqa fanlarni sinchiklab o‘rgandilar. Bu davrda Al-Xorazmiy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk allomalar o‘zlarining falsafa maktablarini yaratganlar. Arab xalifaligining poytaxti Bag‘dodda barpo qilingan “Bayt ul-hikma”ga Muhammad Al-Xorazmiy rahbarlik qilgan. Professor N.A.Shermuhammedova o‘zining “Falsafa” nomli darsligida ular yaratgan asarlar ahamiyatiga ko‘ra o‘sha davrni Markaziy Osiyo uyg‘onish davri deb nomlab, Uyg‘onish davri fani va madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagilardan iborat deb ko‘rsatib o‘tadi:

1. Barcha odamlarni ma’rifatli qilishga intilish, bu yo‘lda o‘tmish merosidan va qo‘shni mamlakatlarning fan, madaniyat yutuqlaridan foydalanish, tabiiy-falsafiy va ijtimoiy fanlarni rivojlantirishi.

2. Tabiatni o‘rganish, tabiiy-ilmiy bilimlarni oqilonalikka tayanib rivojlantirish, aqlning kuchiga ishonish, asosiy e’tiborni haqiqatni bilishga qaratish, haqiqatni inson bilimining negizi deb bilishi.

3. Insonga xos tabiiy, badiiy, ma’naviy fazilatlarni yuksaltirish, insonparvarlikni ulug‘lash, barkamol avlodni tarbiyalashda oliy ma’naviy qonunlarga rioya qilishi.

4. Universalizm – borliq va ijtimoiy hayotning barcha muammolariga qiziqish, bu davr madaniyatining muhim jihatlaridir [7;574-b.].

Al-G‘azzoliy “ta’limni nafaqat bilim olish, balki nafsni tarbiyalash, axloqni poklash, qalbni nurlantirish yo‘li deb hisoblagan”. Uning “Ihyo uluum ad-din” asarida ta’lim va ma’naviyat aloqasi keng yoritilgan. Ibn Sino ilmni Allohning qonuniyatlarini anglash vositasi deb ta’riflaydi. U falsafa va tabiiy ilmlarni, tib va mantiqni ham Ilohiy bilimga yetaklovchi vositalar sifatida ko‘rgan. (Al-G‘azzoliy, Ihyo uluum ad-din (Islomda ta’limning ma’naviy asoslari haqida).

Yangi davr falsafasi (Kant, Gegel): insonning mustaqil ongi, erkinlik va axloqiy tarbiya masalalari ta’lim falsafasining markaziy mavzusiga aylangan.

XX–XXI asrlarda pragmatizm (Dj.Dyui), ekzistensializm (K.Yaspers), strukturalizm va postmodern kabi yo‘nalishlar ta’lim falsafasiga yangi mazmun baxsh etdi. Falsafa oliy ta’limning turli soha va yo‘nalishlarida kasbiy tayyorgarlikda alohida o‘rin egalaydi. Keyin falsafaning vazifasi nafaqat shaxsiy fazilatlarning shakllanishi, balki muayyan sharoitlarda harakat qiladigan “professional – kasbiy tayyorgarlik – kutilmagan kelajak” shartlarini bilishni ham talab etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ushbu tanlovga tayyor bo‘lish yosh kadrlarning qobiliyat darajasi bilan bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim falsafasi bu ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlash tizimidir. Xulosa shuki, ta’lim falsafasi insonni rivojlantirish, uni ma’naviy-axloqiy jihatdan yuksaltirish, jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun zarur bo‘lgan ilmiy va nazariy asoslarni yaratadi. U ta’limning mohiyati, maqsadi, shakli va mazmunini chuqur tahlil etishga yordam beradi. Har qanday ta’lim tizimi muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun uning falsafiy asoslari mustahkam bo‘lishi shart. Zamonaviy dunyoda ta’lim falsafasi global muammolarga javob izlaydi, axborot asrida insonning kamolotini ta’minlashni maqsad qiladi. Shu bois ta’lim falsafasini puxta o‘rganish har bir pedagog va mutaxassis uchun muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Mukhtarov U. Family education instead of personnel immunity of the youth and public health. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2019, T. 9, № 3, c. 89–92.

[2]. Майоров Г.Г. Философия как искание абсолюта: опыты теорет. и ист. М., Едиториал УРСС, 2004, с. 416.

[3]. Mukhtarov U. The historical forms and conceptual peculiarities of philosophical education. International Journal of Scientific & Technology Research. 2020, T. 9, №. 3, c. 4002–4006.

[4]. Майоров Г.Г. Философия как искание абсолюта: опыты теорет. и ист. М., Едиториал УРСС, 2004, с. 416.

[5]. Қуръон Карим. Алақ сураси, 96:3–5.

[6]. Ибн Можа, Сунан, илм бобида.

[7]. Шермухамедова Н.А. Фалсафа. Тошкент, 2010, 574-бет.

Toshpulatov Odil Nodirovich (Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi bo‘lim boshlig‘i)

YOSHLAR AXLOQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH VA AMORALIZMGA QARSHI TURISHDAGI FALSAFIY G‘OYALAR TAHLILI

Annotatsiya. *Ming yillar davomida takomillashib kelayotgan axloqiy munosabatlar xalq amaliyotining natijasidir. Axloq yoshlarning e’tiqod va dunyoqarashi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan tarbiya insoniyat hayotining davomiyigini ta’minlaydigan beqiyos kuchdir. Axloq tamaddunlarning muhim tayanchi bo‘lib hisoblangan. Mazkur maqolada ajdodlarimizning yoshlar axloqiy tarbiyasiga doir muhim nazariy bilimlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *axloq, amoralizm, “Avesto”, zardushtiylik, ezgulik, yovuzlik, adolat, nafs, huquq, jinoyat.*

Тошпулатов Одил Нодирович Начальник отдела Центра исследований развития высшего образования

АНАЛИЗ ФИЛОСОФСКИХ ИДЕЙ В ПОВЫШЕНИИ НРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ И БОРЬБЕ С АМОРАЛИЗМОМ

Аннотация. *Нравственные отношения, совершенствовавшиеся на протяжении тысячелетий, являются результатом народной практики. Нравственность влияет на формирование убеждений и мировоззрения молодых людей. По этой причине образование является ни с чем не сравнимой силой, обеспечивающей непрерывность человеческой жизни. Нравственность считается важным столпом цивилизации. В статье анализируются важные теоретические знания наших предков относительно нравственного воспитания молодежи.*

Ключевые слова: *мораль, аморализм, “Авеста”, зороастризм, добро, зло, справедливость, похоть, закон, преступление.*

Toshpulatov Odil Nodirovich (Head of Department, Center for Research on the Development of Higher Education)

ANALYSIS OF PHILOSOPHICAL IDEAS IN IMPROVING THE MORAL CULTURE OF YOUTH AND COMBATING AMORALISM

Annotation. *Moral attitudes, perfected over thousands of years, are the result of folk practice. Morality influences the formation of beliefs and worldviews of young people. For this reason, education is an incomparable force that ensures the continuity of human life. Morality is considered an important pillar of civilization. The article analyzes the important theoretical knowledge of our ancestors regarding the moral education of youth.*

Keywords: *morality, immorality, “Avesta”, Zoroastrianism, good, evil, justice, lust, law, crime.*

Kirish: Ming yillar davomida takomillashib kelayotgan axloqiy munosabatlar xalq amaliyotining natijasidir. Axloq yoshlarning e'tiqod va dunyoqarashi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan tarbiya insoniyat hayotining davomiyigini ta'minlaydigan beqiyos kuchdir. Axloq tamaddunlarning muhim tayanchi bo'lib hisoblangan.

Insoniyat diniy-falsafiy tafakkuri dastlabki axloqiy qoidalarni mustahkamlagan. Xalqimiz axloqiy madaniyatiga singib ketgan Zardushtiylik dini ta'limoti bu boradagi muhim manbadir. Zardushtiylik ta'limotining asosi bo'lmish ezgulik insonlarni hamisha yaxshilikka chorlab kelgan. Amoralizmga qarshi insonning faoliyati ezgu fikrdan boshlanadi. Yaxshi o'y-fikrlar xushmumalalaikka, shirinso'zlikka chorlaydi. Ezgu so'zlar insonni chiroyli amallar tomon yetaklaydi. "Avesto"da ilgari surilgan ushbu yuksak axloqiy g'oya mohiyatida quyidagi dialektik tamoyillar aks etgan:

birinchidan, dunyo asosini Axura Mazda yaratgan va uning bunyodkorlik tamoyiliga tobe tanali (moddiy) va ruhiy (ideal) mavjudot tashkil etadi. Bu tamoyil pirovardida Axura Mazda g'oyalarining g'alabasini taqozo etadi;

ikkinchidan, bu g'alaba bunyodkorlik va buzg'unchilik g'oyalarini ifodalovchi ikki qarama-qarshi ruhlarning kurashi (dialektika) orqali erishiladi;

uchinchidan, bu kurash muayyan vaqt va makonda (vaqt va makon haqidagi tasavvur) sodir bo'lib, axloqiy tamoyil – "ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" (etika)ning g'alabasi bilan yakunlanadi" [1;218-b.].

Tadqiqot obyekti va qo'llaniladigan metodlar. "Avesto" ta'limotiga binoan, fazilatlar va illatlar insonning ichki – botiniy borlig'ida yashaydi. Inson o'zidagi mavjud fazilatlari asosida yashab, Axura Mazda tomonida bo'lishi yoki illatlarini (amoralistik xohish-istaklarini) namoyon qilib, Axrimanni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Bu inson hayot faoliyatiga bog'liq. Kishi qaysi tomonga ergashishini erkin hal qiladi. Zardushtiylik ta'limotiga binoan biosfera o'z yakuniga yetadi. Shunda barcha insonlar hayoti davomidagi fikrlari, qilmishlariga yarashasini oladi. Dunyodagi yovuzlik butunlay yo'qlikka aylanadi. Kimki yaxshilik tomonda bo'lsa, Axura Mazda mukofotiga erishadi. Yomonlar esa Axriman singari jazosini oladi. "Shuning uchun Axura Mazda Buyuk qiyomat kuniga ezguliklar bilan kelishni tavsiya etadi, buning uchun ajr, mukofot tayinligini bildiradi" [2]. Axura Mazda insonni axloqiy kamolotga yetaklasa, Axriman ma'naviy tubanlikka chorlaydi. Bu tortishuv inson umrining oxrigacha davom etib, o'lim bilan yakun topadi. Maqolada tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, germenevtik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar. Zardushtiylik dini mohiyatida barcha insonlarning Axura Mazda oldida teng ekanligi g'oyasi ilgari suriladi. Zardusht jamiyatdagi tabaqalanishga, boylik to'plashga qarshi turadi. E'tiqod qiluvchi barchaga birday munosib bo'lgan farovon hayotda yashashni oliy maqsad qilib qo'yadi. Zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan o'z izdoshlariga dunyo halovatlaridan, lazzat va farovonlikdan voz kechishni, riyozat chekib yashashni tavsiya etmaydi, aksincha, shod-u xurramlik bilan, o'ynab-kulib, ko'ngil ochib yashash lozimligini uqtiradi. "Avesto"da Zardusht Axura Mazda qizi Oshaga hamd-u sano o'qiydi va uni ezgulik, yaxshilik, baxt, shodlik, boylik, halovat, farovonlik, tinchlik, osoyishtalik ilohasi sifatida olqishlaydi. Ammo amoralistik ishlar bilan badnom bo'lib yurgan buzg'unchi Drugvand (aldoqchi, kazzob) qishloq va o'lka eli hayotini yaxshilik tomonga o'zgartirmoqchi bo'lgan o'sha tarafdorlarini yo'ldan ozdirmoqchi bo'ladi. Drugvandga qarshi butun dil-u joni va kuchi bilan olishgan kishigina jahon ahlini ezgulik yo'liga boshlay olur" [3].

Avestoda talqin etilishicha, zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan har bir inson amoralizmga berilib zulmat ichida sargardon bo'lmasligi uchun rostlik va haqiqat chirog'ini qalbida yoqmog'i kerak, o'shandagina kishi komil inson bo'lib yetishishi mumkin. Shuning uchun bo'lsa kerakki, Zardusht o'z izdoshlarini rostgo'ylik va haqiqatparastlikka da'vat etadi.

Zardushtiylik ta'limoti o'z davri va necha asrlar davomida qonunvazifasini o'tagan. Unda jamiyat a'zolarining individual munosabatlariga alohida urg'u berilgan. Gigiyenik jihatdan muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Atrofga zarar yetkazmaslik, daraxtlar ekish, suvning ahamiyatiga doir muhim topshiriqlarni guvohi bo'lamiz. Suvning umumiyligi va uning ifloslanishi oerali biosferaga zarar yetishi ta'kidlanadi. Insonlarni mehnatga chorlaydi. Kimgadir tegishli unumdor yerlar bo'sh qolsa, unga qaralmasa, devlar u joyda qo'nim topadi. Mehnat tarbiyasi orqali kishi yomon illatlardan uzoqlashadi [4]. Tartiblilik "Avesto"ning asosiy g'oyasi hisoblanadi va har bir ishda me'yor bo'lishi talab qilinadi.

Umuman, insonlar axloqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi zardushtiylik ta'limoti va muqaddas "Avesto" kitobi xalqimizda jasorat-u mardonalik, ertangi kun umidi bilan yashash, ezgulikka moyillik va unga hamisha shay turish tuyg'ularini tarbiyalashga, amoralistik harakatlardan tiyilish, yovuzlikka nisbatan nafrat hissini uyg'otishga xizmat qiladi.

Hindiston falsafiy maktablaridan Charvakalarning odob-axloqqa oid qarashlari e'tiborga loyiq. Ular go'zal hayotni, axloqiy kamolotni targ'ib qiladilar. Insonning kamroq azob-uqubatlar chekib, ko'proq rohat-farog'atda yashashni orzu qilishi, tabiiydir. Buning uchun esa u mehnat qilishi, ilm-fan yutuqlari bilan oshno bo'lishi lozim. Chorvaklar ta'limotida mehnat ulug'langan. Halol mehnat insonda axloqiy sifatlarni shakllantiradi. Demak, kasb etikasi chorvaklar asosiy tarbiyaviy sifatidir. Odob-axloq – inson ko'rki. U tufayli odamlar bir-biriga do'st, hamkor bo'ladilar. Baxt-saodatga erishish inson oliy maqsadidir. Unga oqilona tadbir va amal orqali yetishiladi.

Shu bilan birga, qadimgi Hindistonda jismoniy va ruhiy tarbiyaga e'tibor qaratgan "Yoga sutra" alohida ahamiyatga ega. Xotirjamlik va bosiqlik barcha qiyinchiliklarni yengib o'tish omilidir. Bunda insonni har qanday vaziyatda o'zini tuta bilish o'rgatilgan. Insonlarni e'zozlash, har qanday tirik tabiat obyektlariga zarar yetkazmaslik lozim. Yogada nafaqat ruhiy sog'lomlik, qolaversa, gigiyenik ozodalikka alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu ta'limotga ko'ra, har qanday amoraliktik harakatlar xohish-istaklar quliga aylanish oqibatida kelib chiqadi. Inson o'z nafsidan voz kechib, qiyinchiliklarga bardoshli bo'lishi lozim. Bu bilan har qanday amoralistik harakatlardan tiyilib, jamiyatda begonalashishning oldini oladi.

E'tibor qiladigan bo'lsak, amoralizm va immoralizm aynan insoniyatning moddiy boylikka ruju qo'yishi va ochko'zligi asnosida kelib chiqadi. Insoniyatning tabaqalanishi bilan amoralistik harakatlar kuchaya boshlagan. Bugungi kunda ham ba'zilar moddiy boyligi ko'p insonlarni "baxtli" deb hisoblashadi. Moddiy boyligi ko'plar (uni qanday yo'l bilan topganidan qat'iy nazar) ko'klarga ko'tarilib maqtaladi va yoshlarga namuna qilib ko'rsatiladi. Buning asnosida, voyaga yetayotgan yoshlar qanday qilib bo'lmasin, boyish ilinjida amoralistik harakatlardan to'xtamaydilar. Vaholanki, muqaddas Islom dinimizda ham ehtiyojidan ortib boylik to'plashdan qaytarilgan. Shunday ekan, yoshlarning hashamatli hayotga bo'lgan xohish-istak asosida tarbiyalamaslik amoralistik va immoralistik harakatlardan tiyilishga olib keladi.

Qadimgi xitoyliklarning boshqa xalqlardan ajralib turadigan muhim tomoni – ular tabiatdagi barcha jismlarni jonlantirishlarida va ajdodlar ruhining bugungi kun hamda kelajakka ta'sir o'tkaza olish darajasida ulug'lashlarida ko'rinadi. Qadimgi xitoyliklar diniy-mifologik tafakkuriga ko'ra, o'tgan ajdodlarining ruhi insonlar orasida kezib yuradi. Ularga hurmat bajo keltirish, yordam so'rash lozim. Chunki ruhlar kelajakning sirli pardasini ochib beradi, odamlar xulq-atvori va faoliyatiga qattiq ta'sir etadi.

Xitoy xalqi madaniyatiga xos axloqiy fazilatlar jamiyat a'zolarining o'zaro hamohang munosabatlari asosida shakllanadi. Qadimgi Xitoy xalqi turmushidagi axloqiy munosabatlarni uyg'unlashtirgan Konfutsiy ta'limotida o'zaro hurmat yetakchi o'rin egallagan. Mazkur ta'limot tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Butun Xitoy xalqi sivilizatsiyasi mazkur ta'limot asosida qurilgan. Konfutsiylik g'oyalari Xitoy orqali sharq xalqlari ijtimoiy munosabatlariga ta'sir ko'rsatganligini aytishimiz mumkin. "Masalan, syao yoki ota-onani hurmat qilish, kattalarga izzat-ikrom ko'rsatish konsepsiyasi yosh jihatidan ham, ijtimoiy iyerarxiya bo'yicha ham kattalarga nisbatan o'z xulq-atvorini barcha fazilatlar mohiyatini anglab yetish asosida yo'lga qo'yishni taklif qiladi" [5]. Xitoy falsafiy ma'naviyati xilma-xil bo'lishiga qaramasdan, mohiyatan ichki barqarorlikni, bir-biriga bog'lanib ketishni tashkil etadi. Oqibatda, Xitoylarga xos fikr yuritish usulining ustunligi to'g'risida fikr shakllanib, o'zga falsafiy qarashlarga nisbatan betoqatlik hissiyoti yuzaga keladi. Eramizdan oldingi asrlarda bitilgan "Tartib kitobi"da ajdodlar o'gitlari kelajak avlod uchun etalon sifatida ko'rsatiladi.

Konfutsiy tomonidan bayon etilgan kitoblarning asosiy mazmuni beshta oddiy, lekin buyuk insoniy fazilatdan iboratdir. Ushbu besh fazilat kishini yuksaklikka chorlaydi. Bulardan birinchisi–donolik. Bunga o'qish-o'rganish orqali erishiladi. Ikkinchisi–insoniylik. Yoshlarni tarbiyalash asosida shakllantiriladi. Keyingisi–keksalarni hurmat qilish. Ulardagi hayotiy tajribalar muhim hisoblangan. Jasorat va sadoqat. Namuna bo'lish orqali rivojlantiriladi. Bu axloqiy qoidalar bo'lib, amaliy dastur vazifasini bajargan. Bu vijdoniylik va o'zini hamda o'zgalarni hurmat qilishni bildiradi. Donolik – kishi bajarayotgan har bir faoliyatini mavjud me'yorlar tarozusida o'lchab bajarishida bilinadi. Insoniylik – xatti-harakatlarimiz natijasi bashariyat avlodi manfaatlariga qaratilmog'i lozim. Sadoqat – ishonch bildirgan yaqinlariga xiyonat qilmaslik. Keksalarni hurmat qilish – ularning hayot tajribalariga ishonch bildirish. Jasorat – jamoa manfaati uchun o'z huzur-halovatidan kechish. Lekin bunday talablarni amalga oshirishga yuksak ma'naviyatli, xos kishilargina qodirdirlar. Konfutsiyning fikricha, qayd etilgan qoidalarni o'rinsiz kengaytirish maqsadga muvofiq emas.

Xulosa. Qadimgi Sharq xalqlari diniy-falsafiy tafakkuriga ko'ra, amoralizm va shaxsiy manfaatdorlik inson tabiatiga xosdir. Faqatgina ba'zilar olgan tarbiyasiga ergashib, amoralizm xususiyatlarini yashirib turadi. Ba'zilar uni ochiq namoyon qiladi. Amoralistlar hamisha umum tomonidan turli ko'rinishda taqibga

uchragan. Eng keng tarqalgan usul ijtimoiy munosabatlardan chetlashtirsh ko‘rinishida uchraydi. Shu sababdan Sharqda doimo amoralistik muammolarning oldini olish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etgan.

G‘arbda ham xuddi shunday insonlar axloqiy madaniyatini yuksaltirish, g‘ayriaxloqiy (amoralistik) harakatlardan tiyilish, bunda tarbiya mezonlari barcha faylasuf-olimlar ilmiy merosida o‘z aksini topgan. G‘arbning buyuk faylasufi Aflotun insonlardagi mavjud axloqiy fazilatlarni tug‘ma deb hisoblaydi va tarbiya orqali ularni rivojlantirish mumkinligini ta’kidlaydi. Agar tarbiya noto‘g‘ri bo‘lsa, yoshlardagi axloqiy fazilatlarning o‘rniga amoralistik illatlar paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Г.Т.Маҳмудова, М.М.Исҳоқов ва бошқалар. Зардуштийлик хрестоматияси. Тошкент, “Mumtoz so‘z”, 2017. 218-бет.

(2). Маҳмудова Г.Т. “Авеста” ва зардуштийлик онтологиясининг диний-фалсафий моҳияти. «Новости образования: исследование в XXI веке». Международный научный журнал, № 5 (100), часть 1, декабрь, 2022, с. 131.

(3). “Авесто” (Асқар Маҳкам таржимаси). Тошкент, “Гулистон”, 1991, 206-бет.

(4). М.Умарзода. “Ависто” сирлари. “Жаҳон адабиети”, 1997, 197-бет.

(5). Шермухаммедова Н. Фалсафа. Тошкент, 2009, 47 бет.

(6). Комилов Р.Р. (2020). Ислом динининг ўзбек халқи никоҳ муносабатлари ахлоқий-эстетик моҳиятида намоён бўлиши. Of socio-cultural environment, 41.

(7). Комилов Р.Р. (2020). Ўзбек халқи никоҳ муносабатлари генезисининг ахлоқий-эстетик ривожланиш хусусиятлари. Интернаука, 15(144, часть 2), 95.

(8). Komilov R.R. (2018). The aesthetec and moral sides of the family and wedding ceremonies. In international scientific review of the problems of philisophy, psychology and pedagogy (pp. 10–14).

(9). Komilov R.R. (2017). The aesthetic significance of the uzbek nation's wedding ceremonies evolution. In practice of communicative behavior in social and humanitarian researches (pp. 47–50).

(10). Komilov, R.R. (2017). Aesthetic component of wedding ceremonies of the uzbek people. Theoretical & Applied Science, (4), p. 87–89.

Ergashev Humoyun Samad o‘g‘li (O‘zMU tayanch doktoranti; E-mail:ergashevhumoyun@gmail.com)

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR MA’NAVIY DUNYOQARASHIDAGI O‘ZGARISHLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada globallashuv jarayonining yoshlar ma’naviy dunyoqarashi, qadriyatlari va axloqiy pozitsiyalariga ko‘rsatayotgan ta’siri tahlil qilinadi. Globallashuv nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki madaniy-ma’naviy maydonda ham chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘layotgani, ayniqsa, yosh avlod ongida g‘arbona stereotiplar, individualizm va iste’molchilik ruhiyati kuchayib borayotgani ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqotda milliy ma’naviyatni saqlab qolish, madaniy identitetni mustahkamlash, yoshlarni tanqidiy fikrlashga, axborot tanlash madaniyatiga o‘rgatish kabi masalalar yoritiladi.*

Kalit so‘zlar*: globallashuv, yoshlar, ma’naviyat, dunyoqarash, madaniy identitet, axborot maydoni, ma’naviy immunitet.*

ИЗМЕНЕНИЯ В ДУХОВНОМ МИРОВОЗЗРЕНИИ МОЛОДЕЖИ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация. *В данной статье анализируется влияние процессов глобализации на духовный мир молодежи, их ценностные ориентиры и нравственные позиции. Показано, что глобализация вызывает глубокие изменения не только в экономической и политической, но и в культурно-духовной сферах, особенно в сознании молодежи, где усиливаются западные стереотипы, индивидуализм и потребительские настроения. В исследовании рассматриваются вопросы сохранения национальной духовности, укрепления культурной идентичности, формирования у молодежи критического мышления и культуры выбора информации.*

Ключевые слова*: глобализация, молодежь, духовность, мировоззрение, культурная идентичность, информационное пространство, духовный иммунитет.*

CHANGES IN THE SPIRITUAL WORLDVIEW OF YOUTH IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

Annotation. *This article analyzes the impact of globalization on the spiritual worldview, values, and moral positions of youth. It highlights that globalization leads to profound changes not only in the economic and political spheres but also in the cultural and spiritual domains, particularly by strengthening Western stereotypes, individualism, and consumerist attitudes in the minds of young people. The study addresses*

issues such as preserving national spirituality, strengthening cultural identity, developing critical thinking among youth, and cultivating information literacy.

Keywords*: globalization, youth, spirituality, worldview, cultural identity, information space, spiritual immunity.*

Kirish. Mamlakatimizda istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Yoshlarni ma'nan yetuk, jismonan barkamol, axloqan pok, yuksak intellektual, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini qadrlovchi, buyuk ajdodlarimizni o'ziga ibrat deb biluvchi, elim-yurtim deb yonuvchi, shijoatli, tadbirkor, adolatli qaror chiqara oladigan, tevarak-atrofidagi voqea-hodisalar haqida mustaqil fikrlaydigan, o'z haq-huquqini biladigan vatanparvar inson sifatida tarbiyalash eng dolzarb vazifalarimizdandir.

XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida yuzaga kelgan global vaziyat zamonaviy geosiyosiy muhitning murakkab va ziddiyatli tus olganligi bilan ajralib turadi. Davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlar tobora murakkablashib, butun dunyo miqyosida globallashuv jarayonlari chuqur va tez sur'atlar bilan kengayib bormoqda. Bu esa insoniyat hayotiga, uning madaniy-ma'naviy hayot tarziga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, globallashuvning mafkuraviy oqibatlari, yosh avlod dunyoqarashiga ta'sir etuvchi tashqi omillar ta'lim tizimidan yangicha yondashuvni, strategik islohotlarni talab qilmoqda. Bugungi kunda pedagoglarning moddiy va ma'naviy holatini yaxshilash, ta'limda sifat o'sishini ta'minlash maqsadida ilg'or xorijiy tajriba, innovatsion texnologiyalar joriy etilmoqda. Shuningdek, ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi hamda uzluksizligi tamoyili asosida milliy tarbiya tizimini yangilash dolzarb masalaga aylangan.

Ta'lim – bilim va tafakkurga asoslangan, raqobatbardosh shaxsni shakllantirish vositasi bo'lsa, tarbiya irodali, vatanparvar, fidoyi, ma'naviy barkamol avlodni kamol toptirishning strategik negizidir. Bu ikki soha o'zaro komplementar xarakterga ega bo'lib, ularni zamonaviy ilmiy-falsafiy konsepsiyalar asosida takomillashtirish O'zbekistonning kelajagini barpo etishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli yoshlar tarbiyasi va ta'limini yangi milliy g'oya asosida, ilmiy-texnologik hamda zamonaviy-ma'naviy tamoyillar uyg'unligida isloh etish zaruriyati tobora kuchayib bormoqda. Bu esa davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

XXI asrning ezguliklar asri sifatida kishilik tarixida qolishi ko'p jihatdan bugungi kunda maktablar bag'rida ta'lim-tarbiya olayotgan yosh avlodning ma'naviy qiyofasiga bog'liqdir. A'zolari ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lgan jamiyatgina taraqqiyot sari talpinadi. Bunday jamiyatda shaxsning aqliy-intellektual salohiyati va ma'naviy- axloqiy fazilatlari farovon hayotni ta'minlash ustuvor bo'ladi. Xuddi mana shunday bilimdon va ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishdek ulkan maqsad uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'yilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy globallashuv sharoiti ijtimoiy hayotning barcha sohalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, yosh avlod bu jarayonning bevosita subyektlaridan biri sifatida alohida e'tiborni talab qiladi. Bu holat, bir tomondan, tabiiy jarayon bo'lib, axborot texnologiyalarining jadal taraqqiyoti tufayli talaba-yoshlar zamonaviy kommunikatsion muhit orqali global axborot makonining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Biroq bu jarayonning muhim jihatlaridan biri shundaki, har bir individning ma'naviy-madaniy immuniteti**,** qadriyatlarga nisbatan ongli yondashuvi va tanqidiy fikrlash qobiliyati turlicha shakllanmoqda.

Milliy qadriyatlarimizga zid g'oya va xatti-harakatlarning yoshlar ongiga singdirilishi bu zamonaviy davrning ijtimoiy-falsafiy muammolaridan biridir. Mazkur xavflarning oldini olishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, fikr almashuvlar, muntazam uchrashuvlar va suhbatlar muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Quyida ushbu jarayonni murakkablashtirayotgan asosiy omillar falsafiy tahlilga tortiladi:

1. Globallashuvning ma'naviy muhitga bo'lgan ta'siri. Bugungi globallashuv – bu faqat iqtisodiy yoki siyosiy integratsiya emas, balki axloqiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan bosim shaklida ham namoyon bo'lmoqda.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining mafkuraviy qurolga aylanishi. Zamonaviy informatsion vositalar bu shunchaki texnik vosita emas, balki mafkuraviy va ideologik ta'sir o'tkazuvchi kuchli vositadir.

3. Globallashuvning ijobiy va salbiy dialektikasi. Zamonaviy siyosiy kuchlar globallashuvni o'z strategik manfaatlari yo'lida mafkuraviy vositaga aylantirgan.

4. Yoshlarning ma’naviy barqarorligini ta’minlash zarurati. G‘oyaviy qarama-qarshiliklar kuchaygan hozirgi davrda yoshlarning ongini ma’rifatga asoslangan tafakkur asosida shakllantirish muhim vazifadir.

5. Fuqarolik jamiyati institutlarining roli. Oila, mahalla, ta’lim-tarbiya tizimi hamda ommaviy axborot vositalari bugungi ijtimoiy-falsafiy muhitda g‘oyaviy-mafkuraviy barqarorlikni ta’minlovchi muhim institutsional mexanizmlardir**.**

Mahalla qo‘mitalari, yoshlar tashkilotlari, kasaba uyushmalari, ijodkorlar va maorif xodimlari kabilarning faoliyatlarida milliy g‘oyaning targ‘iboti va tashviqoti orqali ham yoshlar ma’naviyatini shakllanishida yetakchi o‘rin egallaydi. Ma’naviyatni rivojlanishi jamiyatning barcha a’zolariga, jumladan, yoshlarga ham taalluqlidir. Ularning barcha jabhadagi jarayonlarda va jamoat ishlarida faol ishtirokisiz milliy istiqlol g‘oyasining hayotga tatbiq etib bo‘lmaydi. Bunda yoshlarning madaniyati, muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Milliy-ma’naviy qadriyatlar yoshlik ongi va tafakkurining yadro komponentidir. Agar yoshlar ongida bu qadriyatlar chuqur o‘rnatilmasa, ular bo‘shlig‘ini begona g‘oya va qarashlar egallashi muqarrar. Bu esa, o‘z navbatida, ma’naviy indifferentlik, ya’ni, milliy merosga bepisandlik, tarixiy xotiraga loqaydlik va madaniy o‘zlikdan yiroqlashishga olib keladi. Shunday salbiy jarayonlarning oldini olish uchun, avvalo, yoshlarning ongi va qalbida bu zaminni dunyoga tanitgan buyuk mutafakkirlar, olimlar, sarkardalar, davlat arboblari, shuningdek, ilmiy va badiiy meros yaratgan ajdodlar haqida chuqur tushuncha hosil qilish lozim.

O‘zbekiston hududi Sharq sivilizatsiyasining beshiklaridan biri sifatida insoniyat tafakkurining beqiyos yutuqlarini bergan. Bu yurt tarixida tosh bitiklardan tortib, qo‘lyozma manbalar, xalq og‘zaki ijodi namunalari va boshqa ko‘plab ma’naviy boyliklar saqlanib qolgan. Bu boy meros tarixiy xotira, ilmiy tafakkur va san’atga asoslangan milliy o‘zlikning konstituentidir. Uni yoshlar ongiga singdirish ma’naviy barqarorlikning eng muhim shartidir.

Bugungi davrning haqiqatiga ko‘ra, intelektual salohiyat va ma’naviy kapitalga ega bo‘lgan jamiyatlargina o‘z istiqbolini ta’minlay oladi. Shu sababli yosh avlodni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash bilan birga, umuminsoniy taraqqiyotning yutuqlari va zamonaviy fan-texnika bilimlarini mukammal o‘zlashtirishga imkon beruvchi zamonaviy shart-sharoitlarni yaratish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Jamiyat hayotining modernizatsiyalashuvi sharoitida quyidagi strategik ma’naviy-mafkuraviy vazifalarni amalga oshirish zarur:

1. Yoshlarni islohotlar va yangilanish jarayonining faol subyektiga aylantirish.
2. Jamiyatdagi xilma-xil fikr va ijtimoiy qatlamlar manfaatini uyg‘unlashtiruvchi g‘oyaviy platformani shakllantirish.
3. Islom dinining gumanistik mohiyatini jamiyat ongiga chuqur singdirish.
4. Milliy axborot makonini shakllantirish. Bu yo‘nalishda raqobatbardosh va zamonaviy teleko‘rsatuvlar, badiiy va hujjatli filmlar, seriallar hamda yoshlar uchun mos axborot resurslari tayyorlash orqali milliy g‘oyalarni ommaga singdirish zarur.
5. Ilmiy va innovatsion yondashuvni targ‘ib qilish. Jamiyatda ma’naviyatni takomillashtirishning imkoniyatlari va istiqbollariga doir ilmiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, qonun ustuvorligini ta’minlash va normativ-huquqiy asoslarni mustahkamlash orqali ma’naviy muvozanatga erishiladi.

Ma’naviy meros zamonlar o‘tishi bilan o‘z qadrini yo‘qotmaydi, balki sifat jihatdan yangi ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy meros kishilar ongiga, ichki dunyosiga, his-tuyg‘usiga ta’sir etib, ular ongini boyitadi, axloq-odobini ezgulik sari yetaklaydi. XXI asrning mafkuraviy-ma’naviy manzarasi shunday xulosaga olib keladiki, zamonaviy davlatning barqarorligi, ijtimoiy salohiyati va sivilizatsion taraqqiyoti, avvalo, uning fuqarolarining intellektual saviyasi, ma’naviy pokligi hamda milliy g‘oyani anglash darajasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Talaba-yoshlarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarga nisbatan ko‘nikma va malaka shakllantiriladi. Endi bu bosqichda talabalar o‘rtasida o‘zini-o‘zi boshqarish tizimi joriy etiladi hamda ma’lum bir “ixtiyoriy-majburiy” usullardan xoli tarzda, o‘zi xohlagan holda, o‘zini ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga yo‘naltiradi. “Tengdoshdan–tengdoshga” tamoyili asosida ma’naviy-ma’rifiy ishlar tashkil etiladi. Buning uchun har bir talabaning to‘garaklarda, o‘tkazilayotgan tadbirlarda, o‘quv mashg‘ulotida, sayohatlarda, munozara-debatlarda, seminar-treninglarda o‘z o‘rni va mas’ulyati borligini anglatish kerak bo‘ladi. Ushbu bosqichda talabaning o‘zining mustaqil dunyoqarashlari asosida tadbirlar tashkil etishiga, unda ishtirok etishiga, yetarli rag‘bat olishiga, keyingi faoliyatidagi amaliy ahamiyatiga, tajribasiga keng imkoniyat yaratiladi.

Mutaxassislik fanlari tanlagan kasblari orqali tarbiyaviy jarayonlar singdirib boriladi. Bunda yuqori tajribaga ega malakali mutaxassislarga talabalar biriktiriladi va ularning ish uslubi o‘rgatiladi. Ularning ish

uslubini o‘rganish bilan birga, ulardagi axloqiy jihatlar, eng yaxshi qadriyatlar singdirib boriladi. Buning natijasida talaba o‘zida yetuk mutaxassislik pozitsiyasi bilan birga, ma’naviy yetuklik sifatlarini mujassamlashtirib boradi. Shuningdek, amaliyotlarni va amaliy mashg‘ulotlarni tegishli muassasalarda o‘tash bilan yoshlarning ma’naviyati shakllantiriladi. Endi talabalarning o‘zlarini mehnatga jalb etiladi (o‘zi dars o‘tadi, o‘zi yoshlarni tarbiyalaydi va boshqa muassasalarda o‘zi faoliyat olib borishiga yo‘naltiriladi). Ular, fan sohasida yuqori natijalarga erishgan olimlar bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish orqali ijodiy faoliyatga yo‘naltiriladi.

Xulosa va takliflar. Mavzunining ustida ishlash jarayonida quyidagicha ilmiy-nazariy fikr-mulohazalar tahlil qilib o‘rganildi. Mafkuraviy tahdidlarning hozirgi vaqtda nihoyatda keng qamrovli tus olganligi va jamiyatning barcha sohalari: siyosiy, ijtimoiy, madaniy, ta’lim-tarbiyaviy, iqtisodiy sohalariga mafkuraviy immunitet g‘oyasining mantiqiy rivoji sifatida shakllantirish vazifalari tabiiy ravishda kelib chiqmoqda. Chunki mafkuraviy immunitet jamiyat hayotining barcha jihatlarini bekam-ko‘st qamrab oladi. Mamlakatimiz xavfsizligini yanada mustahkamlash yo‘lida jamiyatimiz imkoniyatlarini to‘liq safarbar qilish uchun keng sharoitlar yaratadi. Ta’lim-tarbiya, mahrifat, madaniyat, siyosiy ong va siyosiy madaniyat kabi jamiyat taraqqyotining yetakchi omillari mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayonida asosiy o‘zak vazifasini bajaradi.

Tahdid har qanday muammoning rivojlanib, ziddiyat va mojaroga aylanib, yanada keskinlashib, umuminsoniy taraqqiyotga g‘ov bo‘luvchi salbiy fenomendir. Tahdid kishilik jamiyatining ilk davridan boshlab insoniyatga doimiy xavf sifatida jamiyatning barqaror rivojiga to‘sqinlik qilishga intilib, jamiyat a’zolarini hushyorlikka chorlab kelgan.

Globallashuv ziddiyatlari hosilasi sifatida ichki tahdidlarga nisbatan tashqi tahdidlar ehtimoli, soni hamda ko‘lami kengayib ketayotganligi hamda mavjud tashqi tahdidlarning ichki tahdidlarnida vujudga keltirish ehtimolining ustunligi Vatan sarhadlarini mustahkamlash, avaylash va asrashdek mashuliyatli vazifasini har birimizning zimmamizga yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 1-iyul.

(2). Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish – barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir. T., “O‘zbekiston”, 2007, 10-bet.

(3). Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T., O‘zbekiston, 2021, 375-bet.

(4). Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.URL–http://uza.uz/oz/politics/onun-ustuvorligi-va-insonmanfaatlarini-taminlashyurt-tara-07-12-2016

(5). https://www.mana.uz/quote/2102

Qodirov Fazliddin Yuldoshovich (QarDU “Falsafa va sotsiologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD); Fazliddin3210@umail.uz)

TARBIYA SHAKLLARINING FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Maqolada shaxs fuqarolik madaniyatini shakllantiruvchi tarbiya shakllari tahlil qilingan. Jumladan, shaxs fuqarolik madaniyatini shakllantiruvchi tarbiya shakllarining tarkibiy qismlari va muhim aspektlariga aniqlik kiritilgan. Xususan, ijtimoiy tarbiyaning siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, mehnat va ekologik shakllari atroflicha o‘rganilib, mazkur tarkibiy elementlar kompleks tarzda shaxs fuqarolik madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynashi ko’rsatib berilgan. Shuningdek, jamiyat a’zolarini fuqaro sifatida kamol toptirish, ularni jamiyatni isloh qilish hamda rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritish bilan bog‘liq vazifalari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *tarbiya shakllari, shaxs fuqarolik madaniyati, ijtimoiy tarbiya, siyosiy tarbiya, huquqiy tarbiya, axloqiy tarbiya, diniy tarbiya, estetik tarbiya, mehnat tarbiya, ekologik tarbiya, Vatan manfaati.*

Кадыров Фазлиддин Юлдошович (старший преподаватель кафедры философии и социологии КарГУ (PhD)

РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ФОРМ В ФОРМИРОВАНИИ ГРАЖДАНСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *В статье анализируются формы воспитания, формирующие гражданскую культуру личности. В частности, раскрываются компоненты и важные аспекты образовательных форм, формирующих гражданскую культуру личности. В частности, подробно исследуются политические, правовые, нравственные, религиозные, эстетические, трудовые, экологические фор-*

мы социального воспитания и показывается, что эти структурные элементы играют важную роль в комплексном формировании гражданской культуры личности. В нем также раскрываются задачи развития членов общества как граждан, реформирования общества и вывода их в ряды развитых стран.

Ключевые слова: *формы воспитания, гражданская культура личности, социальное воспитание, политическое воспитание, правовое воспитание, нравственное воспитание, религиозное воспитание, эстетическое воспитание, трудовое воспитание, экологическое воспитание, интересы Родины.*

Kadirov Fazliddin Yuldoshovich (senior teacher of the Department of Philosophy and Sociology of KarSU (PhD)

THE ROLE OF EDUCATIONAL FORMS IN THE FORMATION OF CIVIC CULTURE

Annotation. *The article analyzes the forms of education that form the culture of individual citizenship. In particular, the components and important aspects of the forms of education that form the culture of individual citizenship are clarified. In particular, the political, legal, moral, religious, aesthetic, labor and ecological forms of social education are studied in detail, and it is shown that these structural elements play an important role in the complex formation of the culture of individual citizenship. Also, the tasks related to the development of members of society as citizens, the reform of society and their inclusion in the ranks of developed countries are revealed.*

Key words: *Forms of education, personal civic culture, social education, political education, legal education, moral education, religious education, aesthetic education, labor education, ecological education, the interests of the Motherland*.

Kirish. Fuqarolik madaniyati bir marta shakllanib, keyin umr mobaynida o‘zgarmaydigan fenomen emas. U tarbiya shakllari ta’sirida o‘zgarib, goho takomil topib, goho esa zaiflashib boradi. Mazkur omillar o‘z turli-tumanligi, murakkabligi va ta’sirchanligi bilan tavsiflanadi va turli mamlakatlarda turli tarzda namoyon bo‘ladi. Buning ustiga, ularning ta’sirida ayrimlik va ayrilik emas, muayyan yaxlitlilik va tizimlilik, uyg‘unlik va aloqadorlik ko‘zga tashlanadi.

Tarbiya shakllarining Vatan manfaatlariga mutanosibligini aniqlashga qaratilgan izlanishlar majmui shaxsning umri davomida o‘zlashtirgan barcha tarbiyaviy jarayonlarini, xulq-atvorlarining asosini tashkil qilgan me’yorlarda mujassam bo‘ladi. Tabiiyki, ularning barchasi ham yurt manfaatlariga mos tushadi. Mazkur tarbiya shakllari Vatan va jamiyat manfaatlariga hamohangdir. Ana shu tarbiya shakllari shaxs fuqarolik madaniyatining subyektiv omillarida jam bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, ushbu tarbiya shakllari shaxsning fuqaro sifatida shakllanganligi darajasini oshirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Fuqarolik madaniyati yaxlit muammo sifatida mutaxassislar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, aksincha tarbiya shakllarining har biri alohida tarzda mutaxassislar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, siyosiy tarbiyani V.L.Bozadjiyev [1;195-b.], huquqiy tarbiyani Z.N.Ibragimova [2;10-b.], axloqiy tarbiyani E.V.Andriyanov va A.V.Denikin [3;221–223-b.], ekologik tarbiyani B.N. Omonov [4;33–34-b.] va mehnat tarbiyasini esa G.H.Bekmurodovalar [5;23-b.] tahlil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ijtimoiy tarbiya shakllarini o‘rganishda umumiylik va xususiylik, tahlillashda modellashtirish, yanada to‘liqroq aniqlik kiritishda analiz va sintez, masala yuzasidan xulosalar chiqarish uchun qiyosiy tahlil kabi mantiqiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Shaxs fuqarolik madaniyatining shakllanishida siyosiy tarbiyaning roli katta. U siyosiy madaniyatni rivojlantirishni maqsad qiladi hamda odam bolasining butun hayoti mobaynida davom etadi. Siyosiy tarbiya umrning turli bosqichlarida turli vositalarga tayangan holda olib boriladi. V.L. Bozadjiyev “Siyosiy psixologiya” asarida shunday yozadi: “Shaxs siyosiy madaniyati – siyosiy tizim va siyosiy jarayonlar ishtirokchisi insonga xos bo‘lgan hamda tarixan qaror topgan qarashlar, e’tiqodlar, qadriyatlar tizimidir; bu siyosiy faoliyat asosini tashkil qiluvchi, unga muayyan mazmun baxsh etuvchi subyektiv sohadir” [6;195-b.]. Xususan, bunday tarbiya insonning siyosiy tafakkurini shakllantiradi, uning yordamida shaxs jamiyat a’zolariga xos bo‘lgan xulq-atvor normalarini qabul qiladi. Shu asnoda uning siyosiy e’tiqodi, siyosiy qarashlari, siyosiy qadriyatlari, siyosiy fazilatlari shakllanadi. Ularning bir qismi shaxsiy yoki biror bir guruhga mansub manfaatlarga mos bo‘lsa, boshqalari Vatan manfaatlarini ifodalaydi. Vatan manfaatlari shaxsning fuqarolik faoliyati mag‘zini tashkil qiladi. Siyosiy tarbiya samarasi oshgani, uning tizimli xarakteri mustahkamlangani sayin, bir tomondan, shaxsning siyosiy madaniyati yuksalishi, ikkinchi tomondan, esa, uning fuqarolik madaniyati rivojlanishi uchun zamin optimallasha boradi.

Huquqiy tarbiya davomida huquqiy fazilat va xislatlar qaror topadi, e’tiqodning huquqqa dahldor aspektlari mustahkamlanadi, insonning huquq bilan bog‘liq qadriyatlari tizimi vujudga keltiriladi [7;10-b.].

Eng muhimi, bunday tarbiya vositasida insonning hayotiy faoliyatda huquq me'yorlaridan foydalanish malakasi hosil qilinadi. Ayni paytda, huquq me'yorlaridan voqiflik, undan foydalanish malakasi huquqiy kamolotning birgina jihati, xolos. Uning ikkinchi tomoni esa burch va majburiyatlarning anglab yetilgani bilan bog'liq. Fuqaro o'z burchini anglab yetgani unda mas'uliyat hissi uyg'onganidan darak beradi – bu jihat fuqarolik madaniyatining muhim elementi sifatida baholanishi mumkin. Binobarin, shaxs huquqiy tarbiyasi uning fuqarolik madaniyatini yangi bosqichga ko'tarish uchun poydevor yaratadi. "Huquqiy tarbiya fuqaro tomonidan jamiyat va davlat oldidagi burchlarini ongli ravishda ado etilishining muhim shartidir" [8;366-b.].

Ma'lumki, axloq "kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmuyidan" [9] tarkib topadi. Mazkur xatti-harakat va xulq-atvor normalari esa aynan axloqiy tarbiya yordamida shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Axloqiy tarbiyaning yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, uning davomida shaxs axloqiy ideallari qaror topadi. Ilmiy manbalarda ideal deganda inson hoy-u-havaslari, intilishlariga muayyan yo'nalish baxsh etadigan namuna, etalon nazarda tutiladi. "Axloqiy ideal – ezgulik va yovuzlik, do'stlik va muhabbat, kattalarga va Vatanga hurmat haqidagi to'g'ri tushunchalarning manbaidir" [10;221–223-b.]. Eng yuksak axloqiy ideal Vatanga muhabbat bilan bog'liq. Chunki axloqan komil insongina o'z Vatanini seva oladi, uning maqsad va manfatlariga fuqaro sifatida astoydil xizmat qilishga ehtiyoj sezadi. Bunday ideal millat qahramonlarining Vatan yo'lidagi faoliyatlari negizida, tarixning qizg'in pallalarida yurt manfaatlariga xizmat qilishga bel bog'lagan shaxslarning sa'y-harakatlari asosida, mutafakkirlarning Vatan haqdagi tasavvurlari asnosida shakllantiriladi.

Uzoq yillar davomida diniy tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsda muayyan diniy e'tiqodni shakllantirish bilan bog'lab kelindi. Bugungi kunda dindan nafaqat kishilarning diniy e'tiqodini shakllantirishda, balki turli siyosiy muddaolarga erishishda ham foydalanish urf bo'lmoqda. Binobarin, bugun diniy tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri kishilarning din haqidagi to'g'ri tasavvurlarini shakllantirish bilan ham bog'liq bo'lmog'i lozim. Dinning, xususan, islomning asosiy g'oyalari va tamoyillarini, ijtimoiy funksiyalarini, ahamiyatini ana shunday nuqtayi nazardan talqin qila bilgan inson soxta diniy g'oyalar asiriga aylanmaydi, ushbu g'oyalarni qurol qilib, kishilarni o'z Vataniga qarshi qayrayotgan turfa siyosiy va ekstremistik guruhlar tuzog'iga tushmaydi.

Estetik tarbiya faqat adabiyot va san'at asarlaridagi go'zallikni his qilish va undan zavqlanish tuyg'usini shakllantirish bilan bog'liq emas. To'g'ri, adabiyot va san'at asarlaridagi go'zallikni chuqur his qilishga odatlangan shaxsda, keyinchalik, nafaqat estetik, balki axloqiy, fuqarolik ideallari ham yuzaga keladi. Estetik tarbiyaning ushbu vazifalari:

▪o'tmish ma'naviy merosimizga hurmat hissini uyg'otish, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish uchun zamin yaratish;

▪ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirib, jahonga yuz tutish va ularni millat manfaatlari uchun naf keltiradigan tomonlarini targ'ib qilishga undashdir" [12;174–175-b.] insonni fuqaro sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi. Zotan, o'z Vatani tabiati go'zalligini chuqur his qila olgan, uning urf-odatlari va an'analarini mufassal o'zlashtirgan jamiyat a'zosinigina yetuk fuqaro sifatida tan olish mumkin. Bu fuqaro yurt betakrorligiga astoydil ishongani tufayli uning manfaatlari yo'lida faoliyat ko'rsatishga moyil bo'ladi.

Mehnat tarbiyasi insonda mehnatga ehtiyojni, unga oqilona munosabatni shakllantirishga qaratilgan maqsadga muvofiq jarayondir. Mehnat tarbiyasi jarayonida inson o'zi va o'zgalar mehnatini qadrlashga, mehnat faoliyatini to'g'ri tashkil etishga, insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarni qadrlashga odatlanadi. To'g'ri tashkil qilingan mehnat tarbiyasi shaxsda mehnatsevarlik fazilatini shakllantirish imkonini beradi. "Kundalik o'zaro munosabatlarda, deb yozadi G.Bekmurodova, "mehnatsevarlik" tushunchasi kishilarni o'z xizmat vazifasini, topshirilgan topshiriqlarni bajarishi holatini, darajasini ifodalash maqsadida ishlatiladi. Shubhasiz, bunda mehnatsevarlikning mazmun va mohiyati to'la ochilmay qolaveradi. Bizning fikrimizcha, mehnatsevarlik deganda insonning faqat xizmat vazifasini bajarishi yoki o'ziga topshirilgan topshiriqni sidqidildan ijro etishi tushunilmaydi. Balki boshqalar – oila, kollektiv, xalq, millat, jamiyat, davlat manfaati yo'lida qilingan halol mehnat ham tushuniladi" [1;23-b.]. Shunga asoslangan holda, bu yo'nalishdagi mehnat tarbiyasini shaxsni fuqaro sifatida voyaga yetkazish va kamol toptirish omili sifatida baholash mumkin.

Ekologik tarbiya bir necha vazifalarni bajaradi. Ularning barchasi o'zining salmoqli ijtimoiy ahamiyati bilan tavsiflanadi. Tadqiqotchi B.Omonov bu vazifalar turkumiga quyidagilarni kiritadi: "1) ekologik ong negizida atrof-muhitga mas'uliyatli yondashuvni shakllantirish; 2) zamonaviy ekologik muammolar va ularni bartaraf etish yo'llariga doir bilimlar tizimini shakllantirish; 3) o'z hududidagi atrof-muhitni o'rga-

nish, holatini baholash va yaxshilashga doir intellektual va amaliy malakalar tizimini rivojantirish; atrof-muhitni muhofaza qilishga doir faol faoliyatga intilishni rivojlantirish” [14;33–34-b.]. Mazkur vazifalarning barchasini ham shaxs fuqarolik madaniyatini shakllantiruvchi omil sifatida qayd qilish mumkin emas, albatta. Biroq ekologik tarbiyaning ekologik ong negizida atrof-muhitga mas’uliyatli yondashuvni shakllantirish bilan bog‘liq vazifasi shaxs fuqarolik mas’uliyatini oshirishda, xususan, ona-Vatan tabiatini asrab-avaylash, unga oqilona munosabatda bo‘lish ko‘nikmasini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo‘lsak, fuqarolik madaniyati jamiyatda qaror topgan subyektiv omillar ta’sirida o‘zgarib boradi. Bu ta’sir stixiyali va tasodifiy emas, tizimli va zaruriy xarakterga egaligi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy tarbiyaning siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, mehnat va ekologik shakllari ta’siri subyektiv omil vazifasini o‘taydi. Shaxs fuqarolik madaniyati ijtimoiy falsafaning ahamiyatli tushunchalaridan biri bo‘lib, u Vatan manfaatlari bilan hamohang bo‘lgan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, mehnat, ekologik va boshqa bilim va tasavvurlar, qadriyat va normalarining shakllanganligi darajasini ifodalaydi. Uning nazariy modeli ong va faoliyatga tegishli bo‘lgan elementlarning murakkab sintezidan yuzaga keladi.

Shaxs fuqarolik madaniyatining shakllanishi tarbiya shakllarini umumlashtirish (1-rasm) imkonini beradi**.**



Tarbiya shakllari nafaqat falsafiy g‘oyalarni yaxlitlash hamda ilmiy tasavvurlarni umumlashtirish, balki jamiyat a’zolarini fuqaro sifatida kamol toptirish, ularni jamiyatni isloh qilish va rivojlangan davlatlar qatoriga kiritish bilan bog‘liq strategik maqsad va muddaolar atrofida birlashtirish vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бозаджиев В.Л. Политическая психология. М., Издательский дом Академии Естествознания, 2015, с. 195.

(2). Ибрагимова З.Н. Формирование правовой культуры старших подростков в условиях школы-интерната. Автореф. дисс. ... к.п.н., Тверь, 2013, с. 10.

(3). Андриянов Е.В., Деникин А.В. Нравственный идеал как предмет воспитания. Вестник университета, 2013, № 3, с. 221–223.

(4). Омонов Б.Н. Экологик глобаллашув ва унинг Ўзбекистон экологик сиёсатига таъсири. Фалс.ф.д. (DSc) дисс. автореф., Самарқанд, СамДУ, 2022, 33–34-бетлар.

(5). Бекмуродова Г. Қишлоқ фуқаролари ижтимоий қиёфаси. Т., “Тафаккур гулшани”, 2015, 23-бет.

(6). Бозаджиев В.Л. Политическая психология. М.б Издательский дом Академии Естествознания, 2015. с. 195.

(7). Ибрагимова З.Н. Формирование правовой культуры старших подростков в условиях школы-интерната. Автореф. дисс. ... к.п.н., Тверь, 2013, с. 10.

(8). Балшикеев С.Б., Карасартова М.М. Средства формирования правовой культуры личности. “Мир науки, культуры, образования”, 2011, № 6-2, с. 366.

(9). https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/axloq-uz/ //Ахлоқ.//qomus.info.
(10). Андриянов Е.В., Деникин А.В. Нравственный идеал как предмет воспитания. “Вестник университета’, 2013, № 3, с. 221–223-бетлар.
(11). Шер А., Ҳусанов Б. Эстетика. Т., Ўзб.файл.миллий жамияти нашр., 2010, 174–175-бетлар.
(12). Бекмуродова Г. Қишлоқ фуқаролари ижтимоий қиёфаси. Т., “Тафаккур гулшани”, 2015, 23-бет.
(13). Омонов Б.Н. Экологик глобаллашув ва унинг Ўзбекистон экологик сиёсатига таъсири. Фалс.ф.д. (DSc) дисс. автореф., Самарқанд, СамДУ, 2022, 33–34-бетлар.

Mamadaliyeva Feruza Asrorovna (Toshkent davlat Agrar universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi;ORCID: 0009-0004-7404– 1419)

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH: JAMIYAT TARAQQIYOTINING ZARURIY OMILI SIFATIDA FALSAFIY TAHLIL

Annotatsiya. *Ushbu maqolada korrupsiya atamasining kelib chiqishi va uning tarixiy ildizlari tahlil qilindi. Korrupsiyaviy jinoyatlarning yuzaga kelishiga olib keluvchi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillar har tomonlama yoritildi hamda bu jarayonda korrupsion holatlarning shakllanish sabablariga chuqur ilmiy yondashuv asosida o‘rganildi. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashishda Singapur davlati tomonidan qo‘llanilgan tajriba falsafiy va konseptual nuqtayi nazardan o‘rganilib, uning amaliy samaradorligi muhokama qilindi.*

Kalit so‘zlar: *korrupsiya atamasi, korrupsiyaning tarixuy ildizlari, shaxsiy manfaatlar, nomoddiy naf olish, jamiyat, axloq, qonun, huquq, siyosat.*

Мамадалиева Феруза Асроровна (доцент Ташкентского государственного аграрного университета, доктор философии (PhD) по философским наукам, независимый исследователь Ташкентского государственного экономического университета; ORCID: 0009-0004-7404-1419

БОРЬБА С КОРРУПЦИЕЙ: ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАК НЕОБХОДИМЫЙ ФАКТОР ОБЩЕСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация*. В данной статье рассматривается происхождение термина «коррупция» и анализируются его исторические корни. Всесторонне освещаются социальные, политические и экономические факторы, способствующие возникновению коррупционных преступлений. Причины формирования коррупционных явлений изучаются с научной точки зрения. Кроме того, анализируется опыт Республики Сингапур в борьбе с коррупцией с философской и концептуальной точек зрения, обсуждается практическая эффективность антикоррупционных мер.*

Ключевые слова*: коррупция, исторические корни коррупции, личные интересы, нематериальная выгода, общество, нравственность, закон, право, политика.*

Mamadaliyeva Feruza Asrorovna (Associate Professor at Tashkent State Agrarian University Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences Independent Researcher at Tashkent State University of Economics; ORCID: 0009-0004-7404-1419)

COMBATING CORRUPTION: A PHILOSOPIAL ANALYSIS AS AN ESSENTIAL FACTOR IN SOCIAL DEVELOPMENT

Annotation*. This article explores the etymology of the term “corruption” and analyzes its historical roots. The socio-political and economic factors contributing to the emergence of corrupt practices are examined comprehensively. The reasons for the formation of corrupt phenomena are studied through a deep scientific approach. Furthermore, the article investigates the experience of the Republic of Singapore in combating corruption from a philosophical and conceptual perspective and discusses the practical effectiveness of its anti-corruption strategies.*

Keywords: *corruption, historical roots of corruption, personal interests, intangible benefits, society, ethics, law, rights, politics.*

Kirish (Introduction). Korrupsiya haqida so‘z borar ekan**,** avvalo, bu ijtimoiy illat hisoblanadi. Bu illat hamma davrlarda ham jamiyatning har sohadagi taraqqiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Bugungi kunda ham korrupsiyaga qarshi kurashish hamon dolzarbligicha qolmoqda. Korrupsiya ildiz otgan joyada eng oliy qadriyat bo‘lgan insonning huquqlari paymol bo‘ladi, jamiyat hayotida bo‘lsa ijtimoiy inqiroz paydo bo‘ladi. “Korrupsiya” atamasi, aslida, lotincha “corruptio” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “buzish, zanglash, tizimni izdan chiqarish, pora evaziga sotilish” degan ma’nolarni anglatadi.

2017-yilning 3-yanvarida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi, bunga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratildi. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida aso-

siy tushunchalar berilgan bo‘lib, unda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to‘qnashuviga doir tushunchalarga ta’rif berilgan, ya’ni korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir.[1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Avvalo, “korrupssiya” tushunchasiga ta’rif O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunida keltirilgan bo‘lib, ushbu qonunning 3-moddasida unga doir huquqbuzarlik va manfaatlar to‘qnashuviga tegishli tushunchalar batafsil yoritilgan. Rossiyalik tadqiqotchlardan A.I.Dolgova o‘zining “Kriminologiya” asarida korrupsiyani ijtimoiy hodisa sifatida ta’riflagan [2;120-b.].

Xorijiy olimlardan Jozef Senturiya (Corruption political) fikriga ko‘ra, “korrupsiya shaxsiy naf ko‘rish maqsadida ommaviy hokimiyat vakolatlarini suiiste’mol qilishi”dir [3;54-b.]. Tomas Gobbs “korrupsiya shunday bir ildizki, barcha zamonlarda undan hamma qonunlarga nisbatan nafrat kelib chiqadi” degan fikrni ilgari suradi. [4;192-b.]. O‘zbek olimlaridan M.A.Rahmatov, B.Z.Zaripov “Iste’dodli insonlar mamlakatning bebaho boyligidir” asarida korrupsiyaga qarshi kurashishda Singapur davlatining amaliy tajribasini chuqur tahlil qilganlar.

Tadqiqotning metodologiyasi (Research Methodology). Korrupsiyaga qarshi kurash: jamiyat taraqqiyotining zaruriy omili sifatida falsafiy tahlil va tadqiq etilgan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning kuzatuv, mantiqiylik, analiz, sintez, qiyosiy tahlil metodlaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Insoniyat uchinchi ming yillik sari dadil qadamlar qo‘ydi, ammo uning oldida turgan muammolar kamayib qolgani yo‘q. Bugungi globallashuv davrining eng ulkan muammolaridan biri bu korrupsiya muammosi hisoblanadi. Korrupsiya avvalambor har qanday mamlakatni muvaffaqiyatli rivojlanishiga ta’sir qiluvchi xavf bo‘lganligi uchun unga ijtimoiy hodisa sifatida qarash lozim. Shuning uchun korrupsiya tushunchasi nafaqat yuridik, balki ijtimoiy-siyosiy tushuncha ham hisoblanadi.

Korrupsiyaning tarixiy ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Chunonchi, yunon faylasufi Arastuning korrupsiyaga qarshi kurahish borasidadagi quyidagi fikrlari diqqatga sazovorlidir. “Har kanday davlat tizimida – qonunlar va boshqa farmoyishlar orqali ishni shunday tashkil qilish kerakki, unda mansabdor shaxslarni noqonuniy yo‘l bilan boyishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim”.

Rossiyalik tadqiqotchlardan A.I.Dolgova o‘zining “Kriminologiya” asarida korrupsiyani «davlat xodimlari yoki boshqa xizmatchilarning sotilishi va shu asosda ularning rasmiy xizmat vakolatlari, ular bilan bog‘liq obro‘si va imkoniyatlaridan shaxsiy yoxud tor guruhiy, korporativ manfaatlari yo‘lida foydalanishlarida ko‘rinadigan ijtimoiy hodisa»sifatida ta’riflagan [5;182-b.]. N.F.Kuznetsova korrupsiyani «davlat apparati va nodavlat tuzilmalarining xizmatchilarini sotib olishda ifodalanadigan ijtimoiy xavfli hodisa» deb ta’riflagan [6;50-b.].

«Korrupsiya» tushunchasini AQSH olimlari kengroq o‘rganib va har tomonlama tahlil qilganlar. Amerikalik tadqiqotchilar ushbu hodisani siyosiy arboblar, davlat apparatining xodimlari, tadbirkorlar va boshqa shaxslarning shaxsiy, oilaviy yoki guruhiy manfaatlar yo‘lida boyish hamda o‘z ijtimoiy maqomini oshirish maqsadida o‘zlarining rasmiy majburiyatlari va davlat funksiyalarini bajarishdan bo‘yin tovlashlari deb ta’riflaydilar [7;250-b.].

Korrupsiya bu kecha yoki bugun paydo bo‘lgan illat emas. O‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyani paydo bo‘lishining uchta sababi mavjud ekan. Birinchisi, iqtisodiy sababi – davlat xizmatchilarinig past oylik maoshi. Ikkinchisi, instinutsional sababi – davlat idoralaridagi yopiqlik, qonunchilik tizimida shaffoflikni yo‘qligi, davlatni kuchsiz kadrlar siyosati

Uchinchisi, ijtimoiy-madaniy sababi bo‘lsa, jamiyat a‘zolarining intizomsizligi fuqarolarning tartibsizligi, jamoatchilikning passivligi.

Bundan tashqari, korrupsiyaviy jinoyatlar kelib chiqishining bir necha omillari ham mavjud ekan. Bularga antropologik omillar, iqtisodiy omillar, ijtimoiy omillar, maishiy korrupsiya, ishbilarmonlik korrupsiyasi va oliy hokimiyat organlari korrupsiyasi. Bu omillar quyidagicha izohlanadi:

Antropologik omillar. Bunda insonning ziddiyatli tabiati ya’ni uning kam kuch sarflab, ko‘proq foyda olishga intilishi.

Iqtisodiy omillar. Iqtisodiyotning turli sektorlarining noteks rivojlanishi.

[1]Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги 2017 йил 3 январь, ЎРҚ-419-сонли қонуни. (https://lex.uz/docs/3088008)

Ijtimoiy omillar. Jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuvi, mehnat qonunchiligining buzilishi, ayollar va o‘smirlar mehnatidan foyadalanishda ijtimoiy adolat prinsiplariga rioya etilmasligi.

Maishiy korrupsiya. Asosan, mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilarining kundalik faoliyatida fuqarolar bilan munosabatda keng tarqalgan.

Ishbilarmonlik korrupsiyasi. Hokimiyat vakillarining tadbirkorlik subyektlari bilan munosabatlarida uchraydigan holat.

Oliy hokimiyat organlari korrupsiyasi. Siyosiy hukmron doiralar hamda odil sudlov tizimi faoliyatida uchraydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, dastavval, korrupsiyaga kurashish dasturining muhim bandlaridan biri bu qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini takomillashtirish, shuningdek, kadrlar siyosatiga atroflicha e’tibor qaratish. Umuman olganda, korrupsiya atalmish illatga murosasiz muhitni vujudga keltirish juda muhimdir. Korrupsionerlar har doim o‘zining kirdikorlarini ommaga oshkor bo‘lishidan xavotirda yuradilar. Shuning uchun biz tom ma’noda matbuot va ommaviy axborot vositalariga erkinlik berishimiz va ularning bu borada olib borilayotgan ishlariga ko‘maklashishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги 2017 йил 3 январь, ЎРҚ-419-қонуни. (https://lex.uz/docs/3088008)

(2). Криминология. Под ред. А.И.Долговой. М., 1997, с. 288.

(3). Senturia, J. (1968).Corruption political. Unternational Enciclopedia of the Social Science, p. 186.

(4). Гоббс Т. Сочинения в двух томах. Т. 2, М., 1965, с. 492.

(5). Криминология. Под ред. А.И.Долговой. М., 1997, с. 250.

(6). Криминология. Под ред. Н Ф.Кузнецовой, Г.М.Миньковского. М., 1994, с. 360.

(7). Михайлов А.В. Борьба с коррупцией в США (80-е годы). Вопросы истории. 1994, № 5, с. 180.

Avazov Sanjar Ergashovich (QarDU “Falsafa va sotsiologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD); sanjarbek555@mail.ru)

ICHKI VA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistondagi mehnat migratsiyasi mohiyati, asosiy yo‘nalishlari, sabablari va oqibatlari tahlil qilinadi. Xususan, mamlakatimizdagi mehnat migratsiyasi mohiyati ochib beriladi, turli ilmiy manbalar va statistik ma’lumotlar tahlili asosida uning yo‘nalishlarini belgilab berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar aniqlanadi. Shuningdek, O‘zbekistondagi bugungi mehnat migratsiyasi jarayonlari qator ijtimoiy oqibatlarga olib kelayotgani tavsiflanadi hamda bu oqibatlarning namoyon bo‘lish xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *migratsiya, mehnat migratsiyasi, qishloqdan shaharga mehnat migratsiyas, viloyatlardan poytaxtga mehnat migratsiyasi, respublikadan xorijga mehnat migratsiyasi, malakali mutaxassislarning rivojlangan mamlakatlarga mehnat migratsiyasi.*

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ВНУТРЕННЕЙ И ВНЕШНЕЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ

Аннотация. *В статье анализируются сущность, основные тенденции, причины и последствия трудовой миграции в Узбекистане. В частности, на основе анализа различных научных источников и статистических данных раскрывается сущность трудовой миграции в нашей стране, выявляются социально-экономические факторы, определяющие ее направление. Также описывается тот факт, что современные процессы трудовой миграции в Узбекистане приводят к ряду социальных последствий, и рассматриваются особенности проявления этих последствий.*

Ключевые слова: *миграция, трудовая миграция, трудовая миграция из сельской местности в города, трудовая миграция из регионов в столицу, трудовая миграция из республики за рубеж, трудовая миграция квалифицированных специалистов в развитые страны.*

DIRECTIONS OF INTERNAL AND EXTERNAL LABOR MIGRATION

Annotation. *The article analyzes the essence, main directions, causes and consequences of labor migration in Uzbekistan. In particular, the essence of labor migration in our country is revealed, and the socio-economic factors determining its directions are identified based on the analysis of various scientific sources and statistical data. It also describes the fact that today's labor migration processes in Uzbekistan lead to a number of social consequences, and discusses the features of the manifestation of these consequences.*

Key words: *Migration, labor migration, labor migration from rural areas to cities, labor migration from regions to the capital, labor migration from the republic to abroad, labor migration of qualified specialists to developed countries.*

Kirish. Mehnat migratsiyasi, ya'ni, odamlarning qulay va maqbul mehnat faoliyati bilan shug'ullanish niyatida bir hududdan boshqa hududga ko'chib yurishi umumjahon tendensiyasidir. Shu sababga ko'ra, u barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham namoyon bo'layapti, buni e'tirof etmaslikning iloji yo'q. To'g'ri, tarixiy taraqqiyotning avvalgi davrlarida ham manzildan manzilga ish ilinjida ko'chib turgan odamlar bo'lgan, biz tadqiqotimiz maqsadiga kirmagani bois masalaning bu jihatini e'tibordan chetda qoldirayapmiz. Lekin o'tgan asrning oxirlari, ayniqsa, yangi asrga kelib, ushbu jarayon ancha salmoqli miqyos va polivektorli yo'nalish kasb qila boshladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Migratsiya muammosini O'zbekistonda tadqiq qilish ancha faollashgan, buning natijasida ko'plab ilmiy ishlar tayyorlandi. Masalan, S.Boymurodov monografiyasida migratsiyaning demografik oqibatlari tavsiflanadi [1]. G.B.Azamatova migratsion jarayonlarning davr voqeligiga mutanosib ravishda sodir bo'lishini qayd qiladi [2]. S.Alimov, D.Isroilova asarlarida migratsiya jarayonlari mehnat bozorini tartibga soladigan, iqtisodiy taraqqiyot sur'atlariga ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida tavsiflanadi [3;243–248-b.]. J.Goyibov maqolasida migratsiyaning huquqiy muammolari o'rganiladi [4;1315–1321-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada mehnat migratsiyasini tahlil qilishda umumiylik va xususiylik, bayon qilishda modellashtirish, masalani to'liqroq oshib berish uchun butun va bo'lak, muammo borasida xulosalar chiqarishda qiyosiy tahlil kabi mantiqiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekistondagi bugungi mehnat migratsiyasi, mohiyatan, murakkab jarayon bo'lib, u turli yo'nalishlarda sodir bo'lmoqda hamda har bir yo'nalishning vujudga kelishiga sabab bo'lgan omillar, manbalar mavjud. Ijtimoiy jarayonlar va statistik ma'lumotlar tahlili mamlakatdagi mehnat migratsiyasining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat ekanligini ko'rsatmoqda:

Birinchi yo'nalish – qishloqdan shaharga mehnat migratsiyasi. Mamlakatda mehnat faoliyati bilan shug'ullanish maqsadida qishloqlardan shaharlarga ko'chib o'tayotgan kishilar soni ko'paymoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi e'lon qilgan ma'lumotlar tahlili ham shundan dalolat beradi. Ushbu ma'lumotlarga qaraganda, respublikadagi qishloq aholisi soni quyidagicha o'zgara borgan [5]:

Hududlar	**2000**	**2005**	**2010**	**2015**	**2020**	**2023**
O'zbekiston Respublikasi	**15322,2**	**16579,4**	**13575,5**	**15274,5**	**16761,1**	**17654,0**
Qoraqalpog'iston Respublikasi	778,8	805	811,7	890,1	967,8	1008,9
Andijon	1528,7	1649	1190,7	1357,3	1493,8	1588,2
Buxoro	978,6	1059,4	990,1	1107	1214,4	1269,2
Jizzax	680,1	730,3	590	660,5	734,1	783,5
Qashqadaryo	1615,5	1789,5	1480,4	1684,4	1870	1990,7
Navoiy	466,6	488,6	430,7	464,7	509,4	538,4
Namangan	1201,7	1299,6	799,7	935,4	995,7	1053,6
Samarqand	1946,2	2130	1958,6	2177,8	2439,1	2605,2
Surxondaryo	1391,9	1529,3	1307,1	1513,1	1675,1	1789,7
Sirdaryo	436,1	462	419,7	440,5	485	510,2
Toshkent	1400,5	1486,4	1292,7	1408,1	1495,2	1493,9
Farg'ona	1888,3	2038,6	1272,1	1479	1634,3	1712,2
Xorazm	1009,2	1111,7	1032	1156,6	1247,2	1310,3

Bir qarashda, o'tgan chorak asr mobaynida mamlakatda qishloqlarda yashayotgan kishilar soni muttasil oshib borganidek ko'rinadi. Lekin mazkur ko'rsatkichlarni respublika aholisi soni bilan qiyoslasak, vaziyatdan bir qadar boshqacharoq ekani ma'lum bo'ladi. Jumladan, 2000-yilda O'zbekiston qishloqlari-

dagi 15322,2 ming kishi mamlakatdagi 24487,7 ming aholining 62,5 foizini, 2005-yilda 16579,4 ming kishi mamlakatdagi 26021,3 ming aholining 63,7 foizini, 2010-yilda 13575,5 ming kishi mamlakatdagi 28001,4 ming aholining 48,5 foizini, 2015-yilda 15274,5 ming kishi mamlakatdagi 31022,5 ming aholining 49,2 foizini, 2020-yilda 16761,1 ming kishi mamlakatdagi 33905,2 ming aholining 49,4 foizini, 2023-yilda 17654,0 ming kishi mamlakatdagi 36024,9 ming aholining 49,0 foizini tashkil qilgan [6]. Ko‘rinib turibdiki, mamlakatda qishloq aholisi kamayib bormoqda. Buni o‘lkadagi shaharlar soni oshgani bilan asoslab bo‘lmaydi. Chunki 2018-yilda O‘zbekistonda 1071 ta shahar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda ularning soni 1058 taga qadar kamaygan [7]. Qishloq aholisi kamayishini shaharlardagi tug‘ilish koeffitsiyentining qishloqlardagidan kattaligi bilan ham asoslash qiyin. Chunki 2010-yilda shaharlarda tug‘ilish koeffitsiyenti 1000 kishiga 19,6 tani, qishloqlarda esa 24,5 tani, 2015-yilda, mutanosib ravishda, 20,5 va 26,5 tani, 2020-yilda 22,7 va 28,0 tani, 2022-yilda 26,0 va 26,4 tani tashkil qilgan [8]. Boshqacha aytganda, qishloqlardagi tug‘ilish koeffitsiyenti barcha davrlarda shahardagidan katta bo‘lgan. Binobarin, qishloq aholisi kamayishining yagona sababi mehnat faoliyatini davom ettirish uchun shaharga ko‘chib o‘tuvchilar sonining ortgani bilan bog‘liq. Eng e’tiborlisi, yillar o‘tgani sayin, bu miqdor asta-sekinlik bilan ko‘payib bormoqda.

O‘zbekistonda yana bir tendensiya mavjud. Qariyb barcha viloyatlarning shahar atrofida joylashgan qishloqlarida qishloqda yashab, shaharda mehnat qiladigan kishilarning katta guruhi uchraydi. Bu fuqarolar davlat va jamoat tashkilotlarida, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarida, shaharlarda joylashgan sanoat korxonalarida, qurilish tashkilotlarida, xizmat ko‘rsatish va boshqa sohalarda doimiy yoki mavsumiy tarzda mehnat qiladilar. Hozircha esa qishloq xo‘jaligidagi muammolar, ijtimoiy infrastrukturaning rivojlanmaganligi, ayniqsa, ish o‘rinlarining yetishmasligi va ish haqining boshqa sohalarga qaraganda pastligi kishilarni shaharlardan ish va daromad manbayi izlashga, shaharlardagi ijtimoiy infrastruktura imkoniyatlaridan foydalanish choralarini topishga, farzandlar kelajagini shahar bilan bog‘lashga majbur qilmoqda. O‘zbekistondagi mehnat migratsiyasining birinchi yo‘nalishi – qishloqdan shaharga migratsiyaning asosiy sababi shuning bilan bog‘liq.

Ikkinchi yo‘nalish – viloyatlardan poytaxtga mehnat migratsiyasi. Mamlakatda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish maqsadida viloyatlardan poytaxtga ko‘chib o‘tayotgan kishilar soni ko‘paymoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi e’lon qilgan ma’lumotlar asosida tayyorlangan ushbu grafikka e’tibor beraylik [9]:

Toshkent shahriga ko‘chib kelganlar soni:



Poytaxtga ko‘chib kelganlar sonini mamlakatdagi ichki migratsiyaning umumiy ko‘rsatkichlari bilan taqqoslasak, viloyatlardan poytaxtga ko‘chish tendensiyasi ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib borayotganiga amin bo‘lamiz. Chunonchi, 2018-yilda O‘zbekiston bo‘ylab ko‘chishlarning umumiy miqdori 160 ming 103 kishiga, 2019-yilda 158 ming 861 kishiga, 2020-yilda 191 ming 86 kishiga, 2021-yilda 256 ming 814 kishiga, 2022-yilda 214 ming 821 kishiga yetgan [10]. Binobarin, poytaxtga ko‘chish mamlakatdagi umu-

miy migratsiyaning 2018-yilda 16 foizini, 2019-yilda 21,8 foizini, 2020-yilda 40,8 foizini, 2021-yilda 43,6 foizini, 2022-yilda 46,1 foizini tashkil qilgan.

Uchinchi yo‘nalish – respublikadan xorijga mehnat migratsiyasi. Mamlakatda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish maqsadida xorijiy yurtlarga vaqtinchalik va mavsumiy ravishda borib kelayotgan kishilar soni ko‘pligicha qolmoqda. Xorijda mehnat qilayotgan fuqarolar soniga doir ma’lumotlar bir-biridan keskin farq qiladi. Ularning aksariyat qismi biror-bir mantiq yoxud asosga ega emas. Shu boisdan mazkur ma’lumotlarni keltirishni va tahlil qilishni ma’qul topmadik. Biz bu o‘rinda rasmiy va mutasaddi tashkilotlar tomonidan turli hujjatlarda va matbuot konferensiyalarida rasman ma’lum qilingan faktlarga tayanishni ma’qul topdik.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va Mehnat munosabatlari vazirligining Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi ma’lumotlariga qaraganda, 2022-yilda O‘zbekistondan xorijiy davlatlarga ishlash uchun chiqib ketgan migrantlar soni 2 million 346 ming nafarni tashkil qilgan [11]. Ularning 1 yarim milliondan ko‘prog‘i ish izlab Rossiyaga, 350 ming nafari Qozog‘istonga, 150 ming nafardan ziyodi Turkiyaga, 50 mingdan oshiqrog‘i Janubiy Koreyaga yo‘l olgan [12]. Bundan tashqari, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tashabbusi bilan Belarus, BAA, Bolgariya, Chexiya, Latviya, Polsha, Quvayt, Germaniya, Shveytsariya, Niderlandiya, Isroil, Yaponiya, Slovakiya, Saudiya Arabistoni, Litva, Bahrayn, Ukraina, Malayziya, Serbiya, Ozarbayjon, Xorvatiya, Finlyandiya, Ummon, Buyuk Britaniya, Kanada, Vengriya, Ruminiya kabi mamlakatlardagi ish beruvchilar bilan ishga joylashtirish to‘g‘risida shartnomalar tuzilgan va bu yurtlarga dastlabki migrantlar jo‘natilgan [13]. Yuqoridagi faktlardan xulosa chiqarish mumkinki, birinchidan, xorijiy mamlakatlarga ketayotgan mehnat migrantlari soni keyingi 4–5 yilda birmuncha kamaygan. Ikkinchidan esa O‘zbekistondan mehnat migratsiyasi geografiyasi o‘ndan ortiq yangi mamlakatlar hisobiga asta-sekinlik bilan kengayib bormoqda.

Uy-joy narxlarining balandligi, individual uylar qurish uchun zarur bo‘lgan qurilish materiallarining qimmatligi, ipoteka kreditlari foizining kattaligi ham ayrim jamiyat a’zolarini mehnat migratsiyasiga undamoqda. Mamlakatda bu va bunga o‘xshagan omillar saqlanib qolar ekan, xorijga mehnat migratsiyasi ko‘lami kattaligicha qolaveradi, uning geografiyasi yangi va yangi o‘lkalar hisobidan kengayib boraveradi. Tilga olingan omillar mehnat migratsiyasining uchinchi yo‘nalishi – respublikadan xorijga migratsiyaning asosiy sababi bo‘lmoqda.

To‘rtinchi yo‘nalish – malakali mutaxassislarning rivojlangan mamlakatlarga mehnat migratsiyasi. Mamlakatda uzoq yillar davomida ilm-fan yetarli darajada moliyaviy jihatdan ta’minlanmay keldi. “Hozirgi kunda, deb ta’kidlanadi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida”, ilm-fan va ilmiy faoliyatga yo‘naltirilayotgan mablag‘ mamlakat yalpi ichki mahsulotining atigi 0,2 foizini tashkil qiladi va ushbu ko‘rsatkich qator rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tomonidan ilm-fanga yo‘naltirilayotgan mablag‘larga nisbatan kamdir” [14]. Buning ustiga, ilm-fan borasidagi davlat siyosati tamoyillarini belgilashda ilm ahlining takliflari, istak-xohishlari ham inobatga olinmadi. “Tan olishimiz kerak, deb ta’kidlagandi davlat rahbari mamlakat ilmiy jamoatchiligi vakillari bilan uchrashuvda, uzoq vaqtdan buyon sizlar bilan uchrashmadik, mamlakatimizda ilm-fanni qo‘llab-quvvatlash, uni bugungi zamon talablari asosida rivojlantirish masalalarini davlat siyosati darajasiga ko‘tarish bo‘yicha sizlarning maslahatlaringizni olishni unutib qo‘ydik” [15]. Binobarin, ilm-fanga yo‘naltirilgan mablag‘larning kamligi, turmush darajasining pastligi, ma’muriy-buyruqbozlik tizimining bartaraf etilmagani mehnat migratsiyasi to‘rtinchi yo‘nalishi – malakali mutaxassislarning rivojlangan mamlakatlarga migratsiyasiga sabab bo‘lmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘zbekistondagi bugungi mehnat migratsiyasi mohiyatan murakkab jarayon bo‘lib, u turli yo‘nalishlarda sodir bo‘lmoqda hamda har bir yo‘nalishning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan omillar, manbalar mavjud. Chunonchi, O‘zbekistondagi mehnat migratsiyasining birinchi yo‘nalishi – qishloqdan shaharga migratsiyaga shahar va qishloq ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidagi tafovut, ikkinchi yo‘nalishi – viloyatlardan poytaxtga migratsiyaga poytaxt ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari va infrastrukturasining jozibadorligi, uchinchi yo‘nalishi – respublikadan xorijga migratsiyaga ishsizlik va maoshlarning kamligi, to‘rtinchi yo‘nalishi – malakali mutaxassislarning rivojlangan mamlakatlarga migratsiyasiga ilm-fanga yo‘naltirilgan mablag‘larning kamligi va turmush darajasining pastligi sabab bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Боймуродов С. Жаҳондаги демографик вазият: хусусиятлари ва тенденциялари. Т., “Тафаккур бўстони”, 2010.

(2). Азаматова Г.Б. Халқаро миграция жараёнида жаҳон ва Ўзбекистон иштирокининг ўзига хос жиҳатлари. // journals.uz/wp-content/uploads/2019/07/tarix-2019-02/104-113.pdf.

(3). Алимов С. Миграцион жараёнлар ва глобал муаммолар: “Ўзбекистондаги илмий-амалий тадқиқотлар” мавзуидаги конф. мат., Т., ЎзМУ, 2020; Исраилова Д.К. Меҳнат миграцияси – иқтисодий ўсишни таъминловчи омил сифатида. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар”, 2021, 6-сон, 243–248-бетлар.

(4). Гойибов Ж. Миграция муносабатларини маъмурий-ҳуқуқий тартибга солиш бўйича хорижий мамлакатлар тажрибаси. Academic research in educational sciences, 2021, № 4, 1315–1321-бетлар.

(5). Демография. Демографик кўрсаткичлар. Доимий аҳоли сони – қишлоқ. // stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2.

(6). Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида тайёрланди. //stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography.

(7). Демография. Демографик кўрсаткичлар. Шаҳарлар сони. stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demo-graphy-2.

(8). Демография. Асосий демографик кўрсаткичлар. Туғилиш коэффициенти. stat.uz/uz/ras-miy-statistika /demography-2.

(9). Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари асосида тайёрланди. Демография. Асосий демографик кўрсаткичлар. Кўчиб келганлар сони. //stat.uz/uz/rasmiy-statistika demograpy-2.

(10). Демография. Асосий демографик кўрсаткичлар. Кўчиб келганлар сони. // stat.uz/uz/rasmiy-statistika /demography-2.

(11). Хорижда бўлиб турган ўзбекистонлик мигрантлар сони қанча? / aniq.uz, 2022, 14 декабрь.

(12). Хориждаги ўзбекистонлик меҳнат мигрантлари сони маълум қилинди. // /bugun.uz, 2022, 5 июль.

(13). Йиллик статистика. Агентлик ва хорижий иш берувчилар ўртасида тузилган шартномалар тўғрисида маълумот.//migration.uz/post/view/119.

(14). Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”.//lex.uz/docs/5073447#5074180.

(15). Мирзиёев Ш.М. Илм-фан ютуқлари Ватанимиз равнақига хизмат қилсин. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-j., Т., “Ўзбекистон”, 2017, 166-бет.

Jurayev Sardorbek Xolmuminovich (O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi; sardorbekjurayev147@gmail.com)

VATANPARVARLIK TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyati yoritilgan. Vatanni sevish uchun bag‘rikenglik kerak. Bunday bag‘rikenglik insonni haqiqiy jasoratga, kerak bo‘lsa jonini fido qilishga tayyorlaydi. Bugungi kunda har tomonlama mukammal ichki ishlar organlari xodimlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma’naviyat eng ta’sirchan va qudratli qurol vazifasini o‘taydi.*

Kalit so‘zlar: *vatanparvarlik tuyg‘usi, urf-odat, meros, ma’naviyat, jasorat, globallashuv jarayoni.*

Жураев Сардор Холмуминович (соискатель института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан; sardorbekjurayev147@gmail.com)

СОДЕРЖАНИЕ ПОНЯТИЯ ПАТРИОТИЗМА

Аннотация. *В данной статье раскрывается сущность понятия патриотизма. Чтобы любить свою родину, нужна толерантность. Такая толерантность готовит человека к настоящему мужеству, даже к жертвованию своей жизнью, если это необходимо. Сегодня духовность является самым эффективным и мощным оружием в воспитании сотрудников правоохранительных органов в патриотическом духе.*

Ключевые слова: *патриотизм, традиция, наследие, духовность, мужество, процесс глобализации.*

Jurayev Sardorbek Xolmuminovich (Scientific candidate at the Institute of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan; sardorbekjurayev147@gmail.com)

THE CONTENT OF THE CONCEPT OF PATRIOTISM

Annotation. *This article sheds light on the essence of the concept of patriotism. To love one's homeland, one needs tolerance. Such tolerance prepares a person for true courage, and if necessary, to sacrifice one's life. Today, spirituality serves as the most effective and powerful weapon in educating all-round excellent internal affairs officers in the spirit of patriotism.*

Keywords: *patriotic feeling, tradition, heritage, spirituality, courage, globalization process.*

Kirish (Abstract). Insoniyat tarixida ko‘plab suronli jang-u jadallar, vatan ozodligi uchun olib borilgan kurashlar bo‘lganligi ko‘plab tadqiqotlarda tilga olingan. Bu jang-u jadallar tufayli millionlab insonlar, katta-yu kichik shaharlar, aksariyat hollarda, davlatlar ham yo‘q bo‘lish darajasiga kelib, ko‘pincha, tinch aholi qurbon bo‘lganligi sir emas. Urushlar tufayli mamlakatlar iqtisodiyoti izdan chiqib, uzoq yillar davomida shakllangan millatlar tarixi, dini, milliy madaniy urf-odatlari va merosga yakun yasalgan.

Insoniyat taraqqiyotga erishib borgani sari, harbiy qurol-yarog‘larning eng zamonaviy turlarini ishlab chiqish, odamlarni ommaviy qirg‘inbarot qilishga mo‘ljallangan va ona-Yerni bir lahzada butkul yo‘q qilib yuborishga qodir qurollarning yaratilishi mamlakatlar o‘rtasida o‘ziga xos “qurollanish poygasi”ni keltirib chiqargani tarix zarvaraqlariga muhrlangan. Keyinchalik, davlatlarni asta-sekin ichidan yemiradigan, taraqqiyotini butkul tanazzulga uchratadigan, odatiy, ya’ni, ochiq qurol bilan hujum emas, balki mafkuraviy urushlar ko‘rinishi ham yuz bera boshladiki bugun bunday mafkuraviy urushlarning chek chegarasi ulaning xavfu xatari qamrab olgan hududlarni oldindan bilish va yetarli choralarni ko‘rish mushkul vaziyatga aylanib bormoqda. Bunday urushlardan himoyalanishning yagona yo‘li yosh avlodni ilm-ma’rifat, o‘zlikni anglash orqali ona-Vatanni sevish va vatanparvarlikka o‘rgatishdir.

Adabiyotlar tahlili va metod (Materials and methods). Vatanparvarlik tuyg‘usi bu kishilarning kindik qoni to‘kilgan o‘z ona-Vataniga, muhabbati va sadoqatini namoyon etadigan tushunchadir. Vatanparvarlik tuyg‘usi insoniyat, barcha xalqlar va millatlar uchun asrlar davomida sayqallanib kelgan oliy, umuminsoniy his-tuyg‘ulardan biridir. Vatanparvarlik insonlarning o‘z oshiyoni, kindik qoni to‘kilgan yurt taqdiri mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan. Vatanparvarlik tuyg‘usi insonda o‘z vatanining o‘tmishini va buguni bilan faxrlanish, har jabhada Vatan manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. Zero, Vatanni sevish iymondandir, deb ham bejizga aytishmagan [1].

Vatanparvarlik insonning o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan joyi, zamin, maskaniga bo‘lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy, ma’naviy xislatlari va fazilatlaridir. Fidoyilik vatanparvarlikning bosh belgisi hisoblanib, uning oliy ko‘rinishi jasoratdir.

Insoniyat taraqqiyotga erishib, ilm-fan taraqqiy etib borgani sari, mafkuraviy poligonlar va axborot xurujlarining ortib borishi insonlarning ong-u tafakkurini o‘zgartirish, ma’rifatli dunyoni barpo etish zaruriyatini tug‘dirmoqda. Bunday tahlikali vaziyatda xalqlarning birdamligi millat kelajagini belgilovchi asosiy vosita ekanligini anglashimiz zarur. Zero, bugungi kunda unga ommaviy axborot vositalari, turli ijtimoiy tarmoqlarda ba’zan yaltiroq qog‘ozga o‘rab, ba’zan ochiqchasiga o‘z niyatlarini bayon etayotganlarning chiqishi misolida guvoh bo‘lyapmiz.

Mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo‘ygan bugungi kunda xalqimiz, yoshlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayot qadriga yetish tuyg‘usini kuchaytirishni alohida qayd etmog‘imiz darkor [2].

Vatanni sevish hissi bizga begona emas. Vatan uchun jonini fido qilgan ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz ming yillar davomida tillarda doston bo‘lib kelishgan. Masalan, Chingizxon zulmiga qarshi Jaloliddin Manguberdi jasorati, Amir Temur shijoati, jadidlarimizning begunoh to‘kilgan qoni, Abdulla Avloniyning so‘z erkinligi uchun fidokorligi, Mahmudxo‘ja Behbudiyning yoshlarni ilmili qilish, savodini chiqarish, chet tilini o‘rgatish haqidagi pand-nasihatlari haqida ko‘plab misollar keltirish mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, bu shijoat-u jasoratlarning tag zamiri o‘z manfaatini ko‘zlash emas, balki, ona-Vatan istiqboli uchun vatanparvarlik qilish o‘z jonini fido qilib bo‘lsa-da, uning kelajagi taraqqiy etishi uchun xizmat qilish edi.

Yurtimiz uzoq yillik, asrlarga tatigulik tarixga ega. Yurtimizning doimiy go‘zal tabiati, moddiy-ma’naviy boyliklari, mehnatkash xalqi dunyoni o‘ziga rom etib kelgan. Shu boisdan ham qadim Turon zaminni qo‘lga kiritish barcha yashirin kuchlarning azaliy orzusi bo‘lib, uni amalga oshirishda har qanday vaziyatdan foydalanishga tayyor kuchlar borligini ham unutmasligimiz darkor. Ota-bobolarimiz, buyuk mutafakkirallomalarimiz yaratgan milliy madaniy merosni asrab-avaylashimiz lozim.

Vatanparvarlik buyuk tuyg‘u ekan, Vatan har birimizning qonimiz, jonimiz, ruhiyatimizda mavjlanar ekan, vatanparvarlik bayrog‘ini baland ko‘tarib, Vatanni sevishni faqatgina so‘zda emas, amalda ham isbotlashimiz lozim. Jamiyatning barcha bo‘g‘inlari, ayniqsa, xizmat lavozimida belgilangan barcha vazifalarni sidqidildan bajarish, taraqqiyotimizga hissa qo‘shishi kamchiliklarni to‘ldirish orqali millat va mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shish, fuqarolik mas’uliyatini oshirish, davlat va jamiyatda qabul qilgan har bir qonun va me’yoriy hujjatlarga, so‘zsiz, bo‘ysinish, haqiqiy vatanparvarlikning tamoyillaridandir.

Natijalar (Results). Xalqimizda vatanparvarlik tuyog‘usi milliy qadriyatlarimiz bilan hamohang holda qo‘llanilgan. Vatanparvarlik tuyg‘usi xalqimizningn moddiy madaniyatining ifodasi bo‘lsa, milliy qadriyatlarimiz shu Vatanning ma’naviy ramzi, timsolidir. Suronli yillar yillar davomida shakllangan va bosqichilar davridan omon chiqib, milliy xususiyatlarini saqlagan holda, zamonlar osha sayqallanib, milliy jilolarini yangi sifatlar bilan boyitib kelayotgan bunday milliy madaniyatimizning bardavomligi ana shunday vatanparvarlik tuyg‘usi bilan hamohangdir. Shu boisdan vatanparvarlik tuyg‘usi umrboqiydir. Vatanparvarlik tuyg‘usi esa faqat so‘zda emas, amalda namoyon bo‘lib, vatanni sevish, ardoqlash tufayli sodir bo‘ladigan ruhiy-axloqiy kechinmadir. Bugun yurtimizda 130 dan ortiq millat istiqomat qilar ekan, bu mil-

latlar va xalqni birlashtiradigan, ularni yagona maqsad sari safarbar eta oladigan burch bu vatanparvarlik burchidir.

Vatanni sevmoq, unga sadoqat bilan xizmat qilish, tashvishli va quvonchli kunlarida hamdard va sherik bo‘lish har bir insonning ma’naviy-axloqiy mas’uliyatidir. Buyuk o‘zbek adibi Alixonto‘ra Sog‘uniy Vatan va vatanparvarlik tuyg‘usi xususida yozar ekan, “har bir kishining beshta muqaddas narsasi, ya’ni, Vatani, dini, moli, oilasi, joni bo‘lishi lozim. “Biz, shu Vatan ahlimiz. Bu O‘zbekiston Vatanimizning bir qatlami biz – o‘zbek xalqi ota-bobolarimizning suyaklari bilan ko‘tarilmishdir. Demak, bo‘ynida ko‘targan, qo‘ynida saqlab, oq sut berib tarbiyat qilgan bu O‘zbekiston – Turkiston bizning o‘z ona Vatanimizdir” deb ta’kidlagan [3;4-b.].

Muhokama (Discussion). Bugun tinchliksevar insoniyat ma’rifatli dunyoni istaydi. Ma’rifatli dunyoda davlatlar, siyosiy kuchlar, muxolifatlar o‘rtasida ma’naviy kelishuv yuzaga keladi. Ma’naviy kelishuv taraqqiyot darajasi, qaysi qit’ada joylashgani, aholisi soni, ijtimoiy yo‘nalganlik holati, qarashlari, madaniyati, dinidan qat’i nazar, mamlakatlar, xalqlarning o‘zligini hurmat qilish, umumiy taraqqiyot yo‘lida maqsadlarini uyg‘unlashtirishdan manfaatdorlik darajasidir.

Vatanni sevish uchun katta qalb lozim. Bunday qalb doimo insonni haqiqiy jasoratga undaydi va uni Vatan yo‘lida hech narsadan tap tortmaslikka kerak bo‘lsa, jonini fido qilishga tayyorlaydi [4].

Vatanparvarlik tuyg‘usi har bir insonda shakllanib borar ekan, o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kindik qoni to‘kilgan Vatani oldidagi farzandlik, fuqarolik burchini shakllantiradi. Vatanparvarlik Vatanni shunchaki sevish, u to‘g‘risida she’r yozish, qo‘shiq kuylash, chiroyli gapirishgina emas, amalda ko‘rsatish, uning rivoji uchun o‘z manfaatlaridan kechishdir. Vatanparvarlik borasidagi g‘oyalar odamlarning avval sog‘lom e’tiqodiga, so‘ng amaliy harakatiga ta’sir etib, shu Vatanning ravnaqi uchun moddiy-iqtisodiy hamda ma’naviy-ruhiy holatida aks etishi lozim.

Bugun dunyoda sodir bo‘layotgan global o‘zgarishlar, qadriyatlar transformatsiyasi, axloq tushunchalarining yemirilishi davlatlar va xalqlar taqdirida ko‘plab salbiy oqibatlarga sabab bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, biz uchun nihoyatda muqaddas bo‘lgan vatanparvarlik tarbiyasining tagzaminiga, asl mohiyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada vatanparvarlik o‘rniga vatansizlikni targ‘ib etish, “globallashuv degani sening dunyo fuqarosiga aylanishing”, deb talqin qilish, milliy tarixni eskilik sarqiti sifatida tan olish kabi o‘ta mantiqsiz g‘oyalar ham ko‘payib bormoqda [4]. Ushbu holat, o‘z navbatida, vatanfurushlikni yuzaga keltirmoqda.

Vatanfurushlikning real hayotdagi ko‘rinishi juda serob. Masalan, mehnatsiz rohat ko‘rishni istash, o‘z yurtidagi o‘zgarishlar, xalq qadrini oshirish borasidagi islohotlarni tan olmaslik, jamiyatdan faqat illat qidirish va buning natijasida o‘zidan soxta vatanparvar, xalqparvar siymosini yaratish orqali keng auditoriyani o‘ziga qaratish shular jumlasidandir. Ana shu holatlar shaxsda o‘zga g‘oyalarga tobelik kayfiyatini ko‘proq oshiradi. O‘zga yurtlardagi xunrezliklar, ziddiyatlar, kelishmovchiliklarni o‘zicha tahlil etish orqali jamiyatda yolg‘on taassurot uyg‘otish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi. Bu juda xavfli holat. Soxta vatanparvarlarning paydo bo‘lishi ham shu tarzda yuzaga keladi [4].

Vatanparvarlik–kishining o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan joy, zamin, o‘lkaga bo‘lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy xislatlar, fazilatlaridir. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Shaxs vatanparvarlik tuyg‘usini yaratmaydi, balki uni tayyor holda qabul qilib, asta-sekin o‘z ongiga singdiradi. Chunki vatanparvarlik uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy tuyg‘udir [5].

Bugungi dunyoda vatansizlikni, vatanfurushlikni targ‘ib etayotgan tahdidlar tobora ko‘payib borayotgan, turli davlatlar, xalqaro tashkilotlar o‘zlarining aniq maqsadlarini chiroyli gaplar, bilim saviyasi past, tajribasiz kishilarga xush yoqadigan jozibali qoliplarga solib talqin etayotgan bir sharoitda o‘zlikni, Vatanni saqlab qolish va bu yo‘lda yuksak vatanparvarlik namunalarini ko‘rsatish eng dolzarb masalaga aylanmoqda.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytganda, biz kelajak avlodni, xususan, ona-Vatan xizmatiga bel bog‘lagan bo‘lajak ichki ishlar xodimlari ongiga o‘z yurtiga muhabbat tuyg‘usini singdirmog‘imiz, zarurat tug‘ilganda mamlakatimizni jon jahdi bilan himoya qiladigan haqiqiy vatanparvar xodimlarni tarbiyalamog‘imiz lozim. Zero, ularda vatanparvarlik tuyg‘usi qanchalik kuchli bo‘lsa, Vatanning uzviy qismi bo‘lib qolish, uning uchun jonini fido qilish, butun xalqni o‘z oilasini himoya qilgandek asrab-avaylash hissi shunchalik kuchli bo‘ladi.

Vatan sha’ni, millat or-nomusi uchun jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil ichki ishlar organlari xodimini tarbiyalashda ma’naviyat eng ta’sirchan va qudratli qurol vazifasini o‘taydi. Vatanparvarlik tuyg‘usi insonda uning jamiyat bilan munosabatlari, dunyoqarashi,

axloqi, olamga, odamga, o‘ziga nisbatan tasavvurida namoyon bo‘lar ekan, u insonda yuksak ma’nodagi vatanparvarlik hissini uyg‘otib, uni ma’naviy oziqlantirib, uni sog‘lom e’tiqodga otlantiruvchi kuchga aylanadi. Ushbu tuyg‘u insonning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim bo‘lsa-da, uning o‘zi va jamiyatdagi munosabatlarini mustahkamlash, yosh avlodga total faoliyatda o‘rnak bo‘lish imkoniyatlarini kengaytirish uchun ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tarbiyasini yanada yuksaltirishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2016-yil 20-avgust). Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016.

(2). Usmonov K. O‘zbek xalqi ma’naviy-axloqiy merosida harbiy vatanparvarlik g‘oyalarining talqini. Fals. dok. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2017, 52-bet.

(3). Alixonto‘ra Sog‘uniy. Turkiston qayg‘usi. Arab imlosidan kirillga o‘tkazib, nashrga tayyorlovchilar: Ahadxonto‘ra G‘apporov Uvaysxonto‘ra Shokirov. https://kutubxonachi.uz/media/books/turkiston-qaygusi_ kutubxonachi.uz.pdfyu. Kutubxonachi.uz - @KutubxonachiUz. - B. 100.

(4). A.Mavrulov. Vatan nima? Vatanparvarlik-chi? “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 28-fevral, 2024. https://yuz.uz/ news/vatan-nima-vatanparvarlik-chi

(5). Akramova Sh. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari. T., «Ma’naviyat», 2018, 31-bet.

Djavotova Ohista Djamol qizi (Sharof Rashidov nomidagi SamDU 1-bosqich tayanch doktoranti)

TA’LIM-TARBIYA SISTEMASIDA TILNING KONSTRUKTIV IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Inson hayotining ajralmas, atributiv elementlaridan biri til hisoblanadi. Til nafaqat inson hayoti, tafakkuri va faoliyati taraqqiyotiga, balki butun bir jamiyat va davlat rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Til muloqot vositasi bo‘lib kishilarning ilmiy dunyoqarashi, falsafiy tafakkuri, bilish qabiliyati, nazariy bahs olib borish san’ati, mantiqiy fikrlash tarzini shakllantirishning fundamental asosi hisoblanadi. Vaholanki, inson dunyoga kelishi bilanoq uni his-tuyg‘ularini yetkazib berishning eng oddiy, eng daslabki vositasi til sanaladi. Til inson hayotida oddiylikdan murakkablik tomon rivojlanib, takomillashib, boyib boradi. Tilning mazkur takomillashuvi jarayonida ijtimoiy muhit, shu jumladan, ta’lim va tarbiya sistemasi muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *til, tafakkur, mantiq, ta’lim, tarbiya, zamonaviylik, jamiyat, inson, til funksiyalari.*

КОНСТРУКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЯЗЫКА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация*. Язык является неотъемлемым, атрибутивным элементом человеческой жизни. Он играет важную роль не только в развитии человеческой жизни, мышления и деятельности, но и в прогрессе всего общества и государства. Язык, будучи средством коммуникации, является фундаментальной основой формирования научного мировоззрения, философского мышления, познавательной способности, искусства ведения теоретических дискуссий и логического рассуждения. С момента рождения человека язык становится его первичным и самым простым средством выражения чувств и эмоций. В процессе жизни язык развивается от простого к сложному, совершенствуется и обогащается. В этом процессе важную роль играет социальная среда, включая систему образования и воспитания.*

Ключевые слова: *язык, мышление, логика, образование, воспитание, современность, общество, человек, функции языка.*

CONSTRUCTIVE POSSIBILITIES OF LANGUAGE IN THE EDUCATIONAL SYSTEM

Annotation. *Language is an integral, attributive element of human life. It plays an important role not only in the development of human life, thinking and activity, but also in the progress of the entire society and state. Language, being a means of communication, is a fundamental basis for the formation of a scientific worldview, philosophical thinking, cognitive ability, the art of conducting theoretical discussions and logical reasoning. From the moment a person is born, language becomes his primary and simplest means of expressing feelings and emotions. In the course of life, language develops from simple to complex, improves and enriches. In this process, the social environment, including the education and upbringing system, plays an important role.*

Key words: *language, thinking, logic, education, upbringing, modernity, society, man, functions of language.*

Kirish (Introduction). Insoniyat jamiyati paydo bo‘libdiki, tilga ihtiyoji va e’tibori yuksalaib borgan. Til (zabon) insonlarning bir-birini tushunishi, tafakkur imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi, o‘zaro fikr almashinuvi uchun doimo muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, ta’lim va tarbiya jarayonida til juda katta funksional ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Insoniyatning dastlabki simvolik muloqotidan tortib, bugungi kundagi raqamlashgan muloqotigacha bo‘lgan davrda til mislsiz keng imkoniyatlarni taqdim etgan. Zero, til nafaqat inson hayotining ajralmas tarkibiy qismi, balki uning tafakkuri, nutqi, bilish darajasi, mantiqiy fikrlash qobiliyatini boyitadigan eng asosiy qurol sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Til muammosi, uning vujudga kelishi, shakllanishi, maqsadi, vazifalari jamiyat va inson hayotida tutgan o‘rni azal-azaldan olimlar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ayniqsa, “XX asrda til falsafasining shakllanishi tilning tabiatiga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi, turli qarashlar ular orasida raqobatni kuchaytiradi. Biroq an’anaviy ontologiya va bilish nazariyasida empirik va ratsionallik paradigmalaridan farqli o‘laroq, tilning yangi modellari umumiy tezisni birlashtirdi, bu tezisga ko‘ra, ongning borliqqa munosabati til orqalidir. Til ong va borliqning barcha strukturalari ichiga kirib ketadi” [4;608-b.]. Til falsafasi falsafafiy tadqiqotlar doirasida P.I.Jitetskiy, A.Marti, K.Vossler, O. Funke, M.M.Baxtin, V.N.Voloshinov, shuningdek, Gerder, Gumboldt, Grimm, Lipps ilmiy izlanishlarida turli nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Mamlakatimizda nafaqat tilshunoslik, balki falsafa va mantiq ilmi doirasida ham til muammosi yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, faylasuf olimlari-mizdan J.Yaxshilikov [10;165-b.]ning mantiq ilmida til, nutq, aql va fikr uyg‘unligi borasida, B.Turayev [5] ning ontologiya, gnoseologiya, logika va fan falsafasi muammolari doirasida, D.Fayzixo‘jayeva [6;201-b.] ning til hamda uning funksiyalari borasida, R.Xudoyberganov [7;273–278-b.]ning zamonaviy til falsafasi hamda tilning ilmiy-falsafafiy xususiyatlari doirasidagi tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot ishida ilmiy bilishning analiz va sintez, tizimli tahlil, obyektivlik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik, sinergetik tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Inson hayotining ajralmas, atributiv elementlaridan biri til hisoblanadi. Til muloqot vositasi bo‘lib, kishilarning ilmiy dunyoqarashi, falsafiy tafakkuri, bilish qabiliyati, nazariy bahs olib borish san’ati, mantiqiy fikrlash tarzini shakllantirishning fundamental asosi hisoblanadi. Til inson hayotida oddiylikdan murakkablik tomon rivojlanib, takomillashib, boyib boradi. Tilning mazkur takomillashuvi jarayonida ijtimoiy muhit, shu jumladan, ta’lim va tarbiya sistemasi muhim ahamiyat kasb etadi. Falsafiy tadqiqotlar doirasida til masalasini, uning bugungi zamonaviy jamiyatdagi keng ko‘lamdagi imkoniyatlarini tahlil etish dolzarb hisoblanadi. “Til insonning inson bilan, insonning mashina (kompyuter) bilan o‘zaro aloqasini ta’minlovchi axborot belgilari tizimi. Til tafakkur bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, fikrimizning bevosita mavjud bo‘lishini ta’minlaydi va kishilar o‘rtasida aloqa o‘rnatishga xizmat qiladi. Tilni o‘rganish mantiq fanining muhim vazifalaridan biri” [6;199-b.] hisoblanadi. Demak, bugungi kunga kelib tilning zamonaviy shakl va ko‘rinishlari bilan bir qatorda, uning xususiyati va funksiyalari ham yanada takomillashib bormoqda. Zamonaviy ilm-fanda, falsafada, mantiq ilmida til va haqiqat, til va axloq, til va madaniyat, til va san’at, shu bilan birga, til va bahs yuritish mahorati masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilib kelinmoqda. Vaholanki, til jamiyat hayotining har qanday jabhasida faol ishtirok etadigan qurol sanaladi. Ayniqsa, bilish jarayonida tabiiy va sun’iy til uyg‘unligidan tashkil topgan ilmiy tilning mazmun-mohiyati kundan kunga yanada takomillashib bormoqda.

A.Hamdamova ta’biri bilan aytganda, “Til bu ijtimoiy hodisadir. Jamiyat rivojida til o‘z mohiyatini ko‘rsatadi. Til yana o‘yin faoliyatining bir shaklidir. Aniq til o‘yini oqibatini oldindan aytib bo‘lmaydi. Muayyan bir hodisani bayon etish uchun foydalaniladigan til o‘yinlaridagi so‘zlar hammaga taalluqli emas (ular to‘la umumiylikka ham ega bo‘lmaydi) [8;11-b.]. Demak, til butun bir ijtimoiy turmush tarzida namoyon bo‘ladigan, davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib zamonaviylashib boradigan hodisa sanaladi. Shu bilan birga, til individual va ijtimoiy ta’sir etish xususiyatiga ham egadir. Jamoada, ijtimoiy hayotda qo‘llaniladigan til mazmunan jamoaviylikka, diologik jarayonlarda esa ko‘proq individuallikka xos shaklda namoyon bo‘ladi.

“Til funksiyalari kommunikatsiya va bilish jarayonida til vositasida amalga oshiriladigan asosiy vazifadir. Til qanday maqsadlarga qo‘llanilishiga qarab turli holatlarda turlicha funksiyalarni bajarishi mumkin. Mantiq ilmida tilning tasvirlovchi va baholovchi funksiyalari farqlanadi. Til vositasida voqea va hodisalarni tasvirlaganda ular voqelikka nisbatan taqqoslanib, “chin” yoki “yolg‘on” deb ko‘rsatiladi. Baholash funksiyasida esa dastlabki mulohazadagi holat “yaxshi”, “yomon”, “birdek” deb tavsiflanadi. Tasvirlashdan maqsad so‘zning voqelikka mos kelishi bo‘lsa, baholashdan maqsad olamning fikrga mos kelishidir” [6;201-b.]. Demak, til qanday holatda, qanday vaziyatda, qaysi vaqtda va qanday maqsadni ko‘zlash

xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ma’lum bir funksiyalarni bajarishi mumkin. Yuqorida keltirilgan funksiyalar tilning mantiq ilmidagi asosiy vazifalarini ochib bermoqda.

Bizningcha, jamiyat hayotida, shuningdek, ta’lim va tarbiya jarayonida til quyidagi funksiyalarni bajarishi mumkin:

– ilmiy, mantiqiy, kreativ, kognitiv, proyektiv tafakkur tarzini shakllantiradi;
– kommunikativlik funksiyasini amalga oshiradi;
– ta’lim va tarbiya samaradorligini oshiradi;
– konstruktiv va destruktiv ta’sir etish vositasi bo‘lib xizmat qiladi;
– oqilona muloqot qilish madaniyatini shakllantiradi;
– regulyativlik imkoniyatini oshiradi;
– o‘zaro bahs olib borish mahoratini oshiradi;
– haqiqatni yetkazish vositasi bo‘lib xizmat qiladi;
– aratorlikni rivojlanatiradi va h.k.

Ta’lim-tarbiya jarayonida tilning konsruktiv mohiyatini oshirish, uning funksional, ratsional imkoniyatini kengaytirish uchun tilni shakllanishiga, yanada rivojlanishiga ta’sir etuvchi ma’naviy va ma’rifiy asoslarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ayniqsa, tilning konstruktiv imkoniyatini shakllantirish va oshirishda ta’lim va tarbiya jarayoni muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Tilning konstruktiv imkoniyatlari shakllanishida inson yashaydigan, ta’lim va tarbiya oladigan ijtimoiy muhitning ta’siri juda muhim sanaladi. Til oilada, jamiyatda, ta’lim dargohida konstruktivlik mohiyatini mustahkamlaydi. Tilning to‘g‘ri shakllantirilishi to‘g‘ri fikr yuritish bilan belgilanadi. To‘g‘ri fikr yuritishni shakllantirishning dastlabki manbayi ta’lim va tarbiya jarayoni hisoblanadi. Shu boisdan ham ta’lim va tarbiya sistemasining har bir bo‘g‘inida til masalasiga oqilona yondashuv shakllantirilmog‘i zaruriy ahamiyat kasb etadi. Inson ko‘p hollarda, fikrlagan, o‘ylagan, tafakkur qilgan narsa va hodisalarini til orqali nutqda ifodalaydi. Shu boisdan tafakkur tarbiyasi, uning oqilona yo‘naltirilganligi tilning qay darajadagi konstruktiv imkoniyatga ega ekanligini ochib beradi

Til yordamida bilimlar hosil qilinadi, to‘planadi va bir avloddan boshqa avlodga yetkazib beriladi. Shu tariqa, u ta’lim va tarbiya ishlarini amalga oshirishga, madaniyatimizni taraqqiy ettirishga yordam beradi. Ta’lim va tarbiya jarayonida mantiqiy tafakkurni shakllantirish tilning konstruktiv imkoniyati doirasida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunga kelib, til muammosi fenomenologik, germenevtik yo‘nalishlar doirasida ham tadqiq etilmoqda. “Fenomenologiya bu til to‘g‘risidagi intensional aktlar, ya’ni maqsadli voqea-hodisalar kechinmasi, ko‘rinishidir. Fenomen grekcha so‘z bo‘lib, “ko‘rinayotgan, bilinayotgan” degan ma’noni bildiradi. Bu yerda inson ongi va uning hissiy tajribasi hamda anglash jarayonida ko‘ringan, bilingan holat nazarda tutiladi. …Bu yo‘nalishda til va ong munosabatiga alohida e’tibor qaratiladi. Unga ko‘ra, til ongga berilgan fenomenlarning alohida fenomenologik jihatdan “tozalash” qurilmasidir [7;274-b.]. Demak, ongga berilgan har qanday voqea-hodisa ham reallikka ega bo‘lavermaydi. Ayrimlari ongda, yoxud ong ostida saqlanadi. Til ongdagi hodisalarni, anglab yetilgan tushunchalarni “sintezlab” voqelikka aylantirish vositasi hisoblanadi. Bu jarayon tilning fenomenologik tahlilida yanada oydinlashadi. “Germenevtik yondashuvga ko‘ra, til bu borliqning mustaqil qismi hisoblanadi. Unga ko‘ra, tajribaning shakllanish mexanizmi ham tilda “joylashgan”dir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, til insonning dunyoga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Chunonchi, til yordamida inson voqelikni nazariy bilibgina qolmay, uni hayotiy amaliy “sinovdan” o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu ma’noda, uchlik: dunyoning mohiyati – til – yashashga amal qilinadi” [7;276-b.]. Demak, til vositasida voqelik faqatgina anglanmasdan yoxud nazariy tushunib yetilmasdan, balki amaliy tajribada ham namoyon bo‘ladi. Uning namoyon bo‘lishida turli til vositalari, jumladan, imo-ishoralar, vizual harakatlar, paralingvistik hamda ekstralingvistik harakatlar ishtirok etishi mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Birinchidan, zamonaviy jamiyatda tilning zamonaviy shakl va imkoniyatlari kengayib bormoqda. Uning vazifalari tobora murakkab va serqirra ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Shundan kelib chiqib, ta’lim va tarbiya jarayonida tilning konstruktiv mohiyatini yanada chuqur anglash, tizim taraqqiyotiga xizmat qilish imkoniyatlarini nazariy-falsafiy jihatdan ochib berish zaruratga aylanmoqda.

Ikkinchidan, ta’lim va tarbiya jarayonida til ilmiy, mantiqiy, kreativ, kognitiv, proyektiv tafakkur tarzini shakllantirib, kommunikativ, konstruktiv, regulativ funksiyalarni bajaradi hamda haqiqatni voqelikka aylantirishda, shuningdek, bahs san’ati, muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, til ta’lim va tarbiya taraqqiyotini belgilab beruvchi, jamiyatning progressiv rivojini ta’minlashga xizmat qiluvchi, inson ongi va tafakkuri, bilishi natijadorligini, ko‘lami va samaradorligini ko‘rsatib beruvchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Bekmirzayev N. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari (o‘quv qo‘llanma). T., ‘Fan”, 2007.

(2). Gusserl E. Logicheskie issledovanie. M., 1998.

(3). Лингвопоэтика русской литературы эпохи постмодерна. СПб., изд-во С.-Петерб. ун-та, 2007.

(4). Липкин А.И. (ред.). Философия науки. “ЭКСМО”, 2007.

(5). Mamadiyeva N. Falsafa (mantiq qismidan). O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2011.

(6). Файзихўжаева Д. Мантиқ: изоҳли луғат. Т., “Tamaddun”, 2015.

(7). Xudayberganov R. Tilning ilmiy-falsafaiy xususiyatlari. Oriental Renaissance. Innovative, educational, natural and social sciences. 3(1/2), Jan., 2023.

(8). Hamdamova A. Falsafa. T., 2008.

(9). Ergasheva M. Ta’lim taraqqiyoti: sinergetik tahlil. Samarqand, SamCHTI, 2022.

(10). Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Falsafa. Darslik, Samarqand, SamDU, 2021.

Ergasheva Maxbuba Xotambekovna (Sharof Rashidov nomidagi SamDU professori (v.b), f.f.d. (DSc); maxbubaergasheva84@gmail.com)

O‘ZBEK FALSAFASIDA ZARDO‘SHTIYLIK TA’LIMOTI VA “AVESTO”NING TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya. *Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston ilm-fan, din, falsafa, adabiyot, san’at qadimdan rivojlangan hududlar sarasiga kiradi. O‘zbekiston zaminida qadimiy diniy va falsafiy tafakkur rivojining yorqin misoli sifatida muqaddas tarixiy yodgorlik “Avesto”ni keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Bu muqaddas asarda ekologiya, falsafa va tarix sohalariga oid bilimlar barobarida ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy, maishiy masalalarga ham katta e’tibor qaratilgan. Jumladan, “Avesto” tufayli qadimgi ajdodlarimiz ongiga ilm, qalbiga ro‘shnolik, qo‘liga hunar olishga intilishgan. “Avesto”ni o‘ziga xos diniy-falsafiy manba sifatida tadqiq etish XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo‘lishiga qaramay bu manba haqidagi ilmiy munozaralar hamon davom etmoqda. “Avesto”, falsafiy, ma’naviy, ma’rifiy, axloqiy, siyosiy, huquqiy barhayot g‘oyalari bilan bugungi kun falsafiy va ilmiy dunyoqarashini, tafakkur tarzini shakllantirish uchun ko‘mak bera oladi.*

Kalit so‘zlar: *“Avesto”, zardushtiylik, ma’naviy meros, Markaziy Osiyo falsafasi, falsafiy tafakkur, ezgulik, yovuzlik, axloq, falsafiy-metodologik tahlil.*

ЗОРОАСТРИЙСКОЕ УЧЕНИЕ И РОЛЬ «АВЕСТЫ» В УЗБЕКСКОЙ ФИЛОСОФИИ

Аннотация. *Центральная Азия, в частности Узбекистан, является одним из регионов, где с древнейших времен развивались наука, религия, философия, литература и искусство. В качестве яркого примера развития древней религиозно-философской мысли на земле Узбекистана уместно привести священный исторический памятник «Авеста». Большое внимание также уделяется социально-экономическим, духовно-этическим, образовательным, бытовым вопросам. В частности, благодаря «Авесте» наши древние предки стремились приобрести знания в уме, просвещение в сердце и умения в руках. Несмотря на то, что исследование «Авесты» как уникального религиозно-философского источника началось во второй половине XVIII века, научные дискуссии об этом источнике продолжаются до сих пор. «Авеста» с ее философскими, духовными, просветительскими, нравственными, политическими, правовыми жизненными идеями может помочь сформировать философско-научное мировоззрение и образ мышления современности.*

Ключевые слова: *“Авеста”, зороастризм, духовное наследие, среднеазиатская философия, философское мышление, добро, зло, этика, философско-методологический анализ.*

ZOROASTRIAN TEACHING AND THE ROLE OF THE AVESTA IN UZBEK PHILOSOPHY

Annotation. *Central Asia, in particular Uzbekistan, is one of the regions where science, religion, philosophy, literature and art have developed since ancient times. As a striking example of the development of ancient religious and philosophical thought on the soil of Uzbekistan, it is appropriate to cite the sacred historical monument “Avesta”. Much attention is also paid to socio-economic, spiritual, ethical, educational, and everyday issues. In particular, thanks to the Avesta, our ancient ancestors sought to acquire knowledge in the mind, enlightenment in the heart and skills in the hands. Despite the fact that the study of the “Avesta” as a unique religious and philosophical source began in the second half of the 18th*

century, scientific discussions about this source continue to this day. "Avesta" with its philosophical, spiritual, educational, moral, political, legal life ideas can help shape the philosophical and scientific worldview and way of thinking of our time.

Keywords: *"Avesta", Zoroastrianism, spiritual heritage, Central Asian philosophy, philosophical thinking, good, evil, ehics, philosophical and methodological analysis*

Kirish (Introduction). Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston ilm-fan, din, falsafa, adabiyot, san'at qadimdan rivojlangan hududlar sarasiga kiradi. O‘zbekiston zaminida qadimiy diniy va falsafiy tafakkur rivojining yorqin misoli sifatida muqaddas tarixiy yodgorlik "Avesto"ni keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Bu muqaddas asarda ekologiya, falsafa va tarix sohalariga oid bilimlar barobarida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy, maishiy masalalarga ham katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, "Avesto" tufayli qadimgi ajdodlarimiz ongiga ilm, qalbiga ro‘shnolik, qo‘liga hunar olishga intilishgan. "Avesto"ni o‘ziga xos diniy-falsafiy manba sifatida tadqiq etish XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo‘lishiga qaramay bu manba haqidagi ilmiy munozaralar hamon davom etmoqda. "Avesto" O‘zbekiston diniy-falsafiy tafakkuri taraqqiyotidagi muhim manba hisoblanadi. Ma'lumki, zardushtiylik ta'limoti hamda uning muqaddas diniy va falsafiy manbasi "Avesto" Amudaryo sohillarida, Xorazm o‘lkasida vujudga kelgan. Professor B.O.To‘rayev ta'biri bilan aytganda: "Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekiston hududida eng qadimgi falsafiy fikrlar tarixini miloddan 6–7 ming yillar muqaddam qadimgi Xorazm tuprog‘ida shakllangan zardo‘shtiylik diniga asoslangan sivilizatsiyadan boshlash to‘g‘riroq bo‘lur edi. Bu davrlarda kishilar muqaddas sanamlar va qudratli kuchlarga sig‘inib, bu kuchlardan najot topish maqsadida ularga e'tiqod qila boshlaganlar [8]. Ayni paytda bunday kuchlar to‘g‘risidagi dastlabki falsafiy tasavvurlar vujudga kelgan" [2;136-b.]. Ushbu falsafiy tasavvurlar zamirida dunyoni dualistik asosida anglash yotadi. Insoniyat ezgulik va yovuzlik, yorug‘lik va zulmat, suv va olov, yaxshi va yomon ilohlar hamda shu kabi barcha narsa va hodisalarning qarama-qarshi tomonlari haqida fikr yurita boshlashgan. "Avesto" yakkaxudolikka asoslangan dunyodagi birinchi jahon dini bo‘lib, undagi barcha asosiy g‘oyalar hozirgi jahon dinlarida ham o‘z ifodasini topgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). O‘zbekistonda 2001-yil "Avesto"ning 2700 yillik yubileyi o‘tkazilishi munosabati bilan olib borilgan tadqiqotlar natijasida bu kitobning vatani qadimgi Xorazm ekanligi haqidagi g‘oyani ilgari suruvchi tadqiqotchilar soni ancha ko‘paydi. Ayniqsa, F.Sulaymonova, M.Umarzoda, A.Qayumov, A.Mahkam, T.Mahmudov, A.Sagdullayev, M.Is'hoqov, M.Homidov, G.Mahmudova, S.Arifxonova kabi o‘zbek olimlarining avestoshunoslik borasida olib borgan tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir.

"Zardushtiylik degan nom dinga nisbatan shartli ravishda o‘rta asrlardan boshlab ishlatiladi. Bu hol dinni uning payg‘ambari nomi bilan atashdir. Aslida, Zardusht dini Mazda Yasna deb atalgan, ya'ni Mazdaga "Mutlaq oqil" zotga sig‘inish demakdir" [3;4-b.]. Zardusht falsafasining shakllanishi butun dunyo dinlarining shakllanishiga asos bo‘la oldi. Zardusht falsafasi Markaziy Osiyoda yashagan ajdodlarimizning ilk falsafiy fikrlari to‘g‘risida qimmatli ma'lumotlarga ega bo‘lishimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda, asosan, mustaqillik yillarida avestologiya sohasida keng ko‘lamdagi tadqiqotlar amalga oshirildi. 2001-yil Avestoshunos olim Asqar Mahkam tomonidan "Avesto" kitobining o‘zbek tiliga tarjima qilinishi bu sohadagi ilmiy va amaliy yutuqlardan biri bo‘ldi. Shuningdek, o‘zbek avestologiyasi sohasida M.Is'hoqovning Yasht va Videvdot qismlari o‘zbek tiliga tarjima qilishi muhim tadqiqotlardan biri bo‘ldi. Shu bilan birga, 2001–2020-yillar davomida O‘zbekistonda avestologiya sohasida muhim tadqiqotlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda ham barcha fan tarmoqlari qatori falsafada "Avesto" qadimiy falsafiy manba sifatida ko‘plab faylasuf olimlarimiz tomonidan o‘rganilmoqda. Uning ontologik, gnoseologik va sinergetik tahlili yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, D.Bozarov "Avesto"dagi sinergetik o‘zaro muvofiqlik tomonlarini, B.O.To‘rayev "Avesto"da borliq va vaqt masalasini [9;223-b.], M.Abdullayeva "Avesto"dagi sinergizmni [4;51-b.], N.Safarova, G.Bekpulatova zardushtiylikdagi ekologik munosabatlarni (7;64-b.), G.Mahmudova Avesto metodologiyasida ilmiy bilish masalalarini [5;38-b.], S.Arifxanova zardushtiylikda borliq masalalarini, B.Rahmonov "Avesto"da ruhiy-ma'naviy o‘z-o‘zini tashkillashtirish g‘oyalarini tadqiq etib kelishmoqda [6]. Biz esa o‘z tadqiqotlarimizda "Avesto"dagi falsafiy, ma'naviy, axloqiy g‘oyalarni zamonaviy metodologiyalardan biri hisoblangan sinergetika kategoriyalari orqali tadqiq etib kelmoqdamiz [11;63, 12;94, 13;28, 14;159, 15;55]. Zero, zardushtiylik ta'limoti va uning muqaddas kitobi "Avesto"da faqatgina diniy qarashlar emas, balki dunyoviy, ilmiy, axloqiy, hatto, davlat boshqaruviga oid qoidalar ham bayon etiladi. Shu boisdan O‘zbekistonda aksiologik jihatdan avestologiyaga qiziqish ortib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot ishida ilmiy bilishning analiz va sintez, tizimli tahlil, obyektivlik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik, sinergetik tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). "Avesto"ning falsafiy qimmati shundaki, u insonlarni tabiat, jamiyat butun borliq haqidagi turli-tuman fikrlarining yagona sistemaga solishga imkon berdi. "Avesto" olam, tabiat, borliq, inson, jamiyat haqida falsafiy bilimlarning ilk sistemalashtirilgan, tartibga solingan falsafiy manbalaridan biridir. Asarda inson va tabiatning uyg'unligi, tabiatni, olamni asrash orqali inson o'z-o'zini asrashi mumkinligi e'tirof etilgan. Bu olamdagi sabab va oqibat haqidagi dastlabki falsafiy g'oyalarning ifoda etilishidir.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, bizni qurshab turgan olam substansiyasini to'rt element (chor unsur): tuproq, suv, havo va olov tashkil etadi. Olam borlig'ining eng murakkab shakli hisoblanmish odam ham o'sha unsurlar asosida o'zining mavjudligini namoyon etadi. Bu bog'liqlik, o'z navbatida, olamga qanday munosabatda bo'lsang, o'zingga shunday shunday munosabatda bo'lgan hisoblanasan, degan mantiqiy xulosani keltirib chiqargan. Shuning uchun tabiat va inson o'rtasidagi aloqadorlikka tahdid solmaslik darkor. Zero, ular olamning yaxlit bir sistema sifatida barqarorligini ta'minlovchi asosiy elementlar hisoblanadi. Ontologik nuqtayi nazardan qaraganda, zardushiylar kosmogenezisi – bu nodir falsafiy va diniy ta'limot hisoblanib, o'zining ilmiylik darajasi bilan insonni lol qoldiradi. Borliqni, hayotni ulug'lash "Avesto"dagi eng asosiy g'oya hisoblanadi. "Avesto"da zikr etilgan quyidagi dialogik g'oyalar orqali biz ajdodlarimizning olam, tabiat, borliq xususidagi falsafiy fikrlari doirasi azal-azaldan naqadar keng bo'lganligiga yana bir bor amin bo'lamiz.

"Ey Axura! Sendan o'tinaman, haqiqat bilan javob ber: Ibtidoda borliqning yaratuvchisi va haqiqatning otasi kim edi?"

"Ey Axura. Sendan o'tinaman, haqiqat bilan javob ber: Oyoqlarimiz ostiga to'shalgan zaminni kim yaratdi? Boshimizga yiqilmay turgan osmonni yaratgan kim?"

"Meni nega yaratding? Kim meni ato ayladi. G'azab va adovat, qabihlik va gustohlik, egrilik va tubanlik meni butkul qurshab olgandir…" [1;192–193-b.].

Demak, "Avesto"da bayon etilgan ushbu g'oyalar "Borliq nima?", "Yer nima?", "Osmon nima?", "Bor bo'lishning o'zi nima?" "Quyosh va yulduzlar nima?" kabi falsafiy savollarga javoblarning ilk kurtaklari haqidagi ma'lumotlardir. Ammo hanuzgacha ko'plab falsafiy adabiyotlarda ilk borliq va olam yaralishi xususidagi falsafiy g'oyalar taraqqiyoti haqida fikr yuritilganda, asosan, Hindiston, Xitoy, Gretsiya, Rim tilga olinadi. Ayniqsa, Hind "Vedalar"i falsafiy qarashlarning kurtaklari, deya e'tirof etiladi. Ammo "Vedalar"da bayon etilgan borliqning bosh manbayi, moddiy ibtidosi deb hisoblangan suv, olov, havo, tuproq haqidagi mulohazalar aynan o'sha davrlarda yaratilgan muqaddas "Avesto" g'oyalarida ham o'z aksini topgan.

"Avesto" kitobidagi tabiat xususida berilgan quyidagi g'oyalar diqqatga sazovordir.

"Zardusht Axura Mazdadan so'radi:
– Ey Axura Mazda,
Zaminni hammadan ham baxtiyor qiluvchi zot kim?
Axura Mazda javob berdi:
– Ey Zardusht!
Kimki uni yaxshilab haydasa va ziroatga tayyorlasa:
– Ey Zardusht:
Kimki g'alla eksa, u haqiqatni ekadi…" [1;358-b.].

"Avesto"dagi falsafiy g'oyalar shuni anglatadiki, dunyo, koinot, tabiat haqidagi tasavvurlarni ikki qutb o'rtasidagi kurash tarzida tushunish, barcha hodisalar voqealar zamirida, ezgulik va yovuzlik, nur va zulmat, hayot va o'lim o'rtasidagi kurash yotadi. Zardushtiylikning ushbu fikri juda ham muhim – yovuzlik bor edi, hozir mavjud, lekin kelajakda bo'lmaydi. Bundan tashqari, zardushtiylik "dunyo paydo bo'lishi haqidagi topishmoqni" javobini topib berdi.

Ma'lumki, butun olam, koinot paydo bo'lgandan buyon doimo o'zgarishda, harakatda, rivojlanishda bo'lgan murakkab sistema hisoblanadi. Olam mavjud ekan, u doimo zamonlar o'tgan sari murakkablashib boraveradi. Olimlar tadqiqotchilar uni qancha tadqiq etib, yangi qirralarini kashf etishmasin, yana o'rganilmagan yangi-yangi tomonlari kelib chiqaveradi. "Avesto"da ham aynan olamning, borliqning, tabiatning doimo harakatdaligi, rivojlanishdaligi, murakkab va xilma-xilligi ta'kidlanadi.

"Avesto"da butun olam, insoniyat, tuproq, suv, olov, umuman, yerdagi barcha moddiy va ma'naviy hayot "zaminiy tiriklik", deb tushunilsa, koinot, yulduzlar, quyosh, oy, sayyoralar "osmoniy tiriklik", deya

ta’tirof etiladi. “Avesto” g‘oyalariga ko‘ra, “Odamzod “kichik olam” (olami sag‘ir, jahoni ko‘chak)dir. Uning vujudidagi har bir unsur tabiatda ham mavjud. O‘limdan so‘ng yana o‘sha tabiatdagi unsurga qaytish qiladi. Rastoxez – qiyomat ro‘y berganda so‘ngaklari tuproqdan, qoni suvdan, sochlari giyohlardan, tirikligi olovdan qaytib keladi” [1;159–160-b.]. Ushbu fikrlardan shuni anglaymizki, “Avesto” g‘oyalarida moddiy va ma’naviy olam bilan bir qatorda, ilohiy olam haqida ham talaygina mulohazalar mavjuddir. Zardushtiylikda, asosan, olam haqidagi murakkab masalalar, uning kelajagi, yaratilishi, o‘tmishiga oid mulohazalar ilohiy qudrat hosilasi sifatida talqin etiladi. Olam ikkiga, ya’ni “bu dunyo” – o‘tkinchi olam va “narigi dunyo” – abadiy olamga ajratib tushuntiriladi. “Bu dunyo”dagi mashaqqatlari evaziga inson “narigi dunyo”da rohat-farog‘atga muyassar bulishi uqdiriladi. Shuning uchun ham Zardusht o‘z g‘oyalari bilan insonlarni faqat ezgu amallar sari boshlagan. Tangri Axura Mazdadan odamzotni ishonchsizlikdan va sustniyatlikdan, qarindosh-urug‘lar kaltafahmligidan, hamkorlar, yaqinlar aldovidan, do‘st-yorlar fitnasidan asrashini, himoya qilishini so‘ragan. Zardusht o‘z g‘oyalarida insoniyat uchun bu olamda eng maqbul, eng to‘g‘ri, eng ezgu yo‘lni ko‘rsatgan. “Avesto” g‘oyalariga ko‘ra, harakat manbayi va harakatlantiruvchisi bu – oliy xudo – Axura Mazdadir. “Avesto”da o‘qiymiz:

– Ey Axura!

Sendan o‘tinaman, haqiqat bilan javob ber:

–Ibtidodi borliqning yaratuvchisi kim?

–Quyosh va yulduzlar gardishiga asos solgan zot kim?

… Ashah, haqiqatdan, eshitdimki, Axura uning (olamning, borliqning) yaratuvchisi…

… Alhol, Olamlarni yaratgan Zot.

Axura menga aytgan narsalar xususida so‘zlamoqchiman. Odamlarga ushbu so‘zlarni tinglamoqlik eng ulug‘ a’moldir [1;22-b.].

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlashimiz o‘rinliki, “Avesto” butun jahon falsafiy fikrlar taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, ilk bora olam va borliqning vujudga kelishi haqidagi qarashlarni bayon etgan diniy, falsafiy, tarixiy manbalardan biri sanaladi.

“Avesto” insonning axloqiy va ma’naviy kamoloti borasidagi qarashlar ilgari surilgan juda nodir asar hisoblanadi. Asarda ilgari surilgan “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” g‘oyasi necha ming yillar o‘tgan bo‘lsa-da, o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. “Avesto”ning axloqiy-falsafiy ta’limoti uch asosning birligiga tayanganligi alohida qayd etiladi. Undagi o‘zaro muvofiqlik xislati yagona xudo–Axura Mazda timsolida ko‘rsatilgan. Shuningdek, tartib timsoli sifatida Axura Mazda, xaos timsoli sifatida Axriman keltirib o‘tilgan. Insonning qadri yaxshilikning g‘alabasi uchun kurashda bee’tibor qolmasligida, yashash tarzida, ma’naviy qiyofasida va ijtimoiy hamkorlikda o‘z ifodasini topganligi diniy-falsafiy g‘oyalar asosida isbotlab beriladi. “Avesto” g‘oyalariga ko‘ra, olov kishilarni barcha gunohlardan poklovchi sehrli kuch hisoblanadi va unga bag‘ishlab maxsus otashxonalar qurishgan. Hatto, bugungi kungacha olovning poklovchilik talqini o‘zbek xalqi ma’naviyatida qadriyat sifatida saqlanib kelmoqda.

Keyingi yillarda “Avesto”dagi huquqiy, diniy, falsafiy, tibbiy, geografik, hatto astronomik g‘oyalar ham ko‘plab o‘zbek faylasuflari tomonidan tadqiq etilmoqda. O‘zbek Avestoshunos olimasi R.Urazova fikricha, “O‘zbekistonda Avestoshunoslikning ilmiy asoslari endigina yaratilmoqda” [10;522-b.). Umuman olganda, o‘zbek xalqining qadimiy ma’naviy meros namunasi hisoblangan “Avesto” kitobi hamda unda ilgari surilgan falsafiy, ma’naviy-axloqiy, ma’rifiy, ilmiy-nazariy g‘oyalarni tadqiq etish bugungi global taraqqiyot davrida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). 1. “Avesto”ning yaratilishi Markaziy Osiyo xalqlarinigina emas, balki butun jahon dinlari va falsafasining shakllanishiga sezilarli ta’sir etdi. “Avesto”, falsafiy, ma’naviy, ma’rifiy, axloqiy, siyosiy, huquqiy barhayot g‘oyalari bilan bugungi kun falsafiy va ilmiy dunyoqarashini, tafakkur tarzini shakllantirish uchun ko‘mak bera oladi.

2. “Avesto”dagi falsafiy g‘oyalarni tahlil etishda, ushbu fikrlarni bugungi davr muhitiga moslashtirishda an’anaviy tadqiqot metodologiyalari bilan birga, zamonaviy falsafiy-ilmiy metodologiyalardan, shuningdek, sistemali, sinergetik va germenevtik yondashuvdan oqilona foydalanish asarning yangi tomonlarini ochib beradi.

3. Bugungi kunda turli global muammolar – ekologik halokatlar, terrorizm, ekstrimizm, odam savdosi, giyohvandlik, turli kasalliklar avj olayotgan bir zamonda noyob g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan, odamlarni ezgulik sari da’vat eta oladigan, yaxshilikka ergashtiradigan muqaddas “Avesto” kitobini yangi ilmiy, falsafiy metodologiyalar orqali hali ochilmagan tomonlarini kashf etib, odamlar qalbi va ongiga yetkazish, singdirish muhim funksional ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). “Авесто”. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. Т., “Шарқ”, 2001.

(2). “Авесто”. “Видевдот” китоби. М.Исҳоқов таржимаси. Т., ТДШИ нашриёти, 2007.

(3). “Авесто”. Яшт китоби. М.Исҳоқов таржимаси. Т., “Шарқ”, 2001.

(4). Абдуллаева М.Н. “Авесто” в аспекте синергизма. «Авесто қадриятлари. Замонавийлик, дин ва фалсафа» мавзусидаги халқаро илмий-назарий конференция материаллари, Т., “Навруз”, 2013.

(5). Махмудова Г., Арифханова С. Зардўштийлик фалсафаси. Т., “Noshir”, 2014.

(6). Рахманов Б. Инсоннинг руҳий-маънавий ўз-ўзини ташкиллаштиришининг фалсафий илдизлари (монография). Самарқанд, Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2014.

(7). Сафарова Н., Бекпулатов Г. The synergetic analysis of the ecological points in the Avesta. «Авесто қадриятлари: Замонавийлик, дин ва фалсафа» мавзусидаги халқаро илмий-назарий конференция материаллари, Т., “Навруз”, 2013.

(8). Тураев Б. Фалсафа тарихининг қисқача баёни. Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2010, 2-сон.

(9). Тураев Б. Борлиқ: моҳияти, шакллари, хусусияти. Т., “Фалсафа ва ҳуқуқ”, 2011.

(10). Уразова Раъно. Мустақил Ўзбекистонда зардуштийлик илоҳиёт тизими генезиси ўрганилиши масалаларига доир. Ўтмишга назар. Взгляд в прошлое. Look to the past. № SI, 2020.

(11). Эргашева М. Духовно-психологическая самоорганизация человека в идеях “Авесты”. Вопросы гуманитарных наук. Россия, 2013, № 3, с. 63–68.

(12). Эргашева М. Синергетический подход к некоторым идеям в “Авесте”. Credo-new. С-Петербург, 2015.

(13). Ergasheva M. The synergestic nature of the struggle between good and evil in Zoroastrianism. International scientific journal «Theoretical & Applied Science». France. Philadelphia, USA, 2015, № 09.

(14). “Авесто”нинг синергетик таҳлили. Монография, Самарқанд, СамДУ, 2016.

(15). Ergasheva M. Djavatova O. “Avesto” a philosophical source calling for goodness. JMEA Journal of Modern Educational Achievements 2023, Volume 10.

Qosnazarova Palzada Quanishbaevna (Nukus davlat Pedagogika instituti doktoranti; palzadaquwanishbaevna@gmail.com)

JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDALARINING IJTIMOIY, MA’NAVIY-MA’RIFIY QARASHLARI

Annotatsiya. *Maqolada jadidchilik harakatining etakchi rahnamolaridan Behbudiy va Abdurauf Fitrat faoliyati va unga bog‘liq dunyoqarashlari, kelajak poydevori bo‘lgan yoshlarni nafaqat huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, balki ma’naviy-madaniy, ijtimoiy va axloqiy yetuk, mustaqil fikrlovchi barkamol avlodni voyaga yetkazish bo‘yicha olg‘a surgan g‘oyalari, I.Gasprinskiyning taraqqiyotga eltadigan birdan-bir ishga yaroqli tarbiya usuli sifatidagi “usuli jadid” targ‘iboti, jadidlarning tuzgan siyosiy partiyalari va ularning qatag‘onga uchrashlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *jadidlar harakati, usuli jaded, oila, milliy mafkura, jadid maktablari, bosmachilik urushi, Qo‘qon Muxtoriyati, Oktabr jvoqealari.*

Косназарова Палзада Куанышбаевна (докторант Нукусского государственного педагогического института; palzadaquwanishbaevna@gmail.com)

СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНЫЕ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМ

Аннотация. *В статье раскрываются взгляды Бехбудий и Абдурауфа Фитрата, одних из ведущих лидеров джадидского движения, идеи, выдвинутые И.Гаспринским как единственный работоспособный метод образования, ведущий к развитию, являются идеями молодых людей, которые считаются фундаментом будущего. пропаганда, политические партии, созданные джадидами, и их встречи с изгнанниками.*

Ключевые слова: *Джадидское движение, метод джадидов, семья, национальная идеология, джадидские школы, печатная война, Кокандская автономия, октябрьские события.*

Kosnazarova Palzada Kuanyshbaevna (Doctoral student of Nukus State Pedagogical Institute palzadaquwanishbaevna@gmail.com)

SOCIAL, SPIRITUAL AND EDUCATIONAL VIEWS OF THE REPRESENTATIVES OF THE JADIDISM MOVEMENT

Annotation*. In the article, Behbudiy and Abdurauf Fitrat, one of the leading leaders of the Jadid movement, and their worldviews related to it, the ideas put forward by I. Gasprinsky as the only workable education method that leads to development, the ideas of I. Gasprinsky, as the only workable method of*

education that leads to development, are the ideas of young people who are the foundation of the future. propaganda, the political parties formed by the Jadids and their encounters with the exile.

***Key words**: Jadid movement, jaded method, family, national ideology, jadid schools, printing war, Kokan Autonomy, October events.*

Kirish. O‘tgan asrning boshlarida yashab ijod etgan jadidchilik namoyandalari jamiyatni ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, xalqni, ayniqsa, yoshlarni ilm-ma’rifatga etaklashni o‘zlarining yuksak maqsadi qilib belgilashgan. Ular yoshlar tarbiyasida diniy va dunyoviy bilimlarni bir-biridan ajratmasdan, milliy o‘zlikni saqlagan holda zamonaviylikka erishishga harakat qilishgan. Aynan shu jihatdan qaralganda Mahmudho‘ja Behbudiy xalqni ilm-ma’rifatli bo‘lishga chorlab, jamiyatni dunyoga ochiq ko‘z bilan qarashni, zamonaviy xo‘jalik yuritishda bilim, fan bilan qurollanib faollik ko‘rsatishni talab qilib, “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur” [1;200-b.], degan haqqoniy fikrlari bilan xalqni uyg‘otishga harakat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu bo‘yicha M.Behbudiy, A.Fitrat, I.Gaspirinskiy kabi jadidlarning asarlari tahlil qilindi. Ilm-ma’rifat, milliy tarbiya, oila, ma’naviyat masalalari bo‘yicha ularning ilgari surgan g‘oyalari, ayniqsa, “Oila”, “Padarkush”, “Munosib farzand” kabi asarlar asosida izchil ilmiy yondashuv ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-komparativ tahlil, kontent-analiz va konseptual yondashuv usullaridan foydalanildi. Jadidlar asarlari tematik jihatdan guruhlab o‘rganildi. Shuningdek, ijtimoiy-ma’naviy g‘oyalar zamonaviy qadriyatlar bilan qiyoslab baholandi. Nazariy manbalar bilan bir qatorda amaliy fikrlar ham tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Jadidchilik harakatining etakchi rahnamolaridan biri Behbudiy o‘z davrining buyuk donishmandidir. Behbudiyning maorif masalasidan tortib mustaqillik mavzusigacha bo‘lgan barcha asarlari – Turkistonning taqdirini belgilaydigan muhim muammolarga bag‘ishlangan. Uning barcha fikrlarini jamiyat va mamlakat rivojlantirishning izchil nazariy konsepsiyasi sifatida ko‘rish mumkin.

Mahmudho‘ja Behbudiy faoliyati va unga bog‘liq dunyoqarashida quyidagi uch qoidani olg‘a surdi:

1) zamon talablaridan kelib chiqib ish ko‘rish;

2) millat taqdiri va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlarni yetishtirish;

3) milliy biqiqliqdan chiqib, dunyo miqyosida fikrlay oladigan, chet ellar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy munosabatlar va muloqotlarda jahon andozalari darajasida ish yuritadigan millatga aylanish. Asrimiz boshlarida ilgari surilgan bu qarashlar hozirgi davrga hamohangdir va bu narsa ulug‘ siymo naqadar uzoqni ko‘ra bilganidan dalolat beradi [2;48-b.].

Taraqqiyotga eltadigan birdan-bir ishga yaroqli tarbiya usuli sifatida I.Gasprinskiyning “usuli jadid” ini tinmay targ‘ib qiladi. Hayotning turli sohalariga taalluqli zamon ruhidagi bilimlarni yuksak tarbiyaviy talabchanlik bilan boshqalarga qaraganda qiziqarliroq, oddiyroq tarzda, xalq tilida yoyishga harakat qiladi.

Jadidchilik harakati namoyandalarining qarashlarida sog‘lom millatning vujudga kelishida oila, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo‘yishgan, ayniqsa, insonning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o‘rni, ota -ona va yaqin kishilarning yo‘naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e’tibor berishgan. Ajdodlarimiz faqat oiladagina shakllanishi mumkin bo‘lgan sifatlar–halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, rostgo‘ylik kabi bir qator insoniy fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo‘yishlari bilan birgalikda, insoniy munosabatlarda namoyon bo‘ladigan yuksak sifatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o‘tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko‘rsatmalarni o‘z falsafiy-axloqiy, badiiy-ilmiy, she’riy va nasriy qarashlarida ifodalab berganlar.

O‘zining salmoqli ijodi bilan jadidchilik g‘oyalarini mazmunan boyitgan Abdurauf Fitrat “Oila” asarida oilaning millat va jamiyat asosini tashkil etishini ta’kidlab, uning davlat, huquq, ma’rifat, tibbiyot bilan bog‘liq tomonlarini muhokamaga qo‘yadi. Oiladagi muhit, farzand tarbiyasi kabi masalalarni butun bir millatning taqdiri bilan bog‘lab ko‘rsatadi. U “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kushli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi”, deb yozadi [3;13-b.].

Turkiston xalqlari tarixida katta o‘rin tutgan jadidchilik harakati murakkab va tarixiy jihatdan serqirra yo‘lni bosib o‘tdi. Jadidlar turli mamlakatlar tajribasiga tayanib, islohatlarni milliy asosda qayta ishlashga intilishdi, Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g‘oyasi anashu yo‘nalishda shakllanib yetildi. Jadidlarning millatimiz oldidagi xizmatlaridan biri shuki, ular Turkiston xalqlari va millatlarning qonun oldida tengligi g‘oyasini ilgari surilishidir. Ularning fikriga ko‘ra, Turkiston fuqarolari jamiyat hayotining barcha iqtisodiy-siyosiy, huquqiy va madaniy jabhalarida teng huquqqa ega bo‘lishlari lozimdir.

Jadidlar Ta’sis Majlisidan o‘rin olish uchun juda ko‘p urindilar, bu jarayonda taraqqiyparvarlar tomonidan tuzilgan “Sho‘roi Islomiya” va jadidlarning konservativ qismidan tashkil topgan “Ulamo” jamiyati kabi tashkilotlarga bo‘linish yuz berganligiga qaramasdan, birlashish yo‘lidan bordilar. Natijada bu Turkiston federalistlari “Turk Adami markaziyati” partiyasining vujudga kelishiga olib keldi.

Biroq Turkistondagi 1917-yil Oktabr voqealari, bolsheviklarning hokimiyatga kelishi jadidlarga o‘z maqsad-niyatlarining amalga oshishiga imkon bermadi. Shunga qaramay, 1917-yil 26-noyabrda Qo‘qonda o‘lka musulmonlarining IV Favqulodda qurultoyini chaqirdilar va Federativ Rossiya Respublikasi tarkibida avtonomiya huquqiga asoslangan Turkiston Muxtoriyatini e’lon qildilar. Uch oygina yashagan Avtonom Respublika tarixi qonli sahifalardan iborat bo‘lib, jadidlar taqib ostiga olindilar va 1937-yilga kelib, g‘oyaviy qarashlari mavjud tuzum mafkurasiga to‘g‘ri kelmaganligi uchun ko‘pchiligi qatag‘onga uchradilar. Jadidlar birinchi bo‘lib mustaqillik milliy mafkurasiga asos soldi, ozodlik, erk, milliy g‘urur va sha’n haqida, buyuk ajdodlari, boy madaniyati, umuman mustamlaka istibdodi davrida unutilayozgan qadriyatlar to‘g‘risida jar soldi, ovoza qildi [4;87-b.].

Jadidlar jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishning evolutsion islohot yo‘li deb bildilar, ijtimoiy-davriy tuzumni o‘zgartirishining eng maksimal effektiv yo‘lini taklif qildilar. Bu ilg‘or qarashli kishilar Forobiy falsafasini davom ettirib, inson aqli bilan borliqning dialektik birligini ochib beradi, deb bilishgan. Aql va borliqning birligi ilohiy aqlda, degan g‘oya ularning falsafasiga singib ketgan [5;74-b.].

Demak, ular ilmiy tushunchalarni diniy e’tiqod bilan muvofiqlashtirishga intiladilar. Jadidlar o‘z falsafiy xulosalari va Qur’oni karim o‘rtasida hech qanday ziddiyat bo‘lishi mumkin emas, deb hisoblaydilar. Jadidchilik harakati ma’rifatchilikning tor doirasidan faoliyat boshlab, siyosiy harakatga aylanib, o‘z oldiga jamiyat va uni boshqarishni qayta qurishdek ulkan vazifalarni qo‘ygan. Ular o‘zlarining g‘oyaviy qarashlarini, harakat dasturlarini shakllantirib, siyosiy partiyalarini tuzgan. Jadidlar harakat dasturining kuchayib borishining va siyosiy tus olganligining bir qator sabablari bor. Shulardan biri jadidchilik harakatiga xorijda o‘qib, chet eldagi milliy taraqqiyparvar harakatlar tajribasini o‘rganib qaytgan yoshlar kelib qo‘shildi.

Ular xalqni madaniylashtirish doirasida cheklanib qolmay, aniq siyosiy vazifalar qo‘yishni talab qildilar. Soliqlarni kamaytirish, ayrim amaldorlar zulmini cheklash, dehqonlar hayotini yaxshilash – shu talablar jumlasidan edi. Jadidlar Turkiston yoshlari zamondan xabardor bo‘lish, fan-texnika yutuqlarini o‘rganishi uchun til bilishi, yomon illatlardan qutulishi, buning uchun islom dinining mohiyatini to‘g‘ri anglay bilishlari kerakligiga katta e’tibor qaratdilar. Yoshlarni millat taraqqiyoti uchun kurashishga chaqiradi.

Turkistonning taraqqiyoti va ravnaqi zamonaviy ta’lim-tarbiya beradigan maktab va oliy dargohlarda tahsil olish, islohotlarni amalga oshirish g‘ayratli yoshlarning harakati, ma’rifatparvarligi, shijoati orqali vujudga keladi deb qaraydi. Bu esa hayotdagi mushkul ishlarda yolg‘iz yoshlarning ilmiy salohiyatidan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Yoshlar tahsilni jadid maktabidan keyin maxsus o‘rta va oliy o‘quv yurtlarida, zanjirsimon davom ettirishlari zarur.

Bu harakatining yana bir muhim jihati, ular o‘z ona tillarining maqomini ko‘tarish va davlat tili sifatida munosabatda bo‘lish kerakligi masalasini ko‘tarib chiqqan edilar. Bu, ayniqsa, 1918-yilning aprel oyida Turkistonda o‘tkazilgan V qurultoyda o‘lkaga avtonomiya maqomi berilishi bilan birga mahalliy xalq tilini rus tili bilan bir qatorda davlat tili sifatida e’tirof etish masalasi qayd etildi. Dinning ijtimoiy mohiyati va vazifalari katta ekanligini ta’kidlagan jadidlar nafaqat islom dini, balki butun dinlarning buyukligini chuqur anglaganlar. “Dinsiz dunyoda yashamoq, deb yozadi Behbudiy, insoniyat va madaniyatdan emas. Dinsiz mutamaddun bo‘lmoq muholdur” [6].

Behbudiy nazarida, din inson ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lib uning e’tiqodidir. Jadidlar diniy bag‘rikenglikni targ‘ib qilish bilan birga unga amal qilgan. Bir millatning ikkinchi bir millat tomonidan kamsitilishini va millatlararo nikohga qarshilarga targ‘ibot ishlarini olib borgan va “har bir musulmon kitobiy xalqlar bilan turmush qurishga muxtordir”, deb ta’kidlagan [7].

Jadidlarning ijtimoiy qarashlarida oila munosabatlari masalalari keng o‘rin tutadi. Ularning fikricha, oila asosini to‘g‘ri qurmasdan va yosh avlodni to‘laqonli to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas va oxir-oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog‘liq.

Bu g‘oyalar Fitratning asarida shunday ifodalanadi: “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi” [4].

Jadid ma’rifatparvarlarining XX asr boshlarida Turkiston xalqlarining mustaqillik uchun kurash tashkil etganlari, kelajakda barpo etilajak huquqiy-demokratik davlat tizimini ishlab chiqqanlari, hatto 20-yil-

larda milliy istiqlol bayrog‘ini ta’sis etib, butun Turkiston xalqlarini shu bayroq ostida birlashtira boshlaganlari ularning tarixiy xizmatlarini belgilovchi asosiy omillardir.

Turkiston Muxtoriyati va uning mazmun-mohiyati uzoq yillar soxtalashtirildi. Uning mohiyatini toraytirib ko‘rsatish maqsadida unga “Qo‘qon Muxtoriyati” degan nom berilib, uning tashkilotchilari “panislomchi”, “panturkchi”, “burjua millatchilari”, “aksil inqilobchilar”, deb atalib keldi. Shuning uchun ham jadidlarning rahbarlarini “milliy burjuaziya” mafkurachisi va sho‘ro hukumatining dushmani sifatida qo‘yilgan ayblar bilan qamoqqa olganlar. Aslida, asr boshida kommunistik bosqin va mustamlakaga qarshi xalqimiz olib borgan milliy ozodlik va mustaqillik kurashi tepasida jadidlar turgan.

Mustabid tuzum o‘zining mustahkamlanishi bilan jadidlarni ichdan bo‘lib yuborishga harakat qildi. Natijada jadidlar uchga bo‘linib ketdilar. Ularning birinchi qismi “bosmachilik urushi”ga qo‘shilib, Vatan ozodligi uchun kurashda shahid bo‘ldilar. Ikkinchi qismi esa kommunistlarning ta’qib va qatag‘onidan qochib, xorijga chiqib ketishga majbur bo‘ldilar. Uchinchi qismi esa kommunistik partiya safiga va sho‘ro hukumati tarkibiga kirib, millat va Vatan manfaatini himoya qilishga bel bog‘laydi. Istiqlol uchun rasman oshkora va mahfiy tashkilot hamda firqalarga uyushib, ikki tomonlama faoliyat yuritadi.

Umuman, jadid ziyolilari quyidagi ezgu ishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo‘lishdi:

–barcha muammolarni qamrab olgan jamiyatni o‘zgartirish konsepsiyasini yaratish;

–millat ongida o‘ziga xos o‘zgarishlar yasash;

–ta’limning xorijiy tajribalarga asoslangan yangi milliy shakl va usullarini yaratish.

Maktablar ochish va ularni darslik hamda qo‘llanmalar bilan ta’minlash. Oilada farzandning oladigan tarbiyasi va intellektual darajasi, ko‘p jihatdan ayollar saviyasiga bog‘liq ekani uchun ayollar ta’limi masalasining oila ta’limi, alohida maktablar tashkil qilish kabi muqobil variantlarini tanlash.

O‘z g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi minbarlar:

–yangi avangard jadid matbuoti, publitsistikasi, adabiyoti va zamonaviy dramaturgiyasiga asos solish;

–Turkistonda ilk “ibratxona” teatrni ishga tushirish;

–madaniy merosni to‘plash, nashr qilish va o‘rganishni yo‘lga qo‘yish;

–davlatchilik va milliy mustaqillik, yangi madaniyat yaratish uchun jasorat bilan kurashish va shu yo‘lda mardona qurbon bo‘lish va boshqalar.

Jadidlar quyidagi ishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo‘lishmadi va ayrim xatoliklarga yo‘l qo‘yishdi: Turkiston muxtoriyati amalga oshsa-da, muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Albatta, bunda chor Rossiyasining Muxtoriyat berishni istamasligi muhim rol o‘ynagan. Ammo, bizningcha, Respublika, ya’ni, davlat qurayotgan kishilar orasida davlat boshqaruvida muhim o‘rin tutuvchi sohalar: zamonaviy iqtisodiyot, jahon yurisprudensiyasi bo‘yicha Rossiya va Yevropada tahsil olgan malakali mutaxassislar nisbatan kamligi ham e’tiborga olinishi lozim. Jadidlarning eng katta xatosi Buxoro va Xivada bolsheviklarga ishonganini, ularni do‘st deb bilib, yordam kutgani, davlat to‘ntarishidan so‘ng muxtoriyatni o‘zimiz boshqaramiz, deb o‘ylagani bo‘lgan.

Xalq ma’naviyatini boyitish yo‘lida olib borilgan kurashlar, milliy matbuot adabiyot va teatrning odamlar tafakkurini oshirishdagi ahamiyati haqida asarlarida kuyunib yozgan, bu borada fidoyilik ko‘rsatgan, alaloqibat qatag‘onga uchraganlar.

Xulosa. Jadid bobolarimiz moddiy qiyinchiliklar, g‘oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay millatning ma’naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas’uliyatli burilish davrida millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg‘usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o‘z zimmalariga oldilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mahmudho‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2006.

(2). Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at. Sharq nashriyot matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent, 2009.

(3). Fitrat Abdurauf. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Toshkent, «Ma’naviyat», 2000.

(4). Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari, Toshkent, 2016.

(5). Turdiyev Sh. Jadidizm masalasiga bag‘ishlangan munozara. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1998, 2-son.

(6). Avvalgi musulmonlardagi madaniyat. “Oyna” jurnali. A.Obloqulov tabdili, Samarqand viloyat “Zarafshon” gazetasi, 1997, 15-iyul.

(7). O‘zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob, Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida, Toshkent, 2000.

Abdupattaev Hasanboy Abdurahmonovich (Qo‘qon davlat unversiteti katta o‘qituvchisi, p.f.f. dok. PhD; abdupattaevhasanboy@gmayil.com)
Saidjonov Akmaldin Adhamjon o‘g‘li (Qo‘qon davlat unversiteti assistent o‘qituvchisi; saidjonovakmaliddin9@gmail.com)

YANGI O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHGA QARATILGAN FAOL IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINI YARATISH: ILMIY-NAZARIY TAHLIL

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy ishda Yangi O‘zbekiston sharoitida kambag‘allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Faol ijtimoiy himoya tizimi tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va zamonaviy yo‘nalishlari ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Tadqiqotda ijtimoiy himoya institutlarining aholini moddiy qo‘llab-quvvatlash, bandlikni ta’minlash, inson kapitalini rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Xususan, davlat tomonidan yo‘lga qo‘yilgan “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” kabi mexanizmlarning samaradorligi va ularning kambag‘allikni kamaytirishdagi o‘rni o‘rganiladi. Shuningdek, O‘zbekiston tajribasi xalqaro amaliyot bilan solishtirilib, mavjud kamchiliklar va istiqbolli yo‘nalishlar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari kambag‘allikni barqaror qisqartirish va ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar*: Yangi O‘zbekiston, kambag‘allik, ijtimoiy himoya, faol ijtimoiy siyosat, inson kapitali, davlat dasturlari, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, bandlik, ijtimoiy adolat, iqtisodiy islohotlar.*

Абдупаттаев Хасанбой Абдурахмонович (старший преподаватель Кокандского государственного университетф, к.п.н.; abdupattaievhasanboy@gmayil.com**),**
Саиджонов Акмалдин Адхамжон угли (старший преподаватель Кокандского государственного университета: saidjonovakmaliddin9@gmail.com)

СОЗДАНИЕ АКТИВНОЙ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ, НАПРАВЛЕННОЙ НА СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация *В данном научном исследовании анализируются реформы, проводимые в условиях Нового Узбекистана в целях сокращения бедности. Понятие активной системы социальной защиты, её сущность и современные направления раскрываются на научно-теоретическом уровне. В исследовании рассматривается роль институтов социальной защиты в материальной поддержке населения, обеспечении занятости и развитии человеческого капитала. В частности, изучается эффективность таких механизмов, как «Железная тетрадь», «Женская тетрадь» и «Молодёжная тетрадь», инициированных государством, и их значение в снижении уровня бедности. Также опыт Узбекистана сопоставляется с международной практикой, выявляются существующие недостатки и перспективные направления. Результаты исследования позволяют выработать предложения и рекомендации, направленные на устойчивое сокращение бедности и обеспечение социальной справедливости.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, бедность, социальная защита, активная социальная политика, человеческий капитал, государственные программы, «Железная тетрадь», «Женская тетрадь», «Молодёжная тетрадь», занятость, социальная справедливость, экономические реформы.*

Abdupattaev Hasanboy Abdurakhmonovich (Senior teacher of Kokand State University, p.f.f. doc. PhD); abdupattaevkhasanboy@gmail.com**),**
Saidjonov Akmaldin Adhamjon o‘g‘li Assistant Lecturer at Kokand State University; Email: saidjonovakmaliddin9@gmail.com)

CREATION OF AN ACTIVE SOCIAL PROTECTION SYSTEM AIMED AT REDUCING POVERTY IN NEW UZBEKISTAN: A SCIENTIFIC AND THEORETICAL ANALYSIS

Annotation. *This scientific research analyzes the reforms carried out in the context of New Uzbekistan aimed at reducing poverty. The concept of an active social protection system, its essence, and modern directions are revealed on a scientific and theoretical basis. The study examines the role of social protection institutions in providing material support to the population, ensuring employment, and developing human capital. In particular, the effectiveness of state-initiated mechanisms such as the "Iron Notebook," "Women’s Notebook”, and “Youth Notebook" is studied, along with their impact on poverty reduction. The experience of Uzbekistan is also compared with international practices, identifying existing shortcomings and promising directions. The results of the research allow for the development of proposals and recommendations aimed at sustainable poverty reduction and the achievement of social justice.*

Keywords: *New Uzbekistan, poverty, social protection, active social policy, human capital, state programs, Iron Notebook, Women's Notebook, Youth Notebook, employment, social justice, economic reforms.*

Kirish. Kambag'allik, dunyoning ko'plab mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda ham ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga tahdid soladigan eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. 2017-yildan boshlab O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonning ijtimoiy siyosatida aholi turmush darajasini yaxshilash, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish va inson resurslarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatida kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan ijtimoiy himoya tizimini yaratish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi hukumati kambag'allikni kamaytirish, aholi turmush darajasini yaxshilash va jamiyatdagi tenglikni ta'minlashga intilmoqda. Ushbu maqolada kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan ijtimoiy himoya tizimi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi, mavjud metodologiyalar va davlat tomonidan qabul qilingan dasturlar sinchiklab ko'rib chiqiladi.

Ma'lumki, iqtisodiy o'sishning barcha qatlamlarga teng ta'sir ko'rsatmasligi mumkin, shuning uchun kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimlarini takomillashtirish doimiy e'tiborni talab etadi. Bu maqolada ijtimoiy himoya tizimining ahamiyati, uni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari, Yangi O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning samarali usullari va bu jarayonda mavjud muammolar tahlil qilinadi.

Faol ijtimoiy himoya tizimi – bu kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Bu tizim aholi qatlamlarining muhtoj qismlarini himoya qilish va ularni jamiyatga faol qatnashuvchi a'zolarga aylantirishga yordam beradi. O'zbekiston hukumati tomonidan taqdim etilgan "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" kabi dasturlar kambag'allikni qisqartirishdagi muhim mexanizmlarga aylangan. Ushbu ilmiy ishda ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi, davlat dasturlarining roli va kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan strategiyalar ilmiy-nazariy tahlil qilinadi.

1. Kambag'allikni qisqartirishning metodologiyasi va tahliliy yondashuvlar. Kambag'allikni qisqartirishda zamonaviy metodologiyalarni qo'llash talab etiladi. Buning uchun asosiy yondashuvlardan biri kvantitativ va sifatli metodlarni uyg'unlashtirishdir. Kambag'allikni o'lchashning statistik metodlari orqali, masalan, "daromad darajasi", "yashash sharoitlari" va "ta'lim darajasi" kabi indikatorlar tahlil qilinishi lozim. "Sosial Well-being Index" va "Human Poverty Index" kabi ko'rsatkichlar yordamida Kambag'allikni qisqartirish jarayonidagi muvaffaqiyatlar va kamchiliklar o'rganiladi.

2. Kambag'allik va ijtimoiy himoya tizimining ilmiy-nazariy asoslari. Kambag'allikni qisqartirishning ilmiy-nazariy asoslari ijtimoiy adolat, tenglik va inson huquqlari kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liqdir. Amartya Senning "qobiliyatlar" nazariyasi kambag'allikni qisqartirishning asosiy yondashuvlaridan biridir. Bu nazariyaga ko'ra, kambag'allik faqat daromadning pastligi bilan emas, balki insonlarning imkoniyatlari va erkinliklari bilan ham bog'liqdir. Shuning uchun kambag'allikni qisqartirishda nafaqat iqtisodiy yordam, balki ta'lim, salomatlik va kasb-hunar ko'nikmalarini oshirishga ham e'tibor qaratish lozim.

3. O'zbekiston Respublikasi tomonidan amalga oshirilayotgan kambag'allikni qisqartirish dasturlari. O'zbekiston hukumati kambag'allikni qisqartirish bo'yicha bir qator muvaffaqiyatli dasturlarni amalga oshirdi. Bular orasida "Xalqni ijtimoiy himoya qilish" va "Ishsizlikni kamaytirish" dasturlari o'zining samaradorligi bilan ajralib turadi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2017–2023-yillarda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan davlat dasturlari orqali kambag'allik darajasi sezilarli darajada kamaydi.

4. Kambag'allikni qisqartirishning ilmiy tahlili va amaliy tavsiyalar. Kambag'allikni qisqartirishda davlat tomonidan ko'rilayotgan choralar samarali bo'lishi uchun bir qator muhim amaliy tavsiyalarni kiritish zarur. Bu tavsiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Davlat tomonidan taqdim etilayotgan ijtimoiiy yordam dasturlarining yanada samarali tizimga keltirilishi.
- O'zbekistonning ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish uchun o'zaro hamkorlik va xalqaro tajribalarni hisobga olish.
- Kambag'allikni qisqartirishning samaradorligini oshirish uchun yangi innovatsion texnologiyalar va elektron platformalar yordamida ijtimoiy xizmatlarni yanada kengaytirish.

Xulosa. Yangi O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy tadbirlari davlat siyosatining ajralmas qismi bo'lib, u nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy

o‘sishning asosiy omili sifatida ham xizmat qiladi. Ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish, kambag‘allikni qisqartirish va aholining barcha qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar davom etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-avgustdagi qarori.
(2). Davlat statistika qo‘mitasining 2023-yilgi kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha hisobotlari.
(3). Karimov I.A. “Yangi O‘zbekiston: ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar”.
(4). O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha 2025-yilgacha belgilangan strategik rejalari.

Ражабов Отабек Атоевич (научный соискатель Бухарского государственного медицинского института кафедры превентивной медицины, общественного здоровья и менежмента здравоохранения; e-mail: radjabov.otabek@bsmi.uz)

ФИЛОСОФИЯ ЗДОРОВЬЯ В ТРУДАХ ВОСТОЧНОГО МЫСЛИТЕЛЯ АБУ АБДУЛЛЫ МУХАММАДА ИБН ИСМАИЛА АЛЬ-БУХАРИ

Аннотация. *В статье рассматриваются философские аспекты понимания здоровья в трудах выдающегося восточного мыслителя и исламского богослова Абу Абдуллы Мухаммада ибн Исмаила Аль-Бухари. Исследование опирается на анализ хадисов, собранных в его знаменитом сборнике “Аль-Джами ас-Сахих”, в которых затрагиваются вопросы физического, духовного и нравственного здоровья. Автор подчеркивает целостный подход Аль-Бухари к человеческой природе, где здоровье рассматривается как гармония тела, разума и веры. Особое внимание уделяется значению профилактики, умеренности в пище и сне, а также морально-этическим установкам, влияющим на состояние человека. Работа способствует более глубокому пониманию исламской философии здоровья и её актуальности в современных условиях.*

Ключевые слова: *Аль-Бухари, философия здоровья, исламская медицина, хадисы, духовность, профилактика, гармония, восточная мысль, здоровье и религия.*

Rajabov Otabek Atoyevich (Buxoro davlat Tibbiyot instituti Preventiv tibbiyot, “Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlash menejmenti” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi)

SHARQ MUTAFAKKIR ABU ABDULLOH MUHAMMAD IBN ISMOIL AL-BUXORIY ISHLARIDA SALOMATLIK FALSAFASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mashhur sharq mutafakkiri va islomshunos olimi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy asarlarida salomatlik falsafasi yoritilgan. Tadqiqot Al-Buxoriy tomonidan yaratilgan “Al-Jome as-Sahih” hadislar to‘plamiga asoslanib, jismoniy, ma’naviy va axloqiy salomatlik masalalarini tahlil qiladi. Muallif Al-Buxoriyning inson tabiatiga oid yaxlit qarashini ta’kidlaydi: sog‘liq tananing, aqlning va e’tiqodning uyg‘unligi sifatida qaraladi. Tadqiqotda profilaktika, ovqatlanish va uxlashdagi me’yor, shuningdek, axloqiy qadriyatlarning inson holatiga ta’siri alohida ta’kidlanadi. Maqola islom salomatlik falsafasini chuqurroq tushunishga hissa qo‘shadi va uning zamonaviy hayotdagi dolzarbligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Al-Buxoriy, salomatlik falsafasi, islom tibbiyoti, hadislar, ma’naviyat, profilaktika, uyg‘unlik, sharq tafakkuri, sog‘liq va din.*

Rajabov Otabek Atoyevich (Bukhara State Medical Institute Scientific applicant of the Department of Preventive Medicine, Public health and healthcare management)

PHILOSOPHY OF HEALTH IN THE WORKS OF THE EASTERN THINKER ABU ABDULLAH MUHAMMAD IBN ISMAIL AL-BUKHARI

Annotation. *This article explores the philosophy of health in the works of the prominent Eastern thinker and Islamic scholar Abu Abdullah Muhammad ibn Ismail al-Bukhari. Based on an analysis of hadiths from his renowned compilation “Al-Jami as-Sahih”, the study examines issues of physical, spiritual, and moral well-being. The author emphasizes al-Bukhari’s holistic view of human nature, where health is seen as the harmony of body, intellect, and faith. Particular attention is given to the importance of prevention, moderation in food and sleep, and ethical principles affecting human condition. The article contributes to a deeper understanding of the Islamic philosophy of health and its relevance in contemporary life.*

Keywords: *Al-Bukhari, philosophy of health, Islamic medicine, hadiths, spirituality, prevention, harmony, Eastern thought, health and religion.*

Введение. Восточная философия на протяжении веков уделяла особое внимание гармонии тела и духа, рассматривая здоровье как неотъемлемую составляющую нравственной и духовной жизни человека. Одним из ярчайших представителей исламской мысли, чьи труды затрагивают вопросы физического и душевного благополучия, является Абу Абдулла Мухаммад ибн Исмаил аль-Бухари – выдающийся хадисовед IX века. Его труд «Аль-Джами ас-Сахих», более известный как *Сахих аль-Бухари*, не только представляет собой фундаментальную коллекцию достоверных хадисов пророка Мухаммада (мир ему), но и отражает глубокое понимание сущности здоровья с точки зрения ислама.

В данной статье рассматривается философия здоровья в интерпретации аль-Бухари, его подход к вопросам телесной чистоты, питания, сна и душевного равновесия, а также влияние религиозных норм на поддержание физического и морального состояния личности. Анализ его взглядов позволяет глубже понять синтез духовных и медицинских представлений в исламской культуре и подчеркивает актуальность этих идей в современном мире.

Литературный обзор. Сборники имама Аль-Бухари содержат ценную информацию о медицинской, телесной и духовной гигиене в контексте исламской традиции. Литературный обзор включает в себя как первоисточники, так и современные исследования, раскрывающие философские и практические аспекты здоровья в его трудах. Главным источником для изучения взглядов аль-Бухари на здоровье является его сборник достоверных хадисов – «Сахих аль-Бухари». В этом труде содержатся высказывания пророка Мухаммада (мир ему и благословение), касающиеся различных аспектов здоровья, медицины и гигиены. «Нет болезни, которую создал бы Аллах, не создав также и лечения для неё» «Пять вещей относятся к фитре (природе человека): обрезание, бритье лобка, стрижка ногтей и подстригание усов», «Используйте медицинское лечение, потому что Аллах не создал болезнь, не создав лекарства от нее, за исключением одного, – старости». Эти хадисы подчеркивают важность медицинского лечения, соблюдения гигиены и ухода за телом в исламе [1;3 с.].

В сборнике хадисов «Аль-Джами ас-Сахих» имама Аль-Бухари здоровье рассматривается как бесценный дар Всевышнего. Пророк Мухаммад (мир ему и благословение) сказал: «Есть два блага, которыми обманываются многие люди – здоровье и свободное время» (Сахих аль-Бухари, «Рикак», 1). Это изречение подчеркивает, что здоровье и свободное время–дары, которые часто недооцениваются, но они необходимы для поклонения Аллаху и совершения добрых дел [4;7 с.].

Имам аль-Бухари приводит хадисы, в которых Пророк (мир ему и благословение) подчеркивает важность лечения и профилактики: «Поистине, Всевышний Аллах не ниспосылает ни одной болезни, чтобы не ниспослать исцеления от неё, кроме старения» (Сахих аль-Джами ас-Сагир, хадис №1810). Этот хадис указывает на необходимость поиска лечения для всех болезней, кроме неизбежного старения, что подчеркивает активную позицию ислама в вопросах здоровья [8, 9].

В хадисах содержатся советы по питанию и образу жизни. Пророк (мир ему и благословение) говорил: «Человек не наполнял сосуда, худшего, чем своё чрево. Достаточно сыну Адама нескольких кусочков пищи, чтобы поддержать силы» (Имам Ахмад и Ат-Термизи). Это наставление подчеркивает умеренность в еде как ключ к здоровью.

Чистота занимает важное место в исламе. Пророк (мир ему и благословение) сказал: «Чистота – половина веры» (Сахих Муслим). Это изречение подчеркивает, что гигиена – неотъемлемая часть веры и важный аспект здоровья.

Современные исследователи подчеркивают, что исламская традиция здоровья опирается на равновесие между телесным и духовным. В ряде работ отмечается, что хадисы в «Сахих аль-Бухари» служат основой для развития мусульманской медицины, как в эпоху Халифата, так и в современной исламской культуре [10].

Имам Аль-Бухари фиксировал хадисы, в которых болезнь воспринимается не только как испытание, но и как способ духовного очищения. Это направление особенно разработано в суфийской и аскетической литературе, которая вдохновляется хадисами и Кораном [11].

В последние десятилетия исламская биоэтика активно развивается, и хадисы из «Сахих аль-Бухари» стали основой для дискуссий по вопросам эвтаназии, трансплантологии, вакцинации и т.д. В этих работах хадисы выступают не только как религиозные источники, но и как база этико-правовых норм [12].

Во многих хадисах, собранных имамом Аль-Бухари, подчёркивается важность чистоты, омовений, полоскания рта, обрезания и других гигиенических практик. Эти действия рассматриваются как проявление заботы о теле – аманате, данном Аллахом [13].

Исламская философия здоровья охватывает и психоэмоциональную сферу. Хадисы о покое сердца, уповании на Аллаха, терпении и избегании зависти и гнева раскрывают основы духовного баланса [14].

Исламская философия здоровья во многом впитала достижения античной медицины, особенно трудов Гиппократа и Галена. Однако хадисы аль-Бухари задают иной вектор – теоцентричный. Некоторые современные авторы проводят параллели и различия между исламской и античной медицинской этикой [15].

Исламская правовая традиция (фикх) использует хадисы в качестве нормы при регулировании вопросов здравоохранения: допустимость лечения, приоритет сохранения жизни, санитарные меры. Аль-Бухари – один из самых часто цитируемых авторитетов [16].

Особую актуальность приобрели хадисы, связанные с эпидемиями, особенно в контексте COVID-19. Пророк (мир ему и благословение) учил не покидать местность, охваченную чумой, что сегодня трактуется как предписание карантина: «Если вы услышите о чуме в какой-либо земле – не входите туда. А если она случится там, где вы находитесь – не покидайте это место» (Сахих аль-Бухари, Книга о болезнях) [17].

Расширенный литературный анализ показывает, что философия здоровья в хадисах аль-Бухари не ограничивается бытовыми рекомендациями. Это целостная система, охватывающая: духовно-нравственные основы здоровья, правовые нормы и гигиену, общественную ответственность, гендер-ные аспекты, психологическое благополучие.

Таким образом, «Аль-Джами ас-Сахих» можно рассматривать как источник биоэтического, культурного и даже научного значения в исламском мире.

Методы исследования. Методология исследования в рамках данной статьи основывается на междисциплинарном подходе, включающем элементы историко-философского анализа, богословского толкования, а также сравнительного анализа с современными взглядами на здоровье и гигиену. Исследование проводится в контексте исламской цивилизации IX века, с акцентом на культурные, религиозные и социальные условия, в которых жил и работал имам аль-Бухари. Анализируются источники Золотого века ислама, позволяющие проследить место здоровья в религиозной практике мусульман.

Основные результаты и обсуждение. Имам аль-Бухари как источник медицинской и гигиенической мысли в исламе выявил, что вопросы здоровья, личной гигиены, профилактики и лечения болезней рассматривались не только как практические наставления, но и как проявления духовного образа жизни. В сборнике содержатся десятки хадисов, касающихся: регулярной очистки тела (омывания, обрезания, чистки зубов), рационального питания и умеренности в еде, сна и отдыха как религиозного долга перед телом, рекомендаций обращаться к лечению при болезнях, подчёркивая веру в наличие лекарства от каждой болезни, кроме старости.

Уникальность философии здоровья Аль-Бухари в том, что она не отделяет духовное от физического. Такой целостный подход можно применять в современной медицине, особенно в психосоматике, реабилитационной терапии и этике здравоохранения. В результате анализа хадисов из «Аль-Джами ас-Сахих» выявлено, что здоровье в исламской парадигме трактуется как: дар от Аллаха, которым нельзя пренебрегать, обязанность человека – заботиться о теле как о доверенном имуществе (аманате), ресурс для поклонения – физическая и духовная сила рассматриваются как средства выполнения религиозных обязанностей.

Это подтверждается хадисами о ценности здоровья, обязанностях по лечению и профилактике, а также роли умеренности и чистоты. Результаты анализа показывают, что исламская философия здоровья не делит человека на тело и душу в дуалистическом смысле. Напротив: здоровье тела влияет на духовное состояние (например, слабость может мешать поклонению), духовные качества (вера, сабр – терпение, таухид – единобожие) укрепляют физическое здоровье. Таким образом, хадисы Аль-Бухари способствуют формированию целостного, холистического подхода, перекликающегося с современной психосоматической медициной.

В свете вызовов XXI века – пандемий, стресса, гиподинамии – хадисы из «Аль-Джами ас-Сахих» приобретают особую актуальность. Они позволяют переосмыслить здоровье как форму богослужения, а не только как объект заботы медицины.

Философия здоровья в трудах аль-Бухари остаётся актуальной в наши дни, предлагая современному обществу ценные ориентиры для формирования комплексного подхода к человеческому благополучию. Она может служить основой для развития исламской медицинской этики, психо-

логии и культуры здоровья как в научной, так и в практической плоскости. Имам Аль-Бухари не только систематизировал хадисы, но и заложил основу целостного исламского подхода к здоровью. Его труды, проанализированные как в классических, так и в современных источниках, демонстрируют философскую глубину понимания здоровья как гармонии тела, разума и веры.

Вывод. Проведённое исследование показало, что имам аль-Бухари в своём величайшем труде «Сахих Аль-Бухари» заложил основы целостного и гармоничного взгляда на здоровье, который включает как физическое состояние человека, так и его духовное и моральное благополучие. Через хадисы пророка Мухаммада (мир ему), отобранные с высокой степенью достоверности, аль-Бухари раскрывает принципы, направленные на профилактику болезней, поддержание гигиены, внутреннего равновесия и здорового образа жизни.

Особое значение в этой философии придаётся умеренности, ответственности перед собой и обществом, а также пониманию тела как дара, которым человек должен управлять в соответствии с божественными установлениями. Таким образом, здоровье в трактовке аль-Бухари – это не только физиологическое состояние, но и проявление духовной дисциплины, покорности воле Творца и элемент пути к благочестию.

Список использованной литературы:

(1). Касымов А.Ш. Хадисы и здоровье: взгляд через призму исламской этики. Исламоведение, 2021.

(2). Сулейманова Л.Р. Формирование здорового образа жизни в исламской традиции. Вестник исламской философии, 2019.

(3). Аль-Бухари, Мухаммад ибн Исмаил. Сахих Аль-Бухари (Аль-Джами ас-Сахих). Пер. с араб. Различные издания на русском языке.

(4). Аль-Газали, Абу Хамид. Возрождение религиозных наук (Ихъя Улюм ад-Дин). Книга о духовной и телесной дисциплине в исламе.

(5). Кадырова, М.З. Исламская этика здоровья: историко-философский анализ. М., изд-во РГГУ, 2016.

(6). Ахмадов, Х.Ш. Философия ислама: здоровье, тело и дух. Ташкент, ИМЭП, 2018.

(7). Nasr, Seyyed Hossein. Science and Civilization in Islam. Harvard University Press, 1968.

(8). Rahman, Fazlur. Health and Medicine in the Islamic Tradition: Change and Identity. Crossroad, 1987.

(9). Badri, Malik. Contemplation: An Islamic Psychospiritual Study. IIIT, 2000.

(10). Hadith Collections and Islamic Health Teachings.

(11). Абу Шукур, А.М. Медицина Пророка: хадисы о здоровье. Алматы, "Нурлы Алем", 2009.

(12). Муталибов, З.Р. Здоровье и болезнь в исламской духовности. Казань, Изд-во КФУ, 2021.

(13). Ghaly, M. Islam and Disability: Perspectives in Theology and Jurisprudence. Routledge, 2010.

(14). Сейдалиев, К.Х. Гигиенические нормы в исламе: хадисоведческий анализ. Махачкала, 2018.

(15). Abdel-Khalek, A.M. Islam and Mental Health: Theory and Practice. "Springer", 2020.

(16). Pormann, Peter E. & Savage-Smith, Emilie. Medieval Islamic Medicine. Edinburgh University Press, 2007.

(17). Kamali, Mohammad Hashim. Principles of Islamic Jurisprudence. Islamic Texts Society, 2003.

(18). El-Mouelhy, Mohamed T. Islamic Perspectives on Pandemic Response. Journal of Islamic Ethics, 2021.

Narmetova Zebo Azamatovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti stajor o‘qituvchisi; zebo.normetova@g-mail.com:)

LINGVISTIK KORPUSLARNING TURLARI VA ULARNING TA’LIMDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqola korpus lingvistikasi sohasiga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu maqola orqali siz uning yaratilishi, rivojlanishi va amaliy ahamiyati tahlili o‘rganiladi. Korpus lingvistikasi bu tilshunoslikning kom-pyuter texnologiyalari yordamida turli xil matnlarni tahlil qilishga qaratilgan yangi yo‘nalishidir. Ushbu maqolada korpusning mohiyati, turlari, tuzilishi va ishlatilishi haqida ma’lumot beriladi. Korpuslar til tadqiqotlarida qanday ahamiyatga ega ekanligi va ularning leksikografiya, til o‘rgatish va boshqa ko‘plab sohalarda qo‘llanilishi yoritib berilgan. Korpus lingvistikasi va uning imkoniyatlarini tahlil etish orqali bu sohaning kelajakdagi istiqbollarini ko‘r-satib o‘tishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *korpus lingvistikasi, til korpusi, morfologiya, sintaksis, leksikografiya, kompyuter lingvistikasi, ilmiy tadqiqot, milliy korpus, parallel korpus, mualliflik korpusi, statistik tahlil.*

Нарметова Зебо Азаматовна (стажёр-преподаватель Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни; zebo.normetova@g-mail.com)

ВИДЫ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ КОРПУСОВ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *Данная статья посвящена области корпусной лингвистики. В ней рассматриваются вопросы создания, развития и практического значения этой дисциплины. Корпусная лингвистика представляет собой новое направление в языкознании, ориентированное на анализ различных текстов с использованием компьютерных технологий. В статье раскрывается сущность языкового корпуса, его виды, структура и применение. Освещается значение корпусов в языковых исследованиях, а также их использование в лексикографии, преподавании языка и многих других сферах. Анализируя возможности корпусной лингвистики, автор показывает перспективы развития этой области в будущем.*

Ключевые слова: *корпусная лингвистика, языковой корпус, морфология, синтаксис, лексикография, компьютерная лингвистика, научное исследование, национальный корпус, параллельный корпус, авторский корпус, статистический анализ.*

Narmetova Zebo Azamatovna (trainee teacher at Urgench State University named after Abu Rayhon Beruniy; zebo.normetova@g-mail.com)

TYPES OF LINGUISTIC CORPORA AND THEIR IMPORTANCE IN EDUCATION

Annotation. *This article is dedicated to the field of corpus linguistics, focusing on its formation, development, and practical significance. Corpus linguistics is a new direction in linguistics aimed at analyzing natural texts using computer technologies. The article provides information on the essence of the corpus, its various types, structure, and usage. It illustrates the importance of corpora in linguistic research and their application in lexicography, language teaching, and other fields. By examining the opportunities of corpus linguistics, the article aims to outline prospects of this field.*

Key words: *corpus linguistics, language corpora, morphology, syntax, lexicography, computer linguistics, scientific research, national corpora, parallel corpora, authorship corpora.*

Kirish. Korpus muayyan bir tilning elektron shakldagi matnlar to‘plamiga asoslangan axborot-ma’lumot tizimidir. Har bir korpus matnlar ustida filologik yondashuv bilan ishlashga xizmat qiladigan lingvistik va dasturiy ta’minotga ega.[1]

Zamonaviy tilshunoslik korpus tizimi orqali yoritib beriladi. Chunki korpus yordamida tilni o‘rganishda ular-ning turli xil kontekstida tezda kerakli ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish mumkin. Shu bilan birga, korpus tilni tahlil qiluvchilar hamda o‘rganuvchilar uchun natijalarni qisqa vaqtda turli shakllarda namoyish qilish imkonini be-radi. Korpus til bilan bog‘liq har qanday boshqa vazifalar uchun foydali hisoblanadi. Bir marta yaratilgan va tayyorlan-gan korpus turli tadqiqotchilar tomonidan va turli maqsadlarda ishlatilishi mumkin.

Korpus lingvistikasi bu XX asrning 60-yillarida kompyuter lingvistikasining bir bo‘limi sifatida shakllangan va turli xil tildagi matnlarni (gazeta, jurnal, elektron ma’lumotlar va hokazolar) tahlil qilishga qaratilgan sohadir. U bugungi kunda tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, turli tillarda til material-

[1] Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие, Санкт-Петербург, 2005, 48 с.

larini to‘plash, ularni tahlil qilish va ko‘plab lingvistik tadqiqotlarda qo‘llaniladi. Korpus lingvistikasining asosiy maqsadi til tizimini o‘rganish va til birliklarining o‘zaro munosabatlarini tahlil qilishdir. Ushbu maqola korpus lingvistikasining mohiyati va amaliy ahamiyatini ochib beradi. Korpuslar, shuningdek, til tadqiqotlarida statistik tahlil o‘tkazishga imkon beradi va lingvistik gipotezalarni tasdiqlash yoki inkor etishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu maqola uchun asosiy materiallar sifatida Alisher Navoy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Axborot texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Manzura Abjalovaning “Korpus lingvistikasi” va rus tilshunosi Viktor Pavlovich Zaxarovning “Korpus lingvistikasi” nomli adabiyotlardan foydalanildi. Ushbu manbalar korpus lingvistikasi sohasidagi nazariy va amaliy jihatlarni tahlil qilishda xizmat qiladi. Maqolada berilgan ma’lumotlar ilmiy tahlil va statistik metodlar asosida yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Korpus lingvistikasi bir necha turdagi korpuslarni o‘z ichiga oladi. Bular orasida milliy korpuslar, parallel korpuslar va mualliflik korpuslari mavjud.

Tahlillar va natijalar. Milliy korpuslar bir tilning barcha uslub va janrlarini qamrab oladi. Milliy korpuslar til bo‘yicha tadqiqot va amaliy topshiriqlar yechimi uchun zarur ish quroli hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-farmoni bilan tasdiqlangan konsepsiyada o‘zbek tilini rivojlantirish va uning zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga integratsiyalashuvi maqsadlari belgilangan. Ushbu konsepsiya doirasida o‘zbek tili milliy korpusi yaratilishi ko‘zda tutilgan.[1]

Milliy korpus – tabiiy tilning raqamlashtirilgan yozma va og‘zaki matnlar jamlanmasi bo‘lib, til birliklarining hususiyatlarini aniqlashda elektron qidiruv imkoniyatini taqdim etadi. Bu korpus tilni o‘rganish va tadqiq qilish uchun foydali va qiziqarli matnlarni to‘playdi hamda lug‘atlarni tuzishda katta manba vazifasini o‘taydi.

Korpuslar og‘zaki yoki yozma matnlar, badiiy, publitsistik, folklor kabi turli sohalar uchun tuzilishi mumkin. Ular tilning zamonaviy shaklini aks ettirib, so‘zlarning qo‘llanishi va ularning o‘zgarishi, yangi yaratilgan iboralarni kuzatishda muhim rol o‘ynaydi. Korpuslar yordamida tadqiqotchi sifatida eng yangi ma’lumotlarni tezda topish, tahliliy natijalarni olish va ularni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ularning maqsadi til ta’limi, tarjima dasturlari va lingvistik tadqiqotlar uchun zamonaviy matnlar bazasini yaratishdir.

O‘zbek tili milliy korpusi ona tilimizning jahonga yuz tutishiga erishish va milliy ma’naviyatni takomillashti-rishda asosiy vositalardan biridir. Bu jarayon mutaxassislar, o‘qituvchilar va tadqiqotchilarni foydalanishi va tahlil qi-lishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Parallel korpuslar esa bir-biriga tarjima qilingan matnlarni o‘z ichiga oladi. Parallel korpuslar – parallel tarjima matnlarining elektron analoglari bo‘lib, ko‘plab sof matn va ularning bir yoki bir necha tarjimasi bloklaridan iborat. Bu korpuslar lingvistik tadqiqotlar va tarjima sohasida muhim ahamiyatga ega.[2]

Parallel korpus sof matn va uning tarjimasi yig‘ilgan bazadir. Korpusdagi elektron matnlar original matnning o‘zi yoki uning bir qismi bo‘lishi mumkin. Ularning tuzilishi, tarkibi va imkoniyatlari haqida D.O.Dobrovolskiy, Y.Tao, V.Zaxarov, A.A.Kokoreva, E.P.Sosnina kabi olimlarning ishlarida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Zamonaviy korpus lingvistikasi ikki asosiy parallel korpus turini ajratadi:

1. Ko‘p tilli korpus (Comparable/Multilingual Corpora).
2. Tarjima korpusi (Translation Corpora).

Parallel korpuslar quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

a) qiyosiy tilshunoslikda (ikki til strukturasini tahlil qilish maqsadida);
b) tarjima sohasida (original matn ekvivalentini boshqa tillardan qidirish maqsadida);
d) avtomatik tarjima sohasida;
e) lingvodidaktikada;
f) leksikografiyada;
g) bitekst dasturlari. Bitekst dasturi parallel matnlar bilan ishlashda muhim vosita hisoblanadi.

Parallel matnlar to‘plami – bu boshqa tildagi tarjimasi bilan beriladigan matnlar to‘plamidir. Ular “moslashti-ruvchi asbob” yoki “bitekst uchun moslama” deb nomlanuvchi maxsus kompyuter dasturlari orqali amalga oshiriladi.

[1] “Ma’rifat” gazetasi. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023, 964-bet.
[2] V.Zaxarov, B. Mengliyev, Sh. Xamroyeva. Korpus lingvistikasi. O‘quv qo’lanma, Toshken,t 2021, 85–99-betlar.

Parallel korpusni yaratish bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi: matnni tekislash, matnni belgilash va qidiruv interfeysi dizayni. Korpus lingvistikasi yo‘nalishi horijiy tillarni o‘qitish metodikasi va tarjima uchun amaliy ahamiyatga ega. O‘zbek-turk parallel matnlar korpusi o‘zbek va turk tillaridagi badiiy asarlarni o‘rganish, shuningdek, tillar o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi.

Mualliflik korpuslari ma’lum bir yozuvchi yoki muallifning asarlarini o‘z ichiga oladi va ularning til hususi-yatlarini aniqlashda yordam beradi.[1]

Mualliflik korpuslari muallif asarlarini tahlil qilish va o‘rganish uchun muhim resurslardir. Mualliflik korpus-lari muallif asarlari tilini to‘liq va aniq ko‘rsatishi bilan boshqa axborot bazalaridan ajralib turadi. Ular raqamli texnologiyalarga asoslangan axborot asrida ta’lim jarayonini osonlashtiradi. Korpuslar yordamida lingvistik tadqiqotlar, leksikografik izlanishlar va so‘zlarning etimologiyasini o‘rganish imkoniyatlari yaratiladi.

Alisher Navoiy mualliflik korpusi o‘quvchilarga Navoiy davri tilini tushunishda yordam beradi. Bu korpusdan foydalanish o‘quvchilarning izlanish salohiyatini oshirib, kichik tadqiqotlarni ishonchli dalillar asosida bajarishlariga imkoniyat yaratib beradi. Korpusda berilgan ma’lumotlar ilmiy manbalar asosida tahlil qilinganligi, aniqligi va ishonchliligini kafolatlaydi.

Mualliflik korpuslarining ta’lim jarayonidagi ahamiyati shundaki, ular o‘qituvchiga turli manbalar asosida o‘quv materialini tayyorlashga yordam beradi. Bu orqali o‘quvchilarga Navoiy asarlarining falsafiy, ijtimoiy va lingvistik xususiyatlarini o‘rganish imkoniyatini ochib beradi. Shuningdek, mualliflik korpuslari til o‘rgatishda o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular zamonaviy o‘quv dasturlarida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, izlanuvchilarning ma’naviy o‘sishiga hamda milliy g‘ururini yuksaltirishga yordam beradi. Umuman olganda, mualliflik korpuslari ta’lim jarayonida til o‘rganish va adabiyotlarni o‘rganishning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Korpus lingvistikasi sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar tilni o‘rganishni, leksikografiya va boshqa lingvistik sohalarda yangiliklarni taqdim etadi. Korpuslar yordamida olingan natijalar tilning dinamikasini o‘rganish, yangi frazeologizmlarning paydo bo‘lishini kuzatish va boshqa ko‘plab masalalarda muhim ahamiyatga ega. Korpus lingvistikasi zamonaviy tilshunoslikning ajralmas qismiga aylangan va u kelajakda yanada rivojlanishi kutilmoqda.

Ushbu maqola korpus lingvistikasi sohasining asosiy jihatlarini o‘rganish maqsadida yozilgan va maqolada korpuslarning turlari, ularning tuzilishi va amaliy ahamiyati haqida ma’lumotlar ko‘rsatib o‘tildi. Korpus lingvistikasi tilshunoslikda yangi imkoniyatlar yaratmoqda va bu soha bo‘yicha yanada ko‘proq izlanishlar olib borish davom etmoqda. Korpuslar til materiallarini tahlil qilishda muhim vosita bo‘lib, tilning rivojlanishini va o‘zgarishini kuzatishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abjalova, M.A. Korpus lingvistikasi. Toshkent, “Bookmany print”, 2022.
(2). Zaxarov, V.P., Mengliyev, B.R., Hamroyeva, S.M. Korpus lingvistikasi. Toshkent, “Fan”, 2021.
(3). Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие, Санкт-Петербург, 2005, 48 с.
(4). “Ma’rifat” gazetasi. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023, 964-bet.
(5). Po‘latov A. Kompyuter lingvistikasi. Toshkent, “Akademnashr”, 2011.
(6). http://uzbekcorpora.uz/korpushaqida/
(7). https://lex.uz/

Djumamuratov Kuanishbay (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 3-kurs doktoranti)

BARCHA TIL KO‘RINISHLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz tilidagi frazeologik birliklarning lingvistik va madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Frazeologik birliklar xalq tafakkuri, madaniy merosi va milliy mentalitetining ifodasi sifatida qaralib, ularning ichki shakli, semantik qatlamlari va obrazlilik darajasi chuqur o‘rganiladi. Tadqiqotda frazeologik birliklarning klassifikatsiyasi, struktur tahlili, tarjima qiyinchiliklari va ularning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi roli muhokama qilinadi. Maqola frazeologik birliklarning xalq tafakkuridagi o‘rnini yoritib, tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalariga amaliy yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *frazeologik birlik, ingliz tili, semantika, ekspressivlik, ichki shakl, madaniy konnotatsiya, tarjima.*

[1] V.Zaxarov, B.Mengliyev, Sh.Xamroyeva. Korpus lingvistikasi. O‘quv qo‘lanma, Toshkent 2021, 100–117-betlar.

Джумамуратов Куанышбай (докторант 3-го курса Каракалпакского государственного университета имени Бердаха)

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ВО ВСЕХ ФОРМАХ ЯЗЫКА

Аннотация. *В данной статье рассматриваются лингвистические и культурные особенности английских фразеологических единиц. Фразеологизмы анализируются как отражение народного менталитета, культурного наследия и национального мировоззрения. Подробно изучаются внутренняя форма, семантические уровни и образность устойчивых выражений. Исследование охватывает классификацию фразеологизмов, особенности их структуры, трудности перевода и значение в межкультурной коммуникации. Работа способствует более глубокому пониманию роли фразеологизмов в языке и может быть полезной для лингвистов и переводчиков.*

Ключевые слова: *фразеологическая единица, английский язык, семантика, экспрессивность, внутренняя форма, культурная коннотация, перевод.*

Djumamuratov Kuanishbay (3rd year doctoral student at Berdakh Karakalpak State University)

THE ROLE AND IMPORTANCE OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ALL FORMS OF LANGUAGE

Annotation. *This article explores the linguistic and cultural characteristics of English phraseological units. These expressions are examined as reflections of national mentality, cultural heritage, and collective worldview. The study investigates internal form, semantic layers, and the figurative nature of idioms. Classification, structural analysis, translation challenges, and their role in intercultural communication are discussed in detail. The article contributes to a deeper understanding of idioms in language and offers practical value for linguists and translators.*

Keywords: *phraseological unit, English language, semantics, expressiveness, internal form, cultural connotation, translation*.

Kirish. Til – inson tafakkurining ifodasi va madaniyatining ko‘zgusi sifatida jamiyat hayotida beqiyos o‘rin tutadi. Har bir tilda xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajribasini mujassamlashtiruvchi barqaror birliklar mavjud bo‘lib, ular orasida frazeologik birliklar alohida o‘rin egallaydi. Frazeologik birliklar – bu xalqning dunyoqarashi, hissiyotlari, qadriyatlari va madaniy stereotiplarini aks ettiruvchi, struktur jihatdan mustahkam, semantik jihatdan yaxlit bo‘lgan so‘z birikmalaridir. Ingliz tilida bunday birliklar “idiomalar”, “set expressions”, “phrases” deb ataladi va ular tilda muhim kommunikativ, ekspres-siv hamda stilistik yuklamani bajaradi. Ularni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya, madaniyat-shunoslik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan ham muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Frazeologiyaning ilmiy asoslarini shakllantirishda turli tilshunoslar muhim hissa qo‘shganlar. Sh.Balli, N.N.Amosova, A.V.Kunin kabi olimlar frazeologik birliklarni aniqlashda semantik, kontekstologik va identifikatsiya usullarini taklif etganlar. V.M.Mokienko frazeologik birliklarning prototipik xarakterini ta’kidlab, ularning ichki shakli – xalq tafakkurining lingvistik aksidir, deb hisoblaydi. A.A.Koralova va V.N.Teliyalar esa frazeologik obrazlilik va ichki shakl konsepsiyalarini chuqur yoritib berganlar.

Tadqiqotlarda frazeologik birliklarning asosiy xususiyatlari – reproduktivlik, semantik yaxlitlik, ekspressivlik, madaniy jihatlar, konnotativ ma’no, obrazlilik, barqarorlik va tarjima qiyinligi kabi omillar sifatida belgilab berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy tadqiqotda frazeologik birliklar quyidagi usullar orqali tahlil qilinadi: 1. Solishtirma tahlil – ingliz tilidagi frazeologizmlarning struktur va semantik xususiyatlarini boshqa tillar bilan qiyoslash. 2. Semantik tahlil – frazeologik birliklarning ichki shakli, ma’no qatlamlari, obrazlilik darajasi va konnotativ komponentlarini aniqlash. 5. Klassifikatsiya – frazeologik birliklarni ularning kelib chiqishi, obrazlilik darajasi va semantik o‘zgarishlariga ko‘ra tasniflash.

Tahlil va natijalar. Frazeologiyaning ahamiyatiga qaramay, ingliz tilshunosligida bu faning aniq ta’rifi yo‘q. Ingliz tilini o‘rganishda frazeologik birliklar “barqaror birikmalar” (set expressions) deb ataladi va ular bir ma’noni ifodalovchi integral so‘z birikmalari sifatida qaraladi.

Frazeologiyani o‘rganish usullari orasida quyidagilar ajralib turadi:

1. Semantik identifikatsiya usuli (Sh.Balli) – frazeologik birlikni ekvivalent so‘z bilan almashtirish orqali aniqlash;

2. Kontekstologik usul (N.N.Amosova) – frazeologik birliklarni kontekstga qarab o‘rganish;

3. Aylanma usuli – frazeologik birlik tarkibini kontekstual bog‘lanishlar orqali aniqlash;

4. Frazeologik identifikatsiya usuli (A.V.Kunin) – so‘z birikmalarining frazeologiyasini qayta ko‘rib chiqish, barqarorlik va alohida loyihalashtirish tahlili orqali aniqlash.

Qo‘shimcha frazeologik birliklarni tahlil qilishda kontekst tahlili (komponentlarni qayta ishlashni aniqlash uchun kontekst tahlili), solishtirma tahlil (frazeologik birliklarning ma’nolarini ularning struktural bo‘limlarining leksikologik ma’nosi bilan solishtirish), grammatik tahlil (frazeologik birliklarning tuzilishini aniqlash uchun grammatik tahlil), semantik tahlil (frazeologik birliklarning abstraktsiya darajalarini aniqlash uchun semantik tahlil) qo‘llaniladi.

Frazeologiyani o‘rganishda asosiy tushunchalardan biri frazeologik prototip hisoblanadi. V.M. Mokienkoning ta’kidlashicha [1;160-b.], ko‘pchilik frazeologik birliklar, dastlab, so‘zlarning erkin birikmalari ko‘rinishida qo‘llanilgan, keyinchalik, barqarorlikka erishib, tilda mustahkam joylashgan. Prototiplik frazeologik birlikning ichki formasini tashkil etadi, uning obrazliligi va etimologik ma’nosini belgilaydi. Frazeologik birliklarning ichki formasini xalqning dunyoni idrok etishining tilda belgilangan boshlang‘ich ma’nosi sifatida qarash mumkin.

Ingliz frazeologiyasida yig‘ma so‘z birikmalarining ichki obrazlari ma’lum konseptlar bilan bog‘lanadi: head – aql bilan, heart – his-tuyg‘ular bilan, leg – harakat bilan, tongue – so‘zlash bilan, drop – miqdor bilan bog‘lanadi. Masalan, clear one’s head – “fikrlarni aniqlashtirish”, one’s heart’s desire – “eng muhim orzu”, stretch one’s legs – “oyoqni yozish”, drop by drop – “tomchi bilan”. A.V.Kunin frazeologik birliklar prototiplarining to‘rt turini aniqlaydi: so‘zlashuv, lingvistik, ekstralingvistik va aralash. Ularning farqi kelib chiqish tabiati va ichki formani anglash darajasi bilan bog‘liq. Masalan, so‘zlashuv prototipiga ega frazeologik birliklar obrazning aniqligini saqlaydi (get up in the world – “muvaffaqiyatga erishish”). Ekstralingvistik prototiplar tarixiy va madaniy haqiqatlar bilan bog‘liq (have kissed the Blarney stone – “maqtovga loyiq bo‘lish”). Aralash prototipda “a girl Friday” adabiy manbalardan olingan (D.Defoning “Robinson Kruzo” asaridagi analog).

Frazeologik birlikning ma’nosi uning struktural tarkibi bilan belgilanadi, ammo til rivojlanish jarayonida uning ichki ma’nosi aniqligini yo‘qotishi mumkin. Shunday qilib, ichki formani tirik (anglashli) va o‘lik (semantik evolutsiya jarayonida yo‘qolgan)ga bo‘lish mumkin. Vaqt o‘tishi bilan frazeologik birliklarning struktural bo‘limlari o‘zining asl ma’nosini yo‘qotib, metaforik qayta tushunish asosida yangi ma’no paydo qilib, deaktualizatsiyaga kirishi mumkin.

Frazeologizmlar uch asosiy xususiyatga ega:

1. Reproduktivlik – ular og‘zaki nutqda shakllangan formada qo‘llaniladi va yangidan yaratilmaydi. Bu ko‘proq maqollarga tegishli (let well enough alone – “yaxshilikdan yaxshilik izlamaydi”), iboralar (happiness takes no account of time – “baxtlilar soatga qaramaydi”), terminlar (sulphuric acid – “sulfur kislotasi”) va frazeologik birliklar (at any price – “har qanday yo‘l bilan”).

2. Butun ma’no – u to‘g‘ridan to‘g‘ri struktural bo‘limlarning ma’nolaridan kelib chiqmaydi, balki qayta o‘ylash asosida shakllanadi (to pull the wool over smb’s eyes – “ko‘zbo‘yamachilik qilish”).

3. Ekspressivlik – frazeologik birliklar og‘zaki nutqda doimo sinonim so‘z bilan almashtirib bo‘lmaydigan hissiy rang bilan beriladi.

Semantik nuqtayi nazardan qaraganda, frazeologik birliklar so‘zlarga yaqin bo‘lsa-da, ular bilan bir xil emas. Ular so‘zlar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi, biroq ko‘p hollarda murakkab tuzilishga ega bo‘lib, leksikologiya chegarasidan chiqib, tilning alohida darajasini tashkil etadi. V.M.Mokienko ta’kidlaganidek, [1;160-b.], ekspressivlik – frazeologik birliklarning eng muhim xususiyati bo‘lib, ular aynan shu jihati bilan so‘zlardan ajralib turadi. L.G.Skripnik [2;96-b.] frazeologik birliklarning alohida holatini tasvirlash uchun “sıpıraverbalizm” (ya’ni, “yarim verbal holat”) atamasini taklif qiladi.

V.V.Vinogradov [3;140–161] tomonidan ilgari surilgan frazeologik birliklar va so‘zlar o‘rtasidagi ekvivalentlik nazariyasi frazeologik birliklar nutqda so‘zlarning o‘rnini bosishi mumkinligini tan oladi, biroq ularning semantikasi turli qonuniyatlarga muvofiq shakllanadi. V.P.Teliyaning ta’rificha [4; 288], frazeologik birliklarning ichki shakli – bu tilda mavjud assotsiativ-metaforik turtkilar kompleksidir. U an’anaviy madaniyat, guruh ongining va dunyoqarashning lingvistik ifodasi orasidagi vositachi sifatida xizmat qiladi.

Shunday qilib, frazeologik birliklar barcha frazeologik hodisalarning eng zaruriy elementi hisoblanadi. Ular nafaqat tilni, balki xalqning madaniyati, tarixi va dunyoqarashini ham aks ettiradi, jamiyatning ko‘p asrlik tajribasi, g‘oyalari va qadriyatlarini mustahkamlaydi. Ularni o‘rganish lingvistik ongning o‘ziga xos jihatlari va obrazli fikrlash mexanizmlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Frazeologik ma’noni shakllantirishda “ichki shakl” tushunchasi bilan bir qatorda “frazeologik obrazlilik” tushunchasi ham zarur hisoblanadi. A.A.Coralovaning ta’rificha, lingvistik obraz – bu til yordamida yaratilgan, bir ob’ektdan ikkinchisini ifodalashga asoslangan ikki o‘lchovli tasvirdir [5;77–90-b.].

Bu ikki tasvir modeli ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan quyidagicha ifodalangan: aniqlovchi va aniqlanuvchi komponentlar (A.K.Dolinin); aniqlanuvchi va aniqlovchi bo‘limlar (A.M.Melerovich); tasvirlovchi va tasvirlanayotgan komponentlar (A.A.Leontevich).

Ba’zi olimlar (masalan, A.A.Leontevich) frazeologik obraz tarkibiga frazeologik ma’noni birlashtiruvchi umumiy xususiyat – “tertium comparationis” (ya’ni, uchinchi taqqoslash elementi) tushunchasini kiritadi.

Frazeologik ma’no ikki qatlamli tuzilishga ega:

mazmun qatlami (ya’ni nimani bildiradi), bun denotativ va konnotativ tomonlar mavjud;	ifoda qatlami – frazeologik birlikning moddiy shakli.

Frazeologik ma’noning konnotativ tomoni milliy-madaniy ma’lumotlarni yetkazishda asosiy rol o‘ynaydi, chunki frazeologik birliklar xalq dunyoqarashi, qadriyatlari, an’analari va stereotiplarini obrazli ifoda etadi. Shu nuqtayi nazardan, frazeologik birliklar til jamiyatining empirik, tarixiy va ruhiy tajribasini aks ettiruvchi “xalq stereotiplari” sifatida qaraladi.

Frazeologizmlar o‘ziga xos ma’noga ega bo‘lgani uchun leksikalarga yaqin bo‘lsa-da, ular ayni vaqtda mustaqil, o‘ziga xos lingvistik birliklar hisoblanadi. Ular sintaktik funksiyalarni bajaradi, so‘zlar bilan sinonimik munosabatga kiradi, biroq barqarorligi va semantik yaxlitligi bilan ulardan farq qiladi. Frazeologizmlar psixologiya bilan chambarchas bog‘liq, chunki ularning paydo bo‘lishi inson ongining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq.

Barcha frazeologik hodisalarning muhim jihati – madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni yetkazishda muhim rol o‘ynovchi kolorativ birliklar, ya’ni rang bildiruvchi leksemalar hisoblanadi. A.A. Potebnya ta’kidlaganidek [6], til va psixologiya bir-biriga mustahkam bog‘liq bo‘lib, til orqali borliqni idrok etish va tushunishning milliy xususiyatlari aks ettiriladi.

Frazeologizmlar so‘z va sintaksis o‘rtasidagi oraliq daraja sifatida qaraladi. Ular so‘z va so‘z birikmalarining xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan bo‘lsada, shu bilan birga xalqning madaniy va milliy xususiyatlarini ifodalovchi o‘ziga xos birliklar hisoblanadi. Idiomatik so‘z birikmalari eng qiziqarli va murakkab shakl bo‘lib ko‘rinadi. Idiomalar ingliz tilini o‘rganishda eng murakkab jihatlardan biri hisoblanadi. Idioma (yunoncha idioma – alohida so‘z birikmasi) – bu faqat muayyan tilga xos bo‘lgan, boshqa tillarga so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydigan, ma’nosi tuzilishidagi alohida elementlar ma’nosi orqali tushunilmaydigan barqaror so‘z birikmasidir. Shu nuqtayi nazardan, frazeologik birliklar leksik birliklarga (so‘zlarga) o‘xshash bo‘lib, frazeologiya fan sifatida leksikologiyaga yaqinlashadi.

V.V.Eliseeva ta’kidlaganidek, frazeologik birliklar so‘zlar birikmasidan tarkib topgan bo‘lishiga qaramay, filologlar ularni sintaktik nuqtai nazardan erkin birikma sifatida emas, balki leksikologik yondashuvda o‘rganadilar. Chunki, birinchidan, erkin frazemada berilgan model doirasida istalgan komponentni almashtirish mumkin bo‘lsa, frazeologik birikmada komponentlar orasidagi bog‘liqlik qat’iy bo‘lib, ularning birini almashtirish butun birlik ma’nosini buzadi. Frazeologik birliklarning leksikologik tadqiqot obyekti bo‘lishining yana bir sababi – ular so‘z bilan umumiy xususiyatlarga ega bo‘lishidir. So‘z kabi, frazeologik birlik ham nutq jarayonida so‘zdan past darajadagi birliklardan tashkil topmaydi, balki tayyor blok sifatida qo‘llaniladi. Bu xususiyat frazeologik birlikning ham so‘z singari leksik ma’noga ega ekanini ko‘rsatadi. Frazeologik birlik – bu semantik birlik bilan bog‘liq, modelsiz axborot hisoblanadi.

Bundan tashqari, frazeologizmlar tilning sistemali tuzilishi va uning qurilish xususiyatlarini aks ettiruvchi oynadir. Til tuzilmasi, uning shakllanishi va tipologik xususiyatlari haqidagi tushuncha frazeologik ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak. Frazeologik materialni yig‘ish va inventarizatsiya qilish boshlang‘ich bosqich sifatida zarurdir.

Amerikalik filolog R.Uells umumiy tipologiyada lug‘atga oid o‘xshash masalani ko‘rib chiqib, tilning ilmiy asoslangan xususiyatlarini uch yo‘sinda ifodalash mumkinligini ta’kidlaydi:

•miqdoriylik (o‘lchash va hisoblash);

•barqarorlik (o‘lchanmas, lekin ma’lum darajalar qatoriga ajratilgan);

•sifat jihati (“tez-tez uchraydigan” va “kam uchraydigan” tasnif) [7].

Bunday xilma-xillik frazeologizmlarga xos bo‘lgan yana bir xususiyat bo‘lib, ayrim hollarda teskari, tipologik tahlil uslublarini qo‘llashda ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga, frazeologik birliklarda bir nechta ma’noning mavjudligi ularni ko‘p ma’noli birliklar sifatida tavsiflash imkonini beradi. Anglo-amerikalik tilshunoslikda “frazeologizm” atamasi deyarli qo‘llanilmaydi. Ingliz tilshunosi L.P.Smit “idioma” so‘zini tor ma’noda – grammatik qoidalar yoki mantiqiy qonuniyatlarni buzadigan lingvistik o‘ziga xosliklar uchun ishlatadi.

Oksford lug‘atida “idioma” [8;229-b.] ma’nosini struktura qismlarining mazmunidan tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarning barqaror birikmasi sifatida ko‘rsatadi [9]. Webster lug‘atiga ko‘ra, bu atama quyidagi bir necha ma’nolarga ega [10]:

▪xalq, davlat, sinf, guruh yoki shaxs tili;
▪an’anaviy til ifoda modellari;
▪ma’nosi haqiqiy (so‘zma-so‘z) ma’nodan farq qiluvchi so‘z birikmasi;
▪muallifning uslubiy xususiyatiga bog‘liq bo‘lgan ifoda uslubi.

M.F.Alefirenko “frasera” atamasini ma’qul ko‘radi va V.M.Mokienko frazeologik birliklarni “butun ma’noga ega bo‘lgan leksemalarga nisbatan barqaror, takrorlanadigan, obrazli birikma” deb ta’riflaydi [1;160-b.]. Shunday qilib, “idioma” atamasi juda ko‘p ma’nolarga ega bo‘lib, ingliz-amerika filologlari tomonidan keng qo‘llaniladi. Ingliz va fransuz tillarida esa ba’zida ma’lum bir tilning o‘ziga xos xususiyatlari va normalarini ifodalovchi tushuncha sifatida ishlatiladi. Terminologik o‘zgaruvchanlik sharoitida frazeologiyaning asosiy elementini belgilash uchun eng maqbul nomlar – “frazeologik birlik” yoki “frazeologizm” atamalari hisoblanadi. Bu tushunchalarni ko‘plab filologlar, xususanб A.V.Kunin, I.K.Bilodid, M.I. Mostov, V.D.Ujchenko va boshqalar qo‘llagan.

Ma’noni qayta ko‘rib chiqish, kompozitsiyaning barqarorligi, bir marta yoki umrbod belgilangan ma’no frazeologik birliklarga xos xususiyat hisoblanadi. Asosiy omillardan biri – frazeologik birliklar tarkibiy qismlarining ma’nolarini to‘liq yoki qisman qayta ko‘rib chiqish bo‘lib, bu ularni obrazli tasvirlashning zarur (garchi yetarli bo‘lmasa ham) sharti hisoblanadi. Aynan shu sababli biz ko‘plab frazeologik birliklarga xos xususiyat sifatida obrazlilikni ko‘ramiz.

Aytilganidek, frazeologik birliklar tarkibiga kiruvchi leksemalar qayta tafakkur natijasida nominativ (bevosita nom beruvchi) ma’nosini yo‘qotadi. Bu jarayonda frazemaning paydo bo‘lishidan avvalgi so‘z birikmasining prototipi muhim rol o‘ynaydi. Agar prototip mavjud bo‘lmasa, frazeologik birlik tarkibiga kiruvchi alohida leksemalar qayta ko‘rib chiqiladi. Bu hodisa lingvistik va ekstralingvistik omillar bilan bog‘liq.

Frazeologik qayta tafakkur qilish bu frazeologik prototip ma’nosining semantik siljishi asosida to‘liq yoki qisman o‘zgarishidir. Uning asosiy turlari – qiyosiy, metaforik va metonimik (shuningdek, perifraza va evfemizm).

V.M.Mokienko qiyoslash va metaforik obraz yaratishda tilshunoslik omilini muhim deb hisoblaydi. Ularning umumiyligi predmetlar yoki hodisalarning o‘xshashligiga asoslangan bo‘lsa-da, farqi ma’no ifodasida yotadi:

▪qiyoslash – tasvirni aniqroq ifodalash usuli;
▪metafora – qiyoslash uchun asosni va so‘z ma’nosining yashirin o‘zgarishini bildirgan holda amalga oshiriladi [1;160-b.].

Metaforik siljish eng keng tarqalgan shakl hisoblanadi. Ingliz tilida ko‘plab so‘z birikmalari metaforik ma’noga ega bo‘lib, ular hayotdagi o‘xshash harakatlar yoki holatlarni tasvirlash uchun ishlatiladi.

So‘z ma’nosining bu turdagi siljishi metonimiya orqali – ikki denotat orasidagi yaqinlik asosida ma’no ko‘chishi sifatida yuz beradi. Frazeologik birliklar orasida perifrazalar ham uchraydi. V.M.Mokienko so‘z birikmasining yo‘qolgan ekspressiv xususiyatlarini tiklash orqali ularni aniqlaydi.

Evfemizatsiya esa metafora va metonimiyadan alohida hodisa sifatida qaralishi kerak. Tilshunoslik nuqtai nazaridan, evfemizm perifrazaning bir turi bo‘lsa-da, u noqulay yoki nojo‘ya narsalarni yumshoqroq shaklda ifodalash zaruratidan kelib chiqqan ijtimoiy hodisadir. Frazeologizmlar obrazlilik va ekspressivlik kabi xususiyatlarga ega. V.M.Mokienko ta’kidlashicha, bu xususiyatlarning asosi – obyektlar va hodisalarning sezgi orqali qabul qilinadigan obrazlarini yaratish qobiliyatidir. Ushbu tadqiqotda o‘rganilgan frazeologik birliklar yuqori darajadagi obrazlilik bilan ajralib turadi. M.P.Kochergan esa bu tasnifni semantik birlik va analitik xususiyat bilan bog‘laydi.

Har qanday tilning frazeologiyasi shu tilning boshqa jihatlarini ham muayyan darajada aks ettiradi. Ularni qo‘llash usullari va darajalari turli tillardagi frazeologik tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi. Frazeologizmlarni taqqoslab tahlil qilishda quyidagi mezonlar hisobga olinadi: a) uzluksizlik; b) ko‘p qirralilik; d) yaqinlik.

Frazeologik birliklarning tipologik xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- struktural tuzilishi;
- leksik tarkibning tabiati;
- morfologik tashkil etilishi;
- komponentlarning barqarorlik turi;
- barqarorlik darajasi,
- semantik tarkib bilan bog’liqlik;
- semantik o‘zgarish turi;
- ichki forma ochiqligi;
- strukturaviy-semantik modellashtirish;
- mavhumlik darajasi.

Tadqiqotchilar ko‘proq universal holatlardan emas, balki ma’lum til guruhlariga xos bo‘lgan o‘ziga xosliklarga e’tibor qaratadilar. Implikativ universallar tilning tipologik funksiyasini belgilovchi xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi. Frazeologizmlar tilning madaniy, milliy va psixologik xususiyatlarini o’zida mujassamlashtirgan zaruriy bo‘lim hisoblanadi. Ularni o‘rganish frazemikalarni o‘zaro bog‘langan elementlar tizimi sifatida tushunishni tasdiqlaydi. Frazeologizmlar xalqning etnik-madaniy xususiyatlarini, dunyoqarashini va urf-odatlarini ifodalaydi.

Semantik nuqtai nazardan, A.V.Kunin frazeologik birliklarni leksik birliklarning to‘liq yoki qisman qayta fikrlangan ma’noga ega bo‘lgan barqaror birikmalari sifatida belgilaydi. N.N.Amosova va W.J.Boll esa ularni quyidagicha ta’riflaydi:

- frazeologik birliklar barqaror tuzilishga ega;
- so‘zlar tartibi va tarkibida sezilarli o‘zgarishlarga yo‘l qo‘yilmaydi (faqat grammatik o‘zgarishlar istisno);
- ular yolg‘on analoglar asosida shakllanmagan;
- ma’nosi alohida komponentlardan aniqlab bo‘lmaydi.

Frazeologik birliklarning idiomatikligi tashqi belgilar bilan emas, balki til ichkarisida aniqlanadi. Masalan, ingliz tilida faqat ona tilida so‘zlashuvchilar tushunadigan (motivlanmagan) so‘z birikmalari idiomatik hisoblanadi: red tape, to kick the bucket.

Frazeologik birliklar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Kommunikativ – axborot yetkazish vositasi.	Stilistik – nutqda muayyan ekspressivlik effektini yaratish.
Nominativ – real hayotdagi obyektlarni nomlash.	Ekspressiv–metaforik jonli obrazlar orqali tasvirlash (catch at a straw – somondan ushlamoq).
Kognitiv – jamiyatning bilim va tajribasini ifodalash.	Emotsional ekspressivlik – hissiy holatni ifodalash (go to the devil – yo‘qol!).
Voluntativ/istak ifodalovchi – tilak va orzularni ifodalash (I wish to God… – Xudo xohlasa…).	Funktsional lokalizatsiya – ma’noni yo‘qotmasdan qisqartirish (do not count your chickens / before they are hatched – hali chiqmagan jo‘jani sanama).
Deiktik – harakatning makoniy yoki vaqtinchalik lokalizatsiyasini ko‘rsatish.	Natijaviylik – harakat natijasini ifodalash (come a cropper – muvaffaqiyatsizlikka uchramoq).
Pragmatik – adresatga maqsadli ta’sir ko‘rsatish.	

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar tilning eng boy, obrazli va semantik jihatdan murakkab qatlamlaridan biridir. Ular orqali xalq tafakkuri, madaniy xotirasi, hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlari ifodalanadi. Frazeologik birliklar leksik birliklar sifatida mustahkam struktura va umumiy semantik xususiyatga ega bo‘lib, ularning o‘rganilishi lingvistik ongning obrazli va milliy-madaniy mexanizmlarini chuqur anglashga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot ingliz tilidagi frazeologizmlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni tahlil qilish orqali umumiy tilshunoslikka qo‘shilayotgan hissani oshiradi. Bundan tashqari, frazeologik birliklarning tarjimasi, madaniy konnotatsiyasi va xalq ruhiyatini ifodalashdagi o‘rni til o‘rganuvchilar uchun ham, tarjimonlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Мокиенко В.М. Загадки русской фразеологии. М., “Высш. шк.”, 1990, 160 с.

(2). Скрипник Л.Г. Фразеология украïнськой мови. Текст. Кшв, 1973, 96 с.

(3). Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. Избранные труды. Лексикология и лексикография. М., «Наука», 1977, с. 140–161.

(4). Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М., Школа «Языки русской культуры», 1996, 288 с.

(5). Коралова А.А. Характер образности фразеологических единиц. Сб. начн.тр. МГПИИЯ им. М. Тореза. М., 1978, вып. 131, с. 77–90.

(6). Потебня А.А. Слово и миф. М., «Правда», 1989.

(7). Wells J.C. Longman Pronounciation Dictionary. Harlow, 2000.

(8). Smith, L.P. Words and Idioms. Studies in the English Language [Текст]. London, 1948, 229 p.

(9). https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/idiom?q=idiom

(10). https://www.merriam-webster.com/dictionary/idiom

Rasulova Soxiba Ulug‘bekovna (Samarqand davlat Chet tillar instituti katta o‘qituvchisi; e-mail: rasulovasokhiba@gmail.com)

VASHINGTON IRVING ASARLARIDA SATIRA VA YUMOR VOSITALARINING TAHLILI

Annotastiya. *Mazkur maqola Amerika adabiyotining taniqli vakili Vashington Irving ijodiga, xususan, uning “Iblis va Tom Uoker” nomli qisqa hikoyasidagi satira vositasidan foydalanish mahoratiga bag‘ishlangan. Muallif satira va kinoya vositalari orqali o‘quvchida nafaqat kulgu, balki ijtimoiy va axloqiy o‘zgarishlar zarurligini anglash hissini uyg‘otadi. Maqola adibning satira vositasidan samarali foydalangan holda, o‘z davrining illatlarini ochib berganini hamda uning asarlari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *satira, yumor, kinoya, axloqiy g‘oya, lingvistik birlik, tanqid allegoriya.*

Расулова Сохиба Улугбековна (старший преподаватель Самаркандского государственного института иностранных языков; e-mail: rasulovasokhiba@gmail.com)

АНАЛИЗ САТИРЫ И ЮМОРА В ТВОРЧЕСТВЕ ВАШИНГТОНА ИРВИНГА

Аннотация*. Статья посвящена творчеству Вашингтона Ирвинга, выдающегося представителя американской литературы, и в частности его мастерству использования сатиры в рассказе «Дьявол и Том Уокер». Используя сатиру и иронию, автор вызывает у читателя не только смех, но и чувство осознания необходимости социальных и нравственных перемен. В статье показано, что писатель эффективно использовал инструмент сатиры для разоблачения пороков своего времени, и что его произведения актуальны и сегодня.*

Ключевые слова: *сатира, юмор, ирония, нравственная идея, языковое единство, критика, аллегория.*

Rasulova Soxiba Ulug‘bekovna (Senior teacher of the Samarkand state institute of foreign languages; e-mail: rasulovasokhiba@gmail.com)

ANALYSIS OF SATIRE AND HUMOR IN THE WORKS OF WASHINGTON IRVING

Annotation. *This article is devoted to the work of Washington Irving, a famous representative of American literature, and in particular to his mastery of the use of satire in his short story "The Devil and Tom Walker." Through the means of satire and irony, the author evokes in the reader not only laughter, but also a sense of awareness of the need for social and moral changes. The article shows that the writer, using the means of satire effectively, exposed the vices of his time and that his works are still relevant today.*

Key words: *satire, humor, irony, moral idea, linguistic unity, criticism, allegory.*

Kirish (Introduction). Vashington Irving XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida ijod etgan Amerika taraqqiyparvar adabiyoti vakillaridan biridir. U bir qancha romanlar bilan birga, haqqoniy satira asarlarini ham ijod etgan.

Irving ko‘pchilik satirik asarlarida faqat ayrim illatlarnigina tanqid qilib qolmasdan, balki “al amon” (“kechirim”) deb nido qilgan isyonkor qalbning hamlasi ham o‘z ifodasini topgan. Bu narsa til va uslubda yangilikni vujudga keltirdi. Vashington Irving ko‘proq vaqtini badiiy asarlar o‘qishga, she’rlar yod olishga sarflab, adabiy ijod sari intilar, yangi asarlar yozishni orzu qilardi. U Amerika adabiyoti tarqqiyotiga yumoristik hajviyalari bilan katta hissa qo‘shgan ulkan adibdir. Hazilomuz epik asarlarda uslubiy zeb berilgan ehtiroslar va ramziy iboralar satiraning o‘rinli vositalari bu siyosiy yoki ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirish yoki hatto oldini olish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, u asarning faqat bir qismida yoki butun asarda ishlatilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Izlanishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, Jonatan Oldstayl (Jonthan Oldsyle) taxallusi ostida 1802–1803-yillar qishda “Morning Kronikl” (Morning Cronicle)da paydo bo‘lgan istehzoli ocherklarni yozuvchi qalamining sinovi desa bo‘ladi. Ular Irving tomonidan hurmatga sazovor bo‘lgan ingliz ma’rifatchilarining, ayniqsa, Stil va Edison satirik va axloqiy jurnallarini yaratuvchilarning ta’sirini ko‘rsatadi. Ajam yozuvchining ijodiy tarjimai holida katta aka-uka Uilyam va Piter va do‘sti Jeyms Polding bilan birgalikda yaratilgan “Salmagundi” (1807-yil yanvar–1808 yil yanvar) almanaxi bor edi. A.M.Zverevning so‘zlariga ko‘ra, Salmagundida nashr etilgan janr bo‘yicha “yumorning yorqin namunasi qo‘llangan (table talk) *gapiruvchi stol* ta’lim jurnalistikasida keng tarqalgan va XIX asr boshlarida alohida mashhurlikka erishgan janr”.[1]V.F.Sherstyukning “V.Irving ijodi (1806 –

[1] Зверев А.М. Вашингтон Ирвинг. История литературы США. в 7 т. Москва, “Наследие”, 1999, т.2, с.55–96.

1824)" dissertatsiyasida "Jurnalning eng qiziqarli va muhim qismi bu siyosiy satiradir..." deb ta'kidlaydi.[1] Xuddi shu tadqiqotchining fikriga ko'ra, "Nyu-York tarixi" asari xuddi "Salmagundi" singari yana ingliz ma'rifatchiligining satirik va yumoristik an'analarini boshqa yo'nalishda Amerika zaminida davom ettiradi. A.N.Nikolukin "Nyu-York tarixi" va "Salmagundi" ocherklari o'rtasidagi o'xshashliklarga ham e'tibor qaratdi.

"Iblis va Tom Uoker" Vashington Irvingning "Sayohatchilarning ertaklari" nomli hikoyalar to'plamida nashr etilgan qisqa hikoyasidir. Ushbu fantastik kitob Jeffri Krayon taxallusi ostida yozilgan bo'lib, fantastika muallifiga hikoya qilish uchun mo'ljallangan.

"Iblis va Tom Uoker"– bu uchta shaxsning hikoyasi. Tom Uoker, uning rafiqasi va iblis. Tom Uoker juda ziqna odam, uning rafiqasi ham xuddi shunday yomon. Ular o'zlarining boyliklarini ko'paytirish uchun bir-birlaridan pul yashirishgan, bahsli munosabatlarga ega edilar. Tom bir kuni xotini bilan shartnoma tuzmoqchi bo'ladi va shaytonga duch keladi. Bu ikkala qahramon bilan nima sodir bo'lishi aniq emas, chunki hamma narsa mish-mishlar orqali aytiladi, ammo ularning ikkalasi ham o'limlaridan so'ng shaytonning changaliga tushgan deb taxmin qilish mumkin. "Iblis va Tom Uoker" hikoyadagi asosiy mavzular sudxo'rlik va ikkiyuzlamachilikning yomonliklarini, shuningdek, ochko'zlik va bahsli munosabatlarning ahmoqligini o'z ichiga oladi.

"Iblis va Tom Uoker" asarida xazina hindlar o'z xudolariga qurbonlik qiladigan botqoqqa ko'milgan. Botqoq, shuningdek, olamlar chegarasining ramzidir va agar suv yoki o'rmon yaxshi sirlarni saqlab qola olsa, unda miflardagi botqoq tasviri, shubhasiz, dahshatli. Irving "Iblis va Tom Uoker" asarida uyushgan din oqimlari, "oq muassasa" va nikoh munosabatlarini eslatib o'tadi. Ushbu hikoyada Irving uyushgan din va diniy turlar haqida so'z yuritadi. Bunda muallif allegoriyadan o'rinli foydalanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Allegoriya – qahramonlar, joylar yoki narsalar ruhiy yoki axloqiy g'oyalarni ifodalovchi adabiy qurilma. Allegoriyaning maqsadi, odatda, axloqiy saboq berishdir. Shunday qilib, Irving "Iblis va Tom Uoker" asarida allegoriya adabiy vositasining axloqiy saboqlari shundaki, xudbinlik va ochko'zlik o'z-o'zini yo'q qilishga olib keladi. Gunohkor xatti-harakatlar jazoga olib boradi. Irving shuni ko'rsatadiki, yetti o'limga olib keladigan gunohlardan biri bo'lgan ochko'zlik shayton uchun insoniyatni o'z uyiga jalb qilishning oson yo'li. Oxir-oqibat, ochko'zlik kuldan boshqa narsa emas, chunki inson bir marta o'z ruhini yo'qotsa, u hamma narsani yo'qotadi. Irvingning satiradan foydalanish usullaridan biri kinoyadan foydalanishdir. Tomoshabinlar vaziyat haqida qahramonlardan ko'ra ko'proq bilsalar, adabiyotda satira-yumor mavjud. Quyida muhokama qilinadigan ushbu "Iblis va Tom Uoker"da bir nechta satira holatlari mavjud.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Irving ushbu hikoyada er-xotinning munosabatlarini tasvirlaganida quydagi parcha keltirilgan:

"Tom's wife was a tall termagant, fierce of temper, loud of tongue, and strong of arm. Her voice was often heard in wordy warfare with her husband; and his face sometimes showed signs that their conflicts were not confined to words."

"Tomning xotini o'taketgan mijg'ov va shallaqi, ezma va qo'li bexosiyat banda edi. Ko'pincha, uning eri bilan adi-badi aytishib, chinqirayotgan ovozi eshitilib turar, uning afti-basharasining momataloq bo'lib ko'karib yurishidan bu xil g'idi-bidilar faqat qarg'ish-u baqiriqlar bilan cheklanib qolinmasligi ko'rinib turardi".

Muallif Tomning xotini bilan tortishuvlariga urg'u beradi va ularning bir-biriga qanday aziyat berishini nozik tarzda bo'rttiradi. Bundan tashqari, nikoh Tomning xotini bilan kelisha olmasligi tufayli tanqid qilinadi. Tom o'z xotiniga Qora odamning taklifini aytib berganida, u undan shartnomani qabul qilishni so'raydi:

"...she urged her husband to comply with the black man's terms, and secure what would make them wealthy for life. However Tom might have felt disposed to sell himself to the devil, he was determined not to do so to oblige his wife; so he flatly refused, out of the mere spirit of contradiction".[2]

"u erini vanjining shartlariga ko'nishga unday boshladi, chunki shu tarzda butun hayotlariga yetadigan dunyoni qo'lga kiritish mumkin edi. Aslida, Tomning o'ziyam jonini jabborga bergani tayyor edi-yu, lekin xotinining gapiga kirmaslikka ahd qildi-da, terslik bilan rejalaridan mutlaqo voz kechdi".

---

[1] Шерстюк В.Ф. Творчество Вашингтона Ирвинга (1806 – 1824). Автореф. дис. канд. филол. наук, Москва, 1965, с. 20.

[2]Washington Irving. The Devil and Tom Walker Short Story. https://www.thomas. k12.ga.us/userfiles/257/Cla sses/ 2694 / thedevilandtomwalker.pdf

Uning raddiyasi er-u xotin o‘rtasida anchagina to‘qnashuvlar chiqishiga sabab bo‘ldi. Xotini qanchalik tirishmasin, tavqi la’natga duchor bo‘lishni, aslo, istamagan Tom ham shunchalik oyog‘ini tirab turib oldi.

Nihoyat, Irving nikohni satirik qilgan uchinchi misol, Tomning xotinining o‘limiga munosabati: *“Tom consoled himself for the loss of his property with the loss of his wife, for he was a man of fortitude. He even felt something like gratitude towards the black woodman, who, he considered, had done him a kindness”.*

“Mol-mulkidan ajralgan Tom sabr-toqatli kishi bo‘lgani uchun xotinidan judo bo‘lsa ham, g‘amga berilmadi. O‘ziga birmuncha xizmati singganidan u qora daraxtkesardan, hatto minnatdor ham bo‘lganday bo‘ldi”.

Tom xotinining jasadini topganda nafaqat befarq bo‘ldi, balki u mijg‘ov ayolidan ozod qilgani uchun iblisdan minnatdor ham bo‘ldi. Ushbu uchta parcha Tomning nikohdagi noto‘g‘ri munosabatini aniq tasvirlaydi va Irvingning nikoh munosabatlariga noroziligini namoyish etadi.

Satira bu adabiy vosita bo‘lib, unda muallif odamlar va g‘oyalarni tanqid qilish uchun kinoyadan foydalanadi. Irving satiradan nafaqat qahramonlarning axloqiy jihatdan qoloq ekanligini ko‘rsatish, balki hikoyaga hazil qo‘shish uchun ham foydalanadi. Misol uchun, Tomning o‘z xotiniga muhabbatsiz, dushmanona nikohi hamda nikoh urf-odatlarini satira qiladi, ham ikkala qahramonning jirkanch tabiatiga hazil-mutoyiba beradi. Ushbu asarda Irving 1700-yillardagi Puritan Yangi angliyaliklarni masxara qilish uchun satiradan foydalanadi. U odamlarni yoki g‘oyalarni masxara qilish uchun satirani ishlatadi. “Iblis va Tom Uoker” hikoyasidagi satira jamiyatda yoki madaniyatda o‘zgarishi kerak bo‘lgan narsani ko‘rishadi va uni o‘zgartirishga harakat qilish uchun unga oydinlik kiritish va boshqalarning e’tiborini jalb qilishni xohlashadi. Irving “Iblis va Tom Uoker” hikoyasida aynan shunday qiladi. U odamlar o‘z hayotidagi ikkiyuzlamachilikni ko‘radi va bu kamchiliklarni ochiqdan ochiq ko‘rsatish o‘rniga, ularni odamlarga ko‘rsatish uchun hikoyaga kiritadi. Satira jamiyatning ko‘zgusi bo‘lganligi sababli, u shaxslar, muassasalar va madaniyatlarda ijobiy o‘zgarishlarga intiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Vashington Irving ushbu qisqa hikoyada o‘zining ajoyib satira mahoratidan foydalanib, noto‘g‘ri nikoh va oila munosabatlari, insoniy istaklarni masxara qilish va o‘quvchida yumor va o‘z-o‘zini aks ettirish tuyg‘usini yaratish uchun foydalanadi. O‘quvchini diniy muassasalar va inson kamolotining xayriya g‘oyalari yolg‘on va xato, degan fikrga olib keladi. Irvingning satira mahorati va nozikligi birlashib, “Iblis va Tom Uoker”ni ajoyib adabiy san’at asariga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Зверев А.М. Вашингтон Ирвинг. История литературы США. в 7 т. Москва, “Наследие”, 1999, т. 2, с. 55–96.

(2). Шерстюк В.Ф. Творчество Вашингтона Ирвинга (1806 – 1824). Автореф. дис. канд. филол. наук, Москва, 1965, с. 20.

(3). Washington Irving. The Devil and Tom Walker Short Story.

(4). https://www.thomas. k12.ga.us/userfiles/257/Cla sses/2694/ thedevilandtomwalker.pdf

Buranova Jamila Aliyevna (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiton Milliy universiteti Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi doktoranti)

MIFOPOETIKANING ASOSIY TAMOYILLARI VA ULARNING O‘ZBEK ADABIYOTIDA AKS ETISHI

Annotatsiya. *Mifopoetika adabiyot va mifologiya ortasidagi bog‘liqlikni o‘rganadigan ilmiy yondashuv sifatida adabiy matnlarni arxetip, simvol, ritual va sujet kabi tamoyillar orqali tahlil qiladi. Ushbu maqola mifopoetikaning asosiy tamoyillarini aniqlash, ularning adabiyotdagi ornini tahlil qilish va ozbek adabiyotidagi korinishlarini organishga bagishlanadi. Tadqiqotda Karl Gustav Yungning arxetip nazariyasi, Jozef Kempbellning monomif tushunchasi, Mircha Eliadening ritual va mifologik vaqt haqidagi g‘oyalari va boshqa olimlarning ishlari asosida mifopoetik elementlarning universal va mahalliy xususiyatlari korib chiqiladi. O‘zbek folklori va klassik adabiyotidagi misollar orqali mifopoetikaning o‘zbek adabiyotidagi oziga xos aks etishi tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mifopoetik tamoyillar adabiy asarlarga chuqur ma’no bagishlaydi va ularning universal hamda milliy qadriyatlar sintezini ta’minlaydi.*

Kalit so‘zlar: *mifopoetika, arxetip, simvol, ritual, sujet, ozbek adabiyoti, monomif, kollektiv ongsizlik, mifologik vaqt.*

Буранова Жамила Алиевна (докторант “Кафедры узбекского литературоведения” Факультет журналистики и узбекской филологии, Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека)

ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ МИФОПОЭТИКИ И ИХ ОТРАЖЕНИЕ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. *Мифопоэтика представляет собой научный подход, изучающий взаимосвязь между литературой и мифологией, анализируя литературные тексты через такие принципы, как архетип, символ, ритуал и сюжет. Настоящая статья посвящена выявлению основных принципов мифопоэтики, анализу их роли в литературе и рассмотрению их проявлений в узбекской литературе. В исследовании рассматриваются универсальные и локальные особенности мифопоэтических элементов на основе теории архетипов Карла Густава Юнга, концепции мономифа Джозефа Кэмпбелла, идей Мирчи Элиаде о ритуале и мифологическом времени, а также работ других ученых. На примерах узбекского фольклора и классической литературы анализируется своеобразное отражение мифопоэтики в узбекской литературной традиции. Полученные результаты показывают, что мифопоэтические принципы придают литературным произведениям глубокий смысл и обеспечивают синтез универсальных и национальных ценностей.*

Ключевые слова: *мифопоэтика, архетип, символ, ритуал, сюжет, узбекская литература, мономиф, коллективное бессознательное, мифологическое время.*

Buranova Jamila Aliyevna (DcS student, Department of Uzbek Literary Studies Faculty of Journalism and Uzbek Philology National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek)

THE MAIN PRINCIPLES OF MYTHOPOETICS AND THEIR REFLECTION IN UZBEK LITERATURE

Annotation. *Mythopoetics is a scholarly approach that explores the relationship between literature and mythology, analyzing literary texts through principles such as archetype, symbol, ritual, and plot. This article is devoted to identifying the main principles of mythopoetics, analyzing their role in literature, and studying their manifestations in Uzbek literature. The research is based on the archetypal theory of Carl Gustav Jung, Joseph Campbell’s concept of the monomyth, Mircea Eliade’s ideas about ritual and mythological time, and the works of other scholars. The universal and local features of mythopoetic elements are examined. Through examples from Uzbek folklore and classical literature, the study explores the specific expression of mythopoetics in Uzbek literary tradition. The findings demonstrate that mythopoetic principles impart profound meaning to literary works and provide a synthesis of universal and national values.*

Keywords: *mythopoetics, archetype, symbol, ritual, plot, Uzbek literature, monomyth, collective unconscious, mythological time.*

Kirish. Mifopoetika adabiyotshunoslikning muhim sohasi sifatida adabiy matnlarni mifologik tuzilmalar va ramziy ma’nolar nuqtayi nazaridan o‘rganadi. U adabiyotning mifologik ildizlarini ochib berish, universal va mahalliy elementlarning uyg‘unligini tahlil qilish imkonini beradi. Mifopoetikaning asosiy tamoyillari arxetip, simvol, ritual va sujet adabiy asar tahlilida muhim vositalar hisoblanadi. Ushbu tamoyillar orqali adabiyotning nafaqat estetik, balki psixologik va madaniy qatlamlari ochiladi. O‘zbek adabiyoti kontekstida mifopoetika xalq o‘gzaki ijodi, klassik adabiyot va zamonaviy ijodda o‘ziga xos ko‘rinish topadi. Masalan, Alpomish yoki Go‘ro‘g‘li kabi dostonlarda mifopoetik elementlar universal qahramonlik sujetlari va ramziy obrazlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu maqola mifopoetikaning asosiy tamoyillarini nazariy jihatdan tahlil qilish va ularning o‘zbek adabiyotidagi aks etishini ko‘rib chiqishga qaratilgan. Tadqiqotda global nazariyalar (Yung, Kempbell, Eliade) bilan mahalliy kontekst (o‘zbek folklori va adabiyoti) uyg‘unlashtiriladi. Maqola quyidagi savollarga javob berishga urinadi: Mifopoetikaning asosiy tamoyillari qanday ta‘riflanadi? Ular adabiy asarlarda qanday ko‘rinish topadi? O‘zbek adabiyotidagi mifopoetik unsurlar qanday o‘ziga xoslikka ega?

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mifopoetika sohasidagi tadqiqotlar adabiyot, psixologiya, antropologiya va madaniyatshunoslikning kesishgan nuqtalarida rivojlangan. Quyida asosiy manbalar va ularning mavzuga hissalari qisqacha tahlil qilinadi.

Karl Gustav Yung o‘zining “Archetypes and the Collective Unconscious” (“Arxetip va kollektiv ongsizlik”) [6] va “Man and His Symbols” (“Inson va uning ramzlari”) asarlarida arxetip tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi [7]. Yungning kollektiv ongsizlik nazariyasi mifopoetikaning asosiy poydevori hisoblanadi. U arxetiplarni insoniyatning umumiy psixik merosi sifatida ta’riflaydi, ular mifo-

logiya, din va san'atda universal obrazlar sifatida namoyon bo'ladi. Yungning so'zlariga ko'ra, kollektiv ongsizlik inson zotining hayoti davomida shakllangan meros bo'lib, u barcha odamlarga xos va irsiy yo'l bilan avloddan avlodga o'tadi [6]. Bu nazariya adabiyotdagi qahramon, soya yoki ona arxetiplarini tahlil qilishda muhim asos bo'ldi.

Jozef Kempbellning "The Hero with a Thousand Faces" ("Ming qiyofali qahramon") asari monomif yoki qahramonning sayohati tushunchasini rivojlantirdi [1]. Kempbell mifologik sujetlarning universal tuzilishga ega ekanligini ta'kidlaydi, bunda qahramon sinovlardan o'tib, o'zgarishga erishadi. Ushbu model o'zbek dostonlaridagi syujetlar, masalan, "Alpomish" yoki "Rustamxon"dagi qahramonlik hikoyalari bilan solishtirishda foydalidir. Kempbellning so'zlariga ko'ra, qahramon o'zining mahalliy cheklovlaridan oshib, umuminsoniy shakllarga erishadi [1].

Mircha Eliadening "The Sacred and the Profane" ("Ilohiy va dunyoviy") [9] va "Myth and Reality" ("Mif va ritual") asarlari mif va ritualning adabiyotdagi o'rnini tahlil qiladi [10]. Eliade mifologik vaqt va muqaddas makon tushunchalarini kiritib, rituallarning adabiy sujetlarda o'tish marosimlari sifatida aks etishini ko'rsatadi. Uning g'oyalari o'zbek adabiyotidagi "Kelin salom" yoki "Go'ro'g'li" dostonidagi jangovar marosimlarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Nortrop Fryening "Anatomy of Criticism" ("Tanqid anatomiyasi") asari arxetipik tanqid yo'nalishini asoslab berdi [11]. Frye simvol va arxetiplarni adabiy janrlar va syujetlar tuzilishi nuqtayi nazaridan o'rganadi. Uning yondashuvi adabiyotdagi mifologik tuzilmalarni tahlil qilishda keng qo'llaniladi.

Vladimir Proppning "Морфология сказки" asari folklor sujetlarining tuzilishini funksiyalar orqali tahlil qiladi [3]. Proppning 31 funksiya modeli o'zbek xalq ertaklari va dostonlaridagi mifopoetik sujetlarni tahlil qilishda foydalidir.

O'zbek adabiyotshunosligida Bahodir Karim, Matyoqub Qo'shjonov va Naim Karimov kabi olimlarning ishlari mifopoetik elementlarni o'rganishda muhim hissa qoshgan. Masalan, Qo'shjonovning "O'zbek xalq dostonlari" [13] asari "Alpomish" va "Go'ro'g'li" kabi dostonlardagi mifopoetik unsurlarni tahlil qiladi.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni korsatadiki, mifopoetika global nazariyalar va mahalliy kontekstni uyg'unlashtirish orqali adabiyotning chuqur ma'nolarini ochib beradi. O'zbek adabiyotidagi tadqiqotlar esa bu sohada hali to'liq o'rganilmagan imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot mifopoetikaning asosiy tamoyillarini o'zbek adabiyoti kontekstida tahlil qilish uchun sifatli va qiyosiy metodologiyaga asoslanadi. Quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. Nazariy tahlil. Yung, Kempbell, Eliade va Frye kabi olimlarning ishlari asosida mifopoetikaning asosiy tamoyillari (arxetip, simvol, ritual, sujet) ta'riflanadi va ularning adabiyotdagi funksiyalari aniqlanadi.

2. Qiyosiy tahlil. O'zbek adabiyotidagi mifopoetik elementlar (masalan, Alpomish, Navoiyning "Xamsa"si, zamonaviy she'riyat) jahon adabiyotidagi misollar bilan solishtiriladi. Masalan, Kempbellning monomif modeli "Alpomish" sujeti bilan taqqoslanadi.

3. Matn tahlili. Tanlangan adabiy asarlar (o'zbek folklori, klassik va zamonaviy adabiyot) mifopoetik unsurlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Bu jarayonda arxetipik obrazlar, simvollar, rituallar va sujet tuzilmalari aniqlanadi.

4. Manba tahlili. Xalqaro (Yung, Kempbell, Eliade) va mahalliy (Karim, Qo'shjonov) manbalar tahlil qilinib, ularning mifopoetik tadqiqotlardagi ahamiyati baholanadi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotda mifopoetikaning asosiy tamoyillari quyidagi tarzda tahlil qilindi:

Arxetip mifopoetikaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, Yungning kollektiv ongsizlik nazariyasiga asoslanadi. O'zbek adabiyotidagi *qahramon* arxetipi "Alpomish" dostonida aniq ko'rinadi. Alpomish o'z sinovlaridan o'tib, jamiyat uchun foyda keltiruvchi qahramon sifatida tasvirlanadi, bu Kempbellning monomif modelidagi qahramonning sayohatiga mos keladi. Soya arxetipi esa Alisher Navoiyning "Xamsa"sidagi ichki ziddiyatli obrazlarda, masalan, Xusravning o'z istaklari bilan kurashida aks etadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, arxetiplar o'zbek adabiyotidagi universal va mahalliy manolarni uyg'unlashtiradi.

Simvollar adabiy matnning ko'p ma'noliligini ta'minlaydi. O'zbek adabiyotidagi *gul* simvoli, masalan, Navoiyning "Xamsa"sida ilohiy muhabbat va poklik ramzi sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy she'riyatda, masalan, Abdulla Oripovning "O'zbekiston" she'rida *ona* simvoli *milliy o'zlik* va *vatan* ramzi sifatida ishlatiladi. Simvollar adabiy asarga estetik va psixologik chuqurlik qo'shadi.

Rituallar adabiyotda o‘tish (initsiatsiya) marosimlari yoki muqaddas amallar sifatida ko‘rinadi. O‘zbek adabiyotidagi kelin salom marosimi yoki “Go‘ro‘g‘li” dostonidagi jangovar rituallar Eliadening muqaddas vaqt tushunchasiga mos keladi. Bu rituallar sujet rivojlanishiga xizmat qiladi va qahramonning ma’naviy o‘zgarishini aks ettiradi. Sujet mifopoetik tahlilda muhim o‘rin tutadi. Kempbellning monomif modeli Alpomish dostonidagi qahramonning sayohati, sinovlari va g‘alabasiga to‘liq mos keladi. Proppning 31 funksiya modeli esa o‘zbek xalq ertaklaridagi sujet tuzilishlarini tahlil qilishda foydalidir. Zamonaviy adabiyotda, masalan, O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida mifopoetik sujetlar shaxsiy va milliy o‘zlik izlanishlari bilan uyg‘unlashadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mifopoetik tamoyillar o‘zbek adabiyotidagi asarlarga chuqur ma’no bag‘ishlaydi va ularning universal hamda mahalliy xususiyatlarini ochib beradi. O‘zbek folklori va klassik adabiyotidagi mifopoetik unsurlar global nazariyalar bilan uyg‘unlashgan holda milliy o‘zlikni aks ettiradi.

Xulosa va takliflar. Mifopoetikaning asosiy tamoyillari arxetip, simvol, ritual va sujet adabiy asarlarni tahlil qilishda muhim vositalar hisoblanadi. Ular orqali adabiyotning mifologik ildizlari, psixologik va madaniy qatlamlari ochiladi. O‘zbek adabiyotidagi mifopoetik unsurlar xalq og‘zaki ijodi, klassik adabiyot va zamonaviy ijodda o‘ziga xos ko‘rinish topib, milliy va universal qadriyatlar sintezini ta’minlaydi. Masalan, “Alpomish” dostonidagi qahramonlik sujeti Kempbellning monomif modeliga mos keladi, Navoiyning “Xamsa”sidagi simvollar esa ilohiy va ma’naviy ma’nolarni ochadi.

Kelajak tadqiqotlari uchun quyidagi takliflar beriladi: 1. O‘zbek zamonaviy adabiyotidagi mifopoetik unsurlarni chuqurroq o‘rganish, ayniqsa, she’riyat va nasrdagi simvolizm va arxetiplarni tahlil qilish. 2. Mifopoetik tahlilni boshqa fanlar (psixologiya, antropologiya) bilan integratsiya qilish orqali adabiyotning ko‘p qirrali talqinini rivojlantirish. 3. O‘zbek folkloridagi mifopoetik elementlarni boshqa turkiy xalqlar adabiyoti bilan qiyosiy tahlil qilish.

Mifopoetika adabiyotshunoslikda o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda va kelajak tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Кэмпбелл Дж. Тысячеликий герой. М., АСТ, 2001.
(2). Navoiy A. Xamsa. Toshkent, G‘afur G‘ulom, 2007.
(3). Пропп В. Морфология сказки. СПб., 2008, 152 с.
(4). Юнг К.Г. Архетип и символ. М., “Канон”, 1996.
(5). Юнг К.Г., Нойманн Э. Психоанализ и искусство. Антология. Ваклер, Рефл-бук, 1998.
(6). Jung C.G. Die archetypen und das kollektive unbewussten. Archetypes and the Collective Unconscious (Collected Works, Volume 9.1). Перевод А.Чечиной:https://www.litres.ru/book/karl-ung/ arhetipy
(7). Jung C.G. Man and His Symbols. Doubleday. 2004.
(8). Yung, K.G. Psixologiya va adabiyot. Toshkent, “Adabiyot” nashriyoti, 2000.
(9). Eliade M. The Sacred and the Profane. Harcourt Brace, 2007.
(10). Eliade M. Myth and Reality. Harper Row, 2003.
(11). Frye N. Anatomy of Criticism. Princeton University Press, 2007.
(12). O‘zbek xalq ijodi. Toshkent, “Sharq”, 2015.
(13). Qo‘shjonov M. O‘zbek xalq dostonlari. Toshkent, G‘afur G‘ulom, 2005.

Fayziyeva Dilorom (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universitetining mustaqil izlanuvchisi)

TOK-SHOU JANRINING IJTIMOIY-SIYOSIY FUNKSIYALARI VA ZAMONAVIY MEDIAMUHITIDA RIVOJLANISHI

Annotatsiya. *Maqolada tok-shou janrining nazariy asoslari va ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari atroflicha o‘rganilgan. Yangi mediamuhitida tok-shoularning shakllanishi, rivojlanishi va kommunikatsiyaviy imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, tok-shou dasturlarining “ommaviy madaniyat”, siyosiy jarayonlar hamda jamiyat auditoriyasiga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Tok-shoularning ijtimoiy muammolarni ochiq muhokama qilish va jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi o‘rni haqida xulosa berilgan.*

Kalit so‘zlar: *tok-shou, ommaviy axborot vositalari, kommunikatsiya, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ommaviy madaniyat, mediajanrlar, auditoriya, interaktivlik.*

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ЖАНРА ТОК-ШОУ И ЕГО РАЗВИТИЕ В СОВРЕМЕННОМ МЕДИА-ПРОСТРАНСТВЕ

Аннотация. *В статье подробно изучены теоретические основы и социально-политические особенности жанра ток-шоу. Проанализированы формирование, развитие и коммуникативные возможности ток-шоу в новой медийной среде. Также рассмотрено влияние ток-шоу на массовую культуру, политические процессы и аудиторию общества. В статье сделан вывод о роли ток-шоу в открытом обсуждении социальных проблем и формировании общественного мнения.*

Ключевые слова*: ток-шоу, средства массовой информации, коммуникация, социально-политические процессы, массовая культура, медиа жанры, аудитория, интерактивность.*

SOCIAL AND POLITICAL FUNCTIONS OF THE TALK SHOW GENRE AND ITS DEVELOPMENT IN THE MODERN MEDIA SPACE

Annotation*. The article thoroughly examines the theoretical foundations and socio-political characteristics of the talk show genre. It analyzes the formation, development, and communicative potential of talk shows in the new media environment. Additionally, the article explores the influence of talk show programs on mass culture, political processes, and society’s audience. The conclusion highlights the role of talk shows in openly discussing social issues and shaping public opinion.*

Keywords*: Talk-show, mass media, communication, socio-political processes, mass culture, media genres, audience, interactivity.*

Kirish (introduction). Ommaviy axborot vositalarining hozirgi taraqqiyot bosqichida tok-shou janri jamiyatda muhim o‘rin tutmoqda. Milliy telekanallar auditoriyaning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda yangi dasturlar ishlab chiqishga e’tibor qaratmoqdalar. Shu davrda axborot oqimi sezilarli darajada oshdi, odamlarning yashash sur’ati tezlashdi, hayotning barcha jabhalariga tezlik ta’siri kirib keldi, tashqi axborot oqimining inson ongiga ta’siri kuchayib bordi va aholi uchun bu shiddatli axborot oqimida yashash qiyinlashdi. Natijada asabiylik va yolg‘izlikka moyillik kuchayib, hayotdagi muammolar girdobidan tez chiqish kundalik ehtiyojga aylandi. Mana shunday sharoitda davr, zamon OAV, xususan, eng ta’sirchan va keng auditoriyaga ega bo‘lgan TV zimmasiga mas’uliyatli vazifalarni qo‘ydi. Hayotning o‘zi televideniyadan, telejurnalistikadan, jurnalistlardan mutlaqo yangicha ishlashni taqozo etdi. Keng ma’nodagi rekreativ ko‘rsatuvlar ana shu zaruriyat asosida ommalasha boshladi. Televideniyaning rekreativ vazifasini bajargan tok-shoular ana shu to‘lqinda, qayd etilgan ehtiyojlar silsilasidan vujudga keldi, shakllandi va rivojlandi [1]. Ushbu janr auditoriya bilan bevosita aloqa qilish, dolzarb masalalarni ochiq-oydin muhokama qilish va ijtimoiy-siyosiy muammolarni yoritishda samarali vosita hisoblanadi. Tok-shou janri madaniy, ijtimoiy va siyosiy kontekstda shakllangan bo‘lib, uning o‘ziga xos kommunikativ imkoniyatlari mavjud. Tok-shou janrining ijtimoiy ahamiyatini o‘rganish bugungi kundagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki mazkur janr nafaqat axborot uzatish, balki jamiyatdagi dolzarb masalalarni keng jamoatchilik e’tiboriga havola qilish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, tok-shou janri kommunikatsiya vositalarining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish dolzarb masala sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review). Tok-shou janriga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarda ushbu janrning individual xususiyatlari, tarixiy shakllanishi hamda uning ijtimoiy va siyosiy jarayonlardagi o‘rni keng qamrab olingan. Jumladan, Д.Маккуэйла “Ommaviy kommunikatsiya nazariyalari” asarida tok-shou janrini ommaviy madaniyat mahsuloti sifatida ko‘rib chiqadi hamda bu format orqali

auditoriya bilan qanday aloqa o‘rnatilishini tahlil qiladi [2]. Ushbu yondashuv tok-shouni nafaqat axborot vositasi, balki jamoatchilik bilan interaktiv muloqot quroli sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Bundan tashqari, B.Ruberning tok-shoulardagi interfaollik (interactive) va muloqotning ta’sirchanlik darajasiga bag‘ishlangan tadqiqotlari janrning kommunikatsiyaviy salohiyatini yanada teranroq anglash imkonini beradi. Uning tahlillarida tok-shou dasturlari nafaqat axborot yetkazish, balki jamoatchilik fikrini shakllantirishda ham samarali platforma ekani ko‘rsatiladi.

Bu manbalar tok-shou janrining mediakommunikatsiyadagi o‘ziga xos o‘rnini ochib beradi. Makkvell yondoshuvi janrni umumiy madaniyat kontekstida tahlil qilsa, Ruber esa to‘g‘ridan to‘g‘ri mo‘ljalli muloqot, fikrlar xilma-xilligi va jamoatchilik ishtirokiga e’tibor qaratadi. Bu esa tok-shouni zamonaviy mediamuhitida faqat ko‘ngilochar emas, balki ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi va muhokama olib boruvchi muhim janr sifatida baholashga asos yaratadi. Mintaqaviy miqyosda olib borilgan tadqiqotlar ham tok-shou janrining turli madaniy va ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Masalan, Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi tok-shou dasturlari mintaqaviy madaniyat va an’analarga xos mavzularni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, G‘arb davlatlarida bu janr ko‘proq siyosiy va iqtisodiy muhokamalarga yo‘naltirilgan. Adabiyotlarni o‘rganish davomida aniqlangan ma’lumotlar tok-shou janrining ijtimoiy va siyosiy jarayonlardagi ahamiyatini chuqurroq yoritishga yordam berdi. Shuningdek, tok-shou janrining auditoriyani shakllantirishdagi roli, uning mavzu tanlash va yoritish usullari haqidagi ma’lumotlar tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi (research methodology). Tadqiqotni o‘tkazish davomida tahlil, kontent tahlil, qiyosiy tahlil, kuzatuv, umumlashtirish kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (analysis and results). Zamonaviy mediamuhitida tok-shou janri ommaviy axborot vositalarining eng keng tarqalgan va ko‘p ko‘riluvchi formatlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, uning ijtimoiy va siyosiy hayotda tutgan o‘rni alohida ahamiyatga egadir. Janrning nazariy negizlarini o‘rganishda ommaviy kommunikatsiya nazariyalari, jamoatchilik bilan aloqalar konsepsiyasi va mediafanga oid zamonaviy tadqiqotlar asos qilib olingan.

Tok-shou janri quyidagi asosiy xususiyatlarga ega. Interaktiv tabiat bu janrning eng muhim xususiyatlaridan biri bu uning auditoriya bilan bevosita yoki bilvosita muloqotga asoslanganligidir. Masalan, “Oprah Winfrey Show” yoki BBC Question Time kabi tok-shoularda tomoshabinlar savol berish, fikr bildirish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu jarayonlar muloqotning faol va dinamik bo‘lishini ta’minlaydi. Ushbu xususiyat J.Makkvellning ommaviy kommunikatsiyaning “ikki tomonlama munosabat” nazariyasiga mos keladi, ya’ni, axborot faqat yetkazilmaydi, balki jamoatchilik tomonidan qayta ishlanadi va baholanadi.

Mavzuning ko‘p qirraliligi – tok-shoular, ko‘pincha, jamiyatda dolzarb bo‘lgan ijtimoiy, siyosiy, madaniy masalalarni qamrab oladi. Bunga misol sifatida AQSHdagi “The Daily Show” yoki O‘zbekistondagi “Yoshlar” telekanalidagi “Muloqot” tok-shousini keltirish mumkin. Bu dasturlar nafaqat ma’lumot berish, balki har xil ijtimoiy qatlam va qarashlarga mansub auditoriyalarni jalb qilish maqsadini ham ko‘zlaydi. Shu jihatdan, ular jamiyatdagi ijtimoiy ko‘p xillikni aks ettiradi.

Tamoshaboplik va dramatizm – tok-shoular ko‘p hollarda auditoriya e’tiborini jalb qilish maqsadida turli dramatik yondoshuvlar, kutilmagan voqealar va emotsiyalarga boy muammolarni muhokama qilish orqali ishlaydi. Masalan, Rossiyadagi “Пусть говорят” tok-shousi dramatik syujeti va bahsli mavzulari orqali tomoshabinni jalb qiladi. Bu holat media nazariyada “spektaklizatsiya” tushunchasi bilan izohlanadi, ya’ni axborot mazmunini ko‘rkamlashtirish orqali uning ta’sirchanligi oshiriladi.

Ushbu xususiyatlar tok-shou janrining zamonaviy axborot maydonidagi universal va ko‘p funksiyali formatiga aylanganini ko‘rsatadi. “Tok-shou dasturlarida boshlovchining o‘rni, mahorati va tajribasi muhim ahamiyatga egadir. Chunki bu kabi dasturdagi auditoriyaning fikri improvizatsiya (badia) holatini keltirib chiqaradi va dasturga jonlilik baxsh etadi” [1]. Tok-shou jamoatchilik fikrini shakllantirish, bahs va munozaralar orqali ijtimoiy ongni rivojlantirish, shuningdek, auditoriyaning axborotga nisbatan munosabatini faollashtirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

2020–2023-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi yetakchi telekanallar – “O‘zbekiston”, “Sevimli” va “Mening yurtim” orqali efirga uzatilgan turli tok-shou dasturlari mazmun va format jihatidan o‘rganildi. Tahlil jarayonida maxsus mediakontent tahlili (content analysis) usullari, auditoriya monitoringi va jonli mulohaza (feedback) tahlili kabi ilmiy metodikalar qo‘llaniladi.

Bu tahlil natijalari quyidagicha muhim xulosalarni aniqlandi:

• Ijtimoiy mavzularga bag‘ishlangan tok-shoular auditoriyani turli ijtimoiy muammolarga nisbatan o‘ylashga, muhokama qilishga va faol munosabat bildirishga undaydi. Masalan, “Sevimli” telekanalida efirga uzatiladigan “Ko‘ngil og‘rig‘i” tok-shousi kam ta’minlangan oilalar, nogironlar, ijtimoiy zaif qatlam va inson huquqlari kabi dolzarb mavzularni ko‘taradi.

• Siyosiy tok-shoular ko‘proq davlat siyosatining mazmun-mohiyatini keng ommaga tushuntirish va targ‘ib etish vazifasini bajaradi. Misol sifatida “O‘zbekiston 24” telekanalidagi “Davr munozarasi” tok-shousini keltirish mumkin. Ushbu dasturda siyosatchilar, ekspertlar va jamoatchilik vakillari ishtirokida turli islohotlar muhokama qilinadi.

• Tok-shou formatining interaktivlik xususiyati, ya’ni auditoriya bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqada bo‘lishi uni samarali kommunikatsiya platformasiga aylantiradi. Bu xususiyat jamoatchilik fikrini shakllantirish, axborot almashish va ijtimoiy muammolarni birgalikda muhokama qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston televideniyasidagi tok-shoular zamonaviy mediamuhitning universal formatlaridan biri sifatida shakllangan. Ularning mavzu jihatdan keng qamrovi, auditoriya bilan interaktiv aloqasi va ijtimoiy ta’sirchanligi bu janrni nafaqat axborot yetkazish, balki jamoatchilik ongini rivojlantirish va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim omilga aylantiradi.

Bu xulosalar media nazariyasining turli yo‘nalishlari, xususan, “uses and gratifications” nazariyasi [3] va “public sphere” tushunchalari bilan uyg‘unlashadi. Ya’ni, auditoriya o‘z ehtiyojlariga ko‘ra tok-shoularni tanlaydi va ularni axborot, muhokama va empatiya vositasi sifatida qo‘llaydi.

Tok-shou janri o‘zining universal va dinamik formati tufayli ijtimoiy-siyosiy muloqotda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu janr ijtimoiy muammolarni yoritishda va ularning yechimlarini muhokama qilishda ko‘p tomonlama platforma sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, uning muvaffaqiyatli ishlashi bir qator omillarga bog‘liq:

1. **Moderatorning roli.** Tok-shoularning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan moderatorning mahoratiga bog‘liq. Moderator bahs-munozaralarni boshqarishi, neytral pozitsiyada turishi va har bir ishtirokchiga teng imkoniyat yaratishi zarur.

2. **Auditoriya bilan aloqalar.** Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tok-shoularning eng kuchli ta'sir kuchi ular auditoriyaning turli qatlamlariga birdek qiziqarli mavzularni taklif qilishida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, tok-shoularda keng ijtimoiy-siyosiy mavzularni qamrab olish muhimdir.

3. **Ovoz va ko‘rinish balansi.** Tok-shoular vizual va ovozli tarkibning uyg‘unligini talab qiladi. Shu yo‘l bilan ular nafaqat mavzu mazmunini yetkazadi, balki uni tinglash va ko‘rish uchun jozibador qiladi.

Muhokamalar natijasida shunday xulosaga kelindi: tok-shou janri jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni muhokama qilish va hal qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Lekin uning ijtimoiy-siyosiy ta’sirini oshirish uchun axborot berishda xolislikni ta'minlash va mavzularni chuqurroq tahlil qilishga e’tibor qaratish lozim.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tok-shou janri ommaviy axborot vositalarining dinamik va interaktiv formati sifatida zamonaviy jamiyatda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu janr, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy muhokamalarni tashkil etishda samarali vosita sifatida foydalaniladi. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. **Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy muhim mavzularni yoritish.** Tok-shou dasturlari turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini aks ettiradi va ular o‘rtasida kommunikatsion ko‘prik vazifasini bajaradi.

2. **Auditoriya bilan bevosita aloqalar.** Ushbu janr tomoshabinlarni faol jalb qilish orqali ularning fikrlarini shakllantirish va muhokamalar jarayonida ishtirok etish imkoniyatini yaratadi.

3. **Demokratik platforma sifatida roli.** Tok-shou dasturlari demokratiya tamoyillariga mos ravishda har xil fikrlarni erkin ifoda etish imkonini beradi. Biroq bu jarayonda xolislik va obyektivlikni saqlash muhim hisoblanadi.

4. **Axborot-kommunikatsion vositasi sifatida samaradorlik.** Tok-shou janri dolzarb masalalarni tahlil qilishda chuqur yondashuv va keng qamrovni ta’minlaydi. Bu jamiyatdagi muammolarni aniqlash va ularga e’tibor qaratish uchun imkoniyat beradi.

Umuman olganda, tok-shou janri ijtimoiy-siyosiy masalalarni muhokama qilish, jamoatchilikni xabardor qilish va faollashtirishning samarali vositasi bo‘lib qolmoqda. Lekin ushbu janrning rivoji uchun strategik yondashuvlar va sifatli tarkibni ta’minlash lozim.

Ushbu tadqiqotning xulosalari tok-shoularning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini yanada mustahkamlash uchun amaliy va ilmiy jihatdan asoslangan bir qator takliflarni ilgari suradi. Janrning muvaffaqiyatli faoliyatini ta’minlashdagi muhim yo‘nalishlar quyidagicha qayta bayon etiladi va tahlil qilinadi:

1. **Kontent mazmuni va dolzarbligi.** Tok-shou mazmunlarini shakllantirishda jamiyatdagi dolzarb, tub va ijtimoiy ahamiyatga molik mavzularga e’tibor qaratish zarur. Ayniqsa, keng jamoatchilik manfaatlariga daxldor va ijtimoiy adolat, inson huquqlari, ta’lim, salomatlik kabi sohalarni qamrab olgan tahliliy yondashuv ustuvor bo‘lishi kerak.

Kontent sifati – bu faqat mavzularning dolzarbligi emas, balki axborot manbalari, tahlil darajasi va auditoriya bilan muloqot usullarining boyligi bilan belgilanadi. Misol uchun, BBCning “Question Time” tok-shousi jamiyatda dolzarb siyosiy muammolarni har hafta keng muhokama qiladi va bu uning ommaviyligiga asos bo‘ladi.

2. Ekspertlar ishtirokini ta’minlash. Tok-shoularda o‘z sohasida mutaxassis va ta’sirli fikr egalari ishtirok etsa, dastur mazmuni boyib, auditoriyaning ishonchi ortadi.

Bu yondashuv Habermas'ning “ommaviy muhokama maydoni” (public sphere) nazariyasiga mos keladi, ya’ni fikrlar pluralizmi va mutaxassis bahsi orqali jamoat ongi rivojlanadi. Masalan, CNNning “State of the Union” tok-shousida har bir siyosiy masalaga iqtisodchi, huquqshunos va jamoat faoli jalb etiladi.

3. Auditoriya fikrini o‘rganish. Dasturning samaradorligini oshirish uchun auditoriya munosabatlarini muntazam tahlil qilish zarur. Buning uchun onlayn so‘rovnomalar, ijtimoiy tarmoqlardagi fikrlar tahlili yordam beradi.

Bu qadam data-driven journalism – ma’lumotlar orqali auditoriyaga mos kontent yaratish usuliga asoslanadi. YouTube va Netflix kabi platformalar algoritmi ham aynan shunday foydalanuvchi ma’lumotlari asosida kontent taklif qiladi.

4. Raqamli texnologiyalardan foydalanish. Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, raqamli platformalar orqali tok-shoularni kengroq auditoriyaga yetkazish va ular bilan interaktiv muloqot o‘rnatish mumkin.

Bu jarayonni Jenkinsning “konvergensiya madaniyati” (Convergence Culture) nazariyasi orqali tushunish mumkin. Jurnalistika raqamlashgan sari kontent faqat televizorda emas, balki Instagram, YouTube, Telegram kanallar orqali ham tarqatiladi va muhokamaga aylanadi.

5. Xolislik va obyektivlik. Tok-shoularda barcha nuqtayi nazarlarni xolis yoritish, axborotning ishonchli bo‘lishiga va auditoriya ishonchining oshishiga olib keladi.

Media xolisligi jurnalistikaning asosiy tamoyili hisoblanadi. Pew Research Center tadqiqotlariga ko‘ra, auditoriya aynan xolis dasturlarga ko‘proq ishonadi. Xususan, Shvetsiyaning SVT telekanali tomonidan ishlab chiqilgan tok-shoularda har bir bahsli mavzu uchun kamida ikki qarama-qarshi nuqtai nazar berilgani talab qilinadi.

6. Mahalliy va xalqaro tajribalarni o‘rganish. Uzoq va yaqin davlatlar tok-shoularining ilg‘or tajribalarini tahlil qilib, ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali samaradorlikni oshirish mumkin.

Bu global mediatransformatsiya jarayonining muhim qismi. Masalan, Turkiyaning “Tarafsız Bölge” tok-shousi muvaffaqiyatli formati bilan bir necha Markaziy Osiyo telekanallari tomonidan o‘rganilgan. Shu asosda “Mening yurtim” telekanalining “Munozara” tok-shousi ishlab chiqilgan.

Ushbu takliflar tok-shou janrini jamiyatdagi axborot aylanishi, siyosiy savodxonlik, va ijtimoiy ongni rivojlantirishda markaziy mexanizmga aylantirish uchun zarur strategik qadamlardir. Ilmiy tahlillardan ko‘rinadiki, kontent sifatini oshirish, ekspertlarni jalb etish va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish – bugungi tok-shoularning dolzarb va ta’sirli bo‘lishiga asos bo‘ladi. Tok-shou janri zamonaviy mediamuhitida:

– axborot tarqatishning samarali va ta’sirchan vositasi;

–fikrlar plyuralizmiga xizmat qiluvchi muloqot maydoni;

–aholida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi omil sifatida o‘zini namoyon qilmoqda.

Tok-shoular faqat ko‘ngilochar format emas, balki jamiyatda siyosiy madaniyatni shakllantirish, axborotning sifatli tarqatilishi va tanqidiy fikrlash madaniyatini rivojlantirish uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega mediajanrdir. Shu sababli uning nazariy va amaliy jihatlari borasida tadqiqotlar to‘xtab qolmasligi, aksincha, davomli rivojlantirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Karimov A. Televideniyaning rekrativ vazifasini bajarishda tok-shoularning o‘rni va ahamiyati. T., “Adabiyot”, 2024, 184-bet.

(2). https://cyberleninka.ru/article/n/referativnyy-obzor-knigi-d-makkueyla-teoriya-massovoy-kommunikatsii-1-chast/viewer “Реферативный обзор книги Д.Маккуэйла. Теория массовой коммуникации” (1-часть)

(3). https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4729248&utm_source=chatgpt.com

Tojiboyev Jasur To‘ychiboy o‘g‘li (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universitetining mustaqil izlanuvchisi)

DATA JURNALISTIKADA AVTOMATLASHTIRILGAN AXBOROTNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada data jurnalistikada avtomatlashtirilgan axborotdan foydalanishning afzalliklari yoritilgan. Avtomatlashtirilgan axborot nafaqat jurnalistlarning mehnatini yengillashtiradi, balki katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor va aniq tahlil qilish imkonini beradi. Maqolada ushbu jarayonning samaradorligi, qo‘llaniladigan vositalar va amaliy misollar orqali bu uslubning ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *data jurnalistikasi, avtomatlashtirish, sun’iy intellekt, tabiiy til generatsiyasi, katta ma’lumotlar, yangiliklar ishlab chiqarish, samaradorlik.*

ПРЕИМУЩЕСТВА АВТОМАТИЗИРОВАННОЙ ИНФОРМАЦИИ В ДАТА ЖУРНАЛИСТИКЕ

Аннотация. *В статье рассматриваются преимущества использования автоматизированной информации в области дата-журналистики. Автоматизация позволяет журналистам быстрее и точнее анализировать большие объемы данных, снижая влияние человеческого фактора. Также обсуждаются инструменты, применяемые в процессе, и приводятся практические примеры эффективности такого подхода.*

Ключевые слова: *журналистика данных, автоматизация, искусственный интеллект, генерация естественного языка, большие данные, производство новостей, эффективность.*

ADVANTAGES OF AUTOMATED INFORMATION IN DATA JOURNALISM

Annotation. *This article explores the advantages of using automated information in the field of data journalism. Automation not only simplifies the work of journalists but also enhances the speed and accuracy of analyzing large volumes of data. The article highlights the efficiency of this approach, discusses commonly used tools, and presents practical examples of its implementation.*

Keywords: *data journalism, automation, artificial intelligence, natural language generation, big data, news production, efficiency.*

Kirish (Introduction). So‘nggi yillarda jurnalistika sohasida ma’lumotlar bilan ishlash uslublari tubdan o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy jurnalistika an’anaviy yangiliklar yaratishdan farqli o‘laroq, tobora ko‘proq raqamli ma’lumotlarga tayanmoqda. Ayniqsa, data jurnalistika, ya’ni, statistik, infografik va boshqa ma’lumotlar bazasiga asoslangan yangilik, xabar hamda tahliliy materiallar tayyorlash yo‘nalishi sohaning eng ilg‘or va innovatsion shakllaridan biriga aylangan.

Xususan, avtomatlashtirilgan axborot yig‘ish va uni tahlil qilish texnologiyalarining jadal rivojlanishi data jurnalistikaning salohiyatini keskin oshirmoqda. Yirik hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, real vaqt rejimida tahlil qilish hamda vizuallashtirish imkoniyati jurnalistlar ishini nafaqat yengillashtiradi, balki yangilik yetkazishda tezlik va aniqlik darajasini ham oshiradi. Natijada zamonaviy jurnalistlar yangilik yozishdan tashqari, katta axborot oqimidan foydalangan holda keng qamrovli, chuqur tahliliy maqolalarni yaratishga erishmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ma’lumotlarni avtomatlashtirish so‘nggi yillarda jurnalistikada muhim o‘zgarishlarga olib keldi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, masalan, sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish texnologiyalari, jurnalistik jarayonlarni tezlashtirish, aniqlikni oshirish va katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish imkonini berdi.

Xalqaro adabiyotlarda avtomatlashtirilgan axborot haqida ko‘plab maqolalar va ilmiy ishlar mavjud. Xususan, N.Diakopoulos o‘zining “Automating the News”[1] kitobida avtomatlashtirilgan tizimlarning jurnalistikada ma’lumotlarni qayta ishlash tezligini oshirishdagi rolini ta’kidlaydi. Shuningdek, A.Graefe “Guide to Automated Journalism”[2] asarida avtomatlashtirishning xarajatlarni kamaytirib, kichik nashriyotlarning raqobatbardoshligini oshirishini aytadi. Bundan tashqari, M.Carlson, Marconi va Thurman kabi olimlar ham soha bo‘yicha izlanishlar olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Tadqiqotni o‘tkazish davomida tahlil, kontent tahlil, qiyosiy tahlil, kuzatuv, umumlashtirish kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Avtomatlashtirish grekcha “αύτόματος” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘z-o‘zidan harakat qilish, degan ma’noni anglatadi. U fan va texnologiya sohasida, insonning bevosita ishtirokisiz texnologik jarayonlarni amalga oshirishning texnik vositalari va usullarini ishlab chi-

[1]Diakopoulos, N. (2019). Automating the News: How Algorithms Are Rewriting the Media. Harvard University Press.
[2] Graefe, A. (2016). Guide to Automated Journalism. Tow Center for Digital Journalism.

qadi.[1] Avtomatlashtirilgan axborot tushunchasi esa turli manbalardan doimiy tarzda, inson aralashuvisiz yoki minimal aralashuvi bilan ma’lumot yig‘ish, uni tahlil qilish va vizual ko‘rinishda taqdim etish jarayoni demakdir. Bu kabi yondashuvlar nafaqat jurnalistning vaqtini tejaydi, balki inson omili tufayli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy xatolarni kamaytiradi. Bir so‘z bilan aytganda, avtomatlashtirilgan axborot data jurnalistikada dasturiy ta’minot va algoritmlardan foydalanishni anglatadi. Bu quyidagi texnologiyalarni o‘z ichiga oladi:

▪Tabiiy til generatsiyasi (NLG): strukturalangan ma’lumotlarni inson tushunadigan matnga aylantiradi. Masalan, moliyaviy hisobotlar yoki sport natijalari haqida avtomatik maqolalar yaratiladi.

▪Ma’lumotlarni yig‘ish vositalari: veb-saytlar, ma’lumotlar bazalari yoki APIlardan ma’lumotlarni avtomatik yig‘adi.

▪Mashinaviy o‘rganish algoritmlari: katta ma’lumotlar to‘plamlarida trendlar, anomaliyalar va tendensiyalarni aniqlaydi.

▪Avtomatlashtirilgan ogohlantirish tizimlari: jurnalistlarga muhim voqealar yoki ma’lumot o‘zgarishlari haqida tezkor xabar beradi.

Avtomatlashtirish qanday amalga oshiriladi? Data jurnalistikada avtomatlashtirilgan kontent yaratish murakkab, ammo aniq algoritmik jarayon asosida tashkil etiladi. Bunday texnologiyalardan foydalanayotgan jurnalistlar dasturiy ta’minot, algoritmlar va dasturlash tillari asoslarini bilishlari zarur, chunki avtomatlashtirish jarayoni. asosan. dasturlash orqali amalga oshiriladi.

Masalan, sport o‘yinlari (xususan, futbol) natijalariga asoslangan avtomatlashtirilgan xabarlarni yaratish uchun ko‘pincha Python dasturlash tili va maxsus skriptlar qo‘llaniladi. Ushbu skriptlar ma’lumotlarni API (Application Programming Interface) orqali oladi va ularni jurnalistik uslubda qisqa va aniqlangan xabarga aylantiradi. Avtomatlashtirilgan kontent yaratish jarayoni, odatda, quyidagi asosiy bosqichlardan o‘z ichiga oladi:

▪ma’lumotlarni yig‘ish;
▪ma’lumotlarni tahlil qilish;
▪natijani ishlab chiqish;
▪matnni generatsiya qilish.

```python
def generate_sports_news(team1, team1_score, team2, team2_score, location, date):
    # Xabar shablonini yaratish
    if team1_score > team2_score:
        result = f"{team1} {team2} ni {team1_score}-{team2_score} hisobida mag'lub etdi"
    elif team2_score > team1_score:
        result = f"{team2} {team1} ni {team2_score}-{team1_score} hisobida mag'lub etdi"
    else:
        result = f"{team1} va {team2} {team1_score}-{team2_score} hisobida durang o'ynadi"

    # To'liq xabar
    news = f"{date} kuni {location} da bo'lib o'tgan futbol uchrashuvida {result}. "
    news += f"O'yin davomida {team1} va {team2} o'z muxlislariga ajoyib o'yin ko'rsatdi."

    return news

# Misol uchun ma'lumotlar
team1 = "Barselona"
team1_score = 3
team2 = "Real Madrid"
team2_score = 1
location = "Kamp Nou"
date = "23-aprel, 2025"

# Xabarni generatsiya qilish
news_article = generate_sports_news(team1, team1_score, team2, team2_score, location, date)

# Natijani chop etish
print(news_article)
```

Yuqorida keltirilgan misolda skript API orqali jamoalar nomi, o‘yin natijasi (hisob), o‘yin joyi va sanasi kabi ma’lumotlarni oladi. Olingan ma’lumotlar avtomatik tarzda tahlil qilinadi. Hisob natijalariga qarab, qaysi jamoa g‘alaba qozongani, mag‘lub bo‘lgani yoki o‘yin durang bilan yakunlangani aniqlanadi. Tahlil natijalariga asoslanib, asosiy xulosa chiqariladi va kontent tuzilmasi shakllantiriladi. Shundan so‘ng oldindan tayyorlangan matn andozalari asosida jurnalistik uslubda qisqa xabar generatsiya qiladi. Natijada quyidagicha xabar yaratiladi:

[1] Avtomatlashtirish. https://uz.wikipedia.org/wiki/Avtomatlashtirish

2025-yil 23-aprel kuni Kamp Nouda bo‘lib o‘tgan futbol uchrashuvida Barselona Real Madridni 3:1 hisobida mag‘lub etdi. O‘yin davomida Barselona va Real Madrid o‘z muxlislariga ajoyib o‘yin ko‘rsatdi.

Data jurnalistikada avtomatlashtirish bir qator muhim afzalliklarni taqdim etadi. Bu kabi texnologiyalar axborot yig‘ish, tahlil qilish va taqdim etish jarayonlarini soddalashtirib, jurnalistik faoliyat samaradorligini keskin oshiradi. Avtomatlashtirish orqali tezkorlikka erishish, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan samarali ishlash, xarajatlarni kamaytirish, doimiylik va aniqlikni ta’minlash, shuningdek, jurnalistlar vaqtini tejashi mumkin. Bundan tashqari, bu yondashuv axborot qamrovini kengaytirish, real vaqt rejimida ma’lumot olish hamda axborot ishonchliligini yuqori darajada saqlab qolish imkonini beradi. Quyida ushbu afzalliklarning har biri batafsil ko‘rib chiqamiz.

Samaradorlik va tezkorlik. Avtomatlashtirish ma’lumotlarni qayta ishlash va yangiliklar ishlab chiqarish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. An’anaviy jurnalistikada ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va maqola yozish ko‘p vaqt talab qiladi. Avtomatlashtirilgan tizimlar esa bu jarayonlarni bir necha daqiqada bajaradi. Masalan, Associated Press agentligi Automated Insights kompaniyasining Wordsmith platformasidan foydalanib, har chorakda 3 mingdan ortiq moliyaviy hisobotlarni avtomatik ravishda yaratadi.[1] Ilgari jurnalistlar chorakda atigi 300 ta hisobot yozar edi, bu esa ko‘p vaqt va resurs talab qilardi. Avtomatlashtirish tufayli Associated Press agentligi nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirdi, balki yangiliklarni tezroq yetkazish imkoniga ega bo‘ldi. Bu jurnalistlarga doimiy monitoring va qo‘lda yozishdan xalos bo‘lish imkonini berdi.

Katta ma’lumotlar to‘plamlari bilan ishlash. Zamonaviy dunyoda ma’lumotlar hajmi eksponensial ravishda o‘smoqda. Jurnalistlar uchun bunday katta ma’lumotlar to‘plamlarini qo‘lda tahlil qilish deyarli imkonsiz. Avtomatlashtirilgan vositalar esa bu muammoni hal qiladi, chunki ular katta hajmdagi ma’lumotlarni tezda qayta ishlaydi. Reutersning Lynx Insight tizimi jurnalistlarga ma’lumotlarni tahlil qilishda yordam beradi, muhim tendensiyalarni aniqlaydi va maqola yozish uchun takliflar beradi.[2] Shuningdek, avtomatlashtirish xarajatlarni kamaytirishga ham xizmat qiladi. Bir nechta insonlar bajaradigan ishni yagona dastur yoki algoritm orqali avtomatik bajarish, tahririyat uchun moliyaviy jihatdan sezilarli tejash imkonini beradi. Bu kichik tahririyatlar yoki mustaqil jurnalistlar uchun foydalidir. Columbia University tadqiqotiga ko‘ra, avtomatlashtirish “yangiliklar tashkilotlariga sifatli qamrovni saqlab, xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi”.[3] Bu resurslarni chuqur tadqiqotlar va maxsus reportajlarga yo‘naltirish imkonini beradi. Yuqoridagilardan tashqari, avtomatlashtirishda doimiylik va aniqlik mavjud**.** Avtomatlashtirilgan tizimlar oldindan belgilangan qoidalar va algoritmlarga amal qilgani uchun ma’lumotlarni qayta ishlash va hisobotlarda doimiylikni ta’minlaydi. Bu inson xatolarini, masalan, noto‘g‘ri hisob-kitoblarni kamaytiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Avtomatlashtirish ko‘plab afzalliklarni taqdim etsa-da, uning ayrim muhim kamchiliklari ham mavjud. Birinchi navbatda, xatolik xavfini ta’kidlash lozim. Agar dastlabki ma’lumotlar noto‘g‘ri bo‘lsa yoki algoritmda xatolik yuz bersa, natijada yangiliklarda noto‘g‘ri axborot tarqalishi mumkin. Bunday holatlar mavjud bo‘lmagan voqealarning sodir bo‘lgandek ko‘rsatilishiga yoki avval sodir bo‘lgan hodisalarning hozirgi vaqt voqeasi sifatida tasvirlanishiga olib keladi. Masalan, Los Angeles Timesning Quakebot tizimi 92 yil avval sodir bo‘lgan zilzilani yangi voqea sifatida xabar qilgan edi.[4] Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan tizimlar sun’iy intellektda kuzatiladigan muammolarga o‘xshash noaniqliklarni ko‘rsatadi, ya’ni, avtomatlashtirilgan materiallarda hissiy bo‘yoqlar va chuqur kontekstual tahlil yetishmaydi. Bu holat, ayniqsa, tahliliy va tanqidiy mavzularni yoritishda, maqolalarning inson omilidan kelib chiqadigan nozik tafovutlarni aks ettira olmasligiga olib keladi. Shuning uchun jiddiy mavzular yoritilgan avtomatlashtirilgan kontent, albatta, jurnalistlar tomonidan ko‘rib chiqilishi va zarur hollarda tahrir qilinishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, avtomatlashtirish texnologiyalari yordamida katta hajmdagi axborotni qisqa vaqt ichida aniqlik va tezkorlik bilan auditoriyaga yetkazish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, bunday tizimlarning muvaffaqiyati sifatli dasturiy ta’minot, ishonchli ma’lumot manbalari va aniq algoritmik tahlilga bog‘liqdir. Avtomatlashtirish inson mehnatini yengillashtirsa-da, jurnalistikaning asosiy tamoyillari –

[1] Associated Press. (n.d.). Automated Insights. https://automatedinsights.com/customer-stories/associated-press/

[2] Wired. (2018). Reuters is taking a big gamble on AI-supported journalism. https://www.wired.com/story/reuters-artificial-intelligence-journalism-newsroom-ai-lynx-insight/

[3] Vedia. (2020). Automated Journalism and Its Impact on Media. https://www.vedia.ai/blog/automated-journalism-and-its-impact-on-media/

[4] AI Journalism. (2021). Advantages and Disadvantages of Automated Journalism. https://aijournalism.net/advantages-and-disadvantages-of-automated-journalism/

aniqlik, xolislik va kontekstual yoritishni ta’minlash uchun insoniy nazorat va tahlil zarur bo‘lib qoladi. Shunday ekan, avtomatlashtirilgan jarayonlarni inson tafakkuri va professional ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish jurnalistikada sifat va ishonchlilikni ta’minlashning eng muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Diakopoulos, N. (2019). Automating the News: How Algorithms Are Rewriting the Media. Harvard University Press.

(2). Graefe, A. (2016). Guide to Automated Journalism. Tow Center for Digital Journalism.

(3). Avtomatlashtirish. https://uz.wikipedia.org/wiki/Avtomatlashtirish

(4). Associated Press. (n.d.). Automated Insights. https://automatedinsights.com/customer-stories/associated-press/

(5). Wired. (2018). Reuters is taking a big gamble on AI-supported journalism. https://www.wired.com/story/reuters-artificial-intelligence-journalism-newsroom-ai-lynx-insight/

(6). Vedia. (2020). Automated Journalism and Its Impact on Media. https://www.vedia.ai/blog/automated-journalism-and-its-impact-on-media/

(7). AI Journalism. (2021). Advantages and Disadvantages of Automated Journalism. https://aijournalism.net/advantages-and-disadvantages-of-automated-journalism/

Murtozayeva Nigora Murtoza qizi (Samarqand davlat Chet tillari instituti Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi talabasi; Email:nigoradolat789@gmail.com)

INTERNET JURNALISTIKASI: AXBOROT UZATISHNING YANGI PARADIGMASI

Annotatsiya*. Ushbu ilmiy maqolada internet jurnalistikasi zamonaviy axborot makonida shakllangan yangi paradigmalar doirasida tahlil qilinadi. An’anaviy ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar o‘rtasidagi farqlar, o‘zaro ta’sir va integratsiya jarayonlari chuqur o‘rganiladi. Internet jurnalistikasi bugungi kunda nafaqat yangiliklarni tezkor va real vaqt rejimida yetkazish, auditoriya bilan interaktiv muloqot, fikr almashinuvi va axborot manbalarining xilma-xilligi orqali ham ajralib turadi. Internet jurnalistikasining professional etikasi, kontent sifati va feyk yangiliklar ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, jurnalistikaning kelajakda qanday shakllanishi, sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan yangiliklar xizmatlarining jurnalistikaga ta’siri haqida ham taxminiy prognozlar beriladi. Umuman olganda, ushbu maqola internet jurnalistikasining zamonaviy jamiyatdagi o‘rni, ahamiyati va istiqbollarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, jurnalistik faoliyatni yangi bosqichini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga intiladi.*

Kalit so‘zlar*: axborot makoni, yangi paradigma, interaktiv muloqot, axborot manbalari, professional etika, kontent sifati, feyk yangilik va jurnalistikaning kelajagi.*

Муртозаева Нигора дочь Муртозы (студентка Самаркандского государственного института иностранных языков по специальности «Международная журналистика»; E-mail: nigoradolat789@gmail.com)

ИНТЕРНЕТ-ЖУРНАЛИСТИКА: НОВАЯ ПАРАДИГМА ПЕРЕДАЧИ ИНФОРМАЦИИ

Аннотация. *В этой научной статье анализируются новые парадигмы интернет-журналистики в современном информационном пространстве. Глубоко изучаются различия, взаимное влияние и процессы интеграции между традиционными средствами массовой информации и цифровыми платформами. Интернет-журналистика в настоящее время выделяется не только быстрой и актуальной подачей новостей в реальном времени, но и интерактивным взаимодействием с аудиторией, обменом мнениями и разнообразием источников информации. Рассматриваются профессиональная этика интернет-журналистики, качество контента и фейковые новости. Кроме того, даются предварительные прогнозы о том, как будет формироваться журналистика в будущем, а также о влиянии искусственного интеллекта и автоматизированных новостных служб на журналистику. В целом, статья направлена на анализ современного места, значения и перспектив интернет-журналистики в современном обществе и стремится научно-теоретически обосновать новый этап журналистской деятельности.*

Ключевые слова*: информационное пространство, новая парадигма, интерактивный диалог, информационные источники, профессиональная этика, качество контента, фейковые новости и будущее журналистики.*

Murtozayeva Nigora, daughter of Murtoza (Student of International Journalism at Samarkand State Institute of Foreign Languages; Email: nigoradolat789@gmail.com)

INTERNET JOURNALISM: A NEW PARADIGM OF INFORMATION TRANSMISSION

Annotation*. This scientific article analyzes new paradigms of online journalism in the modern information space. It deeply examines the differences, mutual influences, and integration processes between*

traditional mass media and digital platforms. Today, online journalism stands out not only for its ability to report news quickly and in real-time but also for the interactive communication with the audience, exchange of opinions, and diversity of information sources. Internet journalism today is characterized not only by the fast and timely delivery of news in real time but also by interactive engagement with the audience, exchange of opinions, and a variety of information sources. The professional ethics of internet journalism, the quality of content, and fake news are examined. Additionally, preliminary forecasts are provided on how journalism will evolve in the future, as well as the impact of artificial intelligence and automated news services on journalism. Overall, this article aims to analyze the current position, significance, and prospects of internet journalism in modern society and seeks to scientifically and theoretically justify a new stage of journalistic activity.

Keywords*: information space, new paradigm, interactive communication, information sources, professional ethics, content quality, fake news, and the future of journalism.*

Kirish (Introduction). Internet jurnalistikasi zamonaviy axborot makonida an'anaviy jurnalistikaning klassik prinsiplaridan tubdan farq qiluvchi yangi paradigma asosida shakllanmoqda. Ushbu yangi paradigma bir necha innovatsion tamoyillarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, internet jurnalistikasi shaffoflik va hisobdorlik prinsiplarini yangi darajaga ko'taradi. Ochiq ma'lumotlar va ommaviy auditoriya tomonidan tekshiriladigan platformalar yordamida jurnalistlar o'z ishlarida yanada javobgar bo'lishga majbur. Bunday shaffoflik, masalan, ma'lumotlarning qayta tekshirilishi (fact-checking) va jamoatchilik tomonidan kiritilgan izohlar orqali amalga oshadi. Bu jarayon an'anaviy jurnalistikaga nisbatan yanada kengroq va chuqurroq auditoriya nazoratini ta'minlaydi. Ikkinchidan, internet jurnalistikasi kontent yaratuvchilar va iste'molchilar o'rtasida yangi turdagi hamkorlikni yuzaga keltiradi. Masalan, "citizen journalism" (fuqarolik jurnalistikasi) konsepsiyasi orqali oddiy foydalanuvchilar voqealarni real vaqt rejimida yoritish va axborot oqimiga bevosita hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu, o'z navbatida, axborot makonining demokratizatsiyasini kuchaytirdi, biroq sifat nazoratining murakkabligi kabi yangi muammolarni ham keltirib chiqardi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). XXI asr axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanayotgan davri bo'lib, jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, axborot uzatish, tarqatish va iste'mol qilish uslublari tubdan o'zgarmoqda. Bu jarayonda an'anaviy ommaviy axborot vositalari (OAV) va raqamli platformalar o'rtasidagi munosabat, ularning o'zaro ta'siri, raqobati va integratsiyasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy OAV – bu gazeta, jurnal, radio, televideniya kabi axborot vositalarini o'z ichiga oladi. Bu vositalarning asosiy xususiyati shundaki, ular axborotni biryoqlama tarzda, ommaviy auditoriyaga yetkazadi. Kontent odatda professional jurnalistlar tomonidan tayyorlanadi va tahririy nazoratdan o'tadi.XXI asr axborotning nazariy va amaliy ijodi eng cho'qqisiga yetgan asr. Shuning uchun ham bugungi kunda XXI arni axborot asri deb ta'kidlashmoqda. Jahon tajribasidan ma lumki, davlat axborot infrastrukturasining rivojlanishi jamiyat va davlatning hamma jabhalarini, jumladan, odamlarning dunyoqarashini va ularning mehnat, ijtimoiy va siyosiy hayotda ishtirok etishi shartlarini o'zgartirib, jamiyat rivolanishini tezlashtiradi. Har xil axborot tenologiyalari, avtomatlashtirilgan sistemalar va ma'lumotlar bazasi davlat strukturalarini, iqtisodiyotni va mamlakat mudofaasini boshqarishning ajralmas qismi bolib qoladi. Bugungi kunda yanada rivojlanib, o'zining yangi yo'nalishlariga ega bo'lib borayotgan internet jurnalistikasi keng qamrovliligi va auditoriyasining chegara bilmasligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy OAV turi hisoblangan internet jurnalistikasi OAV taraqqiyoti, uning vazifalarining kengayishi, ishlab chigarish va texnika sohasidagi keskin o'zgarishlar, jurnalistika va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning murakkablashuvi jurnalistlar oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. "Yulduz Asgar qizi Hakimboyeva Maktabgacha ta'lim vazirligi Axborot xizmati yetakchi mutaxassisi, "Zamonaviy media makonda internet va unda axborot almashinuvining o'ziga xosligi", 2021." Jurnalistik axloqiy standartlar tizimi ommaviy axborot vositalarining kasbiy faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi va ushbu standartlar axborot sifati va xolisligini ta'minlashga, auditoriya ishonchini saqlaydi, taqdim etilayotgan ma'lumotlarning sifati va ishonchliligini ta'minlaydi. (Jurnalistik faoliyat deontologiyasi, ya'ni, axloqiy standartlar tizimi ommaviy axborot vositalarining kasbiy faoliyati uchun asos bo'lib xizmat giladi. Bu standartlar axborot sifati va xolisligini ta'minlashga, auditoriya ishonchini saqlab qolishga xizmat qiladi. Professional jurnalistika deontologik tamoyillar asosida qurilgan bo'lib, ular taqdim etilayotgan ma'lumotlarning sifati va ishonchliligini ta'minlaydi. "Nilufar Qodirova: "Jurnalistikaning kelajagi": texnologiyalar, etik me'yorlar va kontent sifati" 2023. Uzoq yillar davomida an'anaviy OAV axborot manbai sifatida jamiyatda asosiy o'rin egallab keldi. Biroq raqamli texnologiyalar rivoji natijasida internetga asoslangan raqamli platformalar paydo bo'lib, axborotni real vaqt rejimida, interaktiv usulda yetkazish imkonini yarat-

di. Bunday platformalarga ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Telegram, Instagram va TikTok), bloglar, vebsaytlar, onlayn portallar kiradi (Jurnalistikaning sanoat modelidan post-sanoat modeliga o‘tishi jarayoni tahlil gilinadi. Bu o‘zgarish, axborotning ishlab chiqarilishi va tarqatilishida yangi texnologiyalar va platformalarning paydo bo‘lishi bilan bog’liq. Jurnalistika endi faqatgina yirik axborot agentliklari tomonidan boshqarilmaydi; har bir fuqaro ham axborot manbai bo‘lishi mumkin. “Emily Bell – Kolumbiya universitetining jurnalistika maktabi professorining “Post-Industrial Journalism” (2013) nomli ilmiy ishi”.

Tadqiqot va metodologiyasi (Research Methodology). Raqamli platformalar foydalanuvchiga nafaqat axborot olish, balki uni yaratish va tarqatish imkonini ham beradi. Bu esa kommunikatsiya jarayonini biryoqlamadan ikkiyoqlama va ko‘p yo‘nalishli tizimga aylantirdi. Farqlarni esa quyidagicha umumlashtirish mumkin: 1) axborot tarqatish tezligi: an’anaviy OAV – sekinroq; raqamli platformalar – tezkor va real vaqt rejimida; 2) kommunikatsiya turi: an’anaviy OAV – monologik; raqamli platformalar – dialogik yoki interaktiv. 3) kontent yaratuvchilari: an’anaviy OAV – jurnalist va muharrirlar; raqamli platformalar – har qanday foydalanuvchi; 4) auditoriya: an’anaviy OAV – ommaviy va umumiy; raqamli platformalar – segmentlangan va shaxsiylashtirilgan; 5) axborot ishonchliligi: an’anaviy OAV – nisbatan yuqori; raqamli platformalar – turlicha, ba’zida soxta axborotlar mavjud.Internet jurnalistikasi bugungi kunda ommaviy axborot vositalari tizimida yetakchi o‘rin egallamoqda. An’anaviy jurnalistikadan farqli ravishda, u yangiliklarni tezkor, real vaqt rejimida yetkazish, foydalanuvchilar bilan interaktiv muloqot qilish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. “Internet jurnalistikasi” bugungi kunda an’anaviy OAVdan farqli o‘laroq, axborotni yaratish, tahrirlash va tarqatishda interaktivlik, tezkorlik va ko‘p kanallilik kabixususiyatlarga ega. Internet jurnalisti nafaqat matn yaratadi, balki uni vizual kontent – foto, video, infografika bilan boyitadi, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatadi va auditoriya bilan bevosita muloqotda bo‘ladi. Internet jurnalistikasining asosiy vazifasi– axborotni tez, anialik va xolislik asosida yetkazish bo‘lsa-da, uning yana bir muhim xususiyati – multimedia yondashuvidir. Bu esa zamonaviy jurnalistdan nafaqat matn tuzishni, balki grafik dizayn, videomontaj va raqamli xavfsizlik ko‘nikmalarini ham talab qiladi. “To‘raqo‘ziyev B., “Internet jurnalistikasi”, O‘zbekiston milliy universiteti, o‘quv qo‘llanma”.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Jurnalistikaning asosiy xususiyatlaridan biri – axborotni nafaqat iste’mol qilish, balki uni yaratish va tarqatish jarayonida auditoriyani ham faol ishtirokchiga aylantirishidir. Birinchidan, internet jurnalistikasi yangiliklar tarqatishda tezlik va moslashuvchanlikni ta’minlaydi. An’anaviy OAV, masalan, gazeta yoki televideniya material tayyorlash va efirga uzatish uchun vaqt talab qilsa, onlayn platformalarda xabarlar voqea sodir bo‘lgan zahoti tarqatilishi mumkin. Bu xususiyat uni shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyo voqealariga javob berishga mos qiladi. Ikkinchidan, internet jurnalistikasi orqali axborot bir tomonlama emas, balki ko‘p tomonlama va interaktiv tarzda tarqatiladi. O‘quvchilar maqolalarga izoh qoldirishi, fikr bildirishi, hatto o‘z kuzatuvlarini ulashishi mumkin. Bu esa jurnalist va auditoriya o‘rtasida dialogik aloqani kuchaytiradi va kontent sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar (analysis and results). Internet jurnalistikasi axborot uzatishning an’anaviy shakllarini tubdan o‘zgartirgan, yangi paradigmani shakllantirgan zamonaviy media turidir. Uning asosiy xususiyatlari – tezlik, interaktivlik, multimediaviy yondashuv va shaxsiylashtirilgan kontent taqdimoti – bugungi axborot jamiyatining talablariga to‘liq javob beradi. An’anaviy OAV biryoqlama va kechikkan axborot yetkazish modeli bilan cheklangan bo‘lsa, internet jurnalistikasi ko‘pyoqlama, real vaqt rejimidagi muloqotni ta’minlaydi. Internet jurnalistikasi jurnalist va auditoriya o‘rtasidagi chegaralarni yo‘q qiladi – har bir foydalanuvchi ham axborot iste’molchisi, ham ishlab chiqaruvchiga aylanadi. Bu esa jurnalistika kasbiga bo‘lgan yondashuvni o‘zgartirib, yangi malaka va mas’uliyatlarni yuzaga keltiradi.Zamonaviy media muhitida internet jurnalistikasi nafaqat axborot manbayi, balki ijtimoiy faollik, tanqidiy fikrlash va fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qiluvchi muhim vositaga aylanmoqda. Shu bois bu sohaga oid ilmiy izlanishlar, qonunchilik asoslari va axloqiy me’yorlarni takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Hakimboyeva Yulduz Asqar qizi. Zamonaviy media makonda internet va unda axborot almashinuvining o‘ziga xosligi. 2021, 1372-bet.

[2]. Nilufar Qodirova. Jurnalistikaning kelajagi: texnologiyalar, etik me’yorlar va kontent sifati. 2023, 256–257-betlar

[3]. Emily Bell. Kolumbiya universitetining jurnalistika maktabi professorining “Post-Industrial Journalism” (2013) nomli ilmiy ishi.

[4]. To‘raqo‘ziyev B. Internet jurnalistikasi. O‘zbekiston milliy universiteti, o‘quv qo‘llanma.

Abulkasimova Yulduzxon Sunnatillayevna (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti "Chet tillar" kafedrasi o'qituvchisi; yulduzxonabulkasimova@gmail.com)

TEXNIK OTM TALABALARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada texnik oliy ta'lim muassasalari talabalarining lingvistik kompetensiyasini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning roli tahlil qilinadi. Chet tilini o'qitishda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligi, ayniqsa, texnik yo'nalishlarda, asoslab berilgan. Tadqiqotda eksperimental va nazariy metodlar qo'llanilib, innovatsion vositalarning tinglab tushunish, o'qish, yozish va og'zaki nutq kabi til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samarasi o'rganilgan.*

Kalit so'zlar*: lingvistik kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, texnik oliy ta'lim, chet tili o'qitish, raqamli ta'lim.*

РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ

Аннотация*. В данной статье рассматривается роль инновационных технологий в формировании лингвистической компетенции студентов технических вузов. Обоснована актуальность использования современных цифровых технологий в обучении иностранному языку, особенно в технических направлениях. В исследовании применены экспериментальные и теоретические методы, с помощью которых проанализирована эффективность инновационных средств в развитии языковых навыков: аудирования, чтения, письма и устной речи.*

Ключевые слова*: лингвистическая компетенция, инновационные технологии, техническое высшее образование, преподавание иностранного языка, цифровое обучение*

THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN DEVELOPING LINGUISTIC COMPETENCE AMONG STUDENTS OF TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation*. This article examines the role of innovative technologies in developing linguistic competence among students of technical higher education institutions. The relevance of using modern digital tools in foreign language teaching, particularly in technical fields, is substantiated. The study employs experimental and theoretical methods to analyze the effectiveness of innovative tools in enhancing language skills such as listening, reading, writing, and speaking.*

Keywords*: linguistic competence, innovative technologies, technical higher education, foreign language teaching, digital learning,*

Kirish. Texnik oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitish jarayoni zamonaviy yondashuvlarni talab qiladi. Lingvistik kompetensiyani shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning roli ortib bormoqda. Mazkur maqolada interfaol metodlar, raqamli resurslar va sun'iy intellekt asosidagi vositalarning samaradorligi chuqur o'rganiladi. Shuningdek, texnik mutaxassisliklar bo'yicha talabalarning chet tilida erkin muloqot qila olishlari uchun zarur bo'lgan innovatsion texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari va ularning nazariy asoslari tahlil qilinadi.

Nazariy asoslar. Lingvistik kompetensiya Noam Chomsky [1] va Dell Hymes [3] kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalarga asoslanadi. Innovatsion texnologiyalar ushbu kompetensiyani rivojlantirishda qanday ta'sir ko'rsatishi kognitiv va sotsiokultural nazariyalar [2] bilan izohlash mumkin. Chet tilini o'rganishda interfaol metodlar, multimodal resurslar va sun'iy intellekt asosidagi vositalarning samaradorligi ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar orqali tahlil qilindi [6], [5].

Natijalar. Eksperimental tahlil natijalari. Eksperiment natijalari quyidagicha bo'ldi:

- **Yozma kompetensiya.** Eksperimental guruhda yozma nutq rivojlanishi 30% ga oshdi.
- **Og'zaki nutq kompetensiyasi.** 25% yaxshilandi.
- **O'quv motivatsiyasi.** Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim olgan talabalarda o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi [9].

Quyidagi diagrammada talabalar bilim darajasining o'zgarishi tasvirlangan:



Ushbu diagramma talabalar yozma va og‘zaki kompetensiyalarining eksperiment davomida qanday rivojlanganini ko‘rsatadi.

Nazariy tahlil natijalari. Nazariy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki:

• Innovatsion texnologiyalar chet tilini o‘rganish jarayonini individualizatsiya qilish imkonini beradi [3].

• Texnik mutaxassislar uchun terminologik kompetensiyani rivojlantirishda sun’iy intellekt yordamchi vosita bo‘lishi mumkin [9].

• Interfaol vositalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi va o‘qitish jarayonining moslashuvchanligini ta’minlaydi [2].

Innovatsion texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi roli quyidagi konseptual chizmada aks ettirilgan:



Ushbu diagramma talabalar yozma va og‘zaki kompetensiyalarining eksperiment davomida qanday rivojlanganini ko‘rsatadi.

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari innovatsion texnologiyalarning lingvistik kompetensiyani rivojlantirishdagi muhim o‘rnini tasdiqlaydi. Sun’iy intellekt va interfaol ta’lim platformalari orqali o‘quv jarayoni tezroq va samaraliroq kechadi. Shuningdek, talabalar bilimlarini mustaqil ravishda oshirish imkoniga ega bo‘ladilar [10]. Diagrammalar orqali tahlillar quyidagicha aks ettiriladi:

1. **Statistik diagramma.** Talabalar o‘quv natijalari (eksperimentdan oldin va keyin).
2. **Konseptual chizma.** Innovatsion texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi roli va ta’siri.
3. **Taqqoslash diagrammasi.** An’anaviy va innovatsion yondashuvlarning samaradorligi.
4. **Interfaol ta’lim platformalari samaradorligi**. Quyidagi diagrammada an’anaviy va innovatsion yondashuvlarning samaradorligi solishtirilgan:



Taqqoslash diagrammasi sifatida an’anaviy usullar bilan innovatsion texnologiyalarni qo‘llash natijala-ri solishtiriladi.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim sohasida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. An’anaviy o‘quv uslublaridan farqli o‘laroq, interfaol ta’lim platformalari (masalan, Moodle, Google Classroom, Edmodo, Khan Academy, Coursera va boshqa) o‘quv jarayonini yanada samarali, moslashuvchan va shaxsga yo‘naltirilgan tarzda tashkil qilish imkonini bermoqda [7].

Interfaol platformalarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. **Talabaga yo‘naltirilgan yondashuv.** Har bir o‘quvchi o‘z tezligida va qulay vaqtda ta’lim olishi mumkin.

2. **O‘zaro aloqadorlik va muloqot imkoniyatlari.** O‘qituvchi va talabalar o‘rtasida real vaqt rejimida fikr almashish, topshiriqlarni muhokama qilish imkoniyati mavjud.

3. **Baholash tizimining shaffofligi.** Onlayn testlar, avtomatik baholash va tahliliy hisobotlar orqali o‘quvchilarning yutuq va kamchiliklari aniq ko‘rinadi.

4. **Multimediaviy materiallar.** Video darslar, animatsiyalar, grafikalar orqali murakkab tushunchalarni tushunish osonlashadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, interfaol ta’lim vositalari bilan o‘qigan talabalar an’anaviy darsga qatnashgan talabalar bilan solishtirganda ko‘proq bilim egallaydi, o‘z fikrini erkin ifoda eta oladi va mustaqil izlanishga moyilligi ortadi. Ayniqsa, pandemiya davrida ushbu platformalarning o‘rni beqiyos bo‘ldi.

Shuningdek, interfaol platformalarning ta’lim samaradorligini oshirish uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- texnik jihatdan qulay interfeys;
- motivatsiyani oshiruvchi elementlar (gamifikatsiya, reytinglar, belgilarga asoslangan mukofot tizimi);
- o‘qituvchilarni platformadan samarali foydalanishga tayyorlash.



Xulosa qilib aytganda, interfaol ta’lim platformalari ta’lim tizimining kelajagidir. Ular nafaqat o‘qitish usullarini takomillashtiradi, balki butun ta’lim muhitini zamonaviy talablar asosida qayta shakllantiradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot texnik oliy ta’lim muassasalarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar samarali ekanligini isbotladi. Tadqiqot natijalari kelgusida ta’lim dasturlarini takomillashtirish va innovatsion texnologiyalarni kengroq joriy etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Chomsky, N. (1965). Aspects of the Theory of Syntax. MIT Press.

(2). Gee, J.P. (2004). Situated language and learning: A critique of traditional schooling. Routledge.

(3). Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J.B.Pride & J.Holmes (Eds.), Sociolinguistics (pp. 269–293), Penguin.

(4). Warschauer, M.,&Kern, R. (Eds.). (2000). Network-based language teaching: Concepts and practice. Cambridge University Press.

(5). Yilmaz, R. (2017). Exploring the role of e-learning tools in language learning. Educational Technology & Society, 20(3), p. 80–94.

(6). Zhao, Y., & Lai, C. (2009). Technology use and language education: A review. Language Learning & Technology, 13(1), p. 29–39.

(7). Abulkasimova Y.S. Foreign Language Communicative Competence For Students Of Non-Philological Educational Profiles. Builders of The Future, 2024.

Xabibullaeva Guljaxon (Qoraqalpoq davlat universiteti 2-kurs doktoranti)

KOGNITIV-KOMMUNIKATIV TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING TURLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xorijiy tilni o‘qitishda qo‘llanilayotgan kognitiv-kommunikativ yondashuvning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Yondashuvning asosiy mohiyati o‘quvchining shaxsiy tajribasi, intellektual va hissiy salohiyati asosida tilni ongli va faol tarzda o‘zlashtirishga yo‘naltirilganligida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot davomida gumanistik tamoyillarning ta’siri, psixologik omillar, shaxsiy motivatsiya, empatiya, xavotir darajasi, riskka moyillik kabi affektiv omillar ham ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, bu yondashuv asosida shakllangan zamonaviy metodlar va texnologiyalar – kollaj, keys-metod, intellektual xaritalar, ijodiy ustaxona kabi faol o‘qitish shakllari keltirilgan. Maqola xorijiy tilni o‘rgatish jarayonida o‘quvchining bilim olish, tafakkur yuritish va muloqotga kirishish kompetensiyalarini shakllantirishda kognitiv-kommunikativ yondashuvning samaradorligini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *kognitiv yondashuv, kommunikativ metodika, affektiv omillar, gumanistik yondashuv, empatiya, motivatsiya, til o‘rganish, faol o‘qitish texnologiyalari, chet tili, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.*

КОГНИТИВНО-КОММУНИКАТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИХ ВИДЫ

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические и практические основы когнитивно-коммуникативного подхода, применяемого в преподавании иностранного языка. Основная суть подхода заключается в том, что он направлен на осознанное и активное усвоение языка на основе личного опыта, интеллектуального и эмоционального потенциала учащегося. В ходе исследования также рассматриваются аффективные факторы, такие как влияние гуманистических принципов, психологические аспекты, личная мотивация, эмпатия, уровень тревожности, склонность к риску. Кроме того, представлены современные методы и технологии, сформированные на основе этого подхода – активные формы обучения, такие как коллаж, кейс-метод, интеллект-карты, творческая мастерская. Статья раскрывает эффективность когнитивно-коммуникативного подхода в формировании у учащегося компетенций в области получения знаний, мышления и коммуникации в процессе изучения иностранного языка.*

Ключевые слова: *когнитивный подход, коммуникативная методика, аффективные факторы, гуманистический подход, эмпатия, мотивация, изучение языка, активные технологии обучения, иностранный язык, личностно-ориентированное обучение.*

COGNITIVE-COMMUNICATIVE TECHNOLOGIES AND THEIR TYPES

Annotation. *This article analyzes the theoretical and practical foundations of the cognitive-communicative approach used in foreign language teaching. The core essence of this approach lies in its focus on conscious and active language acquisition based on the student's personal experience, intellectual capacity, and emotional potential. The study examines the influence of humanistic principles, psychological factors, and affective elements such as personal motivation, empathy, anxiety levels, and risk-taking*

propensity. Additionally, it presents modern methods and technologies developed based on this approach, including active learning forms like collage, case study, mind mapping, and creative workshops. The article reveals the effectiveness of the cognitive-communicative approach in developing students' competencies in knowledge acquisition, critical thinking, and communication skills during the foreign language learning process.

Keywords: *cognitive approach, communicative methodology, affective factors, humanistic approach, empathy, motivation, language learning, active learning technologies, foreign language, learner-centered education.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida xorijiy tilni o‘rgatish metodikasiga bo‘lgan yondashuvlar tubdan yangilanmoqda. Ayniqsa, o‘quvchilarning intellektual va hissiy salohiyatini to‘liq ishga solishga qaratilgan yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, kognitiv-kommunikativ yondashuv bu ikki muhim ilmiy asos: bilish (kognitsiya) va muloqot (kommunikatsiya) komponentlarining birlashmasidan hosil bo‘lgan metodik tamoyildir.

Mazkur yondashuv xorijiy tilni faqat lingvistik tizim sifatida emas, balki fikrlash, his qilish va madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida o‘rgatishni maqsad qiladi. O‘quvchi o‘zining shaxsiy tajribasi, bilimlari, mantiqiy tafakkuri va hissiy holati orqali tilni anglaydi va amalda qo‘llaydi. Shuning uchun ham til o‘rganish jarayoni bilimlarni mexanik tarzda yodlash emas, balki ongli, maqsadli va faol o‘zlashtirish jarayoniga aylanishi lozim.

Ushbu ilmiy ishda kognitiv-kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari, shakllanish tarixi, psixologik va pedagogik jihatlari, shuningdek, amaliy metodik imkoniyatlari yoritiladi. Xususan, o‘quvchilarning individual xususiyatlari, motivatsiyasi, affektiv omillari hamda ta’lim jarayonidagi yangi metodlar masalan, suггесторик, intensif, va muammoli o‘qitish usullari orqali bu yondashuv qanday amalga oshirilishi tahlil etiladi.

Ushbu yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, u xorijiy tilni o‘rganishda o‘quvchining shaxsiy o‘sishi, mustaqilligi, madaniy saviyasi va muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois kognitiv-kommunikativ yondashuv bugungi kunda zamonaviy ta’limda eng istiqbolli va samarali yondashuvlardan biri sifatida qaralmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Yusupovaning “Сущность и составляющие когнитивно-коммуникативного подхода к обучению иностранному языку” maqolasida muallif kognitiv-kommunikativ yondashuvning mohiyatini tushuntirib, uni metodik tamoyil sifatida asoslaydi. Yusupova bu yondashuvni kommunikativ til o‘qitish modeliga integratsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, tilni o‘rganish jarayonida bilimlarni nafaqat muloqot orqali qo‘llash, balki ularni tafakkur va idrok asosida o‘zlashtirish ham muhim. Mazkur manba maqoladagi asosiy nazariy bazani shakllantiradi va uning asosiy g‘oyalariga ilmiy tayanch bo‘ladi. Zimnyayaning “Ключевые компетенции – новая парадигма результата современного образования” asarida esa muallif ta’limda natijaga yo‘naltirilgan yondashuvni, xususan, “kalit kompetensiyalar” tushunchasini ilgari suradi. U til o‘rgatishda o‘quvchilarning faqat bilim emas, balki muammoli vaziyatda yechim topish, muloqotga kirishish, mustaqil fikr yuritish kabi ko‘nikmalarini shakllantirishni muhim deb hisoblaydi. Bu qarash maqolada kognitiv-kommunikativ texnologiyalarning zamonaviy kompetensiyalarga xizmat qilishi g‘oyasini mustahkamlaydi. Galskova va uning “Современная методика обучения иностранным языкам” asari zamonaviy til o‘qitish metodikasi asoslarini tizimli tahlil etadi. Muallif affektiv omillar – motivatsiya, tashvish, o‘zini baholash, empatiya kabi psixologik komponentlarning til o‘rganishdagi ta’sirini chuqur o‘rganadi. Maqolada aynan Galskova qarashlariga tayangan holda, affektiv komponentlarning kognitiv-kommunikativ yondashuvdagi o‘rni yoritilgan. Bu yondashuvning shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika bilan uyg‘unligi ham bu manba orqali asoslangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda xorijiy tilni o‘rgatishda kognitiv-kommunikativ yondashuvning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish asosiy maqsad qilib belgilandi. Shu maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi: Nazariy tahlil – kognitiv-kommunikativ yondashuvga oid ilgari chop etilgan ilmiy adabiyotlar, maqolalar, monografiyalar va metodik qo‘llanmalar o‘rganildi. Solishtirma tahlil – kognitiv, kommunikativ, audiolingval va gumanistik yondashuvlar o‘zaro qiyoslanib, ularning farqlari va o‘xshashliklari tahlil qilindi. Tajriba-muammoli tahlil – kognitiv-kommunikativ yondashuvda qo‘llaniladigan metodlar (masalan, kollaj, keys-metod, loyihalar, emotsional metodlar)ning o‘quv jarayoniga ta’siri amaliy misollar orqali ko‘rsatildi.

Tahlil va natijalar. Kommunikativ yondashuvning mohiyati – bu muloqotni modellashtiruvchi strategiyadir. Unda o‘quvchilarning nutqiy va psixologik muhitini yaratish muhim o‘rin tutadi. Talabalar

o‘quv materiallarini va ularga tegishli harakat usullarini ongli ravishda o‘zlashtiradi. Ular ifoda mazmunining samaradorligiga qo‘yiladigan talablardan xabardor bo‘lishi zarur.

Bu yondashuv muloqotning barcha asosiy funksiyalarini – bilish (kognitiv), qadriyatga yo‘naltirish (aksiologik), boshqaruv (regulyativ) va boshqa jihatlarni qamrab oladi. Shuningdek, u to‘rt asosiy til ko‘nikmasi – eshitish (tinglab tushunish), og‘zaki nutq, o‘qish va yozishni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Bu usulda o‘rganuvchilardan har bir so‘zning ma’nosini tushunish talab etilmaydi, ammo kerakli ma’lumotni anglab olish muhim hisoblanadi.

Kognitiv yondashuv esa tilni o‘rganishda insonning individual tajribasi va bilimlariga katta e’tibor qaratadi. Bu yondashuv idrok qilish, bilim olish, ularni qayta ishlash, tuzish, saqlash, amalda qo‘llash, tasavvur qilish va mantiqiy tafakkur kabi muhim jarayonlarga asoslanadi.

Kognitiv aspekt kommunikativ yondashuvga birlashtirilgan holda kiritilishi kerak va unga bo‘ysunadi. Mashqlar xotira, e’tibor, tafakkur, muammoli va ijodiy topshiriqlar orqali aqliy hamda hissiy faoliyatni faollashtirishni nazarda tutadi. Shu asosda kognitiv-kommunikativ yondashuv til o‘rgatishda kognitiv elementlar bilan birga muloqot komponentlarini ham o‘z ichiga oladi. Bunday yondashuvni samarali qo‘llash uchun, avvalo, uning tarixiy shakllanishini pedagogik nuqtai nazardan o‘rganish muhimdir [1;105-b.].

1960–1970-yillarda xorijiy til o‘rgatish tizimida gumanistik yondashuv shakllandi. Bu yondashuv kognitiv-kommunikativ metodikaning rivojlanishiga zamin yaratdi. Gumanistik yondashuvning asosiy xususiyati o‘quvchining shaxsini markazga qo‘ygan holda, uning qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olishdir. Bu yondashuvda o‘qitish metodlari, usullari va texnologiyalari o‘quvchining individual xususiyatlariga mos tanlanadi.

Gumanistik yondashuv shundaki, ta’lim jarayonining asosiy markazi o‘qituvchidan o‘quvchiga ko‘chadi. Ya’ni, pedagogik jarayonda o‘quvchining faol ishtiroki va shaxsiy o‘zgarishlari muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar o‘z ehtiyojlari va motivatsiyalariga ko‘ra materialni o‘zlashtiradi, o‘qituvchi esa bu jarayonda yo‘l-yo‘riq beruvchi rolini bajaradi.

Psixologiya, lingvistika va didaktika sohalarida yuzaga kelgan gumanistik yondashuvlar natijasida kommunikativ hamda kognitiv metodlar shakllandi. Bugungi kunda bu ikki yondashuv nafaqat mustaqil tarzda, balki uyg‘un holda ko‘plab mamlakatlar ta’lim tizimida qo‘llanmoqda.

Kognitiv yondashuv, o‘z navbatida, 20 yil davomida ustunlik qilgan audiolingval yondashuvning inqirozi natijasida paydo bo‘ldi. Audiolingval metod bixevioristik nazariyaga asoslangan bo‘lib, inson xatti-harakatini tashqi stimul va unga javob tarzidagi reaktsiyalar zanjiri sifatida tushuntirgan.

Ushbu metodning asoschisi B.Skinner hisoblanadi. Unga ko‘ra, chet tilini o‘rganishda o‘quvchining atrof-muhiti hal qiluvchi omil sanaladi, genetik omillar esa ikkinchi darajali hisoblanadi. Audiolingval metodda tilni o‘rganish mashq va takrorlash orqali avtomatik ko‘nikmalarni shakllantirishga asoslangan. Til strukturasi bo‘yicha andozalar keltirilib, ular mexanik tarzda mustahkamlanadi, bunda transformatsion mashqlar orqali material eslab qolinar edi.

1960-yillarning boshida bixevioristik va audiolingval metodlar keskin tanqid ostiga olindi. Bixevioristlar insonning nutqiy xatti-harakatini faqat tashqi ko‘rinishlar orqali tushuntirishga harakat qilishar edi, ya’ni ular inson ongi va tafakkur jarayonlarini hisobga olishmasdi. Shu sababli, kognitiv psixologiya namoyandalari bu yondashuvlarga qarshi chiqib, inson ongidagi ichki fikrlash jarayonlariga alohida e’tibor bera boshlashdi.

Keyinchalik, o‘rganish jarayonida kognitiv uslublar (ya’ni, o‘quvchining bilimni qanday o‘zlashtirishi) aniqlana boshlandi. Bular quyidagilar:

Reflektiv (mulohazali) uslub – o‘quvchi har bir harakatni chuqur o‘ylab bajaradi.

Impulsiv uslub – qarorlar tez qabul qilinadi, natijasi o‘ylab ko‘rilmaydi.

Polyzavisimiy (atrof ta’siriga bog‘liq) va polyniezavisimiy (mustaqil) uslublar – bu o‘quvchining o‘z fikrida mustaqil bo‘lish yoki boshqalarning fikriga tayanishga moyilligini bildiradi.

Noaniqlikka toqatli uslub – o‘quvchi aniqlik bo‘lmagan vaziyatlarda ham o‘rganishda davom eta oladi.

Tadqiqotchilar kognitiv uslublar orqali o‘rganish strategiyalarini ham ishlab chiqdilar. Xorijiy tilni ikkinchi til sifatida o‘rganish uchun 24 ta strategiya aniqlangan bo‘lib, ular uch asosiy guruhga ajratiladi:

Metakognitiv strategiyalar – o‘z bilim olish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash.

Kognitiv strategiyalar – o‘quv materialini tahlil qilish, guruhlash, asosiy so‘zlarni ajratish, qayta ishlash, eslab qolish.

Sotsioaffektiv strategiyalar – hamkorlikka asoslangan va tushunilmagan narsani aniqlashga qaratilgan usullar (savol berish, parafraz qilish, misollar keltirish va boshqalar).

Shuningdek, 1970–1990-yillar oralig‘ida kognitivizm asosida xorijiy tillarni o‘rgatishning yangi metodlari paydo bo‘ldi. Ulardan biri sug‘estopediya bo‘lib, bu uslub bolgariyalik psixiatr G.Lozanov tomonidan ishlab chiqilgan. U shunday g‘oyani ilgari surdiki, odam miyasi oddiy sharoitga nisbatan yorug‘, xotirjam muhitda (masalan, Barokko musiqasi eshitilayotganida) ko‘proq til materialini o‘zlashtira oladi.

Amaliyotda bu uslub bilan bog‘liq ayrim qiyinchiliklarga qaramay, aynan shu asosda intensiv o‘qitish metodlari (xususan, G.A.Kitaygorodskayaning emotsional-ma’noviy metodi) shakllandi. Hozirda ko‘plab zamonaviy darsliklar va metodikalarning poydevori aynan shu uslubga tayanadi.

Yana bir innovatsion usul bu “muloqotsiz (jim) o‘rgatish usuli” bo‘lib, u muammoli izlanishga asoslangan ta’lim shakli sifatida tanilgan. Bu metodni kognitiv yondashuv tarafdori K.Gattenyo ishlab chiqqan. U o‘quvchilarda mustaqillik, avtonomiya (ya’ni, o‘z-o‘zini boshqarish) va javobgarlik tuyg‘usini rivojlantirish kerakligini ta’kidladi. Ularning til o‘rganishdagi yondashuvi jamoaviy hamkorlik asosida, til muammolarini birga hal qilishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Bu metodga ko‘ra, darsni boshlaganda o‘qituvchi faqat yo‘nalish beruvchi sifatida ishtirok etadi. Ya’ni, u faqat darsning boshida kichik bir signal beradi, o‘quvchilar esa qolgan vaqt davomida o‘zlari faol muloqotga kirishadilar. Yangi til materiali o‘qituvchi tomonidan faqat 10% vaqt ichida tushuntiriladi, qolgan 90% vaqt esa o‘quvchilarning amaliy faoliyatiga ajratiladi. Aynan shuning uchun bu metod "jim" deb ataladi – o‘qituvchi kam gapiradi, talabalar esa ko‘proq harakatda bo‘ladi [2;87-b.].

Ushbu metodning texnik jihatlari chuqur muhokama qilinmagan bo‘lsa-da, ayrim tanqidlar mavjud. Jumladan, o‘qituvchining aytib qo‘ya oladigan bir daqiqalik ma’lumoti o‘quvchilar tomonidan uzoq vaqt izlanishda topilishi vaqtni isrofgarchilikka olib kelishi mumkin.

Shunga qaramay, bu metoddagi asosiy g‘oya o‘quvchilarning mustaqilligini oshirish va o‘qituvchining nutqiy ustunligini kamaytirish dolzarb va foydali yondashuv sifatida tan olinmoqda.

Xorijiy ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, chet tilini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishda faqat kognitiv (aql-idrok) jarayonlar emas, balki affektiv (hissiy) omillar ham katta ahamiyatga ega. Aynan 1960–1990-yillar oralig‘ida psixologiyada shaxsga oid omillar faol o‘rganila boshlandi. Bu omillar orasida til o‘rganishga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan juda muhim jihatlar bor.

Bu yo‘nalishning boshlanishiga K.Rodjers, gumanistik psixologiya asoschisi sababchi bo‘ldi. U 1951-yilda odamlarning xatti-harakatlarini belgilovchi 19 ta prinsipni ishlab chiqqan bo‘lib, ularda inson eng avvalo hissiyotga boy mavjudot sifatida ko‘rsatilgan. Biroq u insonni nafaqat hissiy, balki jismoniy va idrok etuvchi mavjudot sifatida ham ko‘rgan.

Uning g‘oyalari asosida C.Curran va boshqa psixolog olimlar tomonidan xorijiy til o‘rganishga moslashtirilgan yondashuvlar ishlab chiqildi. Ular orasida quyidagi shaxsiy sifatlar alohida ahamiyatga ega deb topildi:

Motivatsiya – o‘rganish jarayonini boshlovchi asosiy kuch bo‘lib, u har qanday aqliy faoliyatning “motoridir”.

O‘zini baholash darajasi – bu holat umumiy, situatsion va instrumental ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Olimlar hali hanuz quyidagi savol ustida o‘ylashmoqda: “Yuqori o‘zini baholash muvaffaqiyatga olib keladimi yoki aksincha, muvaffaqiyat insonning o‘zini yuqori baholashiga sabab bo‘ladimi?”

Shu yerda yana bir muhim jihat – past o‘zini baholash ko‘pincha o‘quvchida nutqiy va bilishdagi siqilish holatini keltirib chiqaradi. Buni boshqacha aytganda – bu “kompleksli” holat, ya’ni o‘zidan uyalish, sharmandalik.

Bu holatga qarama-qarshi bo‘lgan xususiyat esa – riskka moyillik bo‘lib, u ko‘pincha impulsiv odamlar bilan bog‘liq. Riskni yaxshi ko‘radigan o‘quvchilar xatolardan qo‘rqmaydilar, biroq bu ularning har doim yuqori til bilimiga ega bo‘lishini anglatmaydi.

Optimal yondashuv shuki: o‘qituvchi xavf qilishga jur’at etadigan, lekin juda ehtiyotkor talabalarni rag‘batlantirishi kerak. Shu bilan birga, haddan tashqari jasur talabalarni vaqtida to‘xtatish kerak, aks holda ular boshqa talabalarni so‘zga chiqishiga yo‘l bermasligi mumkin.

Bularning barchasi bilan chambarchas bog‘liq yana bir omil – bu tashvish (trivojnost’) darajasidir. Psixologlar tashvishni ikki shaklda ko‘rib chiqadi:

Global tashvish – bu shaxsiy xususiyat sifatida doimiy holat.

Situatsion tashvish – bu ma’lum bir vaziyat bilan bog‘liq bo‘lgan holat.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, haddan tashqari yuqori tashvish ham, mutlaqo yo‘qligi ham tilni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga salbiy ta’sir qiladi. Bu fikrlar amerikalik psixolog J.M. Bailey tomonidan tajriba asosida isbotlangan.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muloqotni samarali amalga oshirishda o‘z ona tilida bo‘ladimi, chet tilidami – empatiya katta rol o‘ynaydi. Zamonaviy fan empatiyani boshqa odamning his-tuyg‘ulariga hamdard bo‘lish va o‘zini uning o‘rniga qo‘ya bilish qobiliyati sifatida izohlaydi.

Shu bilan birga, yuqori darajadagi empatiyaga ega bo‘lgan talabalar doimo yuqori natijalarga erishadi, degan fikr ham har doim to‘g‘ri emas. Ayrim hollarda empatiya yuqori bo‘lsa ham, bu chet tilini mukammal o‘zlashtirishni ta’minlamaydi. Va aksincha, ba’zi o‘quvchilar empatiyasi past bo‘lsa-da, tilni muvaffaqiyatli o‘zlashtira oladi.

Zamonaviy ilm-fan fikricha, chet tilini o‘rganishda eng muhim, eng keng qamrovli yondashuv bu kommunikativ yondashuv hisoblanadi [5;278-b.]. Bu yondashuvda til o‘rgatish – bu shunchaki grammatika va lug‘atni yodlash emas, balki kommunikatsiyani, ya’ni real muloqotni o‘rganish deb qaraladi.

Kommunikativ yondashuv o‘quvchining bilish faoliyatini, tafakkur jarayonlarini faollashtiradi, bilimlarni tizimlashtirishga yordam beradi. Bugungi kunda bu yondashuv tobora shaxsga — ya’ni talabaning shaxsiy xususiyatlariga yo‘naltirilmoqda.

Tilni o‘rganish jarayoni, ayniqsa, kognitiv psixologiya va kognitiv yondashuv bilan boyitilganda, yanada samarali bo‘ladi. Bunday holda o‘quvchi har bir bosqichda o‘z aqliy salohiyatini to‘liq ishga soladi. Til o‘rgatish shunchaki avtomatik eslab qolish emas, balki ongli, mantiqiy, tushunchali jarayonga aylanadi.

Shu nuqtayi nazardan, kognitiv komponent doimo kommunikativ yondashuvga kiritilishi va unga bo‘ysunishi zarur. Ammo bu komponent aynan zarur bo‘lgan joylarda faol tarzda namoyon bo‘lishi kerak — masalan, qiyoslash, o‘xshatish yoki farqlash yordamida osonroq o‘zlashtirish imkon bo‘lsa.

“Kognitiv” atamasining yondashuv nomining boshida turishi bejiz emas, bu uning ilmiy asos sifatida tarixiy birinchi bo‘lib shakllanganligini va o‘quvchining shaxsiy-individual xususiyatlarini o‘rganishda markaziy o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, kognitiv-kommunikativ yondashuv xorijiy tilni o‘rgatishda kommunikativ metodikaning ilmiy asoslanishini ta’minlaydi. Ushbu yondashuv yordamida quyidagi muhim metodik masalalarni hal qilish mumkin:

- til va nutq materiallarini tanlab olish;
- ularni qanday tartibda o‘rganish;
- ularni qanday usulda tushuntirish va mashq qilish.

Bularning barchasi o‘quvchilarning muloqotga bo‘lgan ehtiyojlari va ta’lim olish sharoitlari inobatga olingan holda amalga oshiriladi.

Kognitiv-kommunikativ yondashuvdan foydalanilganda o‘quvchilarda til, madaniyat, mamlakatshunoslik va estetik bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish yuzaga keladi. Bu bilimlar ularning bilishga bo‘lgan qiziqishini qondirish, shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Bu yondashuv xorijiy tilni minimal zarur darajada egallash jarayonida shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Tadqiqotchi K.S.Maxmuryanning ta’kidlashicha [4;75-b.], kognitiv-kommunikativ texnologiyalar quyidagi shakllarda bo‘ladi:

Loyihaviy faoliyat – mustaqil tadqiqot yoki ijodiy topshiriqlarni bajarish orqali tilni o‘zlashtirish;

O‘quv konferensiyasi – mavzu bo‘yicha chiqishlar, bahs-munozaralar;

Ijodiy ustaxona – til orqali yangi g‘oyalar, konsepsiyalar yaratish;

Kollaj – mavzularni tasviriy vositalar orqali ifodalash;

Montaj – turli mazmuniy qismlarni bir butun holatga keltirish;

Intellektual xaritalar – fikrlarni tuzilmali shaklda ifodalash;

Keys-metod – hayotiy muammolarni yechishga qaratilgan topshiriqlar;

Jadvallar va sxemalar bilan ishlash – mantiqiy tuzilmalar yaratish orqali tilni o‘zlashtirish.

Natijada o‘quvchi passiv tinglovchidan chiqib, faol ishtirokchiga aylanadi. Chet tilini o‘rganish jarayoni haqiqiy muloqot modellari asosida tashkil etiladi.

Bu shuni anglatadiki: agar o‘quvchi faqat grammatik qoidalar va lug‘atni bilsa, lekin real aloqa vaziyatida ulardan foydalana olmasa, til bilimlari amalda foydasiz bo‘lib qoladi. Shuning uchun kognitiv-kommunikativ yondashuvning asosiy maqsadi – tilni amaliy kontekstda ishlatishni o‘rgatishdir**,** ya’ni til bilimini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirishdir.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tilni o‘rgatishda kognitiv-kommunikativ yondashuv nafaqat nazariy jihatdan asoslangan, balki amaliy jihatdan ham yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan kompleks metodik tizimdir. Bu yondashuv o‘quvchining faqat til bilimlarini emas, balki uning fikrlash qobiliyati, mustaqilligi, ijodkorligi va shaxsiy faolligini ham rivojlantiradi.

Kognitiv yondashuv orqali o‘quvchi tilni anglash jarayonida tafakkur, xotira, tasavvur, mantiqiy tahlil kabi aqliy faoliyatlarni ishga soladi. Kommunikativ komponent esa bu bilimlarni real hayotiy muloqotda qo‘llashni ta’minlaydi. Bu ikki yondashuvning uyg‘unlashuvi o‘quv jarayonini yanada samarali, dinamik va maqsadga yo‘naltirilgan qiladi.

Shuningdek, bu yondashuv o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini – masalan, motivatsiyasi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, tashvish darajasi, empatiya va muloqotga kirishish qobiliyatini inobatga oladi. Ana shu jihatlari bilan u gumanistik va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillariga to‘la mos keladi.

Ta’lim jarayonida kollaj, keys-metod, intellektual xaritalar, ijodiy ustaxona kabi texnologiyalarning qo‘llanilishi, o‘quvchini passiv eshituvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu esa uni chet tilini o‘rganishda muvaffaqiyatli va mustahkam natijalarga olib boradi.

Umuman olganda, kognitiv-kommunikativ yondashuv zamonaviy til ta’limi uchun strategik jihatdan muhim bo‘lib, u ongli, hissiy va ijtimoiy o‘sishni ta’minlaydi. Bu yondashuv asosida shakllangan metodlar yordamida o‘quvchilar chet tilini o‘zlashtirishda nafaqat lingvistik, balki shaxsiy va madaniy kompetensiyalarni ham egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Юсупова Т.Г. Сущность и составляющие когнитивно-коммуникативного подхода к обучению иностранному языку. 2010, УДК 372.016:811.133. https://www.psymgou.ru/jour/article/download/654/377

(2). Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата современного образования. Эйдос: интернет-журнал, 2006, 5 мая. –http://www.eidos.ru/journal/2006/0505.htm 20.03.2017).

(3). Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам. М., АРКТИ, 2003, 192 с.

(4). Махмурян К.С. Когнитивно-коммуникативные методы и технологии обучения иностранному языку // Современные проблемы преподавания иностранных языков в школе и вузе. М., МПГУ, 2006, с. 72–79.

(5). Бим И.Л. Методика обучения иностранным языком как наука и проблемы школьного учебника. М., 1997, 278 с.

Kalekeeva Tamara Turkmenbaevna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti “Matematika o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori; e-mail: kalekeevat@gmail.com)

TALABALARNI KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY KOMPONENTLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta'lim tizimidagi islohotlar doirasida bo’lajak matematika o‘qituvchilarini professional tayyorlash masalalari yoritilgan. Davlat hujjatlarida, xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun (2017), “Oliy ta’lim to‘g‘risida”gi qonun (2014), Pedagogik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi (2018) hamda 2022–2032-yillarga mo‘ljallangan oliy ta’limni rivojlantirish strategiyasida bu boradagi asosiy yo‘nalishlar va ustuvor vazifalar ko‘rsatib o‘tilgan. Ularda bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa matematika fanini o‘qitishga tayyorlashda metodik kompetensiyasini shakllantirish muhim omil sifatida ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *matematika o‘qituvchisi, professional tayyorlov, metodik kompetensiya, pedagogik ta’lim, oliy ta’lim, ta’lim islohoti.*

ОСНОВНЫЕ КОМПОНЕНТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье проанализированы актуальные аспекты профессиональной подготовки будущих учителей математики в условиях проводимых реформ в системе образования Узбекистана. Особое внимание уделяется основным направлениям и приоритетным задачам, обозначенным в таких государственных документах, как Закон «Об образовании» (2017), Закон «О высшем образовании» (2014), Концепция развития педагогического образования (2018), а также Стратегия развития высшего образования на 2022–2032 годы. В статье подчеркивается важность всесторонней поддержки личностного и профессионального развития будущих учителей, в частности формирования их методической компетентности в преподавании математики. Представлены актуальные проблемы, предложения и рекомендации по данной теме.*

Ключевые слова: *учитель математики, профессиональная подготовка, методическая компетентность, педагогическое образование, высшее образование, образовательная реформа.*

KEY COMPONENTS OF IMPROVING STUDENTS’ PROFESSIONAL TRAINING

Annotation. *This article analyzes the issues related to the professional training of future mathematics teachers within the framework of educational reforms in Uzbekistan. It highlights the key*

directions and priority tasks outlined in state documents such as the Law "On Education" (2017), the Law "On Higher Education" (2014), the Concept for the Development of Pedagogical Education (2018), and the Strategy for the Development of Higher Education for 2022–2032. The importance of comprehensive support for the personal and professional development of future teachers is emphasized, particularly the formation of methodological competence in teaching mathematics. The article also presents current challenges, proposals, and recommendations on the topic.

Keywords: *mathematics teacher, professional training, methodological competence, pedagogical education, higher education, educational reform.*

Kirish. Matematika o‘qitish metodikasi kursi matematika o‘qituvchilarini tayyorlashning umumiy tizimining asosiy bo‘g‘inlaridan biridir. U talabalarga o‘qitish jarayonining asosiy qonuniyatlarini, metodlari va vositalarini, shuningdek, matematikani boshqa fan asoslari bilan aloqadorlik xususiyatini o‘rgatadi. Asosiy maqsadi – bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish va rivojlantirish hamda metodik ko‘nikma va malakalarini hosil qilishdan iboratdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili va metodologiyasi. Bu maqolada mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilinib, quyidagilar o‘rganib chiqildi. M.V.Pustovoytenkoning tadqiqotida oliy ta’lim muassasalarida matematika o‘qitish metodikasi fani mazmunining rivojlantiruvchi jihatlari tadqiq etilgan va ushbu mazmunning maktab matematika kursini o‘zlashtirishdagi o‘rni va ahamiyati asoslab berilgan. V.N.Sokolovning [10] mehnatlarida barcha ko‘rinishdagi masalalarni yechish asosida yotuvchi fikrlash jarayoni va tashkiliy jarayonlarning aynan bir xilligi ta’kidlab o‘tilgan. R.A.Ataxonovning [1] ishlarida ko‘rsatilganki, matematik tafakkurga yuqori darajadagi mazmunli tahlil, rejalashtirish va refleksiya xosdir. I.V.Gaydamakina [3] ta’kidlaydiki fikriy harakatlarni ongli va ihtiyoriy bajarish mumkin, agar ular maxsus o‘zlashtirish predmeti bo‘lib hisoblansa. V.N.Sokolov [10] bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi va hosil bo‘ladigan muammolarni yechishda insonning intellektual xatti-harakatlarini tashkil qilish qonuniyatlari o‘quv faoliyati davomida o‘zlashtirilib boriladi. A.N.Sender [9] oliy ta’lim muassasalarida olingan bilimlarini umumlashtirish va maktabdagi o‘quv jarayoniga ko‘chirish aqliy jarayonlarni qayta ko‘rishdan iborat deb hisoblaydi. Matematika o‘qitish metodikasi fanining predmetli mazmunini ko‘rish muammosini hal qilishda biz A.V.Petrovskiy [6; 145-b.] taklif qilingan nizomga asoslanamiz: “...u yoki bu mazmun, biror o‘quv predmetining mazmuniga kiritilsa, ular yangi sifatga ega bo‘lib, o‘quv predmetining didaktik birligiga aylanadi”. Dj.Bruner oddiy o‘zlashtirish haqida emas, balki bilimlar tuzilmasini o‘zlashtirish haqida gapiradi: “Strukturani o‘rganish – narsalarning o‘zaro aloqadorligini o‘rganish”ni ta’kidlab o‘tgan [2;2-b.].

Tahlil va natijalar. Bo‘lajak matematika o‘qituvchilarini matematik tayyorgarligining kasbga yo‘naltirilganligini ko‘rib chiqishda matematika o‘qituvchilarining mohirligi, uning kasbiy mahorati tushunchasining zamonaviy talqinidan kelib chiqish zarur. Turli kasblardagi mohirlikning bir qator umumiy belgilari quyidagicha belgilangan:

–mehnatning maqsadi, mazmuni, obyektlari va vositalari haqida maxsus bilimga ega bo‘lishi;

–faoliyatning tayyorlash, yakuniy bosqichlarida maxsus mahoratga ega bo‘lishi;

–shaxsning jarayonni amalga oshirishga va istalgan natijaga erishishga imkon beruvchi maxsus xususiyatlar va xulq atvorga ega bo‘lishi.

Bu qarashga muvofiq ravishda matematika o‘qituvchilarining mohirligining uchta aspektini ko‘rsatish mumkin:

–mazmuniy (maxsus matematik bilimlarning mavjudligi);

–texnologik (matematikani o‘rganish usullariga ega bo‘lish);

–shaxsiy (shaxsning ma’lum hislatlarga ega bo‘lishi).

Ta’lim jarayonini zamonaviylashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga, uning yangi uslublar va yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olishga bo‘lgan talablarni yanada oshiradi. Bu esa oliy o‘quv yurtlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishda yangi, yanada unumli usullardan foydalanishni, xususan, talabalarning tayyorgarligini, mazmun va tuzilish jihatidan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Matematika o‘qitish metodikasi fanining vazifasi – talabalarni umumta’lim maktablari, akademik litseylarining matematika fani bo‘yicha o‘quv dasturlari va ularning tarkibi bilan tanishtiribgina qolmay, ularni o‘quvchilar, talabalar ongiga singdirish va amaliyotda foydalanish metodlari, texnologiyalari bilan tanishtirishdan iborat. Bunda har bir talaba o‘qituvchilik faoliyatida foydalanish zarur bo‘lgan barcha yo‘l-yo‘riqlar, pedagogik faktlar, ayrim mavzularni darsda o‘tish, o‘quvchilarga o‘rgatish, darsda ko‘rgazmali materiallar, texnik vositalar, test reytinglar va hokazolardan foydalanish metodlari bilan tanishadi hamda amalda sinab ko‘radi.

Matematika o‘qitish metodikasi o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

–matematika o‘qitish metodikasining pedagogik fan sifatidagi nazariy asoslarini; uning tadqiqot metodlarini; o‘rta va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarini jamiyatining hozirgi bosqichdagi o‘rnini; harakatdagi maktab va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining matematikadan dasturlari, darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarini chuqur egallaganligi; matematika o‘qitish metodlarini va texnologiyalar tarixini; matematikani o‘qitishda didaktik tamoyillarni; matematikani o‘qitishda uning qismlari va boblariga xos xususiyatlarni; matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishni bilishi;

–ma’lum sharoitlarda egallagan bilimlarni ijodiy qo‘llash va ta’limning optimal variantlarini tanlay olishi; o‘quvchilarda o‘rganishi lozim bo‘lgan materialni metodik jihatdan qayta ishlashi; ilmiy metodik izlanishlar olib borishi; o‘quvchilarda matematikaga qiziqish o‘yg‘otish va qiziqishlarni rivojlantirish; pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini loyihalashtirish va uni amalga oshirish; o‘zining metodik bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishi, ilg‘or pedagogik tajribalar va usullarni egallay olish ko‘nikmalarga ega bo‘lishi;

–texnologik vositalarni foydalanish va ular bilan muamala qila olishi; matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish malakalariga ega bo‘lishi lozim.

Quyidagilarga alohida to‘xtalib o‘tamiz: metodik ko‘nikmalarni shakllantirish matematika o‘qitish metodikasi fanining predmeti mazmunida amalga oshirilishi sababli matematika o‘qitish metodikasi fanining mazmunli komponentini qarab chiqish zarur bo‘ladi.

Metodik ko‘nikmalarni faqat metodik faoliyat davomida shakllanadi deb hisoblaymiz, chunki ularda metodik xatti-harakatlarni bajarish imkoniyatlarini topish zarur. Shuning uchun ushbu tadqiqotda faoliyatli komponentning tahlili shart.

Matematika o‘qitish metodikasi fanining predmetli mazmuni bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini amalga oshirishida yetarlicha imkoniyatlarga ega.

Avvalo, u matematika o‘qituvchilarining faoliyatiga tegishli faoliyatini ta’minlaydi, uning ma’nosi matematik ko‘nikmalarni va malakalarni to‘la egallanligi bilan xarakterlanadi hamda algebrani o‘rganish jarayonida egallangan bilimlarni kelgusi kasbiy-metodik faoliyatida foydalanishni anglatadi.

Oliy ta’lim muassasalari matematika kurslarining aksariyat faktlari tatbiqiy yo‘nalishga ega. Maktab va o‘rta maxsus ta’lim matematikasi kursining masalalari oliy matematika kursining elementlaridan foydalanish hisobiga juda chiroyli yechilishi mumkin.

Ba’zi olimlar maktab va o‘rta maxsus ta’lim matematikasi kursi masalalarini oliy matematika usullari bilan yechishni kasbiy yo‘naltirilgan ta’limning avzalligi sifatida qarashadi.

Ta’limda shakllanib borayotgan o‘qitishning rivojlantiruvchi funksiyasini amalga oshirish muammosi kun tartibiga talabalarni matematikaning keyingi marralari bilan tanishtirishni matematikaning modellari haqidagi fan ekanligi borasida tassavurlar hosil qilishini taqozo etadi. Bu esa talabaga bilimlarni olishdan tashqari, matematik faoliyatning operatsion tomonlarini egallashlariga imkon yaratadi. Bu ma’noda matematika o‘qitish metodikasi fani o‘ziga xos xususiyatlarga va imkoniyatlarga ega, misol sifatida vektor fazoning nazariyasi teoremalarni isbotli tushunchaviy apparatni rivojlantirish borasida keng imkoniyatlarga ega. Izomorfizm g‘oyasi chiziqli algebraning boshqa bir yorqin misollaridandir. Barcha chekli o‘lchovli fazolar izomorfligini o‘rnatuvchi teorema turli strukturaga ega bo‘lgan fazolarni yagona pozitsiyada turib o‘rganishga sharoit yaratadi.

Ta’limni fundamentallashtirishga bunday yondashuv bo‘lajak matematika o‘qituvchilariga maktab matematikasi kursini yagona nuqtai nazarda ko‘rishga imkon yaratadi: mantiqiy gnosiologik, umumfalsafiy, tarixiy nuqtai nazarlardan. Bu esa o‘qituvchilarga ta’lim strategiyasini ishlab chiqish, maktab matematikasi kursi faktlarini asoslashga matematika o‘qitish metodikasini loyihalashga imkon yaratadi.

M.V.Pustovoytenkoning [7] tadqiqotida oliy ta’lim muassasalari matematika o‘qitish metodikasi fani mazmunining rivojlantiruvchi jihatlari tadqiq etilgan va ushbu mazmunning maktab matematika kursini o‘zlashtirishdagi o‘rni va ahamiyati asoslab berilgan. Masalan, Evklid algortmini o‘rganishning eng katta umumiy bo‘luvchini topishda qo‘llanishini misol tariqasida keltirish mumkin. Bu, bir tomondan, maktab matematikasi materiallarini oliy matematika nuqtayi nazaridan izohlasa, boshqa tomondan, o‘quv materialini bayon qilishni mantiqiy tartiblab olish qobiliyatini, o‘quvchilarning matematik faoliyatini tashkil qilishda izohlash mumkin.

Bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining maktab matematikasi mazmunli yo‘nalishini ajrata olish qobiliyati o‘quvchilarning matematik faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyat kashf etadi, buni shu bilan izohlash mumkin, matematika o‘qitish metodikasi fanida matematik g‘oyalarning asosi o‘rganiladi. Mate-

matik faktlarni o‘zlashtirish bosqichlariga kelsak, ko‘pchilik hollarda, u talabalarda stixiyali shakllanadi va faoliyatli xarakterda bo‘lmaydi. Shu bilan bir vaqtda, o‘quv predmetining professionallashuvi predmet materiallarini o‘zlashtirish kabi talqin qilinadi. Aynan shu kursning mantiqiy tuzilishiga mos bo‘lib bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy metodik faoliyatini modellashtirishga xizmat qiladi.

Haqiqatdan ham, oliy ta’lim muassasalari matematika o‘qitish metodikasi fani bunday ko‘nikmalarni shakllantirish uchun real imkoniyatlarga ega. Oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari va talaba faoliyatining umumiyligi talabalarga o‘quv faoliyatini tashkil qilishning dastlabki tajribalarini egallashga imkon yaratadi. Shunday qilib, talabalar tomonidan o‘quv-bilish faoliyatining ketma-ketligi o‘zlashtirilib boriladi.

Bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining metodik ko‘nikmalarini shakllantirishda faoliyat darajasida matematika o‘qitish metodikasi fanining imkoniyatlarini tadqiq etish matematika o‘qituvchilarining ta’lim muammolarini hal qilishdagi kasbiy faoliyatning xususiyatlarini va talabalarning o‘quv va matematik masalalarni yechishdagi o‘quv faoliyatini taqqoslashni talab etadi.

V.N.Sokolovning [10] ko‘rsatishicha, barcha ko‘rinishdagi masalalarni yechish asosida yotuvchi fikrlash jarayonlari va tashkiliy jarayonlar aynan bir xildir. Bu degani talabalar fikrlashi faoliyati qanchalik savodli tashkil qilingan bo‘lsa, uni amalga oshirish o‘qituvchining amaliy faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Matematik materiallar ustida ishlaganda oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining kasbiy-metodik faoliyati va talabaning o‘quv faoliyati funksional birlikka ega ekanligini ko‘rsatish lozim.

R.A.Ataxonovning [1] ishlarida ko‘rsatilganki, matematik tafakkurga yuqori darajadagi mazmunli tahlil, rejalashtirish va refleksiya xosdir. Ammo o‘qituvchilar muvoffaqiyatlari ham ko‘rsatilgan aqliy operatsiyalarni bajara olish ko‘nikmalarga bog‘liq. O‘qituvchi tomonidan metodik vazifalarni hal etish vaziyatni mufassal tahlil etishni talab etadi. O‘z tajribasini umumlashtira olish ko‘nikmasi va o‘zi uchun pedagogik xatti-harakatlarning qanday tarkibda bo‘lishini aniqlay olishi o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini aniqlaydi. Bundan tashqari, mazmunli tahlil, rejalashtirish va refleksiya nafaqat fikrlash xatti-harakatlari sifatida, balki o‘qituvchilarning metodik xatti-harakatlarini amalga oshirish usuli sifatida qaraladi.

Matematik obyektni mazmunli tahlil qilish o‘qituvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil qilishda kompleks yondashuvni amalga oshirishga xizmat qiladi. Chunki ichki munosabatlarni aniqlashtirish bu obyektning mavjudligi shartidir. Shakllanayotgan matematik tafakkurning, nazariy tafakkurning rivojlanishiga o‘ziga xos ta’siri shundan iboratki, u bilimlarni saqlash sistemasi emas, balki bilish vositasi sifatida qaraladi. Shunday qilib, algoritmik tafakkurga xatti-harakatlarni ichki rejalashtirish mos keladi. Matematika o‘qitish metodikasi fanida buni rivojlantirish uchun yetarli miqdordagi masalalar mavjud: Evklid algoritmi, matritsalarni uchburchak shakliga keltirish, ortogonallashtirish jarayoni, xos vektorlarni topish, turli chiziqli operatorlarning matritsalarini topish va hokazo. Kombinatorik operatsiyalarni hosil qilish refleksiv tafakkurning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Matematika o‘qitish metodikasi fanida bunga yetarlicha misollar mavjud.

Ravshanki, mazmunli tahlil, rejalashtirish va refleksiya aynan o‘sha matematik va metodik faoliyat uchun bir xil xatti-harakatli amallar tarkibiga ega bo‘ladi. Demak, matematik mazmun aqliy xatti-harakatlarni rivojlantirish uchun qulay asos yaratadi. Masalan, oliy ta’lim muassasalarida algebra va sonlar nazariyasi kursi matematik tushunchalarning “mazmunli maydon”ini yaratadi. Gruppa tushunchasi real hayotdan kelib chiqqan: obyektlarning simmetrikligini qarash, obyektlarning sifatli belgilarini taqqoslash, dunyoning fizik tasvirini o‘rganishdan kelib chiqqan va hokazo.

Psixologik pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida I.V.Gaydamakina [3] ta’kidlaydiki, fikriy harakatlarni ongli va ihtiyoriy bajarish mumkin, agar buning uchun ular maxsus o‘zlashtirish predmeti bo‘lsa. V.N.Sokolov [10] bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi va hosil bo‘ladigan muammolarni yechishda insonning intellektual xatti-harakatlarini tashkil qilish qonuniyatlari o‘quv faoliyati davomida o‘zlashtirib boriladi. Bu holda ular o‘z-o‘zidan bo‘lajak mutaxassisning faoliyatiga kiradi. Shuning bilan birga, bu holda mazmunli tahlil, rejalashtirish, refleksiyaning aqliy xatti-harakatlarni shakllantirishga e’tibor qaratish shart emas. Buning uchun matematik ifodalar bilan ishlash metodikasini to‘g‘ri tashkil qilish yordam beradi.

Bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining metodik ko‘nikmalarini shakllantirishda matematika o‘qitish metodikasi fanining faoliyatli komponentini tadqiq qilish, matematik va metodik masalalarni yechish jarayonini tashkil qilish bilan bog‘liq. Boshqa tomondan, o‘qituvchining kasbiy-metodik faoliyati uning modellashtiruvchi darajasiga erishishga yo‘naltirishi lozim. Bu shuni anglatadiki, talabaning matematik masalalarni yechish jarayoni unda metodik ko‘nikmalarini shakllanishiga xizmat qiladi, deyish to‘la asosli. Bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining metodik masalalarini yechish qobiliyati uning xususiy xatti-harakatlarini ajrata olish ko‘nikmalariga (masala shartini farmollashtirish) va shu asosda xatti-harakatlarni ko‘chirishi va qo‘llash (ta’lim jarayonini modellashtirish).

Ko‘pchilik olimlarning ta’kidlashicha, ishni endi boshlayotgan o‘qituvchi uchun faoliyatning metodik va matematik tomonlarini birlashtirish g‘ayritabiiy tuyuladi. A.N.Sender [9] hisoblaydiki, oliy ta’lim muassasalarida olingan bilimlarini umumlashtirish va maktabdagi o‘quv jarayoniga ko‘chirish aqliy jarayonlarni qayta ko‘rishdan iborat. Bu holda modellashtirish va interpretatsiyalash o‘qituvchining amaliy faoliyatiga o‘tkaziladi.

Matematika o‘qitish metodikasi fani bu borada juda boy zaxiraga ega. Bu yasashga doir topshiriqni bajarish va matematik masalalarni predmetli materialni o‘zlashtirish motiviga ko‘ra, tartiblashdan iborat bo‘lishi mumkun; ta’limning muammoli vaziyatga adekvat bo‘lgan metodik va o‘quv masalalarning qo‘yilishi va hokazo. Shunday qilib, matematika o‘qitish metodikasi fanining predmetli mazmuni, shuningdek uni o‘zlashtirishning aqliy va tashkiliy jarayonlari bo‘lajak matematika o‘qituvchilarida oliy algebraning faktlarini keng qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishda kasbiy aniqlangan xatti-harakat ko‘rinishlarini va fikrlash faoliyati usullarini egallashga xizmat qiladi. Bunda ularni qo‘llash samaradorligi o‘qituvchining metodik harakatlariga bevosita bog‘liq.

Shu munosobat bilan ta’kidlash mumkunki, hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida shakllangan o‘qitish sistemasida matematika o‘qitish metodikasi fanining barcha materiallari bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini shakllantirishga yo‘naltirilgan deb bo‘lmaydi. An’anaviy ta’limning xarakterli belgilaridan biri fanda to‘plangan matematik tajribani “ikkilangan reproduksiya” asosida o‘zlashtirishdan, yangi matematik mazmunli fragmentar va lokal ravishta o‘zlashtirishdan iborat. Bular, asosan, algoritmlarni o‘zlashtirish va eslab qolishga yo‘naltirilgan bo‘lib, matematik fanlarning g‘oyaviy mohiyatni egallash e’tibordan chetda qoladi. Bunday holda tafakkurni rivojlantirish o‘rniga xotirani ishlatish ustunlik qiladi. Bu, o‘z navbatida, bilish jarayonining buzilishiga va aqliy operatsiyalar shakllanmasligiga olib keladi. Shuning uchun algebra va sonlar nazariyasi kursida kasbiy tayyorganligining metodik komponentlarini ta’minlash uchun oliy ta’lim muassasalari matematika o‘qitish metodikasi fanining maktab va o‘rta maxsus matematika kursi bilan aloqadorligini amalga oshirish kerak. Ba’zi mavzularni o‘rganishda bunday aloqadorliklar kuzatilmaydi. Shuning uchun talabalar egallash lozim bo‘lgan konkret matematik bilimlar hajmi maktabda va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘rganiladigan zarur materiallardan ancha marta ko‘pdir.

Matematik ta’limning bu qismi (ya’ni, o‘rganilmaydigan qismi)ni o‘qitish motivlashmay qoladi. Natijada talabalarni faqat joriy, oraliq, yakuniy nazorat topshirish orqali bunday materiallarni o‘rganishga yo‘naltirish bilimlarni yuzaki fragmentar o‘zlashtirishga olib keladi. Shunday qilib, an’anaviy ta’lim tizimidagi maktab va o‘rta maxsus ta’lim mazmuni bilan yaqqol aloqasi bo‘lmagan mazmunlar o‘zida metodik ahamiyati bo‘lmay qoladi. Haqiqatda esa “chiziqli algebra”, “vektor fazo” va hokaza bo‘limlarning bo‘lishi metodik jihatdan maqsadga muvofiqdir. Buning mohiyati shundan iboratki, chiziqli algebra bo‘limlarining va vektorlar fazosining potentsial metodik imkoniyatlari uni o‘zlashtirish davomida amalga oshiriladi.

Bu ish ixtiyoriy ko‘rinishdagi masalani yechishda umumiy strategiya va xatti-harakatlarga e’tibor orqali didaktik jihatdan asoslangan model shaklida amalga oshiriladi [5].

Matematikani o‘qitish jarayonini bo‘lajak kasbiy-metodik faoliyat bo‘yicha modellashtirish quyidagi masalalarni hal etilishini talab etadi:

–matematika o‘qitish metodikasi ta’limining predmetli mazmunini ko‘rish;

–bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining matematika o‘qitish metodikasi fanining predmetlik mazmunini o‘rganish doirasida metodik ko‘nikmalarni shakllanishni loyihalashtirish.

Bunda, birinchi va ikkinchi masalalarning predmetini mazmunining uni ko‘rinish shakliga nisbati kabi qaraymiz. Maxsus matematik va kasbiy metodik ta’limga bunday yondashuv bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining kasbiy layoqatliligini shakllanishining mohiyatli asosini ifodalaydi. Talabalar o‘quv faoliyatini tashkil qilish o‘rganilib o‘tilgan matematika kursining mazmuni orqali ifodalanadi. Mazmunning o‘zgarish shaklini o‘zgarishiga olib keladi, ya’ni faoliyatli yondashuvga ta’sir qiladi. Shuning uchun bizning ushbu tadqiqotlarimizda vaqtincha ustuvorlik «Matematika o‘qitish metodikasi» fanining predmetli mazmunini ko‘rishga qaratiladi.

Matematika o‘qitish metodikasi fanining predmetli mazmunini ko‘rish muammosini hal qilishda biz A.V.Petrovskiy [6;145-b.] taklif qilingan nizomga asoslanamiz: “...u yoki bu mazmun, biror o‘quv predmetning mazmuniga kiritilsa, ular yangi sifatga ega bo‘lib, o‘quv predmetining didaktik birligiga aylanadi”.

Bo‘lajak matematika o‘qituvchilarini tayyorlashda matematika o‘qitish metodikasi fanining predmetli mazmunidan foydalanishning pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqligini biz uni optimal ravishda o‘zlashtirib, kasbiy-metodik faoliyatini to‘laqonli ta’minlash ma’nosida qaraymiz.

Bajarilgan tahlillar bizga matematika o‘qitish metodikasi fanining predmetli mazmunini ko‘rishda mo‘ljal olishga imkoniyat yaratadi:

–amaliy metodik yo‘nalishni ta’minlash;

–o‘quv faoliyatining qonuniyatlari va strukturasiga mos ravishdaligi.

Ko‘pchilik olimlar tomonidan asoslanganki, predmetli mazmunini ko‘rish yo‘nalishining muayyan tuzilmalariga ega bo‘lgandagina faoliyatli komponentlarini o‘zlashtirishi mumkin:

–materialning tuzilishi predmetni yaxlid idrok etishni ta’minlaydi;

–tuzilmaviy-tashkiliy o‘quv materiali tegishli assotsiatsiyalarni shakllanishini yengillashtirdi.

–strukturalashtirilgan predmetli material mantiqiy xotirani va intuitiv tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchi tomonidan qayta ishlangan ilmiy material, ilmiy axborot oliy ta’limning asosiy komponenti bo‘lib, u ma’lum tuzilishga va tartibga ega bo‘ladi.

Dj.Bruner oddiy o‘zlashtirish haqida gapirmaydi, balki bilimlar tuzilmasini o‘zlashtirish haqida gapiradi: “Strukturani o‘rganish – narsalarning o‘zaro aloqadorligini o‘rganish” demakdir [2;2-b.].

Ushbu fakt tafakkurni obyektiv reallikni aks etish kabi qarashda ham o‘z isbotini topadi. Insonning tafakkur jarayonidagi intilishlari obyektni fakt va tushunchalarini butunligicha tadqiq qilishga yo‘naltirgan bo‘ladi. Butunlikni ko‘ra olish bilimlarning onglanganligi va umumlashganligidir [4].

Talabalar tomonidan matematika o‘qitish metodikasi fani mantiqiy strukturasi predmetli mazmunining yaxlit idrok etilishi turli abstraksiyalar darajasi matematik obyektlar mazmunini ko‘rishga yordam beradi. L.S.Rubinshteyn “Idrok etilayotgan obyekt yangi aloqalarga kirishsa, uning tushunchada tayinlanadigan barcha yangi xarakteristikalarida namoyon bo‘ladi” hamda [8;75-b.] subyekt jihatdan yangi bilimlar, oldin o‘zlashtirilgan bilimlarga matematik obyektlarni, faktlarni, metodlarni qo‘shishi hisobiga hosil qilinadi. Mazmunli aloqalarning yo‘qligi ko‘pgina hollarda bilimlarning formalizmiga olib keladi. Shuning uchun matematika o‘qitish metodikasi fanini predmetli mazmunini tuzulmalash bo‘lajak matematika o‘qituvchisi uchun katta metodik ahamiyatga ega.

Matematika o‘qitish metodikasi fani mazmunining strukturasini bilish quyidagi savollarga javob berishga imkon yaratadi. “O‘quvchi qanday matematik g‘oyani o‘zlashtirishi kerak?”, “Buning uchun u qanday matematik asosga ega?” va “O‘quvchini rivojlantirish uchun qanday istiqbollar mavjud?” Boshqacha aytganda, oliy ta’lim muassasalari matematika o‘qitish metodikasi fanining predmetli mazmuni va strukturasining bo‘lishi bo‘lajak o‘qituvchi tomonidan o‘qitish metodikasini loyihalashning zaruriy shartidir. Shuning bilan birga, ko‘pchilik talabalar oliy ta’lim muassasalari matematika o‘qitish metodikasi faniga chetdan kiritilgan, o‘qituvchini tayyorlash jarayoniga aloqasi yo‘q material sifatida qarashadi. Bunga ishonch hosil qilishi uchun pedagogika oliy ta’lim muassasalarida matematika o‘qitish metodikasi fani nega o‘qitiladi deb savol berilsa, aksariyat talabalar “Umumiy rivojlantirish uchun” deb javob berishadi. Bunday talabalar kasbiy-metodik faoliyatni alohida olingan amallar majmuasidan iborat deb tushunishadi. Bo‘lajak matematika o‘qituvchilari uchun matematika o‘qitish metodikasi fanining strukturalashgan predmetli mazmuni ahamiyatini ko‘rsatuvchi misolni keltiramiz. Metodik nuqtayi nazardan, chiziqli algebra elementlaridan ko‘phadlarning funksional va algebraik tengligi masalalarni o‘rganishda foydalanish muhim imkoniyatlaridan biri.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, qaralayotgan yondashuvning metodik ahamiyati shundan iboratki, bundagi g‘oyadan maktabda matematika o‘qitish amaliyotida foydalanish mumkin. Boshqacha aytganda, o‘qituvchi operatsion jihatni taklif qilish bilan ushbu holda ko‘p hadlarni ko‘paytuvchilarga ajratishda e’tiborni mazmunli va g‘oyaviy tomonga qaratishni suiiste’mol qilmaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Атаханов П.А. К диагностике развития математического мышления. “Вопр. псих.”, 1992, №1,2, с. 60 – 67.

(2). Брунер Дж. Процесс обучения. М., АПН РСФСР, 1962, 83 с.

(3).Гайдамакина Г.В. Формирование приемов учебной деятельности на основе системы тсиклов базисных задач планиметрии. Дис… канд. пед. наук, Орёл, 2000, 177 с.

(4). Михайличенко В.Е. Психология развития личности. Монография, Х., НТУ «ХПИ», 2015, 388 с

(5). Осмоловская И.М. Дидактика: от классики к современности. Монография, М., СПб., Нестор-история, 2020, 248 с.

(6). Петровский А.В., Ковалев В.М., Крашенинников А.А. Основы педагогики и психологии высшей школы. М., изд-во МГУ, 1986, 302 с.

(7). Пустовойтенко М.В. Реализация взаимосвязей развивающей и обучающей функций образования в

процессе практических занятий по алгебре и теории чисел в педагогическом вузе. Дис. ...канд. пед. наук, М., 1999, 149 с.

(8). Рубинштейн С.Л. Бытие и сознание. СПб., “Питер”, 2017, 288 с.

(9). Сендер А.Н. Формирование направленности студентов педвуза при изучении естественно-математических дисциплин. Автореф. дис. ... докт. пед. наук, Минск, 1999, 35 с.

(10). Соколов В.Н. Педагогическая эвристика: Введение в теорию и методику эвристической деятельности. М., “Аспект Пресс”, 1995, 255 с.

Masharipov Vafa Ametovich (Chirchiq davlat Pedogogika universiteti “Ilmiy va metodologik kimyo” kafedrasi o‘qituvchisi; vafobek1980@gmail.com)

INSON ORGANIZMIDAGI KIMYOVIY MODDA MUVOZANATI HAQIDA BILIM VA KO‘NIKMALARNI O‘QUVCHILARGA SINGDIRISHNING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada inson organizmidagi muhim kimyoviy moddalarning, xususan, kalsiy, natriy, kaliy, magniy va temir elementlarining biologik funksiyalari, ularning tanadagi muvozanatining buzilishi natijasida yuzaga keladigan salbiy holatlar yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarda ushbu moddalarga oid nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni samarali o‘rgatishning didaktik yondashuvlari ko‘rib chiqilgan. Maqola sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ta’limning o‘rni va kimyoviy muvozanat haqida ongli tushuncha berishning ahamiyatiga urg‘u beradi.*

Kalit so‘zlar: *temir, kalsiy, natriy, kaliy, magniy, organizm, muvozanat, kimyoviy modda, sog‘liq, ta’lim, o‘quvchilar, biologik funksiyalar, anemiya, ovqatlanish, mineral moddalar, hujayra faoliyati.*

Машарипов Вафа Аметович (преподаватель кафедры научной и методологической химии, Чирчикский государственный педагогический университет; vafobek1980@gmail.com)

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗНАНИЙ И НАВЫКОВ У ШКОЛЬНИКОВ О ХИМИЧЕСКОМ БАЛАНСЕ В ОРГАНИЗМЕ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация. *В данной статье рассматривается биологическая роль важных химических элементов в организме человека, таких, как кальций, натрий, калий, магний и железо, а также последствия нарушения их баланса в организме. Особое внимание уделяется эффективным методам преподавания теоретических знаний и практических навыков школьникам по данной теме. Статья подчеркивает значение образовательного процесса в формировании здорового образа жизни и осознанного понимания химического баланса.*

Ключевые слова: *железо, кальций, натрий, калий, магний, организм, баланс, химические вещества, здоровье, образование, учащиеся, биологические функции, анемия, питание, минеральные вещества, клеточная активность.*

Masharipov Vafa Ametovich (Lecturer at the Department of Scientific and Methodological Chemistry Chirchik State Pedagogical University; vafobek1980@gmail.com)

EFFECTIVE METHODS OF IMPROVING KNOWLEDGE AND SKILLS ABOUT CHEMICAL BALANCE IN THE HUMAN ORGANISM TO STUDENTS

Annotation. *This article explores the biological functions of essential chemical elements in the human body, including calcium, sodium, potassium, magnesium, and iron, and highlights the negative consequences of their imbalance. It also discusses effective pedagogical approaches to teaching students theoretical knowledge and practical skills related to chemical regulation in the body. The paper emphasizes the role of education in promoting a healthy lifestyle and fostering an informed understanding of chemical balance in human physiology.*

Key words: *iron, calcium, sodium, potassium, magnesium, human body, balance, chemical elements, health, education, students, biological functions, anemia, nutrition, minerals, cellular activity.*

Kirish. Inson organizmi murakkab biologik tizim bo‘lib, uning to‘g‘ri faoliyat yuritishi ko‘plab kimyoviy moddalarning muvozanatli holatiga bog‘liqdir. Kalsiy, natriy, kaliy, magniy, temir kabi moddalarning tanadagi optimal darajada saqlanishi sog‘liqning asosi hisoblanadi. Ushbu moddalar hujayra faoliyati, energiya almashinuvi, suyaklar mustahkamligi, asab impulslari uzatilishi va suv-tuz muvozanati kabi muhim jarayonlarda ishtirok etadi.

Bugungi kunda yosh avlod sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda, organizmning kimyoviy muvozanatini saqlash muhimligini anglashda yetarlicha bilimga ega bo‘lishi kerak [1]. Shu boisdan o‘quvchilarga kimyoviy moddalarning organizmdagi ahamiyati, ularning yetishmovchiligi yoki ortiqligi qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida to‘g‘ri va aniq bilim berish dolzarb vazifalardan biridir [2].

Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarida kimyoviy modda muvozanati haqidagi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishning samarali usullari, pedagogik yondashuvlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali qanday natijalarga erishish mumkinligi yoritiladi.

Inson organizmidagi kimyoviy moddalarning muvozanati sog‘liqni saqlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bunday muvozanat buzilishi turli kasalliklar va fiziologik buzilishlarga olib kelishi mumkin. Kalsiy, natriy, kaliy, magniy va temir singari moddalarning tanadagi optimal darajada saqlanishi hayotiy zaruratdir. Masalan, kalsiy, asosan, suyaklar va tishlarning mustahkamligini ta’minlaydi, shu bilan birga, yurak, asab va mushak faoliyatida ham ishtirok etadi. Kalsiy yetishmovchiligi bolalarda suyak deformatsiyasi, kattalarda esa osteoporoz, yurak ritmining buzilishi kabi muammolarga olib keladi [3]. Bunday holatlarning oldini olish uchun sut mahsulotlari, baliq, ko‘katlar va D vitaminiga boy ovqatlarni muntazam iste’mol qilish tavsiya etiladi.

Natriy esa, asosan, osh tuzi tarkibida uchraydi va tanadagi suyuqlik muvozanatini, qon bosimi barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ammo uning haddan tashqari ko‘p miqdorda iste’mol qilinishi gipertoniya va yurak-qon tomir tizimi kasalliklariga olib kelishi mumkin. Shu sababli osh tuzini me’yorda iste’mol qilish, yarim tayyor mahsulotlardan ehtiyot bo‘lish va toza suv ichish orqali natriy miqdorini muvozanatda ushlab turish zarur [4].

Kaliy yurak faoliyatini tartibga soladi, asab signallarining o‘tishini ta’minlaydi va mushaklar faoliyatida ishtirok etadi. Kaliy tanqisligi yurak ritmining buzilishi, mushaklar zaifligi, charchoq va umumiy holsizlik bilan namoyon bo‘ladi. Banan, kartoshka, ismaloq, loviya kabi mahsulotlar kaliyga boy bo‘lib, ushbu muvozanatni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, sport bilan shug‘ullanuvchilarda kaliy yo‘qotilishi ko‘p bo‘lgani uchun bu moddaning o‘rnini to‘ldirish muhim hisoblanadi.

Inson organizmidagi har bir hujayra ichki va tashqi muhit o‘rtasida muvozanatni saqlash orqali o‘z funksiyalarini bajaradi. Ushbu muvozanat, ayniqsa, elektr potensiali va suyuqlik tarkibini boshqarishda, natriy (Na^+) va kaliy (K^+) ionlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular hujayra membranasi orqali ion almashinuvi jarayonida faol ishtirok etadi va bu hodisa, asosan, natriy-kaliy nasosi (Na^+/K^+-ATPaza) orqali boshqariladi.

Natriy ionlari (Na^+), asosan, hujayra tashqarisida ko‘p miqdorda uchraydi. Ular suyuqlik muvozanatini saqlash, qon bosimini tartibga solish, asab impulslarini o‘tkazish va mushaklarning qisqarishida ishtirok etadi. Na^+ ionlari hujayra tashqarisidan ichkariga harakatlanayotganda asab va mushak hujayralarining uyg‘onishiga turtki beradi, bu esa impulsning shakllanishiga olib keladi.

Kaliy ionlari (K^+) esa, asosan, hujayra ichida ko‘p miqdorda mavjud. K^+ ionlari membrana potensialini saqlab turadi, ya’ni, hujayraning ichki va tashqi muhitidagi elektr farqini barqarorlashtiradi. Bu farq asab impulslarini o‘tkazishda, yurak ritmini tartibga solishda va mushaklarning normal qisqarishida muhim rol o‘ynaydi. Kaliy yetishmovchiligi yoki ortiqligi yurak faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, aritmiyalar va mushaklar zaifligiga olib kelishi mumkin.

Natriy va kaliy ionlarining nisbati hujayra ichida va tashqarisida qat’iy nazoratda turadi. Na^+/K^+-nasos har bir ATP molekulasini sarflab, 3 ta Na^+ ionini tashqariga, 2 ta K^+ ionini ichkariga olib kiradi. Bu esa hujayra ichidagi salbiy zaryadli muhitni saqlab turadi va asosiy hayotiy jarayonlar, masalan, asab signalining o‘tishi, yurak urishi, mushaklar harakati, suyuqlik va tuzlar muvozanati uchun asos yaratadi. Na^+ va K^+ ionlari hujayraning tirikligini, funksional faolligini va organizmning umumiy barqarorligini ta’minlovchi asosiy elektrolitlar hisoblanadi.

Magniy ham tanada ko‘plab funksiyalarni bajaradi. U asab tizimi barqarorligi, yurak faoliyati va suyaklar mustahkamligida ishtirok etadi. Magniy yetishmovchiligi asabiylik, uyqusizlik, mushaklar qaltirashi va yurak faoliyatining beqarorligiga sabab bo‘ladi. Tabiiy yong‘oqlar, don mahsulotlari, ko‘katlar magniyga boy bo‘lib, ularning muntazam iste’moli bu muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Temir esa organizmda kislorod tashuvchi gemoglobinning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, energiya ishlab chiqarish va immun tizimini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Temir tanqisligi kamqonlikka, charchoqqa, diqqatning susayishiga va umumiy faoliyatning pasayishiga olib keladi. Go‘sht, jigar, ismaloq, sabzavot va mevalar temirga boy mahsulotlar bo‘lib, ular bilan birga C vitaminiga boy oziq-ovqatlar (limon, apelsin) iste’mol qilinishi temirning o‘zlashtirilishini yaxshilaydi.

Temir (Fe) inson organizmida hayot uchun zarur bo‘lgan eng muhim mikroelementlardan biridir. U, asosan, qon tarkibidagi gemoglobin molekulasining asosiy qismini tashkil qiladi va kislorodni o‘pkadan butun tana bo‘ylab to‘qimalarga yetkazib berishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, temir miyoglobin, turli fermentlar va mitoxondriyalardagi energiya almashinuvi jarayonlarida ham faol ishtirok etadi. Immun tizimining samarali ishlashi, aqliy va jismoniy faoliyatning normal kechishi ham temir moddasiga bog‘liq.

Organizmda temir miqdorining kamayishi, eng avvalo, temir tanqisligi anemiyasiga olib keladi. Bunday holatda odam tez charchaydi, boshi aylanishi, yurak urishining tezlashuvi, teri oqarishi, diqqatning susayishi, soch to‘kilishi kabi belgilar kuzatiladi. Bu, ayniqsa, bolalar, ayollar va homiladorlarda ko‘proq uchraydi. Temir tanqisligining asosiy sabablari orasida ovqat tarkibida temirning yetishmasligi, ichki qon ketishlar, surunkali kasalliklar yoki temirning so‘rilishidagi buzilishlar mavjud. Bunday muammolarning oldini olish uchun temirga boy mahsulotlar – qizil go‘sht, jigar, ismaloq, loviya, quritilgan mevalar iste’mol qilinishi kerak. Temir organizmda yaxshi so‘rilishi uchun C vitaminiga boy mahsulotlar bilan birga qabul qilinishi tavsiya etiladi.

Temirning organizmda ortib ketishi holati esa kam uchrasa-da, jiddiy salbiy oqibatlarga olib keladi. Genetik sabablarga ko‘ra yoki temir preparatlarini haddan tashqari ko‘p iste’mol qilish natijasida temir miqdori oshib ketishi mumkin. Bu holatlarda tanada temir ortiqcha to‘planib, jigar, yurak va boshqa ichki a’zolarga zarar yetkazadi. Terining jigarrang tus olishi, bo‘g‘im og‘rig‘i, jigar kattalashuvi, yurak ritmining buzilishi va qandli diabet rivojlanishi temir ortiqligining asosiy belgilari hisoblanadi. Bunday holatlarda bemorga terapevtik qon olish yoki temirni cheklovchi parhezlar buyuriladi.

Temir moddasi organizmda juda muhim vazifalarni bajargani sababli, uning miqdori muvozanatda bo‘lishi shart. Kam miqdori holsizlik va kamqonlikka olib kelgani singari, ortiqcha miqdori ham ichki a’zolar faoliyatiga jiddiy zarar yetkazadi. Shu bois temir moddasi sog‘lom ovqatlanish asosida, ehtiyojga mos miqdorda qabul qilinishi lozim va har qanday qo‘shimcha preparatlar faqat shifokor nazoratida qabul qilinishi kerak.

Kimyoviy moddalarning bunday muhimligini hisobga olgan holda, o‘quvchilarda ularning organismdagi o‘rni, muvozanatining qanday buzilishi mumkinligi va profilaktika choralari haqida chuqur bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. Bu esa sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, muvozanatli ovqatlanish, jismoniy faollik va gigiyena madaniyatini o‘rgatish orqali amalga oshiriladi.

Xulosa. Inson organizmi murakkab va o‘zaro bog‘liq tizimlar yig‘indisidir. Ushbu tizimlarning normal ishlashi ko‘p jihatdan organizmdagi kimyoviy moddalarning, ayniqsa kalsiy, natriy, kaliy, magniy, temir kabi muhim elementlarning muvozanatli saqlanishiga bog‘liq. Bu moddalarning har biri o‘ziga xos biologik vazifalarni bajaradi, masalan, kalsiy suyak va tishlar mustahkamligi uchun, natriy va kaliy asab impulslarining yetkazilishi va suyuqlik muvozanatini saqlash, magniy yurak va mushak faoliyatini tartibga solish uchun, temir esa kislorod tashuvchi gemoglobin tarkibida bo‘lib, energetik jarayonlar uchun zarurdir.

Bu moddalarning tanadagi miqdori me’yoridan kamayib yoki ortib ketgan holatlarda jiddiy salomatlik muammolari yuzaga keladi. Masalan, kalsiy yetishmovchiligi osteoporoz, yurak ritmining buzilishi kabi holatlarga olib kelsa, natriyning ortiqligi qon bosimining oshishiga sabab bo‘ladi. Temir tanqisligi esa dunyo miqyosida eng keng tarqalgan anemiyaga sabab bo‘ladigan omil sanaladi. Aksincha, temir ortiqligi ham ichki a’zolar faoliyatiga jiddiy zarar yetkazadi. Bu esa organizmda mikroelementlar balansini saqlash zarurati qanday muhimligini ko‘rsatadi. Shunday ekan, o‘quvchilarda organizmdagi kimyoviy moddalarning ahamiyatiga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish – nafaqat ularning nazariy saviyasini oshiradi, balki amaliy hayotda sog‘lom turmush tarzini tanlashiga, ovqatlanish madaniyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishiga ham xizmat qiladi. Bu yo‘lda biologiya, kimyo va sog‘liqni saqlashga oid darslarda integratsiyalashgan yondashuvlardan foydalanish, interaktiv usullar, tajribalar, loyihalar, sog‘lom ovqatlanish mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarga bevosita ta’sir ko‘rsatish mumkin.

Umuman olganda, kimyoviy moddalarning organizmdagi barqarorligini o‘rgatish – zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Bu nafaqat fanlararo integratsiyani rivojlantiradi, balki sog‘lom avlodni shakllantirishda, kasalliklarning oldini olishda va shaxsiy gigiyena madaniyatini yuksaltirishda beqiyos rol o‘ynaydi. O‘quvchilarning hayotiy ehtiyojlari bilan uzviy bog‘langan bunday bilimlar ularning sog‘lom va ongli jamiyat vakillari sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ataullayev Zokir Maxsudovich, Masharipov Vafa Ametovich, Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich. Barqaror taraqqiyot tushunchalari vositasida kimyo fanlarini o‘qitishni xalqaro baholash tizimiga moslashtirish. «Urganch davlat pedagogika instituti axborotnomasi» ilmiy-nazariy va metodik jurnal, dekabr, 1-son, 2024, 172–177-betlar.

(2). Ergashev A., Rudenko I., Davletov S., Azizov A., Akinshina N., Eshchanov R., Karimov B., Saruk O., Volkov A., Botman Y., Raximov A., Salixov P., Mambetullayeva S., Xodjayeva G., Begdullaeva. Barqaror taraqqiyot va tabiatshunoslik asoslari. Toshkent, “Baktria press”, 2016, 300-bet.

(3). D.O.Shirinova, V.A.Masharipov, R.A.Eshchanov, Z.M.Ataullayev. Umumta'lim maktablarida kimyo fanining ayrim mavzularini barqaror taraqqiyot tushunchalari bilan uyg'un holda o'qitish uslubi. "IMPRESS MEDIA" bosmaxonasi, 19.04.2025.

(4). Shirinova D.O., Eshchanov R.A., Ataullayev Z.M., Ubaydulloyev F.B., Barqaror taraqqiyot tushunchalari hamda oksidlar mavzusini uyg'unlikda o'qitishda "assesment" metodi. Ta'lim muhitining transformatsiyasi: zamonaviy o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2025, 16-aprel, 989–995-betlar.

Madaminova Nargiza (Fan va texnologiyalar universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi mudiri, peadogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

DINSHUNOSLIKKA OID BILIMLARNI RIVOJLANTIRISHDA ABU RAYHON BERUNIY ASARLARINING ROLI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning dinshunoslik sohasiga qo'shgan hissasi, xususan, uning "Tahqiq mo li-l-Hind" va "Al-osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya" kabi asarlari tahlil etiladi. Ushbu asarlar orqali Beruniy turli dinlar – hinduizm, islom, nasroniylik, yahudiylik, zardushtiylik va buddaviylikni chuqur ilmiy yondashuv asosida o'rgangan. U diniy e'tiqod va urf-odatlarni tarixiy, falsafiy hamda ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilgan holda, dinlararo tushunuv, bag'rikenglik va ilmiy muloqotga asos bo'lgan metodologiyani ilgari surgan. Beruniy asarlarining ahamiyati shundaki, u dinshunoslikni faqat diniy emas, balki ilmiy va madaniy kontekstda ham tahlil qilishning dastlabki namunalaridan biri sifatida xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Abu Rayhon Beruniy, dinshunoslik, Tahqiq ma li-l-Hind, Al-osor al-boqiya, hinduizm, zardushtiylik, diniy urf-odatlar, tarixiy tahlil, taqqoslovchi dinshunoslik, diniy bag'rikenglik.*

Мадаминова Наргиза (заведующая кафедрой социальных наук университета науки и технологий, доктор философии в области педагогики (PhD)

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ТРУДОВ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИЙ В РАЗВИТИИ ЗНАНИЙ О РЕЛИГИИ

Аннотация. *В данной статье анализируется вклад великого ученого Абу Райхана Беруни в область теологии, в частности, такие его труды, как "Тахик ма ли-ль-хинди" и "Аль-осор аль-бокия и аль-курун аль-Холия". Благодаря этим работам Беруний, изучал различные религии – индуизм, ислам, христианство, иудаизм, зороастризм и буддизм – на основе глубокого научного подхода. Анализируя религиозные верования и практики с исторической, философской и социальной точек зрения, он продвигал методологию, которая заложила основу для межрелигиозного взаимопонимания, терпимости и научного диалога. Значимость работ Беруний заключается в том, что они служат одним из самых ранних примеров анализа религии не только в религиозном, но и в научном и культурном контексте.*

Ключевые слова: *Абу Райхан Беруний, теология, Тахик маали-ль-хинди, Аль-осор аль-Бокия, индуизм, зороастризм, религиозные обычаи, исторический анализ, сравнительное богословие, религиозная терпимость.*

Madaminova Nargiza (Head of the Department of Social Sciences, University of Science and technology, doctor of philosophy in pedagogics (PhD)

THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE WORKS OF ABU RAYHAN BERUNIY IN THE DEVELOPMENT OF KNOWLEDGE ABOUT RELIGION

Annotation. *This article analyzes the contributions of the great scientist Abu Rayhan Beruni to the field of Theology, in particular his works such as "Tahqiq ma li-l-Hindi" and "Al-osor al-boqiya an al-qurun al-Kholia". Through these works, Berunius studied various religions – Hinduism, Islam, Christianity, Judaism, Zoroastrianism and Buddhism-on the basis of a deep scientific approach. Analyzing religious beliefs and practices from historical, philosophical, and social perspectives, he promoted a methodology that laid the foundation for interreligious understanding, tolerance, and scientific dialogue. The significance of berunius's works is that it serves as one of the earliest examples of the analysis of religion not only in a religious but also in a scientific and cultural context.*

Keywords: *Abu Rayhan Beruniy, theology, Tahqiq ma li-l-Hindi, Al-osor al-boqiya, Hinduism, Zoroastrianism, religious customs, historical analysis, comparative theology, religious tolerance.*

Kirish. Abu Rayhon Beruniy (973–1048) – o'rta asr Sharq renessansi davrining eng yirik allomalaridan biri bo'lib, u ilm-fanning turli sohalarida beqiyos iz qoldirgan. U Xorazmning Kat (hozirgi Beruniy tumani) shahrida tug'ilgan va yoshligidan ilm-fanga bo'lgan kuchli qiziqishi, ziyrakligi bilan ajralib turgan. Beruniy astronomiya, matematika, geografiya, geologiya, tibbiyot, farmatsevtika, tarix, etnografiya, tilsh-

unoslik, falsafa va dinshunoslik kabi fanlarda chuqur ilmiy izlanishlar olib borgan. Uning ilmiy merosi jahon fani taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi.[1]

Abu Rayhon Beruniy o‘zining serqirra faoliyatida ilmiy kuzatuv, tajriba va aniq dalillarga tayanuvchi uslubni qo‘llagan. Uning ilmiy yondashuvi, ayniqsa, zamonasidan ancha ilgarilab ketganligi bilan ajralib turadi. Masalan, u Yerning aylanishi, geografik koordinatalar tizimi, materiklarning siljishi, hatto nisbiy tortishish kuchi haqida fikr yuritgan. Yerning radiusini deyarli to‘g‘ri aniqlaganligi uning ilmiy salohiyatining yorqin ifodasidir. Beruniyning dinshunoslikdagi yondashuvi g‘oyat zamonaviy: u dinni nafaqat e’tiqod, balki ijtimoiy va madaniy hodisa sifatida ham o‘rgangan. U dinlararo bag‘rikenglik g‘oyalarini ilgari surib, har bir dinga ilmiy va neytral nuqtayi nazardan yondashgan. Shu orqali u zamonaviy dinshunoslik va madaniyatlararo muloqotga zamin yaratgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Beruniy faqat Sharq dunyosida emas, g‘arb olamida ham e’tirof etilgan buyuk mutafakkirdir. Uning asarlari arab, fors, lotin va boshqa tillarga tarjima qilingan va ko‘plab olimlar uchun manba bo‘lgan. Bugungi kunda Beruniyning nomi bilan institutlar, ilmiy markazlar, maktablar va medallar ataladi. Hatto oyda bir krater ham Beruniy nomi bilan nomlangan. Bu esa uning ilm-fan tarixidagi o‘chmas izini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Beruniy o‘z faoliyati davomida yuzdan ortiq asarlar yozgan bo‘lib, shulardan faqat bir qismi bizgacha yetib kelgan.[2] Ularning eng mashhurlari orasida “Tahqiq ma li-l-Hind” (Hind xalqlarining e’tiqodlari va falsafasi haqida tadqiqot), “Al-Qonun al-Mas‘udi” (astronomiyaga oid fundamental ensiklopediya), “Al-osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya” (O‘tgan avlodlardan qolgan yodgorliklar), “Kitob at-tafhim” (astronomiya va matematika asoslari) va “Saydona fi t-tibb” (dori-darmonlar haqida asar) kabi ilmiy ishlari mavjud.[3] Ayniqsa, “Hindiston” nomi bilan mashhur bo‘lgan asari dinshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida noyob manba hisoblanadi. Unda Beruniy hindular dini, falsafasi, urf-odatlari va hayot tarzini chuqur ilmiy tahlil qiladi. U boshqa dinlar – zardushtiylik, yahudiylik, nasroniylik, islom va buddaviylikni ham taqqoslab, ularni tushunishga intilgan.

Abu Rayhon Beruniyning “Tahqiq ma li-l-Hind” asari – o‘rta asrlardagi dinshunoslik, madaniyatshunoslik va antropologiyaga oid eng yirik va mukammal ilmiy manbalardan biri hisoblanadi. Bu asar, to‘liq nomi bilan “Tahqiq ma li-l-Hind min maqūlətin fi al-‘aql aw marzūl” (“Hindiston xalqlarining aql bilan qabul qilingan yoki rad etilgan qarashlari haqida tadqiqot”) deb ataladi. Beruniy uni XI asr boshlarida, G‘aznaviylar hukmdori Mahmud G‘aznaviy bilan Hindistonga qilgan yurishlari davomida yozgan. Asar faqat tarixiy yoki etnografik manba bo‘lib qolmay, balki turli dinlarni qiyosiy o‘rganish va diniy tafakkurni ilmiy asosda tahlil qilish borasida muhim o‘rin tutadi.

Mazkur asar orqali Beruniy Sharq dunyosida ilgari mavjud bo‘lmagan yondashuvni – dinni faqat e’tiqod emas, balki ilmiy izlanish obyekti sifatida ko‘rishni yo‘lga qo‘ygan. U hinduizmni o‘rgangan holda, bu dinning falsafasi, ilohiy tasavvurlari, diniy marosimlari, urf-odatlari, kitoblari va dini rahbarlari haqida chuqur tahliliy fikrlar bildiradi. Ayniqsa, u hindlarning “Veda”lari, ruhlar ko‘chishi (reinkarnatsiya), karma g‘oyasi, toat-ibodat shakllari va diniy bayramlarini keng o‘rgangan. Beruniy asar davomida musulmon olim bo‘lishiga qaramay, hinduizmga nisbatan xolis, tanqidiy emas, ilmiy yondashadi. Bu holat uning o‘z zamonasidan ilgari borganini va dinlararo muloqotni chuqur tushunganini ko‘rsatadi.

Beruniy turli dinlar orasidagi umumiylik va farqlarni tahlil qilib, ularni insoniyat tafakkurining tarixiy shakllanish jarayonida qanday rol o‘ynaganini tushuntiradi. U, masalan, hindlar bilan musulmonlar orasidagi diniy tafovutlarni ko‘rsatib, lekin bir tomonlama hukm chiqarmasdan, har ikki tomonning qarashlariga izoh beradi. Bu esa dinshunoslik ilmining shakllanishida ilk sistematik va analitik metod sifatida katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Asarning ahamiyati shundaki, u islom olamida boshqa dinlarni chuqur va xolis o‘rganishga undagan. Beruniy o‘z asarida diniy fanlar uchun qimmatli bo‘lgan yondashuv, ya’ni taqqoslovchi dinshunoslikka tamal toshi qo‘ygan. U har bir dinni o‘sha dinga e’tiqod qiluvchilarning nuqtai nazaridan tushunishga harakat qiladi, bu esa zamonaviy dinshunoslikda “ichki yondashuv” deb ataladi. Uning hind diniy-falsafiy tizimini ochib berishi, bu dini nafaqat musulmon olimlar, balki, keyinchalik, g‘arbiy tadqiqotchilar tomonidan ham chuqur o‘rganilishiga sabab bo‘lgan.

---

[1] “Buyuk yurt allomalari”. Uchinchi nashr. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi: U.Uvatov, B.To‘rayev, I.Usmonov, I.Daminov. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2020, 42–45-betlar.

[2] Beruniy. Tanlangan asarlar. II tom, T., “Fan”, 1965.

[3] Beruniy. Tanlangan asarlar. I tom, T., “Fan”, 1968.

Tadqiqot metodalogiyasi. Bugungi kunda “Tahqiq ma li-l-Hind” asari dinlararo muloqot, madaniyatlararo tushunuv, diniy bag‘rikenglik va dini tafakkurni chuqur o‘rganish borasida noyob ilmiy manba sifatida qadrlanadi. Asarda ilgari surilgan g‘oyalar, dinshunoslik fanining rivojiga nafaqat Sharqda, balki G‘arbda ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, bu asar orqali Beruniy dinshunoslikni dogmatik tafakkurdan chiqarib, ilmiy va madaniy doirada tahlil qilish zarurligini namoyon etgan.[1]

Shu sababli, Beruniyning “Tahqiq ma li-l-Hind” asari nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi kunda ham dinshunoslikning nazariy va metodologik asoslarini shakllantirishda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. U orqali biz faqat hinduizmni emas, balki boshqa dinlar haqida ilmiy asosda fikr yuritish, ularni taqqoslash, tushunish va qadrlash madaniyatiga ega bo‘lamiz. Bu esa Beruniy merosining universalligi va abadiyligini isbotlaydi.

Abu Rayhon Beruniy o‘z davrining yetuk mutafakkiri, ensiklopedik bilim sohibi va ilmiy tafakkuri chuqur bo‘lgan allomalardan biridir. Uning ilmiy faoliyatida dinshunoslik alohida o‘rin tutadi. Beruniy Islom dini asoslarini puxta egallagan, Qur’on va hadis ilmlarini yaxshi bilgan, islom falsafasi va ilohiyotiga chuqur kirib borgan. Biroq uning ilmiy yondashuvi faqat islom doirasida qolib ketmagan.[2] Aksincha, u turli dinlarni, jumladan, hinduizm, zardushtiylik, yahudiylik, nasroniylik, buddaviylik kabi dini tizimlarni ham ilmiy asosda chuqur o‘rgangan va tahlil qilgan. Beruniy turli dinlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlarni ilmiy jihatdan yoritish orqali inson tafakkuri, diniy ong va madaniy qadriyatlarning tarixiy shakllanish jarayonini chuqur anglashga intilgan. U uchun dinlar insoniyat tajribasining ajralmas qismi bo‘lib, ularni o‘rganish orqali jamiyatlar tafakkurini, qadriyatlarini va axloqiy me’yorlarini tushunish mumkin deb hisoblagan. Shu boisdan ham Beruniy dunyo diniy tafakkurining taraqqiyotida poydevor vazifasini bajargan va taqqoslovchi dinshunoslikning ilk asoschilaridan biri sifatida tarixda o‘z nomini qoldirgan.

Uning bu boradagi yondashuvi zamonaviy ilm-fan uchun ham nihoyatda dolzarb bo‘lib, bugungi global dunyoda diniy bag‘rikenglik, madaniyatlararo muloqot va dinlararo tushunuvni mustahkamlashda amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, Beruniy nafaqat o‘z davrining, balki hozirgi zamon ilmiy tafakkurining ham yorqin namunasi sifatida qadrlanadi.

Abu Rayhon Beruniyning “Al-osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya” asari, ya’ni “O‘tgan avlodlardan qolgan yodgorliklar” nomi bilan tanilgan ushbu yirik ilmiy merosi, o‘rta asrlar Sharq fanining tarix, madaniyat va dinshunoslik sohalarida yetuk namunasidir. Asar IX–XI asrlar oralig‘ida yashagan xalqlarning taqvim tizimlari, bayramlari, marosimlari va diniy urf-odatlarini mukammal o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, u nafaqat tarixiy yoki astronomik manba sifatida, balki dinshunoslikni ilmiy asosda tahlil qilishda ham katta ahamiyat kasb etadi.[3]

“Al-osor al-boqiya” Beruniyning keng ilmiy dunyoqarashi, turli sivilizatsiyalarni chuqur tahlil qilishga bo‘lgan intilishi va xolis yondashuvi orqali ajralib turadi. Asarda u musulmon, yahudiy, nasroniy, zardushtiy, budda va boshqa qadimiy dinlarga mansub xalqlarning vaqt va muqaddas sanalarga oid qarashlarini qiyosiy tahlil qiladi. Bu yondashuv dinlarni faqat e’tiqod tizimi sifatida emas, balki ular bilan bog‘liq bo‘lgan vaqt hisoblash, muqaddas kunlar, marosim va diniy-falsafiy an’analarning tarixiy ildizlari va taraqqiyotini ochib beradi.

Tahlil va natijalar. Asarning dinshunoslikdagi eng muhim jihati – u dinlararo o‘xshashliklar va tafovutlarni taqvimlar, bayramlar va urf-odatlar asosida ilmiy uslubda tahlil qilgan ilk asarlardan biri sanaladi. Beruniy, masalan, har xil xalqlarda yangi yilning qanday nishonlanishi, diniy sanalarning qanday belgilanishi, bu sanalar atrofida qanday marosimlar amalga oshirilishi haqida tafsilotli ma’lumotlar beradi. Bu bilan u dini an’analarning ijtimoiy va madaniy hayotdagi o‘rnini chuqur anglatishga intiladi.

“Al-osor al-boqiya” asari orqali Beruniy dinshunoslik fanining rivojiga fundamental metodologik asos yaratadi. U dinlarni nafaqat qiyoslaydi, balki ularning tarixiy shakllanishi, geografik tarqalishi, turli xalqlarda qanday ko‘rinishda namoyon bo‘lishi kabi jihatlarni ham o‘rganadi. Ayniqsa, vaqt va taqvim bilan bog‘liq diniy tushunchalar Beruniy uchun ilmiy qiziqish manbai bo‘lib, ularni astronomik bilimlar bilan uyg‘unlashtirib tahlil qiladi. Bu esa dinshunoslik fanining interdiscipliner (tarmoqlararo) yondashuvda rivojlanishiga xizmat qilgan.

---

[1] Abu Rayhon Beruniy. “Kitaob fi tahqiq mo li-l-Hind min ma’quda, maqbula fi-l-aql av marzula”. Bayrut, Alim al-kutub, 1983, 537-bet.

[2] O.A.Mirzahmedova. Abu Rayhon Beruniy asarlaridagi ayrim biblionimlar haqida. Orienss, 2022, №3, Url, https://cyberleninka.ru/article/n/abu-rayhon-beruniy-asarlaridagi-ayrim-biblionimlar-haqida

[3] Abu Rayhon Beruniy. “Osor al-boqiya an qurun al-holiya”. Leypsig, F.A.Brockhaus, 187, 478-bet.

Ushbu asar xolislik va ilmiylik tamoyillariga asoslangan. Beruniy diniy e'tiqodlarni tahlil qilarkan, ularni inkor etmaydi yoki ustun qo'ymaydi, balki har birining tarixiy va ijtimoiy asoslarini anglashga intiladi. Shu tarzda u dinlar o'rtasida tushunuvga asoslangan ilmiy muloqotga yo'l ochadi. Bu jihati bilan "Al-osor al-boqiya" faqat o'tmishni emas, balki hozirgi zamon dinshunoslari va madaniyatshunoslari uchun ham bebaho manba bo'lib xizmat qiladi.

"Al-osor al-boqiya" asari Abu Rayhon Beruniyning dinshunoslikdagi izchil va chuqur ilmiy izlanishlarini yaqqol aks ettiradi. Asarda ko'tarilgan masalalar diniy sanalarni tushunishdan tortib, ular orqali xalqning tarixiy tafakkurini anglashgacha bo'lgan keng doirani qamrab oladi. Bu asar orqali Beruniy dinlar tarixini chuqurroq o'rganish, ularning ijtimoiy hayotdagi o'rnini tahlil qilish va ular orasida ilmiy asosda qiyosiy yondashuvni shakllantirish yo'lida bebaho hissa qo'shgan. Shu sababli ham bu asar, nafaqat o'z davri, balki zamonaviy ilm-fan uchun ham muhim ilmiy manba hisoblanadi.[1]

Xulosa qilib aytganda, Abu Rayhon Beruniy o'z asarlari orqali dinshunoslik fanining shakllanishi va taraqqiyotida o'ziga xos maktab yaratgan. Uning ilmiy merosi, ayniqsa "Tahqiq ma li-l-Hind" va "Al-osor al-boqiya" asarlari turli dinlar va ularning ijtimoiy-madaniy ko'rinishlarini xolis va chuqur tahlil qilishga asoslangan bo'lib, zamonaviy taqqoslovchi dinshunoslik va madaniyatlararo dialog asoslarini yaratishda muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunda ham Beruniy g'oyalari dinlararo muloqotni rivojlantirish, diniy bag'rikenglikni mustahkamlash va fanlararo yondashuvni qo'llab-quvvatlashda muhim manba bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Abu Rayhon Beruniy. "Kitaob fi tahqiq ma li-l-hind min ma'qulatin, maqbulatin fi-l-aql av marzulatin". Bayrut, Alim al-kutub, 1983, 537-bet.

(2). Abu Rayhon Beruniy. "Osor al-boqiya an qurun al-holiya". Leypsig, F.A.Brockhaus, 1878, 478-bet,

(3). Beruniy. Tanlangan asarlar. I tom, T., "Fan", 1968.

(4). Beruniy. Tanlangan asarlar. II tom, T., "Fan", 1965.

(5). "Buyuk yurt allomalari". Uchinchi nashr. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi: U.Uvatov, B.To'rayev, I. Usmonov, I.Daminov. Toshkent, "O'zbekiston", 2020, 42–45-betlar.

(6). Anorboev Habib. (2023). Abu Rayhon Beruniy – buyuk alloma. Общество и инновации. 4, 255–258. 10.47689/2181-1415-vol4-iss7/S-pp255-258.

(7). O.A.Mirzahmedova. Abu Rayhon Beruniy asarlaridagi ayrim biblionimlar haqida. Orienss, 2022, 3-son, Url: https://cyberleninka.ru/article/n/abu-rayhon-beruniy-asarlaridagi-ayrim-biblionimlar-haqida

(8). A.D.Zaynutdinova, Sh.A.Babadjanova. Abu Rayhon Beruniy – qomusiy alloma. Academic research in educational sciences. 2022, № 3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/abu-rayhon-beruniy-qomusiy-alloma

Nuritdinova Shoira Xamidovna (FarDU "Chet tillari" kafedrasi katta o'qituvchisi)

MEDIAKOMMUNIKATSIYALARNING XORIJIY TILNI O'QITISHNI AMALGA OSHIRUVCHI VOSITALARI, SHAKL VA METODLARI

Annotatsiya. *Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'qitish jarayonida zamonaviy multimediya vositalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada media kommunikatsiyalarning xorijiy tillarni o'qitishni amalga oshiruvchi vositalari, shakl va metodlari o'rganiladi. Multimediya vositalari, jumladan, interaktiv dasturlar, audio va videomateriallar, virtual haqiqat texnologiyalari va mobil ilovalar o'quvchilarga yangi tilni qiziqarli va interaktiv tarzda o'rganish imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy multimediya, zamonaviy texnologiya, audio va video materiallar, interaktiv dasturlar va o'yinlar.*

Нуритдинова Шоира Хамидовна (старший преподаватель кафедры иностранных языков, Ферганский государственный университет)

СРЕДСТВА, ФОРМЫ И МЕТОДЫ МЕДИА-КОММУНИКАЦИЙ, ОСУЩЕСТВЛЯЮЩИХ ОБУЧЕНИЕ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. *В настоящее время использование современных мультимедийных средств в процессе обучения иностранным языкам играет важную роль в повышении эффективности образования. В данной статье рассматриваются средства, формы и методы медиакоммуникации, используемые при обучении немецкому языку. Мультимедийные инструменты, включая интерактив-*

[1] A.D.Zaynutdinova, Sh.A.Babadjanova. Abu Rayhon Beruniy – qomusiy alloma. Academic research in educational sciences. 2022, № 3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/abu-rayhon-beruniy-qomusiy-alloma

ные программы, аудио- и видеоматериалы, технологии виртуальной реальности и мобильные приложения, позволяют студентам изучать новый язык в увлекательной и интерактивной форме.

Ключевые слова: *современные мультимедиа, современные технологии, аудио- и видеоматериалы, интерактивные программы и игры.*

Nuritdinova Shoira Khamidovna (Senior Lecturer, Department of Foreign Languages, Fergana State University)

MEDIA COMMUNICATION TOOLS, FORMS, AND METHODS FOR TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Annotation. *Nowadays, the use of modern multimedia tools in the process of teaching foreign languages plays an important role in increasing the effectiveness of education. This article explores the tools, forms, and methods of media communication used in teaching the German language. Multimedia tools, including interactive programs, audio and video materials, virtual reality technologies, and mobile applications, enable students to learn a new language in an engaging and interactive way.*

Keywords: *modern multimedia, modern technology, audio and video materials, interactive programs and games.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati ortib bormoqda va bu rivojlanish xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida ham sezilarli darajada o‘z aksini topmoqda. Globallashuv jarayonida xorijiy tillarni mukammal o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirish, ulardan unumli foydalanishni yo‘lga qo‘yish va o‘qitish usullarini yanada takomillashtirish uchun multimediya vositalari muhim omillardan biriga aylangan. O‘zbekistonda xorijiy tillarni, xususan, nemis tilini o‘qitishda ham zamonaviy multimedia texnologiyalarining roli va ahamiyati yildan yilga oshib borayotganini kuzatish mumkin.

Maqolada mediakommunikatsiyalarning xorijiy tilni o‘qitishni amalga oshiruvchi vositalari, shakl va metodlari haqida fikr yuritiladi. Multimedia vositalari ta’lim jarayonida matnli, audio va videomateriallar, interaktiv dasturlar va o‘yinlar, internet resurslari orqali talabalarga tilni o‘zlashtirishda qulay sharoit yaratib berish imkonini beradi.

Adabiyotlar taxlili va metodlar. Ommaviy kommunikatsiya jarayonlarining lingvistik jihatlari G. Stepanov, D.Shmelev, V.Kostamarov, O.Lapteva, G.Solganik, Yu.Rojdestviniskiy, A.Vasiliyeva, S. Smetanina, T.Dobrosklonskaya, B.Krivenko, Y.Arskiy, R.Gilyarevskiy, S.Bernshteyn, V.Yegorov, L. Zemlyanova, Teun van Dijk, Alan Bell, Martin Montgomery, Norman Feerklaff kabi olimlarning ishlarida ko‘rib chiqilgan [1;277-b.]. G‘arb va rus tilshunosligida D.Rozental, N.Koxtev, K.Garri, X.Kaftandjiyev, K.Bove, U.Arens, I.Rashkov, T.Kolishkina, Y.Medvedeva, E.Farbi, E.Bulatova, Y.Pirogovava boshqa ko‘plab olimlarning tadqiqotlarida reklama va mediamatnining nazariy va amaliy masalalari, lingvistik jihatlari ma’lum darajada o‘rganilgan [2;309-b.]. Maqolani yoritishda pedagogik tadqiqot, jumladan, nazariy tahlil, eksperimental tadqiqot metodlari orqali amalga oshirildi.

Natija va muhokama. Pedagogik jarayonni individualizatsiya qilishda multimediya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos darslar yaratish imkonini beradi. Har bir o‘quvchi o‘z sur’atida va o‘z qobiliyatiga mos ravishda ta’limni olishi mumkin [3;53–55-b.].

Multimediya vositalari guruhli ishlashni rag‘batlantiradi. O‘quvchilar birgalikda ishlash, muhokama qilish va masalalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Jamoaviy o‘rganish o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Multimediya texnologiyalari zamonaviy pedagogik yondashuvlarga moslashishga imkon beradi. Bu texnologiyalar o‘qitishning ilg‘or metodlarini qo‘llash imkonini yaratadi va o‘quvchilarga bilim olishda yangi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Multimediya texnologiyalari ta’lim jarayonida quyidagi asosiy rollarni bajaradi:

- Bilim olish jarayonining samaradorligini oshirish. Multimedia vositalari ta’lim jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qiladi. Rasm, grafik, animatsiya, video va ovozli materiallar yordamida o‘quvchilar faqat matnli material bilan cheklanmaydilar. Bu esa o‘rganilayotgan mavzularni tushunishni yanada osonlashtiradi va ular bilan ishlashni ko‘proq qiziqarli qiladi.
- Kengaytirilgan o‘quv imkoniyatlari yaratish. Multimediya vositalari ta’lim jarayonida yangi yondashuvlarni yaratishga imkon beradi. Masalan, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, 3D grafikalar yordamida o‘quvchilar haqiqiy hayotdagi tajribalarni virtual tarzda o‘rganishlari mumkin [4;154–158-b.].

Multimediya vositalarining ta’limdagi ahamiyati, asosan, ular orqali ta’lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va o‘quvchilarning o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilganligida yotadi. Quyidagi jihatlar multimediya vositalarining ta’limdagi ahamiyatini ta’kidlaydi:

▪**Ko‘p hissiy tarmoqlarni faollashtirish.** Multimediya vositalari ko‘pgina hissiy tarmoqlarni faollashtiradi. Matn, tasvir, audio va videobirlashishi orqali o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish mumkin. Bunday ko‘p tarmoqli yondashuv o‘quvchilarning bilgilarni uzoq vaqt davomida eslab qolishlarini ta’minlaydi.

▪**Foydalanuvchi markazli ta’lim.** Multimediya vositalari ta’lim jarayonini individual yondashuv bilan to‘ldiradi. Har bir o‘quvchi o‘z sur’atida va qiziqishlariga mos ravishda ma’lumotlarni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

▪**Aqliy va ijodiy rivojlanish.** Multimediya vositalari o‘quvchilarning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, videomateriallar, interaktiv mashqlar va simulyatsiyalar orqali o‘quvchilar o‘zlarining ijodiy yondashuvlarini sinab ko‘rishlari mumkin.

▪**Onlayn ta’lim imkoniyatlari.** Internet va multimediya texnologiyalari onlayn ta’limning rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarga darslarni istalgan vaqtda va joyda o‘rganish imkonini yaratadi. Onlayn platformalar yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini baholash, darslarga qatnashish, muammolarni hal qilishda yordam olishlari mumkin.

Multimediya texnologiyalarining ta’limdagi muvaffaqiyati ko‘plab omillarga bog‘liq. O‘quvchilarning qiziqishi, o‘qituvchilarning texnologiyalarga tayyorligi va infratuzilmaning rivojlanganligi bu omillar qatoriga kiradi. Shunday bo‘lsa-da, multimediya texnologiyalarining ta’limdagi ta’siri juda katta va ular ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqdi:

▪**Ta’limning individualizatsiyasi.** O‘quvchilarning turli o‘quv tezliklari va uslublarini hisobga olgan holda, multimediya vositalari individual yondashuvni ta’minlashga imkon beradi. Shuningdek, o‘qituvchi ko‘plab o‘quvchilar bilan bir vaqtning o‘zida ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

▪**O‘qituvchining roli.** O‘qituvchilar multimediya vositalaridan foydalanib, o‘z darslarini yanada samarali va qiziqarli o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga bilim berishning yangi usullarini, texnologiyalarini o‘rgatish va ularni doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlashda asosiy rol o‘ynaydi.

▪**Innovatsion ta’lim metodlari.** Multimediya vositalari yordamida yangi, innovatsion ta’lim metodlarini ishlab chiqish mumkin. Bu metodlar o‘quvchilarning o‘z bilimlarini mustahkamlash, mavzularni o‘zlashtirishda yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi.

Multimediya vositalari ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Ularning ta’limdagi o‘rni va ahamiyati o‘quvchilarning bilim olishdagi samaradorligini oshiradi, ularning qiziqishini kuchaytiradi va o‘rganilayotgan mavzularni tushunishni osonlashtiradi. Bundan tashqari, multimediya vositalari o‘quvchilarga o‘z mahoratini rivojlantirish, ijodiy fikrlash va yangi texnologiyalarni o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Bu texnologiyalarni to‘g‘ri va samarali qo‘llash orqali ta’lim tizimini yanada sifatli va innovatsion qilish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, multimediya vositalari nafaqat til o‘rgatishni qiziqarli va samarali qiladi, balki ta’lim jarayonini individualizatsiya qilishga ham imkon beradi. Bu esa xorijiy tillarni o‘rganishda yuksak natijalarga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Multimediya texnologiyalari xorijiy tillarni o‘qitish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu vositalar ta’lim samaradorligini oshirishda va o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Interaktiv materiallar va innovatsion yondashuvlar bilimlarni osonroq va samaraliroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Степанов Г.В. Стихия языка в стихии споров. “Литературная газета”, № 26, 1984; Шмелев Д.Н. Русский язык в его функциональных разновидностях. М., 1977; Костомаров В.Г. Языковой вкус эпохи. М., 1994; Лаптева О.А. Живая телевизионная речь. М., 1998; Рождественский Ю.В. Теория риторики, М., “Добросвет”, 1997, с. 477.

(2). Розенталь Д.Э., Кохтев Н.Н. Язык рекламных текстов. М., “Высшая школа”, 1981; Кохтев Н.Н. Стилистика рекламы. Учеб.-метод. пособ. для студентов фак. и отд. Журналистики, М., МГУ, 1991; Гарри К. Эффективная реклама в России. М., “Рус. партнер”, ЛТД, 1994; Кафтанджиев Х. Тексты печатной рекламы. М., “Смысл”, 1995, с. 309.

(3). Nekboyev Kh.Kh. Mechanizms of the influence of mass media on the development of personality under the conditions of media// European joutnal of Research and Reflection in Educational. № 1, 2019, 53–55 p.

(4). Mayer, R.E. (2009). Multimedia Learning. Cambridge University Press, 154–158 p.

(5). Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University Press.

Isakov Zakirjon Soliyevich (Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi)

ONA TILIDAN TALABALARGA MUSTAQIL TA’LIM UYUSHTIRISHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ona tili fanidan mustaqil ta’limni samarali tashkil etishning ma’naviy-ma’rifiy asoslari yoritiladi. Tadqiqotda talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini shakllantirishda o‘zbek xalqining boy ma’naviy merosi, milliy qadriyatlar va ma’rifatparvarlik g‘oyalari asosida yondashish zarurligi asoslanadi. Metod sifatida tahliliy va induktiv yondashuvlar tanlanib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan, natijalar ta’lim jarayonida mustaqillikni shakllantirishda ma’naviy omillarning yetakchi o‘rin tutishini ko‘rsatadi, ilgari surilgan takliflar pedagogik jarayonga innovatsion yondashuvlarni kiritish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *ona tili, mustaqil ta’lim, mustaqil ta’lim shakli, ma’naviy asos, ma’rifiy yondashuv, talabalar faolligi.*

Исаков Закиржон Солиевич (доцент Кокандского государственного университета, кандидат филологических наук)

ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. *В статье рассматриваются духовно-просветительские основы организации самостоятельного обучения студентов по предмету «узбекский язык». Особое внимание уделено национальным ценностям и духовному наследию, формирующим мотивацию и ответственность учащихся. Исследование основано на аналитическом подходе, автор формулирует практические рекомендации по применению ценностных ориентиров в процессе обучения.*

Ключевые слова: *узбекский язык, самостоятельное обучение, духовные основы, просветительский подход, активность студентов.*

Isakov Zakirjon Soliyevich (Associate Professor at Kokand State University, Candidate of Philological Sciences)

SPIRITUAL AND EDUCATIONAL FOUNDATIONS OF ORGANIZING INDEPENDENT LEARNING IN UZBEK LANGUAGE STUDIES

Annotation. *This article explores the spiritual and educational foundations of organizing independent learning in the subject of the Uzbek language. The research emphasizes the importance of national values and spiritual heritage in motivating and developing student responsibility. The study adopts an analytical and inductive approach and proposes practical recommendations for implementing value-based educational strategies.*

Keywords: *Uzbek language, independent learning, spiritual foundations, educational approach, student engagement.*

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida ta’lim tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar, talabalar ongida mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va kreativ tafakkurni shakllantirish zaruratini oshirmoqda. Ayniqsa, ona tili fanidan ta’lim jarayonini mustaqil o‘zlashtirishga yo‘naltirish, talabalarni milliy ma’naviyat, qadriyatlar va ma’rifat asosida yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Mustaqil ta’lim bu nafaqat axborot qabul qilish, balki o‘z fikrini ifoda etish, mustahkamlash va qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirish vositasidir [1]. Ushbu maqolada talabalarga mustaqil ta’limni tashkil etishda ma’naviy-ma’rifiy tamoyillarning o‘rni yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi – mustaqil ta’limni milliy ma’naviyat asosida yo‘lga qo‘yish orqali ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlash.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbekiston Respublikasining 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan Ta’lim sohasidagi rivojlanish konsepsiyasi, Oliy ta’lim to‘g‘risidagi qonun, hamda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili asosida o‘quv dasturlarining mazmuniy boyitilishi mustaqil ta’limni rivojlantirishni talab qilmoqda [2]. Shuningdek, N.Aminov, M.Tursunov, X.Yo‘ldoshev kabi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda mustaqil ta’limning shakllari, bosqichlari, va o‘quvchida ma’naviy yetuklikni shakllantirishdagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan [3]. Biroq mavjud adabiyotlarda bu jarayonning ona tili faniga xos xususiyatlari yetarlicha yoritilmagan, aynan shu jihat ushbu maqolani yozish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda induktiv va tahliliy yondashuvlar asosiy metod sifatida tanlandi. Shuningdek, kuzatish, hujjatlar tahlili va keys-stadi (konkret holatni tahlil qilish) metodlari ham qo‘llanildi. Talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini o‘rganishda Qo‘qon davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim fakultetidagi 2-bosqich talabalar o‘rganish obyektiga aylandi. Ma’lumotlar birlamchi so‘rovnomalar, yoz-

ma topshiriqlarning tahlili va og‘zaki fikr-mulohazalardan iborat. Metodologik jihatdan tadqiqot deduktiv usulda ham amalga oshirilib, umumiy nazariy g‘oyalardan maxsus metodik tavsiyalarga o‘tildi.

Tahlil va natijalar. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, ona tili fanida talabalarga mustaqil ta’limni samarali tashkil qilish uchun bir nechta muhim omillar mavjud. Ushbu omillar ichida eng asosiylari quyidagilardir: 1) ma’naviy motivatsiya; 2) milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi topshiriqlar; 3) o‘z-o‘zini baholash va refleksiya tizimining mavjudligi [5].

Birinchi bosqichda Qo‘qon davlat universitetining “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishida tahsil olayotgan 90 nafar 2-bosqich talabasi o‘rtasida ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada “Siz uchun mustaqil ta’lim jarayonini qiziqarli qiluvchi asosiy omillar nima?” degan savolga javoban 60 nafar talaba (ya’ni 66%) topshiriqlar milliy qadriyatlar asosida tuzilganida ko‘proq ishtiyoq bilan bajarganini bildirgan. Ular, jumladan, quyidagi omillarni ajratib ko‘rsatgan. O‘zbek xalq maqollari asosida matn tahlil qilish; jadid adabiyoti vakillarining ma’rifatparvarlik g‘oyalarini zamonaviy kontekstda talqin etish; ona tili darslarida ramzlar, milliy urf-odatlar va qadimiy matnlarni mustaqil sharhlash.

Bu holat shuni anglatadiki, talaba shaxsini shakllantirishda va uni bilim olish jarayonida faol subyektga aylantirishda ma’naviy-ma’rifiy asoslar katta o‘rin tutadi. Ayniqsa, mustaqil ta’lim topshiriqlari o‘zbek xalqining boy ma’naviy merosiga asoslanganida, talabada faollik, mas’uliyat hissi va ijtimoiy anglash darajasi ortadi [6].

Ikkinchi bosqichda keys-stadi metodidan foydalanildi. Unda bir guruh talabalarga (eksperimental guruh) 3 hafta davomida ma’naviy qadriyatlar asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar berildi. Nazorat guruhi esa odatdagi an’anaviy, nazariy materiallarga asoslangan topshiriqlar bilan ta’minlandi. Har ikki guruhga teng hajmdagi ish yuklamasi berildi. Yakunda talabalar topshiriqlarning mazmuni, murakkablik darajasi va mustaqil ishlashga bo‘lgan munosabatlari bo‘yicha baholandi.

Natijalar quyidagicha bo‘ldi: eksperimental guruh talabalari o‘zlashtirish darajasida 25–30% yuqori ko‘rsatkichlarga erishdi; talabalarning topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi oshdi; ijodiy yondashuv orqali talabalarda tanqidiy fikrlash va ifoda qilish layoqati kuchaydi; o‘z-o‘zini baholash orqali talabalar o‘z bilim darajasini mustaqil tahlil qilish imkoniga ega bo‘ldi.

Misol uchun, “Til va tafakkur” mavzusida topshiriq sifatida berilgan mashqda talabalar “Zarbulmasal va maqollar orqali jamiyatdagi axloqiy me’yorlarni sharhlang” degan topshiriqni bajarishdi. Mazkur topshiriq orqali talabalar o‘zbek tilidagi barqaror birikmalarning faqat lingvistik emas, balki ma’naviy-ma’rifiy yukini ham anglab yetishga harakat qilishdi. Baholash natijalari shuni ko‘rsatdiki, bunday topshiriqlar nafaqat til kompetensiyasini oshiradi, balki shaxsiy yondashuvni shakllantiradi [7].

Shuningdek, “ma’naviy motivatsiya” faktori alohida tahlil qilindi. Darslarga tashriflar, topshiriqlarni o‘z vaqtida topshirish va sifatli bajarish, talabaning darsda qatnashish faoliyati kabi ko‘rsatkichlar asosida baholash olib borildi. Eksperimental guruhdagi talabalar orasida 73% talaba mustaqil ta’limga bo‘lgan munosabati ijobiy tomonga o‘zgarganini bildirgan. Ular o‘z fikrlarida quyidagilarni ta’kidlashgan: “Ilgari mustaqil topshiriqlarni majburiyat deb bilardim, endi esa bu men uchun izlanish va o‘zini namoyon qilish imkonidir”, “Milliy qadriyatlar asosida tuzilgan mashqlar orqali o‘zimni o‘zbek ziyolisi sifatida his qila boshladim”, “Mustaqil ishlashda faqat grammatik qoidalarga emas, balki milliy ong va g‘ururga ham urg‘u berilganida, bilimni boshqacha his qilarkanman”. Ushbu fikrlar mustaqil ta’limda “o‘quvchi markazli” yondashuvni, ya’ni talabani jarayon markaziga qo‘yishni ma’naviy asoslar orqali amalga oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Tahlillar natijasida quyidagi umumiy xulosalar chiqarildi: ma’naviy-ma’rifiy asoslarda tashkil etilgan topshiriqlar orqali talaba shaxsiy fikr yuritishga, milliy qadriyatlarni anglashga va ijtimoiy faol bo‘lishga intiladi; mustaqil ta’limga doir topshiriqlarning samaradorligi ularning qanchalik hayotga yaqinligi va zamonaviy fikrlashga mosligi bilan belgilanadi; baholash jarayoniga o‘z-o‘zini refleksiya qilish imkoniyatlari qo‘shilsa, talabaning o‘z-o‘zini anglash darajasi ortadi; dars jarayonida faqat bilim berish emas, balki ma’naviy dunyoqarashni shakllantirish asosiy vazifa bo‘lib borayotganligi mustahkamlandi [4].

Shu asosda, maqolada ko‘rsatib o‘tilgan tahliliy natijalar pedagogik amaliyot uchun muhim metodik yo‘nalishlarni aniqlab beradi. Bu esa keyingi metodik tadqiqotlar va amaliy loyiha ishlarining ilmiy poydevorini yaratadi.

Xulosa va takliflar. Mustaqil ta’limni ona tili fanida samarali tashkil qilishda ma’naviy-ma’rifiy asoslar asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi kerak. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning bilimga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda qadriyatlar tizimining o‘rni beqiyosdir[8]. Xulosa qilib aytganda, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Mustaqil ishlarni tayyorlashda milliy urf-odatlar, maqollar, xalq og‘zaki ijodi asosida topshiriqlar ishlab chiqilishi kerak.

2. Har bir darsda ma’naviy-kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashqlar qo‘llanishi lozim.

3. Talabalarni mustaqil ta’limga yo‘naltirishda ularning ijtimoiy faoliyatini ham inobatga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Aminov N. Mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2020, 23–25-betlar.

(2). O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi 2020–2030. Toshkent, 2019, 7–9-betlar (3). Yo‘ldoshev X. Talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish vositalari. “Ta’lim va taraqqiyot” jurnali, 2022, 4, 45–50-betlar.

(4). Tursunov M. Oliy ta’limda innovatsion yondashuvlar. Samarqand, SamDU, 2021, 88–90-betlar.

(5). Qodirova S. O‘zbek tilida frazeologizmlarning didaktik ahamiyati. “Filologiya masalalari” jurnali, 2020, 3-son, 60–64-betlar.

(6). G‘aniyeva S. Jadidlar ma’rifati va zamonaviy ta’lim. Toshkent, “Fan”, 2019, 35–37-betlar.

(7). Orifjonova M. Maqollar orqali axloqiy tarbiya berish metodikasi. “Ona tili va adabiyoti ta’limi” jurnali, 2021, 2, 22–24-betlar.

(8). Rashidova D. Talabalarda ma’naviy ong va qadriyatlar tizimini shakllantirish. “Ma’naviyat asoslari” jurnali, 2023, 1-son, 11–13-betlar.

Ergashev Nurmuhammad Jalilovich (Samarqand davlat Chet tillar instituti tadqiqotchisi; ergashevnurmuxammad88@gmail.com)

PEDAGOGIK FAOLIYATNI SHAKLLANTISH TARIXI VA NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada pedagogik faoliyatning shakllantish tarixi va nazariy-metodologik asoslari masalasi yoritilgan. Pedagogikaning asl mohiyati bu keksa avloddan hayot uchun zaruriy qo‘llanmalar, tajribalarga asoslangan ta’lim tarbiyani yosh avlodga yetkazishdir. Pedagogikadagi tarbiya tushunchasi o‘sib kelayotgan avlodda hosil bo‘lgan bilimlar asosida aqliy kamolot, dunyoqarashni shakllantiradi. Pedagogika ta’lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtirib, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini, ko‘rsatib beradi.*

Kalit so‘zlar: *pedagogika, ta’lim, tarbiya, bili, ko‘nikma, malaka, tajriba, fan tarmog‘i, yo‘l harakati xavfsizligi.*

Эргашев Нурмухаммад Джалилович (научный сотрудник Самаркандского государственного института иностранных языков; ergashevnurmuxammad88@gmail.com)

ИСТОРИЯ СТАНОВЛЕНИЯ И ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *В статье рассматривается история становления и теоретико-методологические основы педагогической деятельности. Истинная суть педагогики заключается в том, чтобы передать молодому поколению необходимые жизненные инструменты и опыт, в которых нуждается старшее поколение. Концепция образования в педагогике формирует интеллектуальную зрелость и мировоззрение подрастающего поколения на основе полученных знаний. Педагогика обобщает опыт в области образования и воспитания и показывает перспективы дальнейшего развития воспитания.*

Ключевые слова: *педагогика, образование, воспитание, знания, умения, навыки, квалификация, опыт, область науки, безопасность дорожного движения.*

Ergashev Nurmuhammad Jalilovich (Researcher, Samarkand State Institute of Foreign Languages; ergashevnurmuxammad88@gmail.com)

THE HISTORY OF THE FORMATION AND THEORETICAL-METHODOLOGICAL BASIS OF PEDAGOGICAL ACTIVITY

Annotation. *This article discusses the history of the formation of pedagogical activity and the theoretical-methodological foundations of it. The essence of pedagogy is to transfer the necessary life-related applications and experiences from the older generation to the younger generation. The concept of education in pedagogy forms mental maturity and worldview based on the knowledge gained in the growing generation. Pedagogy summarizes the experiences in the field of education and upbringing and shows the prospects for the future development of upbringing.*

Keywords: *pedagogy, education, upbringing, knowledge, skills, qualifications, experience, field of science, road safety.*

Kirish (Abstract). Bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti va erishilgan yutuqlar, shubhasiz, mukammal yosh avlodni shakllantirib borishga zamin yaratmoqda. XXI asrga kelib, ilm-fan taraqqiyotining yuqori cho‘qqiga chiqib borishi insoniyatning butun tarixi davomida to‘plangan bilimlarning salmoqli hissasini o‘zida mujassamlashtirgan. Shu bilan bir qatorda, ilmiy-texnik taraqqiyotning bugungi bosqichi, o‘ziga xos, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimining tashkil etishga ham qaratilgan bo‘lib, bunda asosiy e’tibor, zamonaviy jamiyatda pedagog kadrlarning ham faoliyatini tubdan isloh qilish, ularni turli ortiqcha yuklamalardan ozod qilgan holda, doimiy o‘z ustida ishlashi va malaka oshirishini ta’minlab borish borasida qator islohotlarni amalga oshirilmoqda.

Ta’limning zamonaviylashuvi, aniqrog‘i, taraqqiyotga moslashuvi pedagog kadrlarning ham kasbiy faoliyatini takomillashuviga olib keladi. Haqiqiy pedagog nafaqat pedagogik mahorat balki pedagogik qobiliyatga ham ega bo‘lishi zarur. Yuqori sur’atlarda rivojlanayotgan fan, texnika taraqqiyoti sharoitida, pedagog kadrlarga bo‘lgan talab ortib borishi bilan birga pedagogika kasbining murakkablashuvi, qo‘shimcha mukammalliklarni talab etishia ham ortib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, pedagogika sohasida yangidan-yangi ilmiy tadqiqotlarni olib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Hozirgi globallashuv sharoitida dunyoda har yili yuz minglab pedagogikaga oid kitoblar jurnallar chop etilib, son-sanoqsiz ilmiy ishlar, dissertatsiyalar himoya qilinmoqda. O‘qitishning muammoli, modulli, kompyuterli va hokazolar kabi zamonaviy texnologiyalari rivojlanib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili va metod (Materials and methods). “Pedagogika” termini qadimgi Yunoniston (Grestiya)da paydo bo‘lgan bo‘lib, uning negizi “kuzatib boruvchi”, “yetaklovchi” ma’nolarni anglatadi. Ya’ni, yunoncha “peydagog”, “paydi” – bola, “gogos” – yetaklovchi, “bola yetaklovchi” ma’nolarini anglatadi. Bugungi kundagi umumta’lim maktablarida mashg‘ulotlarni o‘qituvchilar tomonidan didaktik disskurslarga oid o‘qitish nazariyasi shaklida tashkil etish orqali amalga oshirilishi aynan o‘sha yuqorida berilgan ta’rifga mos keladi. Pedagogika fani, dastlab, falsafa fani negizida shakllanib, keyinchalik, ya’ni, rivojlangan o‘rta asrlarga kelib, pedagogika alohida, falsafiy bilimlar tarkibidan ajratib olingan [1]. O‘sha davrdan boshlab pedagogikani endi “o‘qish uchun qo‘llanma” haqidagi fan deb e’tirof etila boshlagan.

Pedagogikaning mustaqil fan sifatdagi maqomi, Frensis Bekon va mashhur chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning asarlari tufayli mustahkamlanib borgan. Natijada asta-sekin pedagogikaga oid bo‘lgan o‘quv ishlarining nazariyasi va uni tashkil etishining asosiy masalalari ishlab chiqila boshladi.

“Pedagogika”ning asl mohiyati bu keksa avloddan hayot uchun zaruriy qo‘llanmalar, tajribalarga asoslangan ta’lim tarbiyani yosh avlodga yetkazish va uning yosh avlod tomonidan faol o‘zlashtirilishini ta’minlashdir. Shunday ekan, jamiyat taraqqiyotida har bir avlod o‘zining o‘tmish avlodidan qolgan merosni egallab, uni boyitib, keyingi avlodga qoldiradi [2].

Pedagogika faning predmeti bu o‘rganish, ta’lim, tarbiya sharoitida inson shaxsiga yo‘naltirilgan rivojlanish va shakllanish jarayoni tashkil etadi. Shunday qilib, pedagogika fani, inson shaxsining rivoji va shakllanish mohiyatini o‘rganish haqidagi fan sifatda namoyon bo‘la boshladi.

Pedagogikada qo‘llaniladigan metodlar ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib, pedagogikaga oid metodlar (usullar) “methodas” so‘zidan va yunon tilidan olingan va “o‘zini tutish”, “yo‘l”, ma’nolarini bildiradi.

Bugungi kunda fan, texnika taraqqiyotidagi jadal rivojlanish o‘qitish tizimida quyidagi talablar qo‘ymoqda:

– individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnik axborot bilan ishlash malakalarini rivojlantirish;

– original va nostandart qarorlar qabul qilish hamda ishchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish;

– yoshlarni o‘qishga qobiliyatining turliligidan kelib chiqqan holda, o‘qitishni individuallashtirish;

– bilim harakatchanligi, tanqidiy fikrlashganda moslashuvanlik va ijod, ishlab chiqarishning zudlik bilan o‘zgaruvchan sharoitiga mos epchillikni shakllantirish kabi mezonlarni talab qilmoqda [4].

Natijalar (Results). Bugngi zamonaviy pedagogikada o‘qitish metodlari deganda o‘qitish maqsadiga erishish uchun, ta’lim oluvchilarning faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari haqida nazariy tushuncha beruvchi didaktik kategoriya tushuniladi. O‘qitish metodlari deganda esa o‘qitish maqsadga erishish uchun ta’lim oluvchilarning faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari haqida nazariy tushuncha beruvchi didaktik kategoriya tushuniladi.

Pedagogika fanining obyekti maktab o‘quvchilari bo‘lib, uning predmeti beriladigan ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti bilan bog‘liqdir. Pedagogik ta’lim-tarbiyadan maqsad taraqqiyotga qarab jamiyat talablari va o‘quvchilarning yosh xususiyatlarining o‘zgarib borishini o‘rganishdir. Shunday qilib, pedago-

gika ta’lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtirib, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini, ko‘rsatib beradi. Shuningdek, ta’lim tizimning barcha jabhalarini nazariy, ilg‘or tajribalar bilan qurollantiradi. Yoshlarni to‘g‘ri tarbiya olish va iqtidorli bo‘lish mahoratini takomillashtirib, ta’lim va tarbiya iboralaning o‘zaro bog‘liqligini namoyon etadi.

Pedagogikadagi tarbiya tushunchasi o‘sib kelayotgan avlodda hosil bo‘lgan bilimlar asosida aqliy kamolot, dunyoqarashni, insoniy e’tiqod, burch va mas’uliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Shu ma’noda, u “tarbiya” deb tarbiyachi o‘zi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirishiga, ularning dunyoqarashini o‘zgartirishga ma’lum maqsadlarga ko‘ra tizimli ta’sir ko‘rsatishga aytiladi. Tarbiya, aslida, inson tug‘ilganidan to umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Shu sababli ko‘plab tadqiqotlarda “tarbiya” tushunchasi ta’lim tushunchasi bilan hamohang holatda yuritiladi [5].

Muhokama (Discussion). Tarbiya ta’limga oid ma’lumotlarni o‘zida aks ettirib, ta’lim maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida olib boriladigan, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishga xizmat qiladigan, ularning bilim, qobiliyatlarini o‘stiradigan jarayondir.

Agar tarbiya bola tug‘ilganidan boshlab, umrining oxirigacha oilada, maktabda va jamoatchilik ta’sirida shakllanib, kamol topsa, ta’lim chegaralangan ta’lim muassasalarida o‘qituvchi-tarbiyachi rahbarligida muayyan belgilangan davriy jarayonlarda olib boriladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida olingan ma’lumotlar tizimlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni umumlashtirib, dunyoqarashlar majmuyini shakllantiradi.

Ta’lim, tarbiya va ma’lumot uyg‘unlashgan holda o‘quvchini kamolotga yetaklasa, o‘qituvchi-tarbiyachi bunda yoshlarning komil inson bo‘lib shakllanishida yetakchilik qiladi. O‘qituvchi maktabda ta’lim berish bilan shug‘ullanar ekan, o‘quvchilarni fan olami yangiliklaridan xabardor qilib, ularda insoniy sifatlarni shakllantirib, tarbiyalab boradi.

O‘quvchilarning aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarini tarbiyalash orqali ularning kundalik xatti-harakat va fe’l-atvorlariga ta’sir ko‘rsatib, kattalarga hurmat va kichiklarga izzatda bo‘lish, kishilarga g‘amxo‘rlik qilish, har qanday topshiriqni o‘z vaqtida bajarish, odobli va muomala madaniyatiga rioya qilishga o‘rgatadi. Shuningdek, har bir pedagog o‘qituvchi o‘z ona yurti tarixini bilishi, vatanparvar bo‘lishi, qolaversa, ta’lim-tarbiya va pedagogika tarixidan xabardor bo‘lishi lozim. Pedagogika nazariyasini chuqurroq anglash uchun esa uning o‘tmishdagi taraqqiyotidan xabardor bo‘lishi kerak. Zero, aynan o‘qituvchi o‘quvchilarga bilim berish, ularni ma’lumotli qilish, tarbiyalashda ularga tizimli ta’sir ko‘rsata oladi. Bu esa ijtimoiy omillarga asoslanib, ko‘rsatilayotgan ta’sirning samarasini o‘quvchining tasavvuri, diqqat va tafakkuri, fikrlash jarayonida namoyon etadi.

Ilm-fan tarqqiyoti, bu oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlashda zamonaviy axborot oqimini o‘zlashtirish, ilmiy-tadqiqot malakalari, individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnikaviy axborotlar va o‘quv-ilmiy adabiyotlar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini beradi. Fanlarning shakllanishi o‘ziga xos “fan daraxti”ni vujudga keltirsa uning tarmoqlari o‘sha faning shoxlari misolida faoliyat yuritib keladi. Bugungi kunda pedagogik faoliyatda aynan fan tarmog‘i misolida bolalar yo‘l transport hodisalarini oldini olishda harakat xavfsizligini ta’minlashga oid fan tarmog‘ini kiritish ham dolzarb ham davr talabiga aylanib bormoqda.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytganda, so‘nggi yillarda barqaror taraqqiyot asosi bo‘lgan iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarining ortib borishi, aholi o‘rtasida texnika, transport vositalarining haddan ortiq darajada ko‘payib borishiga olib kelmoqda. Natijada esa inson omiliga bog‘liq bo‘lgan holda, yo‘l transport hodisalarining harakat xavfsizligiga ta’sirini ortib borishiga olib kelmoqda. Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, bugungi kunda bolalar bilan bog‘liq yo‘l transport vositalarining ayanchli oqibatlari zamirida yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha yoshlarning bilim ko‘nikma va malakalarini oshirishni aynan maktab ta’limidan boshlash lozimligini alohida qayd etish lozim. Chunki bolalar bilan bog‘liq yo‘l transport hodisalarining ayanchli statistikasi bugungi kunda ularning yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha birlamchi bilimlarining yetarli emasligi va ushbu fan tarmog‘i maktab ta’lim dasturlariga kiritishga muhtoj ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Fan tarmog‘ida bunday yangi ilmiy soha yoki ilmiy yo‘nalishni qaror toptirish, jamiyatda mavjud holatlar, muammolar, mavzular va ilmiy masalalarni o‘z ichiga oladi. Aynan shu yo‘nalishda oliy ta’limning iqtidorli bitiruvchilarini tayyorlash esa yo‘l harakati faoliyati bilan bog‘liq muammolarning yechilishiga vosita bo‘lib xizmat qiladi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu, o‘z navbatida, bo‘lajak pedagog kadrlar tayyorlovchi tizimda original va noan’anaviy fikrlash qobiliyatini o‘zlashtirgan va o‘z ustida mustaqil ishlaydigan kadrlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Avliyakulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. Toshkent, “Tafakkur bo‘stoni”, 2002, 207-bet.

(2). A.T.Nurmanov, Y.I.Turganov. Pedagogik mahorat (ritorika bo‘yicha pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma). [Tekst]: o‘quv qo‘llanma, Toshkent, «ZEBO PRINT», 2022, 164-bet.

(3). Innovasion ta’lim texnologiyalari. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. T., “Sano standart” nashriyoti, 2015, 81-bet.

(4). Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T., “Moliya”, 2003, 192-bet.

(5). Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. T., “Fan va texnologiya”, 2008.

Atajonova Anorgul Jumaniyazovna (“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi mudiri, f.f.n., dotsent; anorgulatazanova@gmail.com)

MEDIATA’LIM VA KOGNITIV FAOLIYAT KATEGORIYALARINING KONTEKSTUAL TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mediata’lim va kognitiv faoliyat kategoriyalari zamonaviy ta’lim tizimidagi turli kontekstlarda qanday shakllanishi va namoyon bo‘lishi tahlil qilingan. Kontekstual yondashuv asosida ushbu kategoriyalarning mazmun-mohiyati, ularning texnologik, ijtimoiy, madaniy va shaxsiy muhitlar bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Maqolada mediata’lim vositalarining talabalarning e’tibor, xotira, mushohada va mantiqiy fikrlash jarayonlariga ta’siri nazariy va amaliy jihatdan ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *mediata’lim, mediamadaniyat, mediakompetentlik, media kompetensiya, media muhit, kognitiv faoliyat, kontekstual tahlil, axborot texnologiyalari, ta’lim muhiti, bilish jarayonlari.*

КОНТЕКСТНЫЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИЙ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ И ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *В этой статье анализируется, как категории медиаобразования и познавательной деятельности формируются и проявляются в различных контекстах современной системы образования. На основе контекстного подхода освещается содержание этих категорий, их взаимосвязь с технологической, социальной, культурной и личностной средами. В статье рассматривается влияние средств медиаобразования на процессы внимания, памяти, наблюдения и логического мышления учащихся в теоретическом и практическом аспектах.*

Ключевые слова: *медиаобразование, медиадуховность, медиакомпетентность, медиасреда, когнитивная деятельность, контекстуальный анализ, информационные технологии, образовательная среда, когнитивные процессы.*

CONTEXTUAL ANALYSIS OF CATEGORIES OF MEDIA EDUCATION AND COGNITIVE ACTIVITY

Annotation. *This article analyzes how the categories of media education and cognitive activity are formed and manifested in various contexts of the modern education system. Based on a contextual approach, the content of these categories and their relationship to technological, social, cultural and personal environments are highlighted. The article examines the influence of media education on the processes of attention, memory, observation and logical thinking of students in theoretical and practical aspects.*

Keywords: *media education, media culture, media competence, media competence, media environment, cognitive activity, contextual analysis, information technology, educational environment, cognitive processes.*

Kirish. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar raqamli texnologiyalarga asoslangan o‘quv-metodik ta’minotni yaratish va rivojlantirishning konseptual tamoyillarini aniqlashtirish, fanlar bo‘yicha integrallashgan o‘quv-ilmiy resurslarni yaratishga qo‘yiladigan talablarni takomillashtirish, fanlarning o‘quv-metodik resurslarini optimal taqdim etish, raqamli texnologiyalarga asoslangan o‘quv-metodik ta’minotdan ta’lim jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirishning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan ta’lim sohasidagi islohotlar, jumladan, boshlang‘ich ta’lim tizimini rivojlantirish, uning maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari, shuningdek, bolani ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalarning tizimli va izchil xarakterga ega bo‘lishiga katta e’tibor qaratilmoqda. Bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, boshlang‘ich ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksalti-

rish kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu esa, o‘z navbatida, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mediata’lim bo‘yicha bilimlarini rivojlantirish, ularning axborot va OAV bilan ishlash sohasidagi huquqiy savodxonliklarini tarkib toptirish, shuningdek, boshlang‘ich ta’lim tizimining integrallashgan mazmuniga media yondashuvlarni singdirishni taqozo qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-farmoni, 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-qarori, 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda talabalarning kognitiv faoliyatini, mediamadaniyatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Media – bu jamiyatda to‘g‘ri va aylanma kommunikativ aloqa tizimi bo‘lib, insonlar bilan vaqtincha o‘zaro aloqadorlikni yuzaga keltiruvchi va ularni qiziqtiruvchi, chalg‘ituvchi makon. “Media” atamasi – XX asrda, dastlab, ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi vositalarga nisbatan qo‘llangan [1].

Mediamadaniyat – turli media asarlarni tahlil qilish, baholash, yaratish uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi [2].

“Mediakompetentlik” umumiy ko‘rinishda shaxsning turli ko‘rinish, janr va shakllardagi mediamatnni tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatish, sotsiumda medianing faoliyati murakkab jarayonlarini tahlil qilishga tayyorlikda namoyon bo‘ladigan integrativ sifati tarzida tushuniladi [3].

“**Mediakompetensiya”** – axborot hamjamiyati bilan o‘zaro munosabat bo‘lib, shaxs mediamadaniyatining ajralmas qismi sifatida o‘zida mujassamlangan, qimmatli, texnologik va shaxsiy-ijodiy komponentlarni o‘z ichiga oladi va o‘zaro ta’sir (hamkorlik) subyektlarining rivojlanishiga olib keladi [4].

Mediasavodxonlik mediafunksiyalarini tushunish, mazkur funksiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o‘z-o‘zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan ratsional hamkorlikka kirishishga urg‘u beradi. Mediasavodxonlik mediata’limning natijasidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda mediaaxborotni qabul qilish, saralash, tahlil etish, baholashda mediasavodxonlik tushunchasi bilan birgalikda mediata’lim, mediani o‘rganish, mediamadaniyat tushunchalari ham qo‘llanmoqda. Masalan:

- mediata’lim – media o‘quv dasturida integrallashgan, fanlararo o‘rganilishini;
- “mediamavzu”ni aniq bir fan doirasida tahlil etilishini;
- amaliy ish va tahlil orqali mediaga tanqidiy yondashishni;
- uning shakli, texnologiyalari, axborotni uzatish usullarini o‘rganishni;
- media agentliklarni, ularning ijtimoiy, siyosiy va madaniy rolini o‘rganishni;
- talabaning OAV bilan ishlashini;
- medianing til va san’at orqali auditoriyaga ta’sirini o‘rganadi.

Mediani o‘rganish esa, o‘z navbatida:

- mediani nazariy jihatdan o‘rganishni;
- mediani qiyosiy jihatdan tahlil etishni;
- uning konseptual tarkibini;
- mediamatnni tahlil etish va uning yaratilish metodikasini;
- ommaviy kommunikatsiya, kino san’ati va madaniyatshunoslik fanlarining o‘zaro bog‘liqligini;
- OAVning ta’sirini o‘rganadi.

Mediasavodxonlik mediani o‘rganish bo‘lib, mediata’limning quyidagi natijalariga asoslanadi va o‘z oldiga:

- medianing shaxs va jamiyatga ta’sirini tushunish;
- ommaviy kommunikatsiya jarayonini anglash;
- mediamatnlarni tushunish va tahlil eta olish;
- mediakontekstini tushunish;
- mediamatnlarni yaratish va ularni tahlil etish;
- mediamatnlarni baholashga va ularni saralash vazifalarini qo‘yadi.

Ayni paytda, mediata’lim asoslarini har bir ta’lim muassasasi o‘quv dasturiga kiritish, bolalarga boshlang‘ich ta’lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o‘yinlar shaklida tushuntirish, o‘sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondashgan holda baholay

olish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni holis baholab, to‘g‘ri qaror qabul qila olishiga asos bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Dunyoda boshlang‘ich ta’lim tizimini rivojlantirishda pedagogik kadrlar media-ta’limini shakllantirishning maqbul mexanizmlarini ishlab chiqish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual o‘zini rivojlantirish trayektoriyasini loyihalash, ularda media va axborot savodxonligini o‘zlashtirish ehtiyojini tarkib toptirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Oliy ta’limda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mediata’limini rivojlantirish jarayonini axborot ta’lim muhiti bilan integrativligini ta’minlash, pedagoglarda mustaqil mediabilimlarni o‘zlashtirish ko‘nikma va malakalarini, kreativlik, yangi mediavositalarni o‘zlashtirishga qobiliyatlilikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mediata’lim bo‘yicha rivojlanganlik darajasini tashxislashga qaratilgan metodikalarni yaratish, mediata’limni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslashni talab etmoqda.

Mazkur jarayonda mediata’lim bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborotni olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o‘rgatish, talabalarning dunyoqarashi, intellektual salohiyatining rivojlanishiga va kamol topishiga zamin yaratadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida axborot madaniyati asosida quyidagi ko‘nikmalar shakllanadi (1-rasm).



1-rasm. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida axborot madaniyati ko‘nikmalari.

Axborotning kim uchun va nima maqsadda tayyorlanganligini tushuna bilish muhim ahamiyatga egadir. Har bir inson aloqa sohasida qanday texnik vositalar ishlatilishi to‘g‘risida umumiy tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Biroq bugungi kun talabiga ko‘ra, zarur axborot va ma’lumotlarni keraksiz va yaroqsizlaridan, soxtalaridan ajrata olish, ya’ni mediasavodxonlik madaniyatiga ega bo‘lish zarurati yuzaga kelmoqda.

Jamiyatning barcha jabhalarini keng ko‘lamda egallagan kommunikatsiya vositalari insoniyat rivojlanishining yangi davrini boshlab berdi. O‘zbekistonda 2021–2022-o‘quv yilidan boshlab 10–11-sinf o‘quvchilarining “Tarbiya” darsligiga “Mediasavodxonlik” bo‘limi kiritildi. Respublikaning O‘zJOKU, TDSHU, O‘zMU, O‘zDJTU, QDU, SamDCHTI kabi oliy o‘quv yurtlarining jurnalistika fakultet va yo‘nalishlarida mediasavodxonlik darslari o‘tila boshlandi.

O‘z qadriyat va an’analariga ega bo‘lgan Osiyo mamlakatlarida mediata’lim va uning ta’limga kirib kelishi jarayoni G‘arb mamlakatlarinikidan biroz farq qiladi. O‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab Sharqiy Osiyoda mediata’lim tomon siljish kuzatildi. So‘nggi yillarda Osiyoda mediata’lim darajasi o‘sib bormoqda. Media bu jamiyatda to‘g‘ri va aylanma kommunikativ aloqa tizimi bo‘lib, insonlar bilan vaqtincha o‘zaro aloqadorlikni yuzaga keltiruvchi va ularni qiziqtiruvchi, chalg‘ituvchi makondir (2-rasm).

2-rasm. Mediata’limning asosiy vazifalari.

Xulosa va takliflar. Har bir shaxs ijtimoiy tarmoqdan o‘zi xohlagan sharoitda foydalanish huquqiga ega. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida har bir isnonning axborotdan foydalanish erkinligi quyidagicha himoyalangani keltirilgan: “Har bir inson e’tiqod erkinligi va uni erkin ifoda etish huquqiga ega; ushbu huquq o‘z e’tiqodiga to‘siqsiz tarzda sodiq bo‘lish hamda axborot va g‘oyalarni har qanday vositalar bilan, har qanday davlat chegaralaridan qat’iy nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o‘zida mujassam etadi” [5]. Biroq bu erkinlik ayrim burch va mas’uliyatlarni ham keltirib chiqaradi. Ya’ni, axborot erkinligi undan foydalanuvchidan axborot madaniyati va mediamadaniyatni yuksak darajada bo‘lishini talab etadi. Chunki axborot huquqi va undan foydalanish ijtimoiy tahdidga aylanishi mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mediata’lim nafaqat axborotni qabul qilish va qayta ishlash qobiliyatini rivojlantiradi, balki shaxsning tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, anglash va ijodiy yondashuv kabi kognitiv ko‘nikmalarini ham faol rag‘batlantiradi.

Kognitiv faoliyat komponentlari – diqqat, xotira, tafakkur va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari-mediakontentini qabul qilish jarayonida faol ishga tushadi. Mediata’lim esa ushbu jarayonlarni shakllantirishda va mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuv ta’lim tizimini raqamli muhitga moslashtirishda va o‘quvchilarda axborot savodxonligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Уматалиев З. Медиахавфсизлик ёшларимиз келажагининг пойдевори сифатида. Илмий-педагогик ва ўқув-методик нашрлар орқали информациявий таҳдидларга қарши курашиш: профилактика, технология, механизм. Республика илмий-амалий конференция тўплами, Т., 2017, 223-бет.

(2). Бабаджанов С.С. Педагогика олий таълим муассасалари талабаларининг медиакомпетентлигини ривожлантириш технологияси («Информатика ва ахборот технологиялари» ўқув фани мисолида). П.ф.б.ф.д (PhD) диссер..., Тошкент, 2018, 15-бет.

(3). Babadjanov S.S. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarning mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi: DcS diss. avtoreferati. T., 2019, 14–15-betlar.

(4). D.T.Elchiyeva. O‘quvchilarda media kompetensiya shakllanishining pedagogik o‘ziga xosliklari. “Таълим ва инновацион тадқиқотлар”, 2024, 5-son, 65–70-бетлар.

(5). Сифоров В.И., Суханов А.П. Информация, связь, человек. М., “Знание”, 1997, с. 64.

(6). Р.Ҳамдамов,У.Бегимкулов, Н.Тайлоқов. Таълимда ахборот технологиялари. Олий таълим муассасалари учун, «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси», Т., 2010, 120-бет.

Ataullayev Zokir Maxsudovich (Urganch davlat Pedagogika instituti dotsenti;zokirjon16081987@gmail.com)

“KIMYO” FANLARINI O‘QITISHDA BARQAROR TARAQQIYOT TUSHUNCHALARINI XALQARO BAHOLASH MEZONLARIGA INTEGRATSIYALASH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada resurslardan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va barqaror taraqqiyot g‘oyalari asosida kimyo fanlarini zamonaviy o‘qitish masalasi yoritilgan. Ayniqsa, eskirgan aluminiy metallarini qayta ishlash jarayonini ta’limga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning ilmiy savodxonligini oshirish, ularni PISA baholash tizimi talablariga tayyorlash imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada amaliy, kontekstual yondashuvlar asosida bilimni real hayotga tatbiq qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari ham ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *barqaror taraqqiyot, barqaror rivojlanish konsepsiyasi, alyuminiyni qayta ishlash, ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, atmosfera muhofazasi, sanoat chiqindilari, ilmiy laboratoriya tajribalari, kompyuter modellashuvi, fanlararo integratsiya, zamonaviy o‘qitish metodlari, kimyo ta’limi, fizika va ekologiya integratsiyasi, ekologik ta’sirlarni baholash, global ekologik muammolar.*

Атауллаев Закир Махсудович (доцент Ургенчского государственного педагогического института; zokirjon16081987@gmail.com)

ИНТЕГРАЦИЯ КОНЦЕПЦИЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В МЕЖДУНАРОДНЫЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ХИМИИ

Аннотация. *В статье рассматривается вопрос эффективного использования ресурсов, сохранения экологического баланса и устойчивого развития через современное преподавание химии. Особое внимание уделено переработке отработанного алюминия и интеграции этой темы в учебный процесс с целью развития научной грамотности учащихся и подготовки их к международным оценочным системам, таким как PISA. Описаны методы формирования навыков применения знаний в реальной жизни на основе практического и контекстуального подхода.*

Ключевые слова: *устойчивое развитие, концепция устойчивого развития, переработка алюминия, экологическая безопасность, рациональное использование природных ресурсов, охрана атмосферы, промышленные отходы, лабораторные научные эксперименты, компьютерное моделирование, междисциплинарная интеграция, современные методы обучения, преподавание химии, интеграция физики и экологии, оценка экологического воздействия, глобальные экологические проблемы.*

Ataullayev Zokir Maksudovich (Associate Professor at Urgench State Pedagogical Institute; zokirjon16081987@gmail.com)

INTEGRATION OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT CONCEPTS INTO INTERNATIONAL ASSESSMENT CRITERIA IN TEACHING CHEMISTRY

Annotation. *This article discusses the effective use of resources, environmental balance, and sustainable development through modern chemistry education. It emphasizes the importance of recycling used aluminum and integrating this topic into the educational process to enhance students’ scientific literacy and prepare them for international assessments such as PISA. The article also explores practical and contextual approaches to develop students’ ability to apply knowledge in real-life situations.*

Key words: *Sustainable development, sustainable development concept, aluminum recycling, environmental safety, efficient use of natural resources, atmospheric protection, industrial waste, scientific laboratory experiments, computer modeling, interdisciplinary integration, modern teaching methods, chemistry education, integration of physics and ecology, assessment of environmental impact, global environmental issues.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida barqaror taraqqiyot masalalari jahon hamjamiyati uchun ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlab qolish va barqaror rivojlanishni ta'minlash zamonaviy ta’lim jarayonida ham dolzarb masalalardan sanaladi. Xususan, kimyo fanini o‘qitishda xalqaro baholash tizimlariga mos innovatsion yondashuvlarni joriy etish ushbu yo‘nalishning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan.

Anorganik kimyoda asosiy xomashyo bo‘lgan birlamchi aluminiy o‘rniga qayta ishlangan ikkilamchi aluminiy metallaridan foydalanishning ekologik va iqtisodiy afzalliklari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ushbu ekologik muhim yondashuvni kimyo fanini o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish orqali xalqaro baholash mezonlariga muvofiqlikni oshirish imkoniyatlari yoritiladi.

Shuningdek, O‘zbekistonda aholini maishiy chiqindilarni boshqarish bilan bog‘liq xizmatlardan to‘liq qoniqishini ta’minlash, ushbu xizmatlar sifati va samaradorligini xalqaro standartlarga moslashtirish, tadbirkorlik subyektlari uchun chiqindilarni qayta ishlash sohasini jozibador yo‘nalishga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Chiqindilarni qayta ishlash hajmini sezilarli darajada oshirish, ularning poligonlarda to‘planishining oldini olish va ekologik muhitga bo‘lgan salbiy ta’sirni kamaytirish orqali “nol chiqindi” konsepsiyasiga erishish hamda sirkular iqtisodiyotni rivojlantirish mamlakatning asosiy strategik maqsadlaridan biridir [1].

Zamonaviy sanoat tarmoqlarida keng qo‘llanilayotgan aluminiy ishlab chiqarish jarayoni barqaror taraqqiyot tamoyillariga zid bo‘lgan bir qator ekologik muammolarni yuzaga keltiradi. Jumladan, ushbu metallni an’anaviy usulda olish jarayoni yuqori darajadagi energiya sarfini talab etadi [2]. Natijada ishlab chiqarish davomida katta hajmda karbonat angidrid (CO_2) va vodorod ftorid (HF) kabi atmosferaga zarar yetkazuvchi gazlar ajraladi (1-rasm).

1-rasm. Aluminiy qazib olish va ishlab chiqarish jarayoni.

Alyuminiy ishlab chiqarishning eng muhim bosqichlaridan biri bu aluminiy oksidini (Al_2O_3) toza aluminiyga aylantirish jarayonidir. Ushbu bosqich, odatda, elektroliz usulida amalga oshiriladi. Bunda erituvchi modda sifatida kriolit (Na_3AlF_6) ishlatiladi va Al_2O_3 ushbu eritmada eritilib, elektrolitik katod va anodlar orqali parchalanadi.

Elektroliz jarayonida aluminiy oksidi quyidagi asosiy reaksiya asosida parchalanadi:

$$2Al_2O_3 \rightarrow 4Al + 3O_2$$

Bu reaksiya natijasida metall aluminiy katodda ajralib chiqadi, kislorod esa anodda hosil bo‘ladi. Biroq jarayon davomida kriolit tarkibidagi ftorid ionlari (F^-) ayrim hollarda yuqori harorat va elektrokimyoviy sharoitlar ta’sirida gazsimon ftor birikmalariga (masalan, HF yoki boshqa ftoridlar) aylanib, atmosferaga chiqishi mumkin. Bu esa atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va ekologik xavf tug‘diradi.

Aluminiy ishlab chiqarishning elektroliz bosqichida kriolit (Na_3AlF_6) erituvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Ushbu modda aluminiy oksidini (Al_2O_3) eritib, elektrolitik reaksiyaga tayyor holga keltiradi. Elektroliz jarayonida yuqori harorat va kuchli elektr toki ta’sirida kriolit tarkibidagi ftorid ionlari (F^-) barqarorligini yo‘qotib, gazsimon birikmalarga aylanishi mumkin.

$$2Na_3AlF_6 \rightarrow 4NaF + 3F_2$$

Ftorid gazlari, xususan, ftor (F_2) va vodorod ftorid (HF), alyuminiy ishlab chiqarish jarayonida atmosferaga chiqarilganda atrof-muhit uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Bu gazlar havoda tarqalib, o‘simliklar, hayvonlar va inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ftor gazlari kislorod bilan reaksiyaga kirishib, kislorodli ftor birikmalarini hosil qilishi mumkin. Ushbu birikmalar tuproq va suv resurslariga tushgach, ekotizimga zarar yetkazadi [3].

Ftorid ionlari (F^-), ayniqsa, chiqindi suvlar orqali tabiiy suv havzalariga tushganda, suv muhitining kimyoviy tarkibini buzadi. Bu holat suvdagi organizmlar hayoti uchun xavfli bo‘lib, butun oziq zanjiriga ta’sir qilishi mumkin. Shuningdek, ichimlik suvidagi ftorid ionlarining me’yordan ortiq darajada bo‘lishi inson salomatligiga bevosita zarar yetkazadi.

Tibbiy tadqiqotlarga ko‘ra, ftorid ionlarining yuqori konsentratsiyasi organizmda yod elementining o‘zlashtirilishini susaytiradi. Bu esa qalqonsimon bez faoliyatining buzilishiga olib keladi. Natijada yod tanqisligi fonida zob (bo‘yin bezining kattalashuvi) kabi endokrin kasalliklar rivojlanishi mumkin. Shu

sababli sanoat chiqindilarini nazorat qilish, ayniqsa, ftorid moddalarning chiqishini kamaytirish, ekologik va sog‘liqni saqlash siyosatida muhim o‘rin tutadi.

Ftorid ionlarining yuqori miqdordagi suv orqali organizmga tushishi qalqonsimon bez faoliyatining buzilishiga olib keladi. Bu esa yodning o‘zlashtirilishini pasaytirib, garmonlar muvozanatini buzadi va zob kasalligini keltirib chiqaradi. Ftoridlar o‘simliklarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi: ularning oziqlanishi buziladi, rang o‘zgarishlari (masalan, anorlarda oqargan dog‘lar) paydo bo‘ladi.

Mazkur salbiy oqibatlarning oldini olish uchun aluminiyni ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlash muhim ahamiyatga ega. Qayta ishlash jarayoni 95% kamroq energiya talab qiladi, chiqindilar miqdorini kamaytiradi va qazib olish bilan bog‘liq ekologik zararlarni cheklaydi. Bundan tashqari, bu usul iqtisodiy jihatdan ham foydalidir, chunki xomashyo xarajatlari qisqaradi va atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi [4].

“Kimyo” fanlarini o‘qitishda aluminiyni qayta ishlash mavzusini barqaror taraqqiyot maqsadlari bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarda tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Bu jarayon ularga resurslarni qayta ishlashni ilmiy asosda tahlil qilish, ekologik muammolarga yechimlar taklif qilish imkonini beradi.

Laboratoriya mashg‘ulotlari orqali qayta ishlash texnologiyalarini amaliy o‘rganish, o‘quvchilarning ekologik ongini shakllantirib, ekologik barqarorlik tamoyillarini chuqurroq anglashiga yordam beradi. Shu bilan birga, bu yondashuv ta’lim jarayonini PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash tizimlariga moslashtirishga xizmat qiladi. Xususan, o‘quvchilarning faktlarni tahlil qilish, sabab-natija munosabatlarini aniqlash, muammoni hal qilish va o‘z fikrini asoslab berish ko‘nikmalari shakllanadi. Aluminiy ishlab chiqarish bilan bog‘liq ekologik va iqtisodiy masalalarni o‘rganish orqali esa ular nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashni o‘rganadilar. Bu esa ularning xalqaro baholash tizimidagi natijalarini yaxshilashga zamin yaratadi.

“Kimyo” fanlarini, xususan, aluminiy mavzusini o‘qitishda interaktiv va amaliy metodlardan foydalanish o‘quvchilarda chuqurroq tushuncha hosil qilish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va real hayot bilan bog‘liqlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Laboratoriya ishlari, kompyuter modellari va vizualizatsiya vositalari yordamida o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishi va ilmiy tafakkuri ortadi.

PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash tizimlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun fanlar integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Aluminiy ishlab chiqarish mavzusini kimyo, fizika va ekologiya fanlari bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarda fanlararo tahlil qilish va sabab-natija munosabatlarini anglash qobiliyati shakllanadi. Masalan, ishlab chiqarishdagi energiya sarfi, kimyoviy reaksiyalar va ekologik oqibatlarni birgalikda o‘rganish orqali o‘quvchilar kompleks ilmiy yondashuvga ega bo‘ladilar.

Ta’limni o‘quvchilarning kundalik hayoti bilan bog‘lash ham muhimdir. Aluminiy ishlab chiqarishning ekologik va iqtisodiy oqibatlarini muhokama qilish, o‘quvchilarda mavzuni real hayotga tatbiq etish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Shuningdek, o‘z-o‘zini baholash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali o‘quvchilar axborotni tahlil qilish, asoslash va xulosa chiqarish malakalariga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning PISA va TIMSS baholashlarida yuqori natijalar ko‘rsatishlariga imkon yaratadi. Umuman olganda, innovatsion metodlar, fanlararo integratsiya va real hayotiy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali alyuminiy mavzusini samarali o‘qitish hamda xalqaro baholash tizimlariga mos ta’limni shakllantirish mumkin.

Aluminiyni qayta ishlash mavzusi PISA kabi xalqaro baholash mezonlariga to‘liq mos keladi. U kimyo, ekologiya va iqtisodiyot fanlarini birlashtirib, real hayotiy muammolarni hal qilish, ekologik ong va resurslardan oqilona foydalanish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shu orqali o‘quvchilarning tahliliy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Aluminiy mavzusini PISA tizimiga asoslangan holda o‘qitish metodikasi.

1. Kirish. PISA baholash tizimi o‘quvchilarning ilmiy savodxonligini, ya’ni, kundalik hayotdagi muammolarga ilmiy yondasha olish qobiliyatini o‘lchaydi. Aluminiy mavzusi aynan shu yo‘nalishga to‘g‘ri keladi.

2. Baholash tamoyillari. Savollar quyidagi uch asosiy yo‘nalishga asoslanadi:

Ilmiy tushunchalarni qo‘llash – aluminiyning xossalari va qo‘llanilishi.

Tabiiy hodisalarni tushuntirish – fizik-kimyoviy xususiyatlarni hayotiy hodisalar bilan bog‘lash.

Ilmiy asoslangan qaror qabul qilish – ekologik va sanoat tahlil asosida xulosa chiqarish.

3. Amaliy kontekstga asoslangan savollar namunasi.

Maishiy texnika: Nima uchun aluminiy idishlar keng ishlatiladi?

A) Issiqlikni yaxshi o‘tkazadi

B) Yengil va arzon

C) Ikkalasi ham

Qayta ishlash. Qayta ishlashning ekologik afzalliklari va boshqa metallar bilan solishtirish.

Transport sohasi. Aluminiyning avtomobil va samolyotsozlikdagi ahamiyati.

4. Savollar shakli.

Ko‘p tanlovli savollar. Masalan, korroziyaga chidamliligi sababi – oksid parda hosil bo‘lishi.

Ochiq savollar. Aluminiy sanoatda ishlatilishining 3 asosiy sababini yozish.

Grafik/diagramma asosidagi savollar. Energiya sarfi, qayta ishlash samaradorligi va ekologik ta’sirlar.

Grafikda aluminiy, mis va temirni qayta ishlash jarayonida iste’mol qilinadigan energiya miqdori (kVt-soat) ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Savol. Grafikga qarab, aluminiyni qayta ishlash boshqa metallarni qayta ishlashga qaraganda qanday afzalliklarga ega ekanligini izohlang.

Aluminiyni qayta ishlashning ekologik ahamiyatini tushuntirib bering. Diagrammadagi ma’lumotlardan foydalaning.

5. Javoblarni baholash. Javoblar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Tushunish darajasi – ilmiy atamalar va tushunchalarning to‘g‘ri qo‘llanilishi.

Tahliliy yondashuv – diagrammalar, grafiklar asosida fikr yuritish va xulosa chiqarish.

Mantiqiy asoslash – javobni hayotiy misollar yoki dalillar bilan izohlash.

To‘g‘ri javoblar yuqori ball bilan baholanadi. Qisman to‘g‘ri, lekin izohli javoblar ham ball oladi.

Xulosa. “Kimyo” fanida aluminiyni qayta ishlashni barqaror taraqqiyot konsepsiyasi bilan bog‘lash ekologik muammolarni hal etishga va o‘quvchilarni xalqaro baholash tizimlariga tayyorlashga xizmat qiladi. Bu yondashuv ilmiy savodxonlikni oshirib, o‘quvchilarning XXI asr ko‘nikmalarini shakllantiradi.

PISA mezonlariga mos ravishda kontekstual va amaliy savollar tuzish orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimga ega bo‘ladi, balki uni real hayotda qo‘llashni ham o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.01.2024-yildagi PF-5-farmoni.

(2). Bruno S. Silvestre, Diana Mihaela Ţîrcă. Barqaror rivojlanish uchun innovatsiyalar. Barqaror kelajak sari harakatlanish. “Toza ishlab chiqarish” jurnali, 2019, 20-yanvar, 325–332-betlar.

(3). Ataullayev Zokir Maxsudovich, Masharipov Vafa Ametovich, Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich. Barqaror taraqqiyot tushunchalari vositasida kimyo fanlarini o‘qitishni xalqaro baholash tizimiga moslashtirish. «Urganch davlat pedagogika instituti axborotnomasi» ilmiy-nazariy va metodik jurnali, dekabr 1-son, 2024, 172–177-betlar.

(4). Ergashev A., Rudenko I., Davletov S., Azizov A., Akinshina N., Eshchanov R., Karimov B., Saruk O., Volkov A., Botman Y., Raximov A., Salixov P., Mambetullayeva S., Xodjaeva G., Begdullayeva. Barqaror taraqqiyot va tabiatshunoslik asoslari. Toshkent, “Baktria press”, 2016, 300-bet.

Abdrimova Feruza Kamiljanovna (Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Kompyuter ilmlari” kafedrasi o‘qituvchisi)

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INFORMATIKA DARSLARINI O‘QITISHDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHNING MOHIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilar uchun informatika fanini o‘rgatishda yangi va samarali pedagogik yondashuvlarni ko‘rib chiqiladi. Ushbu mavzu, informatika fanining boshlang‘ich sinflarda o‘rgatilishi jarayonida o‘yin texnologiyalarining muhim rolini ta’kidlaydi. O‘yinli metodlar o‘quvchilarning diqqatini jamlash, bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *o‘yin texnologiyalari, pedagogika, interaktiv ta’lim, motivatsiya, mantiqiy fikrlash, amaliy ko‘nikmalar, innovatsion ta’lim usullari, muammoni hal qilish, pedagogik strategiyalar.*

Абдримова Феруза Камилжановна (преподаватель кафедры компьютерных наук Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни)

СУТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ИНФОРМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. *В статье рассматриваются новые и эффективные педагогические подходы к преподаванию информатики учителям и учащимся. В данной теме подчеркивается важная роль*

игровых технологий в преподавании информатики в начальных классах. Игровые методы имеют большое значение для поддержания внимания учащихся, закрепления знаний и развития практических навыков.

Ключевые слова: *игровые технологии, педагогика, интерактивное обучение, мотивация, логическое мышление, практические навыки, инновационные методы обучения, решение проблем, педагогические стратегии.*

Abdrimova Feruza Kamiljanovna (Lecturer at the Department of Computer Science at the Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni)

THE ESSENCE OF USING GAME TECHNOLOGIES IN TEACHING COMPUTER SCIENCE IN PRIMARY SCHOOLS

Annotation. *The article discusses new and effective pedagogical approaches to teaching computer science to teachers and students. This topic emphasizes the important role of gaming technologies in teaching computer science in elementary grades. Gaming methods are of great importance for maintaining students' attention, consolidating knowledge and developing practical skills.*

Keywords: *Game technologies, pedagogy, interactive learning, motivation, logical thinking, practical skills, innovative teaching methods, problem solving, pedagogical strategies.*

Kirish (Introduction). Informatika ta'limi hozirgi kunda nafaqat bilimlarni o'rgatish, balki o'quvchilarning kreativ fikrlashini va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga ham qaratilgan. Boshlang'ich sinflarda informatika o'qitishning samaradorligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlar, jumladan, o'yin texnologiyalarini qo'llash, muhim ahamiyatga ega. O'yinlar nafaqat o'quvchilarning diqqatini jalb qilishda, balki ular o'rgatayotgan materialni yanada qiziqarli va tushunarli qilishda ham samarali vosita bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich sinflarda informatika o'qitishda o'yin texnologiyalarining qo'llanilishi nafaqat o'quvchilarning bilimini oshirish, balki ularning qiziqishini va faolligini oshiradi. O'yinlar o'quv jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Shuningdek, o'yinlar orqali o'quvchilar ko'plab foydali ko'nikmalarni, masalan, mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoaviy ishni o'rganishadi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda informatika o'qitishda o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda informatika fanini o'qitishda o'quvchilarning qiziqishini oshirish va bilimlarni o'zlashtirishni samarali qilish uchun o'yin texnologiyalaridan foydalanish juda foydali. O'yinlar nafaqat o'quvchilarga yangi ma'lumotlarni o'rganishda yordam beradi, balki ularning mantiqiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradi [1].

O'yin texnologiyalari – bu kompyuter o'yinlari, interaktiv dasturlar va simulyatsiyalarni o'z ichiga olgan ta'lim vositalari. Ularning asosiy maqsadi o'quvchining o'rgatish jarayonida faolligini oshirish, qiziqishini uyg'otish va bilimlarni mustahkamlashdir. Boshlang'ich sinflarda informatika o'qitishda o'yin texnologiyalarini qo'llash, o'quvchilarni yangi bilimlarni o'zlashtirishda ko'proq ishtirok etishga undaydi, shu bilan birga ular uchun o'quv jarayonini o'yin shaklida qiziqarli va interaktiv qiladi [2].

O'yin texnologiyalarining afzalliklari. *Faollik va qiziqish*. O'yinlar o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb etadi. Kompyuter o'yinlari yoki interaktiv dasturlar orqali o'quvchilar o'zlarini virtual dunyoda tajriba qilishlari mumkin, bu esa ularda qiziqish va motivatsiyani oshiradi.

Tez o'zlashtirish. O'yinlar orqali o'quvchilar, o'rgatilayotgan mavzuni amaliyotda qo'llashga imkoniyat yaratadi. Misol uchun, kodlash yoki algoritmlar haqida o'rganayotganda, o'yinlar ularni real va interaktiv kontekstda ishlatishga yordam beradi.

Muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish. Ko'plab o'yinlar mantiqiy fikrlash va tezkor qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Bu o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, bu esa informatika o'qitishining muhim maqsadlaridan biridir.

Hamkorlik va jamoaviy ish. Ko'p o'yinlar kooperativ yoki raqobat asosida qurilgan bo'lib, o'quvchilarga bir-biri bilan ishlashni o'rgatadi. Bu jamoaviy ishni rivojlantirish va o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Xalqaro darajadagi olimlardan **s**hveytsariyalik tadqiqotchi Jean Piaget kognitiv rivojlanish nazariyasi bo'yicha ilmiy izlanish olib borib, "Bolalikdagi o'yin, orzular va taqlid" asarida o'yin bolalarning aqliy rivojlanishida asosiy vosita ekanligini isbotlagan. Rossiyalik olim Vigotskiy ilmiy ishida o'yin ijtimoiy o'rganish va muloqot vositasi sifatida qaraladi; "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasini ilgari surgan. AQSHlik olim Seymur Papert kompyuter o'yinlari va dasturlash orqali ta'lim jarayonini faollashtirishni taklif qilgan. **James Paul Gee amerikalik olim**

o‘quvchilar qanday qilib video o‘yinlar orqali chuqur o‘rganish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkinligini tushuntiradi. O‘zbekistonlik olimlardan O.S.Jo‘rayev dars jarayonida interaktiv va o‘yin elementlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning faolligini oshirish bo‘yicha ilmiy izlanish olib borgan.

M.Q.Komilova boshlang‘ich sinflarda didaktik o‘yinlardan foydalanish metodikasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan. **M.Q.Karimova** multimedia va interaktiv platformalardan foydalangan holda darslarda o‘yin texnologiyasini joriy qilish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Boshlang‘ich sinflarda o‘yin texnologiyalarini qo‘llashning metodologiyasi. *Dasturiy ta’minot va vositalar tanlovi.* Boshlang‘ich sinflarda informatika o‘qitishda ishlatiladigan o‘yin texnologiyalarini tanlashda dasturiy ta’minot va vositalarning o‘quvchilarning yoshiga mos kelishi juda muhim. Yaxshi tanlangan o‘yinlar interaktiv, intuitiv bo‘lishi va o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonida yordam berishi kerak [3].

Integratsiya va modul asosida yondashuv. O‘yinlarni o‘qitish jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qilish kerak. Masalan, informatika darslarida o‘yinlar orqali algoritmlar va dasturlash asoslarini o‘rgatish mumkin. Bu o‘yinlar o‘quvchilarga amaliy misollar va vazifalar yordamida teoriya va amaliyotni birlashtirish imkoniyatini yaratadi.

O‘yin orqali baholash. O‘yinlar o‘quvchilarni baholashda ham samarali vosita bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘yin ichidagi topshiriqlar yoki vazifalar orqali o‘quvchilarning darajasi va bilim darajasi aniqlanishi mumkin.

Informatika axborot texnologiyalari fanini boshlang‘ich sinflarda o‘rgatishda qo‘llaniladigan o‘yin texnologiyalarining asosiy turlari quyidagilar:

Kompyuter o‘yinlari. Kompyuter o‘yinlari o‘quvchilarga informatikani o‘rganishda ko‘plab amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, *Scratch* yoki Tynker kabi vizual dasturlash o‘yinlari bolalarga kodlashni oson va qiziqarli tarzda o‘rgatadi. Ular kod yozish orqali o‘z o‘yinlarini yaratishlari, animatsiyalarni ishlab chiqishlari va algoritmlar yaratishlari mumkin.

Scratch. Bu o‘yin o‘quvchilarga kodlashning asosiy tushunchalarini tushunishga yordam beradi. Ular bloklarni tortib o‘yinlar, hikoyalar va animatsiyalar yaratishlari mumkin.

Tynker. Scratchga o‘xshash, lekin turli mavzularda mashqlar va o‘yinlar orqali o‘quvchilarga kodlashni o‘rgatadi.

Rolli o‘yinlar (Role-playing games). Rolli o‘yinlar o‘quvchilarga o‘zlarini biror muayyan shaxs sifatida tasavvur qilishga imkon beradi. Informatika fani bo‘yicha rolli o‘yinlar o‘quvchilarga real dunyo muammolarini hal qilishda kodlash va muammoni tahlil qilishda yordam beradi. Masalan, o‘quvchilar o‘yinlar yordamida tizimlarni yaratishni yoki muammolarni hal qilishni o‘rganishlari mumkin. Bu o‘yinlar o‘quvchilarga turli algoritmlar va ularning amaliy qo‘llanilishini tushunishga yordam beradi.

Simulatsiya o‘yinlari. Simulatsiya o‘yinlari o‘quvchilarga real dunyo jarayonlarini o‘yin orqali o‘rganish imkonini beradi. Informatika bo‘yicha, bu o‘yinlar o‘quvchilarga ma’lumotlarni tahlil qilish, qarorlar qabul qilish, tizimlar va tarmoqni yaratish kabi bilimlarni o‘rgatishi mumkin [4]. Masalan, Minecraft Education Edition – bu o‘yin o‘quvchilarga bloklar orqali dunyo yaratish, algoritmik fikrlashni rivojlantirish va matematik masalalarni yechishda yordam beradi. Bu o‘yin informatika fani bo‘yicha turli xil vazifalarni bajarishda qulay vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Kodlash bo‘yicha viktorinalar va test o‘yinlar. Viktorina yoki test o‘yinlari orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini sinab ko‘rishlari mumkin. Bu o‘yinlar informatika fani bo‘yicha mashqlarni bajarishda va bilimlarni mustahkamlashda foydalidir. Masalan, quizlet – o‘quvchilarga terminlarni va asosiy tushunchalarni o‘rganish uchun turli xil viktorinalar va testlar taqdim etadi.

Kahoot! Bu platformada o‘quvchilar uchun qiziqarli viktorinalar tuzish mumkin. O‘yin yordamida o‘quvchilar informatika fanining asosiy mavzularini mustahkamlashadi.

Fizik o‘yinlar (Offline o‘yinlar). Ba’zi o‘yinlar kompyuter yoki smartfon yordamida emas, balki to‘g‘ridan to‘g‘ri sinfda, qog‘oz yoki jismoniy materiallar yordamida o‘ynaladi. Bu o‘yinlar bolalarga kodlash va algoritmlar haqida nazariy tushunchalarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi. Masalan, **“Algoritmni tuzish” o‘yini.** O‘quvchilar turli qadamlarni aniq ifodalab, kodlashning asosiy tamoyillarini o‘rganadilar. Bu o‘yin o‘quvchilarga algoritmik fikrlashni o‘rgatadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Boshlang‘ich sinflarda “Axborot haqida tushuncha” mavzusini o‘tishda o‘yin metodlarini qo‘llash. Boshlang‘ich sinflarda ta’limni samarali va qiziqarli qilishda o‘yin metodlari juda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, bilimni mustahkamlaydi va o‘quv jarayonini yanada interaktiv va faol qiladi. “Axborot haqida tushuncha” mavzusini o‘rgatishda o‘yin metodlarini qo‘llash, nafaqat o‘quvchilarga yangi bilimlarni oson va

qiziqarli shaklda taqdim etishga yordam beradi, balki axborot texnologiyalarining asosiy tushunchalari bilan tanishtirishda ham samarali vosita bo‘lishi mumkin.

O‘yin metodlarining afzalliklari. **Qiziqarli va faol o‘rganish**. O‘yinlar o‘quvchilarning o‘rganish jarayonida faol ishtirok etishlarini ta’minlaydi. O‘quvchilar o‘yin orqali yangi bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu usul, ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda ta’limni yanada samarali va esda qolarli qiladi.

Tushunchalarni osonlashtirish. O‘yinlar orqali murakkab axborot texnologiyalari tushunchalarini soddalashtirib, o‘quvchilarga tushunarli va qiziqarli tarzda taqdim etish mumkin. Masalan, axborotning nima ekanligi, uning qanday turli shakllarda mavjudligi haqida o‘quvchilarga o‘yinlar orqali tushuncha berish mumkin.

Jamoaviy ishni rivojlantirish. Ko‘plab o‘yinlar guruh bo‘lib o‘ynashni talab qiladi, bu esa o‘quvchilarning bir-biri bilan ishlash, jamoaviy fikrlash va hamkorlik qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu axborot texnologiyalari haqida muhokama qilish va fikr almashish imkonini yaratadi.

“Axborot haqida tushuncha” mavzusini o‘rgatishda qo‘llaniladigan o‘yin metodlari.

“Axborot ballonchalari” o‘yini. Bu o‘yin o‘quvchilarga axborot haqida tushuncha berishda qulay vosita hisoblanadi. O‘quvchilarga rangli papkalar yoki plastmassa to‘pchalari (ballonlar) tarqatiladi, ularning har biri axborotning turli shakllarini (matn, tasvir, video, ovoz va h.k.) ifodalaydi. O‘quvchilarga berilgan topshiriqqa muvofiq, ular o‘z ballonchasini tanlashlari kerak va uning axborot bilan qanday aloqasi borligini tushuntiradilar. Bu o‘yin orqali o‘quvchilar axborotning turli shakllari haqida o‘rganadilar.

“Axborot ballonchalari” o‘yini bu o‘quv jarayonida yoki guruh muhokamalarida foydalanish uchun mo‘ljallangan o‘yindir. Bu o‘yin o‘quvchilarning yoki ishtirokchilarning jamoaviy ishlarini, fikrlashlarini va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘yin, asosan, guruhda ma’lumot almashishni va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni ta’minlashga qaratilgan.

O‘yin quyidagicha o‘ynaladi [6]:

1. **O‘yin shartlari.** Ishtirokchilarga ballonchalar (ko‘pincha, plastik yoki shishadan) taqdim etiladi. Har bir ballonchada ma’lum bir axborot yoki savol yozilgan bo‘ladi.
2. **Tashkilot.** O‘yin boshida o‘quvchi yoki jamoa azolariga ballonchalardan har biri bir-biriga topshiriladi. Ballonchadagi savol yoki axborot bo‘yicha ishtirokchi javob berishi yoki o‘z fikrini bildirishi kerak bo‘ladi.
3. **Vaqt chegarasi.** Javoblar berish uchun ma’lum bir vaqt belgilanishi mumkin, bu vaqt ichida ishtirokchilar tez va aniq javoblar berishga intilishadi.
4. **Maqsad.** O‘yinning asosiy maqsadi o‘quvchilarga ma’lumotni tez va samarali tahlil qilishni o‘rgatish, bir-birini tushunishga yordam berish va guruhda fikr almashishni rag‘batlantirishdir.

O‘yin, ko‘pincha, guruhlarni shakllantirish, muhokama qilish yoki mavzuga oid fikrlarni to‘plab, ularni birgalikda tahlil qilishda yordam beradi. Agar o‘yinning aniq versiyasi yoki o‘yinlar haqida batafsilroq ma’lumot kerak bo‘lsa, shuni ham aniqlash mumkin [7].

“Axborot sayohati”. Bu o‘yin o‘quvchilarga axborotning qanday oqimini tushuntirish uchun juda mos keladi. O‘quvchilar bir-biriga turli axborotlarni uzatishlari kerak (masalan, telefon orqali, yozma xatlar, internet orqali va h.k.), lekin har bir axborotning uzatilishi uchun to‘g‘ri yo‘lni tanlashlari kerak. Bu o‘yin o‘quvchilarga axborotning qanday uzatilishini va uning to‘g‘ri yo‘llarini tushuntiradi [8].

1-rasm. Axborotning inson tomonidan qabul qilinishi.

“Axborot kartalari”. Bu o‘yin o‘quvchilarga axborotning turli elementlari (matn, tasvir, ovoz, video) haqida tushuncha berish uchun ishlatiladi. O‘quvchilarga bir nechta kartalar tarqatiladi, ular ustida axborotning turli shakllari (masalan, rasm, matn, video) bo‘ladi. O‘quvchilar bu kartalarni to‘g‘ri joylashtirishlari yoki ularning turli shakllari bilan bog‘liq savollarga javob berishlari kerak.

“Axborot poygasi”. Bu o‘yin, o‘quvchilarga axborotning qanday tezda tarqatilishini tushuntirish uchun foydalidir. O‘quvchilar ikki yoki uch guruhga bo‘linadi va har bir guruhga axborot beriladi. Ular axborotni turli vositalar orqali (telefon, kompyuter, pochta va h.k.) bir-birlariga uzatishlari kerak. Kim birinchi bo‘lib to‘g‘ri axborotni yetkazsa, shu guruh g‘olib bo‘ladi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilar axborot uzatish usullarini o‘rganadilar.

“Axborotni aniqlash”. Bu o‘yin orqali o‘quvchilar turli manbalardan olingan axborotni tekshirib, uning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlashlari kerak. O‘quvchilarga turli xil ma’lumotlar (matnlar, rasmlar, videolar) taqdim etiladi va ular bu ma’lumotlarni tahlil qilishlari, tekshirishlari va ularning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlashlari kerak. Bu o‘yin orqali o‘quvchilar axborotning ishonchliligini baholashni o‘rganadilar.

Xulosa. Boshlang‘ich sinflarda “Axborot haqida tushuncha” mavzusini o‘rgatishda o‘yin metodlaridan foydalanish o‘quvchilarga nafaqat qiziqarli, balki ta’lim jarayonini samarali qilishga yordam beradi. O‘yinlar yordamida axborot texnologiyalarining asosiy tushunchalari o‘quvchilarga oson, qiziqarli va interaktiv tarzda yetkaziladi. Bu metodlar o‘quvchilarda axborotning turli shakllari, uzatilish yo‘llari va uning ishonchliligi haqida aniq tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Qodirova N. Informatika va axborot texnologiyalari, Darslik, Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2022.

(2). Xudoyqulov Q., To‘xtayev N. Informatika o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, TDPU, 2021.

(3). Toshpo‘latova Sh. O‘yinli texnologiyalarni boshlang‘ich ta’limda qo‘llash imkoniyatlari. “Xalq ta’limi” jurnali, 2020, 2-son.

(4). Abdullayeva M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga informatika fanini o‘rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-amaliy jurnali, 2021, 4-son.

(5). Karimova D. Dars jarayonida o‘yin texnologiyalarining o‘rni. “Ilm va innovatsiya” jurnali, 2022, 1-son.

(6). Горячева Н.А. Информационные технологии в начальной школе. Москва, “Академия”, 2020.

(7). Симоненко В.Д. Методика преподавания информатики в начальных классах. Санкт-Петербург, “Питер”, 2019.

(8). Фёдорова Е.В. Игровые технологии в обучении информатике младших школьников. “Начальная школа”, 2021, 3-son.

Abdirahmonov Lazizbek Latipboyevich (Urganch davlat Pedagogika instituti “Jismoniy madaniyat” kafedrasi dotsenti)

12–14 YOSHLI FUTBOLCHILAR TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola 12–14 yoshli futbolchilar texnik tayyorgarligining boshqa tayyorgarligini oshirish zamonaviy usullari haqida fikrlar bayon etilgan bo‘lib, unda yosh futbolchilarini har tomonlama rivojlantirish, ularning tayyorgarligini oshirish, yetarli shart-sharoitlar yaratib berish juda muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, futbol mashg‘ulotlarini tashkil etish, muallif texnik-taktik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish masalalarni yoritgan. Yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligi tarkibiy qismlarini rivojlantirish, texnikaga o‘rgatishda aniqlik, tezkorlik va sezgirlik hamda maxsus epchillik haqida muallifning fikr va mulohazalari berilgan.*

Kalit so‘zlar: *futbol, texnika, taktika, tezkorlik, mashg‘ulot, yugurish, sakrash, sensorimotor, sport, chi-damlilik, muskul, texnik tayyorgarlik.*

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ТЕХНИЧЕСКОЙ И ТАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ФУТБОЛИСТОВ 12–14 ЛЕТ

Аннотация. *В данной статье описаны современные методы совершенствования технической подготовки футболистов 12–14 лет. Очень важно развивать, повышать их подготовленность, создавать достаточные условия. Кроме того, автор осветил вопросы организации футбольных тренировок и эффективной организации технико-тактических тренировок. Приводятся*

мнения и комментарии автора о развитии компонентов технической подготовки юных футболистов, точности, быстроты и чуткости в технике обучения, а также специальной ловкости.

Ключевые слова: *футбол, техника, тактика, быстрота, тренировка, бег, прыжки, сенсомоторный, спорт, выносливость, мышцы, техническая подготовка.*

MODERN METHODS OF INCREASING THE TECHNICAL AND TACTICAL TRAINING OF 12–14 YEAR-OLD FOOTBALL PLAYERS

Annotation. *This article presents ideas about modern methods of improving the technical training of 12–14 year-old football players. It is very important to develop, improve their readiness, and create sufficient conditions. In addition, the author covered the issues of organizing football training sessions and effective organization of technical and tactical training sessions. The author's opinions and comments are given about the development of components of technical training of young football players, accuracy, speed and sensitivity in teaching technique, as well as special dexterity.*

Key words: *football, technique, tactics, quickness, training, running, jumping, sensorimotor, sports, endurance, muscle, technical training.*

Kirish. Mamlakatimizda futbolni rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sa’y-harakatlari va qaror va farmonlari samara bermoqda. Bular “O‘zbekiston Respublikasida futbolni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 144-, “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 27-, 2018-yil 16-martdagi “Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3610-, 2019-yil 4-dekabrdagi PF-5887-, “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror va farmonlari asosida futbol rivojlanmoqda. Hozirgi kunda o‘zbek futbolchilari Yevropa maydonlarini zabt etib kelmoqda.

Yaqinda Saudiya Arabistoni maydonlarida o‘tkazilgan 17 yoshgacha bo‘lgan futbolchilar o‘rtasidagi Osiyo chempionatida, O‘zbekiston o‘smirlar terma jamoasi Saudiya Arabistoni jamoasini 2:0 hisobida mag‘lub etib, qit’a chempionligini O‘zbekistonda futbolni rivojlanmoqda, desak bo‘ladi. 12–14 yoshli futbolchining texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish uning texnik va taktik mahoratini shakllanishi bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Futbolchilarni o‘yin faoliyati davomida fa-qat sakrash, yugurish va yurishdan iborat emasligi, ularning harakati anchagina murakkab bo‘lib, raqib bilan kurashishi, eng katta tezlikda yugurish, murakkab taktik vazifalarni bajaradi. Shuning uchun futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi ularning o‘yin faoliyatni xarakterini hisobga olgan holda shunday qilish kerakki, bu ularga texnik va taktik mahoratini oshirishga asos bo‘lsin. Olim R.A.Akramov futbolchining umumiy tayyorgarligi jismoniy qobiliyat har tomonlama tarbiyalash, umumiy ish qobiliyatini oshirish vazifalarini hal qilinishi va umumiy rivojlantiruvchi mashqlarining shug‘ullanuvchilar organizmga umumiy ta’sir ko‘rsatuvchi sportning boshqa turlari bilan bog‘liqligini ta’kidlaydilar. G.A.Lisenchuk (2003), umumiy tayyorgarlikni oshirish maqsadida qo‘llaniladigan ko‘pgina mashqlar organizmga har tomonlama ta’sir ko‘rsatishni, jumladan, baland-past joylarda uzoq muddat yugurish ko‘proq chidamlilikni, qisqa masofalarda jadal yugurish tezlikni rivojlantirishga, gimnastik mashqlar chaqqonlikni o‘stirishga qaratilishni e’tirof etishadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). A.V.Petuxov taktik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari haqida gapirar ekan, 10–11 yosh operativ fikrlash tezligini rivojlantirish, diqqatni almashtirish va taqsimlash uchun sensetiv davr ekanligini ta’kidlaydi. 12 yoshdan boshlab operativ fikrlashning aniqligi, diqqatning hajmi va barqarorligini maksimal darajada oshirish boshlanadi.

Futbolchilarning sensorimotor reaksiya va bashorat qiluvchi reaksiya bu yoshda juda tez rivojlanadi, bu 12–13 yoshdagi maksimal o‘sish suratlarini ko‘rsatadi. Futbolchilarning operatsion fikrlashning to‘g‘riligi, diqqatning hajmi va barqarorligini, axborot qabul qilish va qayta ishlash tezligi va harakatlanayotgan obyektga reaksiyasi 10–11 yoshdagi o‘sishning past ko‘rsatkichlari bilan ajralib turadi. Yosh futbolchilarni tayyorlash jarayoni hisobga olgan holda, rejalashtirish ushbu yaxlit jarayonini har xil turlariga bo‘lishidan foydalanishni ko‘rish mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mutaxassislar futbol o‘ynash uchun kamida uchta muhim qobiliyatga ega bo‘lishni ta’kidlashadi. Ya’ni, bu jismonan rivojlangan, o‘yin texnikasini yuqori darajasini egallagan va maydonda o‘zini yaxshi tuta oladigan bo‘lishlari kerak. Bunda tayyorgarlik turlarining deyarli barchasi nazarda tutiladi. Har bir tayyorgarlik turi boshqasiga bog‘liqdir. Masalan, yuqori jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lmasdan turib, qo‘llangan texnika yoki taktik harakat kutilgan samarani bermaydi yoki aksincha, futbolchi yuqori jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lsa-yu, lekin texnik harakatlarni qo‘llashda

no‘noq bo‘lsa, bu jismoniy yetuklikdan ham naf kutilganday bo‘lmaydi. Texnik elementning samarali qo‘llanishi har doim ma’lum bir sifatlar, masalan, mushak, kuch, tezkorlik, chidamlilikka asoslanadi. Futbolchining tezkorligi, chaq-qonligi va chidamliligi yuqori darajada rivojlangan bo‘lishi texnik harakatlarni erkin va samarali bajarishga imkon beradi. M.A.Godik fikriga ko‘ra, sport turlarida yuqori malakali sportchilarni tayyorlash jismoniy sifat-larning riviojlanganlik darajasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqdir. Agar o‘yinchining texnik tomondan malakasi yuqori bo‘lib, taktik masalalarni tezda samarali hal qila oladigan jismoniy holati past darajada bo‘lsa, unda o‘yinda o‘z kuchini ko‘rsatishi qiyin bo‘ladi. Chidamlilik, kuchlilik, tezkorlik, chaqqonlilik bunda eng zarur jismoniy sifatlardir.

Futbolchilar chidamliligining namoyon bo‘lishi ikkinchi taymning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Futbolchilarning chidamliligi deganda, o‘yinning boshidan oxirigacha o‘yin faoliyatini hech bo‘shashtirmasdan davom ettira olish qobiliyati tushiniladi. Aksariyat jamoalarning o‘yin yakunida g‘alabani qo‘ldan boy berib qo‘yishi ham o‘yinchilarning chidamlilik darajasiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Chidamlilik va texnikaning bog‘liqlgi ham obyektivdir: chidamlilgi bo‘sh, toliqqan muskullarga ega bo‘lgan futbolchi aniq va o‘ta nozik harakatlanishga qodir emas. Toliqqan muskullar o‘yin vaziyati qanchalik talab qilmasin, asab tizimining “buyruqlariga’’ bo‘ysunmaydi. Chidamlilikning yetishmasligi, keyinchalik, texnikada xatolarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Texnikaning tezlik, chaqqonlik, egiluvchanlik yoki boshqa jismoniy sifatlar bilan bog‘liqligi ham xuddi shunday bog‘liqlikda mavjuddir. Texnikani jismoniy sifatlarni takomillashtirishdan ajralgan holda o‘rgatishni xohlaydigan murabbiy noto‘g‘ri yo‘ldan borayotgan hisoblanadi (4;6-b.).

Texnik mahorat futbolchi biladigan texnik usullarning hajmi va serqirraligi, shuningdek, ularni o‘yin sharoitida samarali qo‘llash malakasi bilan tavsiflanadi. Futbolchi o‘zi egallagan, takomillashtirgan texnikani zarur optimal kuch, tezlik, chidamlilik va boshqa jismoniy sifatlar bilan muvofiqlashtira olsa, u natijali o‘yin ko‘rsatishi mumkin. Agar futbolchi munosib kuch va tezlikka ega bo‘lmasa, futbol o‘yini texnikasi usullarini samarali bajarishga qodir bo‘lolmaydi. Futbolchining nimjonligi va tezligining sustligi uning yuqori darajadagi texnikasi foydali ish koeffitsiyentini ham deyarli nolga tenglashtiradi. Chunki bunday holatda futbolchi texnik elementni samarali qo‘llashga qodir bo‘lolmaydi. Albatta, texnikani mustahkamlash o‘z-o‘zidan zarur jismoniy sifatlarni rivojlantiradi, faqat u yetarli darajada bo‘lmasligi mumkin (4;5-b.).

O‘yin paytidagi kurash sharoitlari doimo va tez o‘zgarib turadi, shuning uchun beto‘xtov va bir zumda o‘yin vaziyatining o‘zgarishiga moslashishi lozim bo‘ladi. Harakatlarni tez egallab olgan, ulardan o‘yin paytida oqilona foydalana oladigan, o‘yinda yuzaga kelgan vaziyatlarda tez va aniq yo‘l topa oladigan, o‘yindagi holatlarni oldindan ko‘zlay oladigan va shunga muvofiq eng to‘g‘ri yechimlarni topadigan futbolchi chaqqon o‘yinchi hisoblanadi. Yosh futbolchi oldiga uning tayyorgarligiga nisbatan yanada qiyinroq vazifalar qo‘yilsa, bu chaqqonlikni tarbiyalashning eng samarali usuli hisoblanadi. Harqanday mashqni qiyinlashtirish (murakkablashtirish) mumkin. Buni boshqacha hal etish ham mumkin: yosh o‘yinchi oldiga kutilmaganda paydo bo‘lgan vazifalarni qo‘yish. Bunday vazifalar shunday bo‘lishi kerakki, o‘yinchi ko‘p sonli imkoniyatlardan birini tanlashi va qanday usulni qo‘llash lozimligini o‘zi hal etishi mumkin bo‘lsin. Chaqqonlikka qaratilgan mashqlar, birinchi navbatda, markaziy asab tizimiga ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida o‘yinchi psixik toliqishni boshdan kechiradi. Shu sababli chaqqonlikka qaratilgan mashqlar quyidagi sharoitlarda: o‘yinchilar dam olib bo‘lganlarida; o‘quv-mashg‘ulot jarayonning asosiy qismi boshida qo‘llaniladi (4,5,6).

Futbolchilarning texnik tayyorgarligi faqat jismoniy tayyorgarlik bilan bog‘liq bo‘lmay, balki ruhiy va taktik tayyorgarlik turlari bilan ham hambarchars bog‘liqdir. Futbolchida tayyorgarlik turlari (jismoniy, texnik, taktik, ruhiy)ning qaysidir biri oqsar ekan, u maydonda bir qanoti yo‘q qushday harakat qiladi. Iroda sifatlarini tarbiyalash sportchilarni mashg‘ulotlar paytida, shuningdek, musobaqalar paytida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi. Futbolchilarga zarur bo‘lgan asosiy iroda sifatlariga jasorat va qaror qabul qilish, intiluvchanlik va qat’iyatlilik, chidamlilik va o‘zini tuta bilish, tashabbuskorlik va intizom kiradi. Agar futbolchi yetarli darajada ruhiy tayyorgarlikka ega bo‘lmasa, maydonda o‘z kuchiga ishonib harakat qilmasa, u futbolchining yuqori darajadagi texnik-taktik va jismoniy tayyorgarligi jamoasiga hechqanday foyda keltirmaydi. Murabbiy futbolchida g‘alabaga intiluvchanlikni tarbiyalashi lozim. O‘yinga tayyorlashda har bir futbolchining individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. Ma’lumki, har bir bolada o‘zining individual xa-rakteri bo‘lib, u o‘sib ulg‘aygan sari rivojlanib boradi va odatga aylanadi. Bolalik chog‘ida ijobiy emotsional sifatlarni rivojlantirish yoki o‘yin uchun salbiy emotsional sifatlarni bartaraf etish mumkin. Aks holda, futbolchi ulg‘aygach, maydonda o‘zini yaxshi tutmaydi, murabbiyga bo‘ysunmaydi, hakamlar va raqib jamoa o‘yinchiari bilan janjallashishga moyil bo‘ladi, buning oqibatida

sariq yoki qizil kartochka olib jamoasiga ziyon keltiradi. Tabiiyki, bunaqa futbolchilar uzoqqa ham borisha olishmaydi. Shuning uchun, albatta, bolada yoshlik chog‘idanoq oliyjanoblik, mardlik, o‘zaro hurmat, g‘alabaga intiluvchanlik kabi fazilatlarni shakllantirib borish zarur. Murabbiy va bola o‘rtasidagi ijobiy shaxslararo munosabatlarni oqilona olib borish o‘quv jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi, chunki ular orqali o‘quvchi murabbiy tomonidan berilayotgan ma’lumotlarini diqqat va xohish bilan o‘zlashtiradi. Bola undan nimani istashlarini tushunishi kerak, chunki u futbolni boshqacha qabul qiladi. Bu yoshda o‘yin vazifalarini haddan tashqari ko‘p yuklamaslik kerak, chunki ular qiyin va o‘yinchilar tomonidan istak bilan eslab qolinmaydi. Sportchini yaxshi mikroiqlimga moslashtirish kerak, atrofdagilar bilan bir-birini yaxshi tushunishi kerak.

Psixologik jihatdan, o‘smirlarning umumiy yosh xususiyatlaridan biri bu o‘ziga bo‘lgan ishonch zarurati. U o‘yindagi g‘alabalarga emas, balki unga erishishdagi mashg‘ulot jarayoniga asoslanadi. O‘yindagi g‘alaba – bu sifatli mashg‘ulotlar va unga ongli ravishda yondashish natijasidir, bu yerda irodani ishlatib, texnik elementlarni bajarish qobiliyati namoyon bo‘ladi. Psixologik jihatdan xotirjam ishlash muhiti, jamoada hurmat va g‘amxo‘rlik muhiti bo‘lishi kerak.

O‘yin oldidan bolalarni ruhiy tayyorlash ayni muhim jarayondir. Asosiy jihat ularning maydonda o‘z kuchlariga ishonib harakat qilishlarini ta’minlash zarur. Shu bilan birga, o‘yinning ahamiyati, chempionatdagi g‘alabaning tub mohiyatini yetkaza bilish lozim. Suhbatlarning cho‘zilishi, murabbiyning bezovtalanishi o‘yinchilar ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, hayajonini kuchaytiradi. Odatda, begona shaxslaming aralashuvi, ularning maslahatlari jamoaning o‘yinga tayyorgarligini susaytiradi. Har bir futbolchida iroda sifatlari rivojlangan bo‘lishi lozim. Iroda sifatlarining rivojlanishi jismoniy, texnik, taktik, nazariy tayyorgarliklar bilan bog‘liq. Iroda sifatlari o‘yin holatiga mos mashqlar uzluksiz ravishda bajarilganda tarbiyalanadi. O‘z kuchiga ishonchni tarbiyalash, mas’uliyatni sezish, maqsad va vazifalami tushuntirish, murabbiyning talabchanligi, kundalik o‘z-o‘zini nazorat qilish – bularning barchasi iroda sifatlarini tarbiyalashda muhim. Har bir futbolchida irodaviy sifatlar yuqori darajada rivojlangan bo‘lishi lozim. Dadillik, qat’iylik, bosiqlik va intizomlilik asosiy irodaviy xislatlardir. Maydonda o‘z kuchiga ishonib harakat qilgan futbolchi texnik harakatlarni yuqori saviyada bajara oladi va jamoasiga ancha foyda keltiradi (3;6-b.).

Texnika va taktika tushunchalari ham bir-biriga o‘zaro bog‘liqdir. Futbolchi texnik harakatlarni a’lo darajada o‘zlashtirgan bo‘lsa-yu, ammo o‘yin holatida vaziyatni aniq baholay olmasa, tezda qaror qabul qila olmasa, murabbiy ko‘rsatmalarini o‘yin davomida bajara olmasa, bu a’lo darajadagi texnika ham katta amaliy ahamiyat kasb etmaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, futbol sohasidagi ilmiy izlanishlarni davom ettirib, samara beradigan usullarni yaratish, futbol murabbiylarining bilimlari va saviyasini yuqori darajaga olib chiqish kerak. Texnik va taktik tayyorgarlik bo‘yicha futbol mashg‘ulotlarini jismoniy va ruhiy tayyorgarlik bilan chambarchars bog‘lagan holda olib borish maqsadga muvofiqdir.

12–14 yoshli futbolchilarning to‘p bilan ishlash texnikasini shakllantirish ularning sport faoliyatidagi dastlabki bosqichlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur yosh davrida bolalar organizmining jismoniy va psixologik rivojlanish sur’atlari yuqori bo‘lib, murakkab texnik harakatlarni o‘zlashtirishga nisbatan sezilarli qobiliyatga ega bo‘ladilar. Shu sababli aynan ushbu davrda to‘p bilan ishlashning asosiy ko‘nikmalarini to‘g‘ri va tizimli o‘rgatish kelajakdagi texnik-taktik tayyorgarlikning poydevorini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-farmoni.

(2). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martdagi “Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”da PQ-3610-qarori.

(3). Xo‘jayev P., Tulenova X., Niyozov A., Erejepov A., “Futbol saboqlari”. Toshkent, 2013.

(4). Nurimov R.I., Abidov Sh.U., Nurimov Z.R., Davletmuratov S.R. “Sport va milliy o‘yinlar (Futbol). “ITA-PRESS”, 2015.

(5). Salomov. R.S. Jismoniy tarbiya nazaryasi va uslubiyati. 1 jild, darslik, Toshkent, 2015.

(6). “Jismoniy tarbiya va sportni ommaviyligini oshirishning dolzarb muammolari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi. Urganch, 27-oktabr 2020-yil.

(7). Akramov J.A., Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning musobaqa faoliyatning xususiyatlari. “Fan–sportga”, 1-son, 2007.

(8). Лисенчук Г.А. Управление подготовки футболистов. К.,изд. Олимпийская литература, 2003, ILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758),2(06), c. 55–68.

Dusyarov Salimjon Xudaymuratovich (Termiz davlat universiteti “Sport boshqaruvi” kafedrasi o‘qituvchisi; E-mail: salimjonjavohir@gmail.com)

11–13 YOSHLI O‘QUVCHILARDA JISMONIY MADANIYATNI HARAKATLI O‘YINLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH MODELI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 11–13 yoshli maktab o‘quvchilarining jismoniy madaniyatini harakatli o‘yinlardan foydalanish asosida shakllantiruvchi ta’lim modeli haqida fikr yuritilgan va atroflicha ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, hozirgi zamonaviy ta‘lim jarayonidagi texnologiyalarning o‘rni, foydalanish samaradorligi, maqsad va vazifalari ham tahlil qilinib, amaliyotga tatbiq etish yo‘llari muhokama qilindi, maktab o‘quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirishda harakatli o‘yin turlari, ularni qo‘llash metodikasi va foydalanish imkoniyatlari yoritildi.*

Kalit so‘zlar: *maktab o‘quvchilari, jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, harakatli o‘yinlar, pedagogik shart-sharoitlar, shakllantirish, model, texnologiya, harakatli o‘yinlarning o‘rni, harakatli o‘yinlarning ahamiyati.*

Дусяров Салимжон Худаймуратович (преподаватель кафедры спортивного менеджмента Термезского государственного университета; E-mail: salimjonjavohir@gmail.com)

МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У УЧАЩИХСЯ 11–13 ЛЕТ ЧЕРЕЗ ПОДВИЖНЫЕ ИГРЫ

Аннотация. *В статье рассматривается и подробно излагается образовательная модель, формирующая физическую культуру школьников 11–13 лет на основе использования подвижных игр. Также были проанализирована роль технологий в современном образовательном процессе, их эффективность, цели и задачи, обсуждены пути внедрения их в практику, выделены виды подвижных игр, способы их применения и возможности использования в формировании физической культуры школьников.*

Ключевые слова: *школьники, физическое воспитание, физическая культура, подвижные игры, педагогические условия, формирование, модель, технология, роль подвижных игр, значение подвижных игр.*

Dusyarov Salimjon Khudaymuratovich (Teacher of the Department of Sports Management at Termez State University; E-mail: salimjonjavohir@gmail.com)

A MODEL FOR DEVELOPING PHYSICAL CULTURE IN 11–13-YEAR-OLD STUDENTS THROUGH ACTIVE GAMES

Annotation. *This article discusses and provides detailed information about the educational model that forms the physical culture of 11–13-year-old schoolchildren based on the use of active games. Also, the role of technologies in the modern educational process, their effectiveness, goals and objectives were analyzed, ways of their implementation were discussed, types of active games in the formation of the physical culture of schoolchildren, methods of their application and possibilities of use were highlighted.*

Keywords: *Schoolchildren, physical education, physical culture, active games, pedagogical conditions, formation, model, technology, the role of active games, the importance of active games.*

Kirish (Introduction). Bugungi globallashuv jarayonida milliy davlatlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri – sog‘lom, ma’naviy yetuk va barkamol avlodni tarbiyalash. O‘zbekiston Respublikasida ushbu vazifa nafaqat ta’lim sohasining, balki umumiy davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu ma’noda, o‘sib kelayotgan yosh avlodning sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash, ularni har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash masalalari davlat siyosati darajasidagi muhim masalalar sirasiga kiradi. Mazkur strategik maqsadlarning amalda ro‘yobga chiqishi, avvalo, ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlar, xususan, jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari va sport sohasi vakillarining malakasi, bilim saviyasi va ma’naviy-axloqiy fazilatlariga bevosita bog‘liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Harakatli o‘yinlar va milliy sport turlarining mohiyati borasida bir qator mahalliy olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Xususan, o‘zbekistonlik olimlardan T.S.Usmonxo‘jayev, A.A.Po‘latov, Sh.A.Po‘latov, D.X.Abdullayev, P.Xo‘jayev, K.Rahimqulov, B.Nigmo-novlarning “Xalq harakatli o‘yinlari nazariyasi va amaliyoti” [6], “Harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi” [6] nomli adabiyotlarida xalq harakatli o‘yinlarining vujudga kelishi va rivojlanish tarixi, xalq harakatli o‘yinlarining mohiyati va tasnifiy xususiyatlari, turli maskanlarda harakatli o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazish, o‘yin rahbariga qo‘yiladigan talablar, sport turlariga xos harakatli o‘yinlar, harakatli o‘yinlar va ularning mazmuni, harakatli o‘yinlarni o‘rgatishga doir ma’lumotlar berilgan. Termiz davlat universiteti Sport faoliyati fakultetida bugungi kunda faoliyat olib borayotgan olimlardan pedagogika fanlari nomzodi.,

dotsent R.X.To‘laganov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Y.Ch.Daniyeva [2], pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori X.Berdiyeva, surxondaryolik olimlardan Y.Abdullayev, Sh.Xudoyberdiyevlar harakatli va xalq o‘yinlardan foydalanish samaradorligi, uning ilmiy-amaliy asoslari, pedagogik shart-sharoitlari haqida ilmiy izlanishlarni olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). 11–13 yoshli o‘quvchilarda jismoniy madaniyatni harakatli o‘yinlar orqali shakllantirish modelini yoritib berishga bag‘ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqot-ning analogik tahlil, analiz, sintez kabi usullaridan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Maktab o‘quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirishda yoshga xos xususiyatlarga moslab tanlangan harakatli o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. Bunday o‘yinlar nafaqat jismoniy rivojlanish, balki funksional tizimlarning faoliyatini yaxshilash, jismoniy tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda harakatli o‘yinlardan oqilona foydalanish, ular asosida pedagogik model yaratish orqali o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ma’naviy va madaniy jihatdan yetuk shaxsni tarbiyalash imkonini beradi [4;71-b.].

Mazkur o‘yinlarni tashkil etishda sport anjomlarining mavjudligi, o‘yin maydonchasining xavfsiz va qu-lay bo‘lishi, o‘quvchilarning yoshi va jismoniy tayyorgarligi hisobga olinishi pedagogik samaradorlikning muhim omilidir. Ushbu shart-sharoitlar harakatli o‘yinlarni ta’lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi sifatida olib borishga zamin yaratadi [3;19-b.].

Harakatli o‘yinni o‘tkazish yuzasidan quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga e’tibor qaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jumladan, avvalo, kerakli sport anjomlari, asbob-uskunalar, masalan, turli o‘lchovdagi arqondan, jundan, lentadan, rezina yoki kauchuklardan yasalgan koptokchalar, to‘ldirma to‘plar, voleybol, futbol va basketbol to‘plari, otish va irg‘itish uchun uzunligi 1 m uzunlikdagi sport tayoqlari, belbog‘lar, turli bayroqchalar, taxtachalar, obruchlar, tibbiy quticha va boshqalar. O‘yin o‘tkaziladigan maydoncha tekis va toza bo‘lishi, tikan, toshlar, shisha siniqlari va boshqa keraksiz narsalardan tozalanib, doimo toza tutilishi lozim. Mashg‘ulot o‘tkazilayotgan vaqtda o‘yin maydonchasida begona kishilar bo‘lmasligi kerak. Chunki ular o‘quvchilarning xayolini bo‘ladilar va ularni o‘yindan chalg‘itib, ortiqcha harakatlar qilishga majbur etishlari mumkin, maydonchani asbob-uskunalar bilan ta’minlash, bundan tashqari, u yerdagi tabiiy buyum va narsalardan ham foydalanilsa, harakat va o‘yin jarayoni tabiiyroq chiqadi. Shu bilan birga, o‘yinlarni o‘tkazishda quyidagi sanitariya va gigiyena qoidalariga rioya qilinishi lozim:

▪o‘yin paytida kiyiladigan kiyim harakatlarni qiyinlashtirmaydigan, yengil bo‘lishi, imkon darajasida, paxta mato bo‘lishi, almashtirib kiyilmasligi kerak;

▪yozda o‘yindan so‘ng, turli tozalik vositalardan foydalanish, yuvinish, cho‘milish va toza sochiqda arti-nish kerak;

▪o‘yin boshlanishidan oldin maydonchaga suv sepilishi, tozalanishi, saranjom-sarishta qilinishi lozim [2; 113-b.].

Avvalo, jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

▪o‘qituvchi o‘yin nazariy va amaliy qoidalarini to‘liq o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak;

▪o‘yinning mohiyati o‘quvchiga to‘liq tushunarli bo‘lishi lozim;

▪tanlangan o‘yin o‘quvchilar hayotida o‘zi ko‘rgan real voqelikka asoslangan, tanish, o‘zi xabardor bo‘l-gan holatlar bilan bog‘liq holda kechishi lozim;

▪o‘yinga oldindan puxta tayyorgarlik ko‘rish va uning nazariy mohiyatini anglash.

Harakatli o‘yinlar 11–13 yoshli maktab o‘quvchilarining harakatlarini o‘stirish va takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Harakatli o‘yinlar yurish, yugurish, sakrash, irg‘itish yoki uloqtirish, biror narsaga tir-mashib chiqish kabi mashqlarni o‘z ichiga oladi. Bu o‘yinlar natijasida harakatlarning takomillashishi bilan birga, jismoniy qobiliyat (sifatlar) ham taraqqiy etadi, yurak va nafas olish va boshqa tizimlarning faoliyati yaxshilanadi. 11–13 yoshli maktab o‘quvchilarining jismoniy madaniyati shakllantirishda ishlab chiqilgan ta’lim modellari ham samarali natijalarni beradi [6;17-b.].

Bugungi kunda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish va ularni sportga qiziqtirish ta’lim-tarbiya jarayonining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ayniqsa, 11–13 yoshli o‘quvchilarning jismoniy-psixologik rivojlanishida harakatli o‘yinlarning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan harakatli o‘yinlar asosida ishlab chiqilgan ta’limiy model o‘quvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda samarali usul bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu ta’lim modeli quyidagi asosiy maqsad va vazifalarni o‘z ichiga oladi:

•o‘quvchilarda tezlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik kabi muhim jismoniy sifatlarni rivoj-lantirish;

•ularni harakatli o‘yinlar bilan tanishtirish, o‘yin ko‘nikmalarini shakllantirish va sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish;

•jismoniy sifatlarni bosqichma-bosqich va tizimli ravishda rivojlantirish orqali pedagogik maqsadlarga erishish;

•jamoada ishlash, o‘zaro yordam, raqobat, tashabbuskorlik kabi ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni shakllantirish;

•o‘quvchilarda sportga va jismoniy faollikka ijobiy munosabatni shakllantirish [5;132-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Maktab o‘quvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda yo‘naltirilgan harakatli o‘yin turlaridan keng miqyosda foydalanish, ularning samaradorligini oshirish, o‘quv-tarbiya jarayonini tanqidiy tahlillar asosida tashkil qilish, o‘tkazish va talablar darajasida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim tizimida, xususan, umumta’lim maktablarida bolalarning salomat-liklarini ta’minlash va mustahkamlashda, ularning ma’naviy va ma’rifiy tarbiyasini oshirishda, sinf va darsdan tashqari vaqtlarda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda jismoniy tarbiya fani mutasaddilari mavjud shart-sharoit va imkoniyatlardan unumli va samarali foydalanishlari lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-farmoni.

(2). Daniyeva Y.Ch. I–II bosqich talaba-qizlar jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlardan foydalanish sama-radorligi. P.f.f.d. diss., Toshkent, 2009, 152-bet.

(3). Dusyarov S.X. Harakatli o‘yinlar vositasida 11–13 yoshli maktab o‘quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirish. “Tamaddun nuri”, lmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy jurnal, Nukus, 2024, 132–135-betlar.

(4). Rahimqulov K. Milliy harakatli o‘yinlar. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, «Tafakkur bo‘stoni», 2012, 142-bet.

(5). Usmanxodjayev T., Usmanxodjayev S., Chorshamiyev N.A., Keldiyorov Sh. E., Xoliqov B.X. Sport turlariga oid harakatli o‘yinlar. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, «O‘zkitobsavdonashriyoti», 2020, 176-bet.

(6). Usmanxodjayev T.S., Isroilov Sh.X., Pulatov A.A., Pulatov Sh.A. Milliy va harakatli o‘yinlar. Darslik, Toshkent, «Iqtisod-moliya», 2015, 265-bet.

Usmanova Shokhsanam Avazovna (Jahon Iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti ingliz tili bo‘limi o‘qituvchisi, Tashkent, Uzbekistan; usmanova.sh@uwed.uz)

XORIJIY TILNI O‘RGANISHDA GOOGLE CLASSROOM PLATFORMASINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Google Classroom platformasining ingliz tili ikkinchi til sifatida o‘rgatishda (EFL) qo‘llanilishi, uning ta'lim jarayonidagi o‘rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli ta'lim muhiti kontekstida, platformaning yozma ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi afzalliklari, o‘quvchi-muallim o‘zaro aloqasini yaxshilash va mustaqil hamda guruhda o‘qishni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Google Classroomning turli komponentlari, xususan vazifalar, fikr-mulohazalar, Google Docs bilan integratsiyasi va uchinchi tomon ilovalari yordamida interaktiv ta’lim jarayoni qanday tashkil etilishi tushuntiriladi. Shuningdek, platformaning o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, yozma ko‘nikmalarini yaxshilash va raqamli savodxonlikni rivojlantirishdagi roli ta'kidlanadi. give in russian and english languages.*

Kalit so‘zlar: *Google Classroom, EFL, yozma ko‘nikmalar, interaktiv ta’lim, raqamli ta’lim, o‘quvchi motivatsiyasi.*

Усманова Шохсанам Авазовна (преподаватель кафедры английского языка университета мировой экономики и дипломатии; usmanova.sh@uwed.uz)

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЛАТФОРМЫ GOOGLE CLASSROOM В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В данной статье анализируется использование платформы Google Classroom в преподавании английского языка как второго языка (EFL), её роль и эффективность в образовательном процессе. В контексте современной цифровой образовательной среды рассматриваются преимущества платформы для развития письменных навыков, улучшения взаимодействия между учащимися и преподавателями, а также поддержки самостоятельного и группового обучения. Описывается, как различные компоненты Google Classroom, включая задания, обратную связь, интеграцию с Google Docs и сторонние приложения, способствуют организации интерактивного*

учебного процесса. Особое внимание уделяется роли платформы в повышении мотивации учащихся, улучшении письменных навыков и развитии цифровой грамотности.

Ключевые слова: *Google Classroom, обучение английскому как иностранному, письменные навыки, интерактивное обучение, цифровое обучение, мотивация учащихся.*

Usmanova Shokhsanam Avazovna (Lecturer at the Department of English Language, University of World Economy and Diplomacy; usmanova.sh@uwed.uz)

THEORETICAL FOUNDATIONS OF USING THE GOOGLE CLASSROOM PLATFORM IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING

Annotation. *This article analyzes the use of the Google Classroom platform in teaching English as a Foreign Language (EFL), focusing on its role and effectiveness in the educational process. Within the context of the modern digital learning environment, the platform's advantages in developing writing skills, enhancing teacher-student interaction, and supporting both independent and collaborative learning are explored. The article explains how various components of Google Classroom, such as assignments, feedback, Google Docs integration, and third-party applications, facilitate an interactive teaching process. The role of the platform in increasing learners' motivation, improving writing skills, and fostering digital literacy is also highlighted.*

Key words: *Google Classroom, EFL, writing skills, interactive learning, digital education, learner motivation.*

Kirish. Bugungi raqamli asrda ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) joriy etilgandan buyon bilimga asoslangan va globallashgan jamiyatlar uchun asosiy harakatlantiruvchi kuch bo‘lib kelmoqda. Bu texnologiyalar keng miqyosda rivojlanib, bilim va axborot resurslarining globallashuviga olib keldi (Islam va Islam, 2017). Turli tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlanishicha, ta'lim jarayoniga texnologiyaning integratsiyasi ikkinchi tilni (L2) o‘rganuvchilarning motivatsiyasi va ishtiyoqini oshiradi. Fenanda va boshqalar (2022) fikriga ko‘ra, interaktiv ta'lim ilovalari orqali talabalar ishtiroki sezilarli darajada oshadi. Bugungi kunda o‘quvchilar uchun ta'lim jarayonini qiziqarli qiladigan va unumdorligini oshiradigan ko‘plab foydali onlayn vositalar mavjud. Ushbu vositalarning yorqin namunasidan biri bu Google Classroom platformasi (GCP) hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Google Classroom platformasining xorijiy til, xususan, ingliz tilini o'rgatishdagi afzalliklari ko'plab ilmiy ishlar asosida tasdiqlangan. Cummings bu platformaning topshiriqlarni berish, yig‘ish va baholashdagi yengilliklarini ta'kidlagan (2). Fenanda va boshq. pandemiya davrida talabalarning Google Classroom platformasiga bo‘lgan ijobiy munosabatini aniqlagan (3). Albashtawi va Al Bataineh tadqiqotida GC orqali yozma topshiriqlarni bajargan talabalarda ijodiy yozuv ko‘nikmalarining o‘sgani aniqlangan (1). Nur Aflahatun va Prihatin esa Google Drive va Docs vositalarining yozuv jarayonini markazlashtirish va soddalashtirishdagi rolini ko‘rsatadi (4). Shuningdek, Shin va boshqalar, Panadero va Jonsson, Rahman va boshqalar tomonidan izoh, rubrika va fikr-mulohazalar orqali shakllantiruvchi baholash samaradorligi ochib berilgan (5). Jeong va Woodrich & Fan esa Google Docs yordamida hamkorlikdagi yozuv samaradorligi oshishini qayd etadi (8), (9).

Google Classroom komponentlari. Google Classroom (GC) keng qo‘llaniladigan o‘quv boshqaruv tizimi (LMS) sifatida, L2 (ikkinchi til) o‘rganuvchilarning yozma ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradigan bir qator birlashtirilgan vositalarni taqdim etadi. Uning foydalanuvchiga qulay interfeysi va umumiy funksiyalari yozma ko‘nikmalarni o‘rgatish, topshiriqlarni boshqarish hamda real vaqt rejimida fikr-mulohaza berishda samarali platforma hisoblanadi. Assignments (topshiriqlar), Private Comments (shaxsiy izohlar) va Google Docs integratsiyasi kabi turli komponentlar orqali o‘qituvchilar talabalarning ishtirokini rag‘batlantiruvchi, hamkasblar bilan muloqotni oshiruvchi va yozish ko‘nikmalarida takroriy yaxshilanishni qo‘llab-quvvatlovchi tuzilgan va rivojlangan darslarni olib borishlari mumkin. Har bir komponent o‘rganuvchilarning yozma jarayonini bosqichma-bosqich qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi, raqamli va aralash ta'lim muhitida mustaqillik va yordam beradi. Google Docsning har bir komponentining vazifalari va imkoniyatlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Yozma ta'lim uchun xususiyatlari

Google vositasi	Yozma ta'lim uchun xususiyatlari
Google Drive	• Talabalar yozmalarini saqlash, tashkil etish va ularga kirish uchun markazlashtiril-gan platforma (Nur Aflahatun & Prihatin, 2018). • Hamkorlar va o‘qituvchi fikr-mulohazalari uchun fayllarni oddiy ulashish.

	• Yozuv jarayonini kuzatish uchun versiyalar nazorati.
Google Docs	• Talabalar yozmalarini saqlash, tashkil etish va ularga kirish uchun markazlash-tirilgan platforma (Nur Aflahatun & Prihatin, 2018). • Hamkorlar va o‘qituvchi fikr-mulohazalari uchun fayllarni oddiy ulashish. • Yozuv jarayonini kuzatish uchun versiyalar nazorati.
Google Sheets	• Yozuv tuzilmasini rejalashtirish vositasi (maqolalar rejasini tuzish, vazifalarni ku-zatish). • O‘z-o‘zini yoki hamkorlarni baholash uchun ma’lumot yig‘ish. • Hamkorlar baholash topshiriqlarini tashkil etish.
Google Slides	• Vizual yozma topshiriqlar va raqamli hikoya yaratishni qo‘llab-quvvatlaydi (Vision in Practice, 2023). • Ijodiy yozish va fikrlarni taqdim etishni rag‘batlantiradi. • Hikoya tuzilmasini vizual tarzda tashkil qilishga yordam beradi.

Google Classroom o‘quvchilarga har qanday joydan va istalgan vaqtda o‘quv materiallariga kirish imkonini beradi, bu esa o‘z-o‘zini boshqaruvchi o‘quv faoliyatini rag‘batlantiradi (Vania va boshq. 2024). Yuqori ta’limda ham bu platforma yangicha yondashuvlar uchun keng foydalaniladi.

Metod. Ushbu maqola sifat jihatdan tavsiflovchi tahliliy metod asosida yozilgan bo‘lib, unda mavjud ilmiy manbalar tahlili orqali Google Classroom platformasining xorijiy tilni o‘rgatishdagi afzalliklari o‘rga-niladi. Adabiyotlar tanlovida, ayniqsa, yozma ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy tadqi-qotlar asos qilib olingan. Shuningdek, ta’lim platformasi komponentlari (topshiriqlar, izohlar, rubrikalar) hamda uchinchi tomon ilovalari (Kahoot, Quizizz) bilan bog‘liq amaliy misollar keltirildi.

Natijalar. Tadqiqotda ko‘rsatilganidek, Google Classroom yozma ko‘nikmalarni rivojlanti-rish, fikr bildirish, baholash va hamkorlikdagi ta’limni yengillashtirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Talabalarning yozuvlari ustida birgalikda ishlashi, o‘qituvchidan tezkor fikr-mulo-haza olishi va baholash mezonlari orqali o‘z bilimini aniqlik bilan tushunishi mumkin bo‘ldi (7). Ayniqsa, platformaning Google Docs bilan uyg‘un ishlashi yozma topshiriqlarda real vaqtli izohlar orqali talabalarni faol ishtirok etishga undadi (4). Shuningdek, Kahoot va Quizizz kabi interaktiv ilovalar platforma bilan birgalikda ishlatilganda talabalarning ishtiroki va motivatsiyasi oshgan (3).

Xulosa. Google Classroom platformasi xorijiy tilni, ayniqsa, yozma ko‘nikmalarni o‘rgatish-da samarali vosita sifatida o‘zini isbotladi. Bu platforma o‘qituvchilarga topshiriqlarni tizimli be-rish, talabalarga esa o‘z bilimlarini mustaqil ravishda chuqurlashtirish imkonini beradi (2). Fikr-mulohaza, rubrikalar, Google Docs integratsiyasi orqali ta’lim jarayoni yanada interaktiv va shaf-fof bo‘ladi (7). Kelgusida bu platformaning boshqa tillarni o‘rgatishdagi samaradorligini ham chu-qurroq o‘rganish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Albashtawi, A.H., & Al Bataineh, K.B. (2020). The effectiveness of Google Classroom among EFL students in Jordan: An innovative teaching and learning online platform. International Journal of Emerging Technologies in Learning (iJET), 15(11), 78. https://doi.org/10.3991/ijet.v15i11.12865

(2). Cummings, K.M. (2020). A mixed-method case study of the effects of Question Formulation Technique on classroom engagement in a secondary Earth Science classroom and teachers’ perceptions of this shift. https:// doi. org/10.37134/jpsmm.vol 11.1.10.2021

(3). Fenanda, A., Daud, A., Lobos, M.E., & Min, S. (2022). Investigating students’ perception on the use of Google Classroom during pandemic in learning English. Polingua, 11(1), p. 14–18.

(4). Nur Aflahatun, & Yoga Prihatin. (2018). The effectiveness of Google Drive on student writing performance. Cakrawala Pendidikan Journal.

(5). Shin, H., Sutherland, L.M., & Connelly, V. (2020). The role of feedback in the digital classroom: Google Classroom as a tool for formative writing assessment. The Language Learning Journal, 48(3), p. 315–328.

(6). Panadero, E., & Jonsson, A. (2013). The use of scoring rubrics for formative assessment purposes revisited: A review. Educational Research Review, 9, p. 129–144.

(7). Rahman, M.A., et al. (2024). Impact of rubric-based assessment on students' learning and reflection through Google Classroom. Jurnal Ilmu Pendidikan, 13(1).

(8). Jeong, K.-O. (2016). Promoting collaborative writing through the use of Google Docs in the EFL classroom. Studies in English Education, 21(1), p. 1–19.

(9). Woodrich, M., & Fan, Y. (2017). Google Docs as a tool for collaborative writing in the middle school classroom. Journal of Educational Technology Development and Exchange (JETDE), 10(1), 11.

Meyliyev Xusin (Urganch davlat universiteti dotsenti; e-mail: mxusin@inbox.ru)

KURASH SPORT TURINI JAHON MIQYOSIDA YANADA OMMALASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Kurash o‘zbek xalqining milliy qadriyati sifatida asrlar davomida kishilarning jismoniy va ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda. Maqolada o‘zbek kurash milliy sport turini xalqaro sport turi sifatida e’tirof etilishi va xalqaro sport turlari qatoridan o‘rin olishi, kurash sport turini dunyo miqyosida yanada ommalashtirish va uni olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritish sohasida oldimizda turgan vazifalarni nazariy-metodologik asoslari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *milliy qadriyatlar, kurash, xalqaro sport, ommaviylik, sport musobaqalari, Osiyo o‘yinlari, Olimpiada o‘yinlari, sog‘lom turmush tarzi.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДАЛЬНЕЙШЕЙ ПОПУЛЯРИЗАЦИИ БОРЬБЫ КУРАШ В МИРОВОМ МАСШТАБЕ

Аннотация. *Кураш, являясь национальной ценностью узбекского народа, на протяжении веков служила физическому и духовному воспитанию людей. В статье раскрываются теоретические и методологические основы задач, стоящих перед нами в области признания узбекского национального вида спорта борьбы международным видом спорта и занятия им места среди международных видов спорта, дальнейшей популяризации вида спорта кураш в мировом масштабе, включения его в программу Олимпийских игр.*

Ключевые слова: *национальные ценности, кураш, международный вид спорта, популярность, спортивные соревнования, Азиатские игры, Олимпийские игры, здоровый образ жизни.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR FURTHERPOPULARIZATION OF THE SPORT OF KURASH ON A GLOBAL SCALE

Annotation. *As a national value of the Uzbek people, wrestling has served to educate people physically and spiritually for centuries. The article reveals the theoretical and methodological foundations of the tasks facing us in the field of recognizing the Uzbek national sport of wrestling as an international sport and taking its place among international sports, further popularizing the sport of wrestling on a global scale, and including it in the program of the Olympic Games.*

Keywords: *national values, kurash, international sport, popularity, sports competitions, Asian Games, Olympic Games, healthy lifestyle.*

Kirish (Introduction). Bugungi kunda asrlar davomida rivojlanib kelayotgan, o‘zbek xalqining milliy boyligi hisoblangan kurash milliy sport turi olamga yuz tutdi va O‘zbekiston dovrug‘ini butun dunyoga tanitishga xizmat qilmoqda. Kurash dunyoning juda ko‘plab xalqlarining sevimli sport turiga aylanib bo‘ldi. Kurash sport turi bo‘yicha qit’alar birinchiliklari, jahon berinchiliklari va ko‘plab xalqaro turnirlar o‘tkazilib kelinmoqda. Hozirgi davrda oldimizda turgan asosiy vazifa kurash sport turini butun dunyoda yanada ham rivojlantirish va uni kelajakda olimpiya o‘yinlari dasturlariga kiritishdir.

Kurash sport turini butun dunyoda yanada ham rivojlantirish va ommalashtirish uchun uni, avvalo, O‘zbekistonda yuqori darajada e’tibor qaratish lozim. Bu borada O‘zbekiston Prezidenti va hukumati tomonidan kurash sport turini rivojlantirish bo‘yicha qator farmon va qarorlari qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ushbu sport turini mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda yanada rivojlanishiga asos bo‘ldi. Qarorda kurash sport turini xalqaro nifuzini oshirishning tashkili-uslubiy masalalariy belgilab berildi. Kurash sport turining xalqaro nifuzini oshirish uchun, birinchi navbatda, xalqaro sport tashkilotlari bilan, jumladan, Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi (XOK), Xalqaro Sport federatsiyalarining bosh assotsiatsiyasi (GAISF), Milliy Olimpiya komitalarining bosh assambleyasi (ANOK) va boshqa tashkilotlar bilan ushbu yo‘nalishdagi aloqalarni mustahkamlash lozimligi e’tirof etildi [1,2,3,4].

Kurashning xalqaro maydonda rivojlanishi (The development of kurash in the international arena). O‘zbek kurashi xalqaro kurash sifatida 1998-yil 6-sentabrda tan olingan. Shu kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan kurash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti kubogi musobaqasiga tashrif buyurgan 28 davlatlatning vakilari ishtirokida kongress bo‘lib o‘tdi va ushbu kongressda Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasi XKA (IKA) tashkil topdi.

O‘tgan davrlar maboynida milliy kurashimiz jahonga yuz tutib, juda ko‘p xalqlarning sevimli sport turiga aylandi. Bugungi kunda 130 ga yaqin davlatlarda kurash bo‘yicha milliy federatsiyalar faoliyat olib

bormoqda. Kurash bo‘yicha kattalar, yoshlar va xotin-qizlar o‘rtasida jahon birinchiliklari, qit’alar birinchiliklari, xalqaro turnirlar o‘tkazilib kelmoqda [5].

1999-yil 1–2-may kunlari Toshkentda kurash bo‘yicha birinchi jahon birinchiligi tashkil etildi va 48 davlatdan kurashchilar ishtirok etdilar. Ikkinchi jahon chempionati 2000-yilda Turkiya (Antaliya)da, uchinchi jahon chempionati 2001-ylda Vengriya (Budapesht)da, to‘rtinchi jahon chempionati 2002-yil Armeniya (Yerevan)da, beshinchi jahon chempionati 2005-yilda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tdi. Hozirgi davrgacha 15 marotaba jahon chempionati o‘tkazildi.

Bugungi kunda kurash Osiyo o‘yinlari (2018-yil), Afrika o‘yinlari (2023-yil), Yevropa o‘yinlari (2023-yil) dasturlariga ham kiritilgan.

Olib borilgan kuzatish va ilmiy izlanishlar bugungi kunda kurash sport turini jahonda rivojlanishi yuqori darajada emasligini ko‘rsatmoqda va bu dunyo tajribasini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotda kurash sport turini jahonda rivojlanishi darajasi va istiqbollari, sport turlarini xalqaro miqyosda rivojlantirish usullari, milliy sport turlarini rivojlantirish uchun zamonaviy innavatsion yondashuvlar, milliy sport turlarini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlarning vazifalari va o‘rni, kurash cport turning rivojlanishini dzyudo sport turi bilan qiyosiy tahlili o‘rganildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Olib borilayotgan ilmiy izlanish va tadqiqotlar bu jarayonni samarali olib borish quyidagi omillarga bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatmoqda:

Birinchidan, bugungi kunda jahon miqyosida malakali professional kurash trenerlari hamda hakamlarini tayyorlash tizimi mavjud emas va bu kurash sport turini jahon miqyosida ommaviyligini oshirishga va rivojlanishiga jiddiy to‘sqinlik qilmoqda. Bu sohada ushbu tizimni joriy etish xorijiy mamlakatlarda kurash sport turi bo‘yicha trener va hakamlarga bo‘lgan ehtiyojni qanoatlantirishga yordam beradi hamda kurash sport turini dunyoda yanada ommalashtirishda juda katta xizmat qiladi.

Ikkinchidan, kurash sport turi bo‘yicha xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan kurash musobaqalari soni va ko‘lamini yanada kengaytirish muhim hisoblanadi. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, sport turlarini xalq orasida ommalashtirishda, unga bo‘lgan qiziqishni oshirishda sport musobaqalarining o‘rni juda ham beqiyosdir. Olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, keyingi yillarda kurash bo‘yicha xalqaro turnirlarni o‘tkazish soni kamayib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida London, Parij, Afina, Rio-de-Janeyro, Istanbul, Tehron va boshqa shaharlardagi xalqaro musobaqalarni o‘tkazilmasdan kelayotganligi qayd etilgan. Oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri bu shaharlardagi xalqaro musobaqalari qayta tiklash va dunyoning boshqa katta shaharlarida shu kabi musobalarni tashkil etishdir.

Uchinchidan, kurashni dunyo bo‘ylab ommalashuvida targibot va tashviqot ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish juda ham muhim hisoblanadi. Bugungi kunda kurashni o‘rgatuvchi va targ‘ib qiluvchi videoroliklar, mobil ilovalar hamda boshqa elektron materiallar tayyorlanishi talabga javob bermaydi. Kurash bo‘yicha xalqaro sport musobaqalarni jahonning yetakchi ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritish tizimi ham yuqori darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Kurashning insonparvarlik xususiyatlarini butun dunyoga faol targ‘ib qilish, sport musobaqalariga aholining barcha qatlamlarini keng jalb etish ham kurash sport turini jahon xalqlarining sevimli sport turiga aylantirilishiga olib keladi.

To‘rtinchidan, yuqorida bugungi kunda 130 ga yaqin xorijiy davlatlarda kurash milliy federatsiyalari faoliyat olib borayotganligi qayd etildi. Bu mamlakatlarda kurashni yanada ham ommaviyligini oshirish va rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, kurash ommalashayotgan davlatlarning milliy federatsiyalarini moliyaviy hamda moddiy-texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlansagina, bu davlatlarda kurash sport turini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Buni dzyudo kurashi misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Yaponiya davlati uzoq yillar davomida dzyudo kurashini butun dunyoda rivojlantirish uchun boshqa davlatlarning dzyudo federatsiyalariga tatamilar (dzyudo kurashi gilami), kimanolar (dzyudochilarning maxsus kiyimlari) va boshqa moddiy yordamlarni beg‘araz ko‘rsatib keladi. Buni natijasida bugungi kunda dzyudo kurashi dunyoning 200 dan o‘rtiq davlatlarida ommalashgan.

Beshinchidan, kurashni jahonda ommalashtirishda turizm sohasidan ham samarali foydalanish zarur. Respublikamizning sayyohlar ko‘p keladigan shaharlarida aynan ular uchun “kurash festivallarini”, kurash bo‘yicha “ko‘rgazmali chqish”larni, “kurash musobaqa”larini tashkil etish lozim. Bu tadbirlar kelgan sayyohlarda kurash milliy sport turimizga bo‘lgan qiziqishlarii yanada oshirishga, kurash haqida yetarlicha tasavvrrlarga ega bo‘lishlarida yaqindan yordanm beradi.

Oltinchidan, kurash sport turini olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritish uchun muntazam ravishda Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi va uning a’zolari bilan hamkorlik qilib borish lozim bo‘ladi. Bunda olimpiya o‘yinlarining mezonlari asosida bolalar, yoshlar va xotin-qizlar o‘rtasida sport musobaqalarini tashkil etish va O‘zbekiston kurash federatsiyasining veb-saytida ingliz, rus va o‘zbek tillarida ma’lumotlar berib borishni yo‘lga qo‘yish juda ham muhim.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Kuzatishlar bugungi kunda kurash xorijiy davlatlarda ommalashib borayotgan bo‘lsa-da, uning qamrovi dzyudo, erkin kurash, yunon-rum kurashi darajasiga yetmaganligini ko‘rsatmoqda. Buni sababi qilib kurashning xalqaro sport turi maqomini olganiga endigina 30 yil bo‘lmaganligini, yunon-run kurashi (1896), erkin kurash (1904) va dzyudo kurashi (1964) larda olimpiya oyinlari dastiriga kiritilib, bu sport turlari o‘tgan davrlar maboynida dunyo xalqlarining sevimli sport turlariga aylanib qolganligida ko‘rish mumkin.

Kurashni jahon miqyosida yanada ham ommalashtirish va rivojlantirish uchun quyidagi takliflar tavsiya qilinadi:

– ingliz, rus, nemis, fransuz va boshqa tillarda kurash sport turi tarixi, qoidalari va uning inson tarbiyasidagi o‘rni haqida kitoblar, darsliklar yaratish va uni dunyodagi eng boor kutubxonalarga tarqatish orqali kurash haqidagi nazariy bilimlarni dunyoga ochib berish;

–O‘zbekistonda xalqaro kurash bo‘yicha xalqaro kurash akademiyasini tashkil etish va unda dunyoning barcha davlatlaridan kurash murabbiylarini va hakamlarini o‘qitish va ularning malakalarini oshirishni yo‘lga qo‘yish;

– kurash sport turini xalqaro nifuzini oshirish uchun, birinchi navbatda, xalqaro sport tashkilotlari bilan, jumladan, xalqaro olimpiya qo‘mitasi (XOK), xalqaro sport federatsiyalarining bosh assotsiatsiyasi (GAISF), milliy olimpiya qo‘mitalarining bosh assambleyasi (ANOK) va boshqa tashkilotlar bilan aloqani mustahkamlash;

–muntazam ravishda yozgi olimpiya va paralimpiya o‘yinlarida va milliy xalq o‘yinlarining xalqaro festivallarida kurash sport turi texnikasini “ko‘rgazmali chiqish”lar orqali namoyish qilib borish.

– skopus va web of science nufuzli jurnallarda kurash sport turi bo‘yicha ilmiy maqolalarni chop qilish uning yanada ommalashishini va ilmiy ahamiyatini ko‘rsatib berishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 1-fevraldagi “Xalqaro kurash assotsiatsiyasini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-2211-farmoni.

(2). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

(3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-oktabrlfdagi “Kurash” milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3306-qarori (4); O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-qarori.

(5). Sh.Y.Keldiyorov Kurash tarixi, rivojlanish asoslari va taktik tuzilishi. O‘quv qo‘llanma, Toshken, 2021, 164-bet.

Ashirova Anorgul Ismoilovna (Ma’mun universiteti “Umumkasbiy fanlar” kafedrasi professori; anorgul76@gmail.com)

TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIGA FANLARNI O‘QITISHDA INTELLEKTUAL TA’LIM PLATFORMASIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya. *Yangi ta’lim paradigmasi shaxsiylashtirilgan ta’lim zamonaviy jamiyatda o‘zini namoyon qilmoqda. Uning yadrosi sun’iy intellektga asoslangan intellektual o‘qitish ta’lim platformasi bo‘lib, ta’lim platformaning asosiy maqsadi o‘quv jarayonini shaxsiylashtirishdir. Maqolaning maqsadi intellektual ta’lim platformasidan o‘quv jarayonida foydalanish metodikasining ilmiy va amaliy ahamiyatini bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlashda qo‘llanilishini asoslash, ta’lim platformasining ta'lim jarayonidagi funksiyalarini ochib berish va shaxsiylashtirilgan ta’limda uning imkoniyatlarini ko‘rib chiqishdir.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ta’lim platformasi, o‘quv jarayoni, ta’lim tizimi, intellektual ta’lim platformasi, shaxsiylashtirilgan ta’lim.*

Аширова Аноргуль Исмоиловна (профессор кафедры Общепрофессиональных наук университета Мамуна; anorgul76@gmail.com)

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПЛАТФОРМЫ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ

Аннотация. *В современном обществе формируется новая образовательная парадигма – персонализированное образование. Его ядром является интеллектуальная обучающая платформа на основе искусственного интеллекта, а главная цель образовательной платформы – персонализация процесса обучения. Цель статьи – обосновать научную и практическую значимость методики использования интеллектуальной образовательной платформы в образовательном процессе при подготовке будущих учителей информатики, раскрыть функции образовательной платформы в образовательном процессе, рассмотреть ее возможности в персонализированном образовании.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, образовательная платформа, процесс обучения, образовательная система, интеллектуальная образовательная платформа, персонализированное образование*

Ashirova Anorgul Ismailovna (professor of the Department of General Professional Sciences, Mamun; University, anorgul76@gmail.com)

METHODOLOGY OF USING INTELLECTUAL EDUCATIONAL PLATFORM IN TEACHING SUBJECTS TO STUDENTS OF TECHNICAL UNIVERSITIES

Annotation. *In modern society, a new educational paradigm is being formed — personalized education. Its core is an intelligent learning platform based on artificial intelligence, and the main goal of the educational platform is personalization of the learning process. The purpose of the article is to substantiate the scientific and practical significance of the methodology for using an intelligent educational platform in the educational process when training future computer science teachers, to reveal the functions of the educational platform in the educational process, and to consider its capabilities in personalized education.*

Keywords: *artificial intelligence, educational platform, learning process, educational system, intelligent educational platform, personalized education.*

Kirish (Introduction). Bugungi ta’lim tizimida texnika oliy ta’lim muassasalari talabalariga fanlarni o‘qitishda fanni chuqur o‘rgatish, fanni mustaqil o‘zlashtirishlari uchun intellektual o‘qitish platformalarini ishlab chiqish va o‘quv jarayoninda qo‘llash dolzarb masalalardan biridir. Bunday ta’lim platformalari masofaviy ta’limda talabalarning mustaqil bilim olishiga, mustaqil bilim olishini tekshirish va bilimini baholashga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quv jarayonini avtomatlashtirishga qaratilgan [1].

“Ta’lim nazariyasi” – pedagogika fanlari ichida asosiy nazariy poydevor bo‘lib, talabalarga ta’lim jarayonining mohiyati, qonuniyatlari va zamonaviy yondashuvlarini o‘rgatadi. Bugungi raqamli transformatsiya davrida bu fanni o‘qitishda intellektual ta’lim platformalaridan foydalanish zamonaviy, interaktiv va samarali yondashuv hisoblanadi.

Yaratilgan intellektual ta’lim platformadan foydalanib, ma’ruza, amaliy, seminar laboratoriya va mustaqil ta’lim mashg’ulotlarida foydalanish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Intellektual ta’lim platformalaridan foydalanish metodikasi bo‘yicha izlangan va bu yo‘nalishda ilmiy ishlanmalar olib borgan olimlar ko‘plab xalqaro va mahalliy tadqiqotchilarni o‘z ichiga oladi. Quyida ushbu sohada faoliyat yuritgan ba’zi mashhur olimlar va ularning tadqiqot yo‘nalishlari keltirilgan:

1. Benjamin Bloom (AQSH). Bloom va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan bu taksonomiya o‘quvchilarning bilim olish jarayonini bosqichlarga ajratadi: bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash. Bu model o‘qituvchilarga dars maqsadlarini aniq belgilash va baholashda yordam beradi.

Ta’lim maqsadlarini taksonomiyasini o‘rgangan, intellektual platformalarda o‘quv maqsadlarini aniqlashtirish va baholashda Bloom taksonomiyasi asos qilib olinadi.

2. Seymour Papert (AQSH). Konstruktivistik o‘qitish, kompyuterlar orqali ta’limni o‘rgangan, “Logo” dasturlash tilini yaratgan. Raqamli muhitda o‘quvchilar fikrlashini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or g‘oyalarni ilgari surgan olim. Papert “Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas” kitobida bolalarning kompyuterlar orqali qanday qilib mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishini tahlil qiladi.

3. Lev Vigotsky (Rossiya) ijtimoiy-kognitiv rivojlanish nazariyasini o‘rgangan, intellektual platformalardagi kollaborativ (hamkorlikdagi) o‘qitish tamoyillari Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasiga asoslanadi.

4. Sugata Mitra (Hindiston). Mustaqil o‘rganish va sun’iy intellekt muhitlarida bolalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatini tadqiq qilgan va “Hole in the Wall” loyihasi muallifi.

Kirish. Inson ma'naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir. Xalqimiz tarixida va ma'naviy hayotida, ayniqsa, islom dinining ta'siri juda katta rol o'ynaydi. Islom haqiqatni anglash demakdir, u odamzotni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo'lishni o'rgatadi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlab qolish, ularni diniy e'tiqod bilan uyg'un holda rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Milliy qadriyatlar har bir xalqning tarixiy va madaniy merosi bilan bog'liq bo'lib, diniy an'analar esa uni boyitadi va yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekiston kabi ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan davlatlarda islom dini milliy urf-odatlar bilan uyg'unlashgan holda rivojlangan. Mehmondo'stlik, ota-onaga hurmat, mehr-oqibat kabi qadriyatlar diniy tamoyillar bilan hamohangdir. Globallashuv jarayonida axborot texnologiyalarining rivojlanishi jamiyatda yangi qadriyatlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Ammo bu jarayonda milliy va diniy qadriyatlarning ahamiyati kamayib qolmasligi lozim. Misol uchun:

Texnologiyalar va axborot makoni. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi diniy va milliy qadriyatlar targ'ibotida ham foydali bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, zararli g'oyalar va ekstremistik mafkuralarning oldini olish maqsadida to'g'ri yo'naltirilgan axborot siyosati yuritilishi zarur. Islom dini tinchlik va bag'rikenglik tamoyillarini targ'ib qiladi. O'zbekistonda turli millatlar va konfessiyalar o'rtasida totuvlik mustahkamlanib bormoqda. Milliy birdamlik va diniy bag'rikenglikni saqlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Oila milliy va diniy qadriyatlar shakllanadigan eng asosiy muhitdir. Oilada bolalarga diniy va milliy qadriyatlarni singdirish ularning komil inson bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek oilalarida ota-onaga hurmat, aka-ukalar va opa-singillar o'rtasidagi mehr-oqibat, farzand tarbiyasida islomiy odob-axloq qoidalariga amal qilish kabi qadriyatlar hanuzgacha saqlanib kelmoqda.

Zamonaviy jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarning huquqiy asoslari ham mustahkam bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida din va davlat faoliyatining alohidaligi belgilangan bo'lsada, diniy qadriyatlar jamiyat axloqiy asosining muhim qismi hisoblanadi. Shuningdek, davlat diniy bag'rikenglik siyosatini olib borib, barcha fuqarolarning e'tiqod erkinligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Milliy qadriyatlar – bu bir millatga xos bo'lgan an'analar, urf-odatlar, tarixiy meros va til kabi unsurlarni o'z ichiga oladi. Milliy qadriyatlarning saqlanishi va rivojlanishi jamiyatning barqarorligini ta'minlaydi. "Millat va milliylik" (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi) – bu asar millatning mohiyati, uning shakllanishidagi tarbiyaviy omillarni o'rganadi. "O'zbekiston tarixi" (nashriyot) – O'zbekistonning tarixini o'rganish orqali milliy qadriyatlarning rivojlanish jarayonini ko'rsatadi. Diniy qadriyatlar esa insonning ruhiy hayotini shakllantiruvchi asosdir.

R.Olimov o'zining "Madaniyatlararo muloqot" asarida madaniyatlarni birlashtirish orqali uyg'unlikka erishish yo'llarini ko'rsatadi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiyotlarni o'rganish. Milliy va diniy qadriyatlar, ularning zamonaviy jamiyatdagi o'rni, tarixi va rivojlanishi haqida mavjud ilmiy adabiyotlarni o'rganish. Bu jarayonda kitoblar, maqolalar, dissertatsiyalar va boshqa ilmiy manbalarni ko'rib chiqish kerak.

So'rovnomalar. Jamiyat a'zolari orasida so'rovnoma o'tkazish orqali milliy va diniy qadriyatlar haqidagi fikrlarini aniqlash. So'rovnoma savollari aniq va tushunarli bo'lishi kerak.

Intervyular. Turli ijtimoiy guruhlar (din vakillari, madaniyat arboblari, yoshlar, boshqalar) bilan intervyu olib, ulardan fikr-mulohazalar olish.

Kvantitativ tahlil. So'rovnoma natijalarini statistik usullar yordamida tahlil qilish (masalan, grafiklar yoki diagrammalar chizish).

Sifat tahlili. Intervyu va ochiq savollarga berilgan javoblarni sifat jihatidan tahlil qilish. Bu yerda tematik tahlil yoki kontent-tahlil usulidan foydalanish mumkin. Milliy va diniy qadriyatlarning nazariy asoslarini o'rganish: sotsiologiya, antropologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlardan foydalanib, ularning zamonaviy jamiyatdagi roli haqida nazariy fikrlarni shakllantirish. Tadqiqotdan olingan ma'lumotlarga asoslanib empirik xulosalar chiqarish. Jamiyatdagi milliy va diniy qadriyatlarning uyg'unligi yoki ziddiyatlari haqida aniq misollar keltirish. Olingan natijalarni jamiyatning turli qatlamlari bilan muhokama qilish: tadqiqot ishtirokchilari bilan natijalarni baham ko'rish orqali yangi fikr-mulohazalar olish. Tadqiqot natijalari asosida milliy va diniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish yo'llarini taklif etish: ta'lim tizimida integratsiya, madaniy tadbirlar orqali aholi orasida tushunishni oshirish kabi takliflar ishlab chiqish.

Muhokama va tahlillar. Milliy qadriyatlar bu xalqning tarixidan, madaniyatidan, tilidan va an'analaridan kelib chiqadigan tamoyillar va tushunchalardir. Ular xalqni birlashtirib, uning o'zligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Milliy qadriyatlar:

Tarixiy meros. O'zbekistonning boy tarixi va madaniyati milliy qadriyatlarni shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

An'analar. Do'stlik, mehmondo'stlik, oilaviy qadriyatlarga hurmat kabi an'analar millatni birlashtiruvchi kuchdir [4].

Diniy qadriyatlar esa insonning ruhiyatiga ta'sir etuvchi asosiy tamoyillar bo'lib, ular, odatda, diniy e'tiqod va marosimlarga bog'liqdir. O'zbekistondagi islom dini asosan o'zbek xalqining madaniyatida chuqur ildiz otgan:

Diniy marosimlar. Bayramlar (Ramazon hayiti, Qurbon hayiti) orqali jamiyatda birdamlik tuyg'usi yaratiladi.

Etik (axloqiy) normalar. Diniy qadriyatlar insonlarni axloqiy jihatdan tarbiyalashga yordam beradi.

Milliy va diniy qadriyatlarning uyg'unligi. Bu jamiyatda tinchlikni saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun zarurdir.

Ta'lim. Yosh avlodga milliy va diniy qadriyatlarni to'g'ri tushuntirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimida bu ikki yo'nalishni uyg'unlashtirish zarur.

Zamonaviy dunyo sharoitida milliy va diniy qadriyatlarning qayta baholanishi ham muhimdir:

Globalizatsiya ta'siri. Globalizatsiya jarayoni millatlararo aloqalarni kengaytirayotgan bir paytda, mahalliy an'analarni saqlab qolish vazifasi dolzarbligicha qolmoqda.

Innovatsiyalar. Zamonaviy texnologiyalar va bilimlarni qabul qilish jarayonida millatning o'ziga xosligini yo'qotmasligi lozim [5].

Xulosa. Milliy va diniy qadriyatlarning uyg'unligi bu jamiyat barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. U millatning o'zligini saqlash, yosh avlodni ma'naviy yetuk inson sifatida tarbiyalash va zamonaviy taraqqiyotga moslashish imkonini beradi. Milliy qadriyatlar va diniy e'tiqod uyg'unligi saqlangan jamiyatda madaniy taraqqiyot ham barqaror bo'ladi. Shuning uchun ham biz milliy an'analarimizni saqlab qolish, diniy qadriyatlar bilan uyg'un holda rivojlantirishga intilishimiz zarur. Yosh avlodning roli: Yosh avlodni milliy va diniy qadriyatlarni hurmat qilishga, ularga amal qilishga o'rgatish juda muhimdir. Bu, kelajakda jamiyatning ma'naviy salomatligini ta'minlaydi.

Globalizatsiya ta'siri. Globalizatsiya jarayonlari milliy identitetga hamda diniy qadriyatlarga tahdid tug'dirishi mumkin, shuning uchun bu jarayonlarni boshqarish zarurati mavjud. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarning uyg'unligi nafaqat individual darajada, balki butun jamiyatning farovonligi uchun ham zarurdir. Ularni bir-biriga moslashuvchan holda rivojlantirish orqali barqaror ijtimoiy tuzilmani yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017.

(2). Alimov I. Milliy qadriyatlar va ularning zamonaviy jamiyatdagi o'rni. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, 2018.

(3). Yuldashev I. Diniy qadriyatlar va ularning milliy identifikatsiya jarayonidagi roli. O'zbekiston Respublikasi Diniy ishlari bo'yicha qo'mita, 2020.

(4). Saidov A. Zamonaviy jamiyatda din va millat: uyg'unlik yoki qarama-qarshilik? O'zbekiston Milliy universiteti, 2019.

(5). Ibragimov R. Milliy va diniy qadriyatlarni birlashtirish yo'llari. Toshkent, "Sharq", 2021.

(6). Askarov N., Karimova M. Madaniyatlararo muloqot: Milliy va diniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish. O'zbekiston davlat Badiiy akademiyas, 2022.

Sodiqova Nargiza Nasri qizi (ZARMED universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi)

"TARJIMON" GAZETASINING TASHKIL QILINISHI VA FAOLIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ismoil Gasprinskiy tomonidan "Tarjimon" gazetasining tashkil qilinishi, uning musulmonlar orasida keng tarqalishi va rus hukumatining gazeta faoliyatiga qarshi harakatlari yoritilgan. Shuningdek, gazetaning Turkistondagi aholining ijtimoiy, ma'rifiy va madaniy hayotiga ta'siri masalalari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *gazeta, maktab, shariat, qozikalon, mudarris, muharrir, maqola, general-gubernatorlik.*

Садыкова Наргиза Насри кизи (университет ЗАРМЕД, преподаватель кафедры общественных наук)

ОРГАНИЗАЦИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ГАЗЕТЫ «ТАРЖИМОН»

Аннотация. *В статье рассматривается создание газеты «Тарджиман» Исмаилом Гаспринским, ее широкое распространение среди мусульман и действия российского правительства, направленные против деятельности газеты. Также было проанализировано влияние газеты на общественную, образовательную и культурную жизнь населения Туркестана.*

Ключевые слова: *газета, школа, шариат, казикалон, мударрис, редактор, статья, генерал-губернатор.*

Sodiqova Nargiza Nasri kizi (ZARMED University, Teacher of the Department of Social Sciences)

ORGANIZATION AND ACTIVITY OF THE NEWSPAPER “TARJIMON”

Annotation. *This article discusses the establishment of the newspaper "Tarjimon" by Ismail Gasprinsky, its widespread distribution among Muslims, and the actions of the Russian government against the newspaper's activities. It also analyzes the impact of the newspaper on the social, educational, and cultural life of the population of Turkestan.*

Keywords: *newspaper, school, sharia, qazikalon, mudarris, editor, article, governor-general.*

Kirish (Introduction). Qrim-tatar oydini Ismoilbek “Rusiya musulmonligi” asarida matbuotga asos solish, uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha o‘z fikrlarini taqdim etgan. Shu o‘rinda Buyuk Britaniya hukmronligi ostida Hindistonda olib borilayotgan ma’rifiy ishlarni misol qilib ko‘rsatgan. “Hindistonda Angliya hukmronligi ostida ancha e’tiborli mahalliy adabiyot, vaqtli matbuot vujudga keldi va rivojlandi. Hozirda u taraqqiyot uchun xizmat qilmoqda, inglizlarga, ularning tiliga biror zarar yetkazgani yo‘q, aks holda, bunday g‘oyaning vujudga kelishidayoq yo‘q qilishdan tortinmagan bo‘lur edilar”, deb, Rossiya imperiyasi hukumatidan ham matbuot ishlariga yo‘l berishi kerakligini ta’kidlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mavzuga ois adabiyotlarni quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

1. Arxiv materiallari. Mazkur maqolani yozishda O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan ko‘plab hujjatlar o‘rganib chiqildi. И-1, И-2 fondlarda saqlanayotgan hujjatlarda Ismoil Gasprinskiyning Turkistonga qilgan sayohatlariga oid ma’lumotlar keltirilgan.

2. Davriy matbuot. Ismoil Gasprinskiy tomonidan Bog‘chasaroyda chop etilgan “Tarjimon” gazetasida Turkistonda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga oid ma’lumotlar chop etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Conclusion/Recommendations). Ushbu mavzu tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ismoil Gasprali “Qrimning Rossiya imperiyasi tasarrufiga o‘tgani”ning 100 yilligi munosabati hamda rus va tatar tillarida nashr etish sharti bilan 1883-yili “Tarjimon” gazetasi chiqarishga ruxsat olgan. Mutafakkir bu gazetani barcha turkiy xalqlar uchun nashr qilishni maqsad qilgan. Buning uchun gazeta chiqarishdan oldin uning nashri yo‘lga tushishi barqaror bo‘lishi uchun o‘z davrining kuchli shaxslarini jalb qilgan. Jumladan, Qozondan Shahobiddin Marjoniy, Qayum Nosiriy, Ufadan Sharafiddin Sulaymonov, Petropavlovdan imom Qaro Said Abdulrashidov, Astraxandan mulla Ali Maqsudov, Peterburgdan mulla Xayrillo Yunusov, Saratovdan Abdulla Daberdiyev, Qrimdan Ismoil Muftizoda, Mirzo Ulanov, Yaltadan imom ul-xatib Habibulla hazratlari, Oqmasjid va Kavkazdagi dorilmualliminlar nozirlari, Toshkentdan Hasan Chanishevlarni da’vat qilgan [1].

Dastlab, gazetaga bor-yo‘g‘i 9 kishi yozilgan. Keyinchalik, Usmonli turk sultonligi, Volga bo‘ylari, Xitoyda yashovchi musulmonlar orasida keng tarqalgan [2]. 1885-yilga kelib, Turkistonda ham “Tarjimon”ning obunachilari 200 taga yetgan [3]. Qayd etilishicha, 1890-yilning o‘rtalarida Rossiyada 105 ta kundalik gazeta, jumladan, Moskva va Peterburgda 28 ta, Varshavada 12 ta, Rigada 8 ta, Tiflisda 7 ta, Qozonda esa 3 ta gazeta nashr etilgan. 1905-yildan kundalik gazetaga aylangan “Tarjimon” Rossiyadagi musulmon xalqlar o‘rtasida katta obro‘-e’tibor qozona boshlagan.

Gazetaning faoliyati, birinchi navbatda, mustamlakachi hukumatga yoqmasdi. Nikolay Ostroumov gazeta tashkil etilgandan boshlab, unga qarshi kurash olib borgan. U o‘zining Turkiston general-gubernatoriga 1884-yil 10-iyunda yozgan hisobotida buni tan olgan: “Men... Rusiya musulmonlarida sof musulmoncha a’mollarning hamda islomning tiklanishi va umuman, musulmonlarning, xususan, tatarlarning kelgusida buyuk ma’rifatparvarlik missiyasiga orzu-umidlarini mustahkamlash uchun mahorat va kuch-g‘ayrat bilan urinayotgan musulmoncha “Tarjimon” gazetasiga qarshi zimdan kurash olib bordim” [4]. Nikolay Ostraumov “Turkiston viloyatining gazeti”da rus madaniyati, fani, tarixi, turmush tarzini ulug‘lab, turkiy dunyo tarixidagi olimlar, faylasuflar, mutafakkirlar, buyuk siymolarning tarixiy xizmatlarini kamsitishga,

Turkiston xalqlarini taraqqiyotdan uzoq johil qilib ko‘rsatayotgan bir paytda, “Tarjimon” bularni aksini yozgan. Turkiy xalqlarning ajdodlari kimligi, ularga qanday tamadduniyat, madaniyat meros qolganini anglatib, bundan iftixor qilib yurishga da’vat qilgan.

1910-yilga kelib, turkmanlar ham “Vaqt” va “Tarjimon” gazetalarini o‘qiy boshlaganlar, Ashxobod-dagi ziyolilar “Tarjimon” gazetasi tilida so‘zlashganlar [5]. Gazetada Turkistondagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar muntazam yoritib borilgan. 1910-yildan boshlab, gazetaga Mahmudxo‘ja Behbudiy, Oxund Mulla Mavdud Ohimov, Mirhusayn Mirrahimov, Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin, Fayz Raxmat kabi turkistonlik taraqqiyparvarlari maqola va xabarlar jo‘natib turganlar.

Gazetaning 1913-yil 2-aprel sonida “Samarqanddan maktub” sarlavhasi ostida Abdulqodir Shakuriy o‘z maktabi haqida ma’lumot berib, 4 ta boshlang‘ich sinf, 2 ta yuqori sinf, 4 ta muallim va 3 ta yordamchisi faoliyat yuritayotgani, qizlar uchun ham maktab ochgani, Samarqand aholisi bu maktabga xayrixoh bo‘lib, qizlarini o‘qishga yuborayotganlarini ta’kidlagan [6].

Ismoilbek Gasprali noshir va muharrir sifatida Turkistonda chiqadigan nashrlarni ham muntazam kuzatib borgan. Nikolay Ostroumov muharrirligida chop qilinayotgan “Turkiston viloyatining gazeti”da Munavvarqori Abdurashidxonovning “Xurshid” gazetasi ta’qib qilinishini qoralagan: “Shahri Toshkentda 38 sanadan beri “Rasmiy Turkiston” gazeti nashr qilinibdir. Muharriri ziyoli gospadin Ostroumovdir. Ziyoli bir odamning dasti idorasinda bo‘lgan bir gazeta boshqa muharrirlar haqinda bozor g‘iybatlarina o‘xshagan narsa yozmasligi lozim” [7]. 1906-yili nashr qilina boshlagan “Xurshid” gazetasi milliy uyg‘onish, milliy o‘zodlik g‘oyalarini targ‘ib qilgani Nikolay Ostroumovdek mustamlakachi hukumatning “sodiq xodimi”ga yoqmaydi va “Turkiston viloyatining gazeti”da, hatto Munavvarqori Abdurashidxonovning shaxsiyatiga teguvchi gaplar ham yozadi: “Munavvarxon Toshkendda takyaxona, choyxona, to‘kmaxonalarni munavvar etib, umr kechirgan ekanlar” . Ismoilbek Gasprali maqolani tanqid qilar ekan, uning muallifi Mulla Mo‘min o‘g‘lini emas, uni nashr qilgan Ostroumovdan ranjiganini yashirmaydi. Yoshlarga matbuot ishlarini tashkil qilishlarida to‘siq bo‘lmay, ularning faoliyatini rivojlantirishga yordam berishga undaydi.

Ismoilbek Gasprali Turkistonda kechayotgan ijtimoiy, siyosiy va ma’rifiy jarayonlardan doimo xabardor bo‘lib turgan va bu haqda “Tarjimon” gazetasida turkum maqolalar berib borgan. Jumladan, 1909-yili Buxoro amirligidagi jadid maktabining yopib qo‘yilishi atrofida sodir bo‘lgan voqealarni tanqid qilib, gazetada Buxoro qozikaloniga ochiq xatini e’lon qilgan. Unga usuli jadid nima ekanligi, uning eski usul maktablaridan farqini tushuntirishga harakat qiladi [8]. Buxoroning mutaassib ulamolarga murojaat yo‘llab: “Ey johillar! Ilm olishni osonlashtirish va bu yo‘lda ish olib borish harom emasdir. “Robbi yassir va la tuassir” (“Robbim oson qilgin, qiyinlashtirmagin”) oyati jalilaning ham ma’nosi shuni anglatadi... Bolalarga yozuv o‘rgatish va mashq qildirish harom emas. Yozuvni bilmoq yarim ilmdir, iborasining mahsulidir. ... Ey fahmsizlar! Bularning harom ekanligini qaysi oyatda, qaysi hadisda, qaysi tafsirda ko‘rdingiz? Ko‘r, so‘qirlik va shaytoniy illatlaringiz bilan olamga xoja bo‘lgan Turkistonni siyosiy jihatdan barbod qildingiz. Bu ham yetmagandek, hozirgi zamonda butun dunyo fan va ma’rifat qozonida qaynagan bir vaqtda millatni johil, hunarsiz, maorifsiz qoldirib, uni ham bundan battar barbod qilishni istaysizmi? Ey riyokorlar! Shariat, shariat deb hukmdorlarni aldaganingiz yetmaydimi?” [9], deb ularning islom dinini niqob qilib, yangiliklarga to‘sqinlik qilishlarini qoralaydi.

Hatto amir Sayyid Abdulahadxondan ham maktabning yopib qo‘yilishi sababini so‘raganida, u: “O‘lan yangi zamondir, eski zamon emas. Har maktabda usuli mashvarat joriy bo‘libdur. Biz Buxoroda ham g‘alvalar mashvarat ila bu yangi maktabni bo‘lmasligini xohish etibdurlar. Binobarin, maktab bog‘landi....”, deb javob beradi [10].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bundan tashqari, Samarqandda ochilgan jadid maktablari faoliyati haqida ham “Tarjimon” sahifalarida ma’lumot berib borilgan. Jumladan, gazeta sahifalarida 1893-yili Samarqand shahrida ochilgan birinchi jadid maktabi tashkil etilganidan bir necha yillar o‘tib, “Mufti Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘g‘li, savdogar Boyazidov janoblari va mahalliy yoshlardan mulla Abdulqodir Shakuriy afandilarning himmati maorifparvonalari soyasida ikkinchi yangi maktab tavallud etdi”, deb yozadi [11]. Bundan tashqari, samarqandlik mudarris Saidahmad Vasliy Ismoilbek Gaspralining Turkistonga tashrifi sharafiga Samarqandda jadid maktabi ochgani haqida: “...Ushbu sentyabrning o‘n birinchi yavminda duo sanolar ila “Tarjimon” muharririning shaharni ziyorat etdigining yodgorina “Qo‘sh hovuz” mahallasinda “Maktabi isloh” nomila usuli savtiya maktabi ochildi. Maktabda 30 shogird qabul va bir muallim ila ikki muovin tayin edilmishdir”, deb xabar yuborgan [12].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). “Туркистон вилоятининг газети”. 1883 йил 26 май.

(2). Исмоил Гаспиринский ва Туркистон. “Шарқ”, Т., 2005, 15-бет.
(3). Раджабов З.. Из истории общественно-политической мысли таджикского народа во второй половине XIX – начале XX в. Сталинабад, 1957, с. 387.
(4). Ўзбекистон Миллий архиви. И-1-жамғарма, 1-рўйхат, 2520-йиғмажилд, 188 – 189-бетлар.
(5). Фёдоров Е.. Ўрта Осиёда миллий-инқилобий ҳаракат тарихи. Тошкент, 1925, 49-бет.
(6). Муаллим Абдулқодир Шакурий. Самарқанддан мактуб. “Таржимон” газетаси, 1913 йил 2 апрель.
(7). Исмоил Гаспиринский. Мезон (адабий, маиший ва танқидий баҳслар) // “Таржимон” газетаси. 1906 йил 16 октябрь.
(8). Исмоил. Сартож уламо қозикалон ҳазратларина очиқ мактуб. “Таржимон” газетаси, 1909 йил 16 октябрь.
(9). Бухоройи шариф. “Таржимон” газетаси, 1910 йил 23 апрель.
(10). Маҳмудхўжа. Бухоро иморати. “Ойина” журнали. 1915 йил 2 май. 14-сон, 375 – 381-бетлар.
(11). Муаллими шаҳир. “Таржимон” газетаси, 1910 йил 5 ноябрь. “Олами сибён” газетасидан олинган.
(12). Самарқанддан мударрис Сайидаҳмад ва Мавло. Идорая мактублар. “Таржимон” газетаси, 1908 йил 22 сентябрь.

Urinbayeva Sevara (Adliya vazirligi “Adolat” MHAM bo‘limi boshlig‘i, O‘zDJTU mustaqil izlanuvchisi; E-mail:s.urinbaeva.85@gmail.com)

PRNING DAVLAT ORGANLARI VA JAMOATCHILIK O‘RTASIDAGI MAVJUD NIZOLARNI BARTARAF ETISHDA MEDIATOR VAZIFASINI BAJARISHDAGI ROLI

Annotatsiya. *Maqolada jamoatchilik bilan aloqalarning davlat organlari va fuqarolar o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal etishdagi vositachilik (mediatsiya) funksiyasi ko‘rib chiqiladi. Global kommunikatsiyaning jadallashuvi natijasida davlat organlari va aholining o‘zaro ishonchi va muloqotini ta’minlash dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, PRning vazifasi nafaqat axborot yetkazish, balki ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash ham hisoblanadi. Uning nizoli holatlarda ishonchli axborot uzatish, inqirozga olib keladigan holatni yumshatish va tomonlarni murosaga keltirish, xalq bilan muloqotni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdagi amaliy roli tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy va milliy tajribasi o‘rganilib, taklif va tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar*:PR, mediatorlik, ijtimoiy nizo, davlat organlari, jamoatchilik, muloqot, axborot siyosati.*

РОЛЬ СВЯЗЕЙ С ОБЩЕСТВЕННОСТЬЮ В КАЧЕСТВЕ ПОСРЕДНИКА В РАЗРЕШЕНИИ СУЩЕСТВУЮЩИХ КОНФЛИКТОВ МЕЖДУ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ОРГАНАМИ И ОБЩЕСТВЕННОСТЬЮ

Аннотация. *В статье рассматривается посредническая функция связей с общественностью в разрешении споров между государственными органами и гражданами. В связи с ускорением глобальной коммуникации обеспечение взаимного доверия и коммуникации между государственными органами и населением стало актуальной проблемой. С этой точки зрения задача связей с общественностью заключается не только в передаче информации, но и в укреплении социальной стабильности. Анализируется его практическая роль в предоставлении достоверной информации в конфликтных ситуациях, смягчении ситуации, ведущей к кризису, приведении сторон к компромиссу, налаживании правильного диалога с народом. Изучается также зарубежный и отечественный опыт, даются предложения и рекомендации.*

Ключевые слова*: PR, посредничество, социальный конфликт, государственные органы, общественность, диалог, информационная политика.*

THE ROLE OF PR IN ACTING AS A MEDIATOR IN RESOLVING EXISTING CONFLICTS BETWEEN GOVERNMENT AGENCIES AND THE PUBLIC

Annotation*. The article examines the mediation function of public relations in resolving conflicts between government agencies and citizens. As a result of the acceleration of global communication, ensuring mutual trust and dialogue between government agencies and the population has become an urgent issue. From this perspective, the task of PR is not only to convey information, but also to strengthen social stability. Its practical role in reliable information transmission in conflict situations, mitigating the situation leading to a crisis and bringing the parties to a compromise, and establishing dialogue with the people is analyzed. Foreign and national experience is also studied, and suggestions and recommendations are made.*

Keywords:*PR, mediation, social conflict, government agencies, public, dialogue, information policy.*

Kirish. Zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jamiyatda davlat boshqaruvi faoliyatining shaffofligi, hisobdorligi va jamoatchilik bilan doimiy muloqoti muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarda turli nizolar, tushunmovchiliklar va qarama-qarshiliklar yuzaga kelishi tabiiy xoldir. Aynan shunday vaziyatlarda jamoatchilik bilan aloqalar sohasi mediatsiya mexanizmini ishga soladi.

PR davlat organlari nomidan jamoatchilik bilan muloqot olib boruvchi kommunikatsion vosita sifatida, nizolarni bartaraf etishda axborot orqali vositachilik qiluvchi muhim subyektga aylanadi. Davlatning siyosiy boshqaruvi esa, avvalambor, fuqarolar bilan qayta aloqani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgandagina, yuqori samaradorlikni ko‘rsatadi. Buning uchun aholiga amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to‘liq axborot yetkazish, davlat organlari shaffofligini ta’minlash lozim. Ayni shu vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organlarining jamoatchilik bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari va axborot xizmatlari faoliyatining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi o‘ta muhim. Shu bilan birga, har qanday axborot siyosatida nizoli holatlar, noto‘g‘ri tushunishlar va ijtimoiy ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin, bu esa mediatsiya, ya’ni, nizolarni muloqot orqali bartaraf etish mexanizmlarini joriy etishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4366-qarori[1] bu o‘rinda ketayotgan islohotlarning izchilligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda axborot oqimini boshqarish va jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayonida mediatsiya vositalaridan oqilona foydalanish nafaqat murosani ta’minlaydi, balki davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va keng jamoatchilik o‘rtasida ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xususan, ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishda, aholining huquqiy savodxonligini oshirishda va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda PR faoliyati va mediatsiya integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

“Mediatsiya” so‘zi lotin tilidagi “mediare” so‘zidan olingan bo‘lib, vositachilik qilish, kelishtirish maqsadida aralashish degan ma’nolarini bildiradi.[2] Shuning uchun yuridik adabiyotlarda mediatsiya va vositachilik tushunchalari sinonim hisoblanadi. Mediatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarni tartibga solish, mediatorlar va mediatsiyani amalga oshiruvchi taraflarning huquq va majburiyatlari, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini olishni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonuni (2018-yilning 3-iyulida O‘RQ 482-son) asosida qabul qilingan.[3] Ushbu qonun 4 bob, 34 moddadan iborat.

Mediatsiya uchinchi shaxs yoki vositachining nizoga aralashishini o‘z ichiga oladi. Mediator neytral uchinchi shaxs sifatida nizoni xolisona ko‘rib chiqishi va tomonlarga ular ko‘rib chiqmagan muqobil variantlarni taqdim qilishda yordam berishi mumkin. Bundan tashqari, mediatsiya bu natijaga erishishning samarali va tejamkor usuli bo‘lib, tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni saqlab qolish, hatto mustahkamlash uning vazifasidir.

Mediatsiyaning o‘ziga xosligi, uning taraflarning tengligi va ixtiyoriyligiga asoslanganligidir. Mediatsiyada majburlashga yo‘l qo‘yilmaydi. Mediatsiya tenglikka asoslanadi.[4] Ya’ni, har bir tarafga o‘z fikrini bildirish, savol berish, eshitilish, muammoni hal etish yo‘llarini taklif etish kabilarda teng imkoniyatlar yaratib beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Jamoatchilik bilan aloqalar bilan bog‘liq munosabatlarning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi ushbu so‘nggi yillarda ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirdi. Tadqiqot ishida ushbu sohani tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, shu sohani tartibga soluvchi, axborot tarqatish sohasidagi qonunchilik o‘rganildi va jamoatchilik bilan aloqalar sohasida tadqiqotlar olib borgan taniqli olimlar tadqiqotlari tahlil etildi.

O‘zbekiston Respublikasida tadqiqotchilardan Abduazimov O.U., Islombekov U.I., Mamatov G‘.S., Yazdonov U.T., Eshbekov T.U.larning ilmiy tadqiqotlarida davlat boshqaruvida jamoatchilik bilan aloqalarning ayrim jihatlari o‘rganilgan. Xususan, Abduazimov O.U. tomonidan axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik fikri monitoringini ta’minlashda ommaviy kommunikatsiyalar muammolari sotsiologik jihatdan

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4366-qarori, https://lex.uz/docs/4390513

[2] https://cyberleninka.ru/article/n/mediatsiya-va-uning-vazifalari/viewer

[3] O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonuni, https://lex.uz/docs/-3805227

[4] O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonunining 5-moddasi.

tadqiq etilgan[1] bo‘lsa, Islombekov U.I. tomonidan siyosatda jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlari o‘rganilib, unda axborot siyosatining hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini bu yo‘nalishda qo‘llash ahamiyati ochib berilgan.[2]

Mamatov G‘.S. tomonidan axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik nazorati va davlat axborot siyosatining uyg‘unligi masalalari rivojlangan davlatlar tajribasi hamda mavjud ilmiy-metodik qarashlar prizmasi orqali ochib berilgan.[3] Yazdonov U.T. jamoatchilik fikrini shakllantirishning strategik vazifalarini belgilash va istiqbollarini prognozlashtirishga javobgar institutlar faoliyatini tashkillashtirish, boshqarish hamda nazorat qilish metodologiyasini (milliy mental, individual-korporativ xususiyatlariga differensial yondashuv) takomillashtirish masalalarini o‘rgangan.[4]

Tadqiqotchi Eshbekov T.U. esa parlamentning jamoatchilik bilan aloqalari va ommaviy axborot vositalari bilan ishlashning o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etgan.[5] Bundan tashqari, barcha davlat boshqaruvi organlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini o‘rganishga ancha vaqt talab qilishini hisobga olgan holda, faqatgina Adliya vazirligining ushbu yo‘nalishdagi faoliyati tadqiq qilinib, statistik ma’lumotlar, mutaxassislarning fikrlari o‘rganildi. Shuningdek, muqobil nizolarni hal etish bo‘yicha ekspert, Vositachilik va huquq ilmiy-uslubiy markazi asoschisi va rahbari Shamlikashvili S.A. mediatsiyani uchinchi betaraf, xolis taraf – nizoda ishtirok etuvchi tomonlarga yordam beradigan va o‘zaro maqbul munosabatlarni ishlab chiqish maqsadida mediatsiya tartib-taomilida ixtiyoriy ravishda ishtirok etuvchi vositachi ishtirokida nizoni hal qilishning muqobil usuli sifatida belgilaydi va tomonlarning har birining o‘z manfaatlarini himoya qilish huquqini o‘zaro hurmat qilish va qabul qilish asosida nizoni hal qilish uchun hayotiy yechim, deydi.[6]

Britaniyalik nashriyotchi, “Mediatsiyaga izoh” kitobi muallifi Richard Koen esa mediatsiyaga ta’rif berganda, uni quyidagicha izohlagan: “Mediatsiyada uchinchi shaxs jarayonga kirishadi, uning maqsadi birinchi ikkitasining kelishuvga kelishiga yordam berishdir”.[7]

Amerikalik sotsiolog, Joan B.Krok Xalqaro va tinchlik tadqiqotlari instituti direktori, “Mojarodan yarashuvgacha”[8] kitobi muallifi John Paul Lederach mediatsiyani “konflikt transformatsiyasi” sifatida talqin etadi va uni ijtimoiy yarashuvga erishish vositasi deb baholaydi. Amerikalik psixolog, Kolumbiya universitetining faxriy professori Morton Deutsch konfliktni konstruktiv va destruktiv shakllarga ajratgan holda, mediatsiyani konstruktiv yondashuvlar qatoriga kiritadi.[9]

Shuningdek, mediatsiya sohasida yetakchi mutaxassislaridan biri amerikalik huquqshunos, mediator va professor San Fransisco School of Law univeristetining dekani Jay Folberg va amerikalik ijtimoiy ishlar bo‘yicha mutaxassis, mediator, Workplace Solutions tashkiloti asoschisi va rahbari Alison Taylor tomonidan yozilgan ‘’Mediation: A Comprehensive Guide to Resolving Conflicts Without Litigation (1984)’’ kitobi esa mediatsiya sohasida muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarda mediatsiya nizolarni hal qilishning muqobil usuli sifatida taqdim etiladi, bunda neytral vositachi yordamida taraflar o‘z ehtiyojlari va manfaatlariga mos kelishuvga erishadilar.[10] Shundan ko‘rish mumkinki, mediatsiya bu neytral vositachilikdir, ya’-ni, nizolashayotgan tomonlarga o‘zaro maqbul yechim topishga yordam beradigan jarayondir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Mazkur tadqiqot ishida jamoatchilik bilan aloqalar faoliyatida mediatsiyani qo‘llashning ahamiyati va uni rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Shu bilan

---

[1] Abduazimov O. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik fikri monitoringini ta’minlashda ommaviy kommunikatsiyalar sosiologiyasining o‘rni (O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarining 2001–2016-yillardagi materiallari misolida). Sos. f.d. diss.avtroref., Toshkent, 2017, 63-bet.

[2] Islombekov U.I. Siyosatda jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlari. Siyosiy fanlar nomzodi …diss-ya, Toshkent, 2007.

[3] Mamatov G‘.S. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik nazorati va davlat axborot siyosatining uyg‘unligi (O‘zbekiston Respublikasi misolida). Siyosiy f.d. diss. avtroref., Toshkent, 2017.

[4] Yazdonov U.T. Globallashuv sharoitida jamoatchilik fikrini shakllantirish institutlarining funksional integratsiyalashuv xususiyatlari. Kan.diss., Samarqand, 2017.

[5] Eshbekov T.U. O‘zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyatning jamoatchilik bilan aloqalari va ommaviy axborot vositalari. Kan.diss., Toshkent, 2006.

[6] Судорогина Е.В. Медиация в гражданском и арбитражном процессе. Вопросы российского и международного права. 2018, т. 8, № 10А, с. 42; К вопросу определения медиации. Статья в журнале «Молодой ученый» (moluch.ru).

[7] https://classic.austlii.edu.au/au/journals/WkoLawRw/1995/5.html?utm_source=chatgpt.com

[8] https://www.johnpaullederach.com/2023/03/conflict-transformation/?utm_source=chatgpt.com

[9] https://books.google.co.uz/books/about/The_Resolution_of_Conflict.html?id=WZ4_EAAAQBAJ&redir_esc=y

[10] https://repository.law.umich.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=2906&context=mlr

birga, axborotning ishonchliligini ta’minlash va nizolarni muloqot orqali hal etish vositasi sifatida mediatsiyaning jamoatchilik bilan aloqalar tizimidagi o‘rni ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi davlat organlari va jamoatchilik o‘rtasida yuzaga keladigan kommunikativ nizolarni bartaraf etishda PR faoliyatining mediatorlik funksiyalarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda samarali kommunikatsion strategiyalarni aniqlash hisoblanadi.

Mavzuning muammosi shundaki, siyosiy boshqaruvni amalga oshiradigan davlat organlarida jamoatchilik bilan aloqalarning yo‘lga qo‘yilganligiga nisbatan ko‘p vaqt o‘tmadi. Ayrim krizis vaziyatlarda aynan jamoatchilik bilan aloqalarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olinmaganligi, ushbu yo‘nalishda ishlayotgan mutaxassislar malakasining yetishmayotganligi bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lamini jadal sur’atlar bilan oshirishni talab etish va bunga davlatning davlat organlaridagi jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limlarining huquqiy maqomi va moddiy bazasi tayyorligining ahamiyatida ko‘rinadi. Muammoli vaziyat ushbu muammoning qanday yechilishini o‘rganishda ko‘rinishi zarur.

Ilmiy muammo siyosiy boshqaruvni amalga oshiradigan davlat organlarida jamoatchilik bilan aloqalarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishining o‘rni va roli qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini tushungan holda undagi muammolarni hal qilishning amaliy yechimini topishda, shuningdek, bunga yechim topishing amaliy ahamiyatini tushunishda belgilanadi.

Tadqiqot obyekti davlat organlari va jamoatchilik o‘rtasidagi ijtimoiy-kommunikativ munosabatlar tizimi.

Tadqiqot predmeti jamoatchilik bilan aloqalar faoliyatining davlat organlari va jamoatchilik o‘rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy nizolarni yumshatish va hal etishda mediatorlik funksiyasini bajarishdagi o‘rni va usullari hisoblanadi. Bu PRning kommunikativ strategiyalari, axborot siyosati, ijtimoiy ishonchni tiklash, murosa madaniyatini shakllantirish hamda nizolarni samarali boshqarishdagi rolini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi axborot kommunikatsiyasi va mediatsiyaning jamoatchilik bilan aloqalar tizimidagi o‘zaro integratsiyalashuvi, PRning vositachilik vazifasini bajarishdagi roli nazariy va amaliy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot vazifalari:

1. Davlat organlari va jamoatchilik o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarning kommunikativ xususiyatlarini o‘rganish.
2. PRning nizolarni boshqarishdagi mediatorlik funksiyalarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish.
3. PR faoliyatida qo‘llaniladigan axborot-kommunikatsion vositalar va uslublarni aniqlash.
4. Jamoatchilik bilan aloqalarning ishonchli va mustahkam muloqotni shakllantirishdagi rolini belgilash.
5. PRda nizolarni bartaraf etishga qaratilgan kommunikatsion strategiyalarini belgilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati O‘zbekistonda jamoatchilik bilan aloqalarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish masalasiga 2016-yildan keyin ko‘proq e’tibor qaratila boshlaganida ko‘rinadi, chunki ayni sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar ko‘p.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati davlat organlari tomonidan faoliyati haqidagi keng qamrovli ma’lumotlarni o‘z vaqtida taqdim etish orqali jamiyatning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laqonli qondirish, axborot tarqatish sohasidagi ishlarni samaradorligini oshirish, bunga zamonaviy PR texnologiyalarni qo‘llash orqali davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishda ko‘rinadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bugungi kunda qo‘llanilayotgan mediatsiya institutining tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda ilk bor Vavilon, Qadimgi Gretsiya va Rimda mediatsiya qo‘llanilganligi qayd etilgan. Rim huquqida Yustinian kodeksidan boshlab (miloddan avvalgi VI asr) bahs-munozaralarni hal qilish uchun vositachilik, ya’ni mediatsiya qo‘llanilgan. Mediatsiya texnologiyasidan, asosan, savdoda foydalanilgan. Rimliklar bahs-munozaralarni hal qiluvchi mutaxassislarni “medium” – “vositachi” so‘zi bilan ifodalashgan. Vositachilarga alohida hurmat bilan munosabatda bo‘lishgan. Ularni dohiylar va ruhoniylar bilan bir qatorga qo‘yishgan. Zamonaviy tushunchalarda mediatsiya XX asrning ikkinchi yarmida AQSH, Avstraliya va Buyuk Britaniyada rivojlana boshlagan. Ilk bor Yevropada mediatorlar oilaviy munozaralarni hal qilishga jalb qilingan.[1] Keyinchalik, ijtimoiy boshqaruv, ta’lim, sog‘liqni saqlash va siyosiy sohalarda ham keng qo‘llanila boshlandi.

[1] Yakubova D.Sh. Mediatsiya: nizolarni hal qilishning muqobil usuli (uslubiy qo‘llanma). Toshkent, 2020, 6-bet.

Jamoatchilik bilan aloqalarda esa mediatsiya nizolarni hal qilish va manfaatdor tomonlar o‘rtasida o‘zaro manfaatli aloqalarni o‘rnatish uchun samarali vosita hisoblanadi. Mediatsiya orqali tashkilotlar jamoatchilik, media, hamkorlar yoki davlat idoralari bilan bo‘lgan mojarolarni yumshatib, o‘z obro‘sini saqlab qolishda foydalanishi mumkin.

Mediatsiyaning ko‘maklashuvchi, osonlashtiruvchi (Facilitative), baholovchi (Evaluative), transformatsion (Transformative), hikoya yoki aytib berish (Narrative) mediatsiya kabi asosiy turlari mavjud. Mediator tomonlarga vaziyatni hal qilishga undaydigan tarzda shakllantirishga yordam beradi.

Mediatsiya jamoatchilik bilan aloqalar sohasida quyidagi vaziyatlarda qo‘llaniladi:

– fuqarolar va jamoatchilik bilan nizolarda, masalan, tashkilotning xizmatidan norozi bo‘lgan fuqarolar bilan muloqotda, ularga mediatsiyani qo‘llash orqali to‘g‘ri tushuntirish beriladi va ularning e’tirozlari hal qilinadi;

– krizis vaziyatlarida aloqa o‘rnatishda esa tashkilotning ishlab chiqarishi ekologiyaga zarar yetkazayotgani haqida jamoatchilikda fikr paydo bo‘lsa, mediatsiya yordamida manfaatdor tomonlar o‘rtasida konstruktiv muloqot tashkil etiladi;

– tashkilot ichidagi ziddiyatlar yuzaga kelgan taqdirda, xodimlar yoki bo‘limlar o‘rtasidagi nizolar tashkilotning umumiy obro‘siga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligidan kelib chiqib, mediatsiya bunday vaziyatlarni hal qilishga va sog‘lom muhitni tiklashga yordam beradi.

Xalqaro miqyosda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelgan mojarolarni hal etishda onlayn mediatsiya usullaridan foydalanadi. Bu usullar orqali mojarolarni tez va samarali hal qilishga erishiladi.[1] Fransiyada onlayn mediatsiya xizmatlari orqali internetda yuzaga kelgan mojarolarni hal qilish amaliyoti mavjud. Bu xizmatlar orqali foydalanuvchilar o‘zaro kelishmovchiliklarni sudgacha hal qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan.[2]

Jamoatchilik bilan aloqalarda nizoli vaziyatlarning sabablari tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, jamoatchilik bilan aloqalar tizimida kuzatilayotgan muammolar, asosan, quyidagi omillar bilan bog‘liq:

–davlat tashkilotlari tomonidan aholining fikr va takliflari yetarlicha inobatga olinmasligi;

–davlat idoralari va fuqarolar o‘rtasidagi muloqotning bir yoqlamaligi;

–axborotni tarqatishda shaffoflik va ishonchlilik prinsipiga amal qilinmasligi;

–qaror qabul qilish jarayonida fuqarolarning ishtirok etmasligi kabi omillar jamoatchilik bilan aloqalarda ziddiyat va ishonchsizlikka olib kelmoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/recommendations). Jamoatchilik bilan aloqalar tizimi zamonaviy ijtimoiy boshqaruvning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Bu tizim samaradorligini oshirishda axborot kommunikatsiyasining aniqligi, vaqtida yetkazilishi va ishonchliligi muhim o‘rin tutadi. Biroq, faqat axborot yetkazish bilan chegaralanmasdan, ijtimoiy muloqotni tashkil qilish, nizolarni vositachilik orqali hal etish yo‘llarini joriy etish bugungi kunda zaruratga aylanmoqda. Shuningdek, mediatsiya vositasi jamoatchilik bilan aloqalarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda ham ahamiyatlidir. Hozirgi kunda, zamonaviy kommunikatsion muhitda jamoa, davlat idoralari va fuqarolik jamiyati vakillari o‘rtasidagi ishonchli muloqotni ta’minlashga zarurat tug‘ilmoqda. Bunda esa mediatsiya murosaga asoslangan yondashuv, taraflarni tinglash va erkin fikr almashinuvi uchun samarali platforma vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu jumladan, tashkilotlar o‘z kommunikatsiya siyosatlarida mediatsion tamoyillarni (ochiqlik, ishonch, taraf-kashlikda halollik) asosiy element sifatida ko‘rib chiqishlari va ish dasturlariga integratsiya qilishlari zarur.

Zamonaviy raqamli vositalar (ijtimoiy tarmoqlar, onlayn so‘rovlar, interaktiv platformalar) orqali mediatsion muloqotni yo‘lga qo‘yish, fikrlar xilma-xilligini shakllantirish va salbiy tendensiyalarning oldini olish imkonini bermoqda. Mahalliy darajadagi ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olish, fuqarolar bilan bevosita muloqot qilish va ijtimoiy masalalarga tezkor javob qaytarish maqsadida PR va mediatsiyani uyg‘unlashtirgan ixtisoslashgan markazlar tashkil etilishi, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida PR va mediatsiya yo‘nalishlari kesishmasida yangi fanlar joriy etilishi, amaliy ko‘nikmalar beruvchi trening va malaka oshirish dasturlari ishlab chiqilishi, “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonuniga jamoatchilik bilan aloqalarda qo‘llanilish mexanizmlarini aniq belgilovchi normalar kiritilishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jamoatchilik bilan aloqalarda mediatsiya tomonlarning ham, vaqtini ham naqdini tejaydigan yuqori samarali vositadir. Uni o‘zaro manfaatli aloqalarni o‘rnatish uchun samarali vosita sifatida keng qo‘llanilishi ikki tomonning manfaatlarini to‘la-to‘kis ta’minlanishiga olib kelib, tash-

[1] https://peacemaker.un.org/en/thematic-areas/digital-technologies?utm_source=chatgpt.com
[2] https://www.afnic.fr/en/domain-names-and-support/resolve-a-dispute/mediation-procedure/

kilotlar jamoatchilik, media, hamkorlar yoki davlat idoralari bilan bo‘lgan kelishmovchiliklarni yumshatib, o‘z obro‘sini saqlab qolish, ortiqcha ovvoragarchiklarning oldini olishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020, https://president.uz/uz/lists/view/4057

(2). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4366-qarori, https://lex.uz/docs/4390513

(3). O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonuni, https://lex.uz/docs/-3805227

(4). https://cyberleninka.ru/article/n/mediatsiya-va-uning-vazifalari/viewer

(5). Судорогина Е.В. Медиация в гражданском и арбитражном процессе. “Вопросы российского и международного права”, 2018, т. 8, № 10А, с. 42; К вопросу определения медиации. Статья в журнале «Молодой ученый» (moluch.ru).

(6). Abduazimov O. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik fikri monitoringini ta’minlashda ommaviy kommunikatsiyalar sotsiologiyasining o‘rni (O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarining 20012016-yillardagi materiallari misolida). sos. f.d. diss.avtroref., Toshkent, 2017, 63-bet.

(7). Islombekov U.I. Siyosatda jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlari. Siyosiy fanlar nomzodi …diss-ya, Toshkent, 2007.

(8). Mamatov G‘.S. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik nazorati va davlat axborot siyosatining uyg‘unligi (O‘zbekiston Respublikasi misolida). Siyosiy f.d. diss.avtroref., Toshkent, 2017.

(9). Yazdonov U.T. Globallashuv sharoitida jamoatchilik fikrini shakllantirish institutlarining funksional integratsiyalashuv xususiyatlari. Kan.diss., Samarqand, 2017.

(10). Eshbekov T.U. O‘zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyatning jamoatchilik bilan aloqalari va ommaviy axborot vositalari. Kan.diss., Toshkent, 2006.

(11). https://classic.austlii.edu.au/au/journals/WkoLawRw/1995/5.html?utm_source=chatgpt.com

(12). https://www.johnpaullederach.com/2023/03/conflict-transformation/?utm_source=chatgpt.com

(13).https://books.google.co.uz/books/about/The_Resolution_of_Conflict.html?id=WZ4_EAAAQBAJ&redir_esc=y

(14). https://repository.law.umich.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=2906&context=mlr

(15). Yakubova D.Sh. Mediatsiya: nizolarni hal qilishning muqobil usuli (uslubiy qo‘llanma). Toshkent, 2020, 6-bet.

(16).https://news.smu.edu.sg/news/2024/08/28/global-survey-found-international-commercial-mediation-garner-highest-satisfaction

(17). https://peacemaker.un.org/en/thematic-areas/digital-technologies?utm_source=chatgpt.com

(18). https://www.afnic.fr/en/domain-names-and-support/resolve-a-dispute/mediation-procedure/

Eshchanova Mavjuda Xudayorovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktaranti; mavjudaeshchanova@gmail.com)

GID HAMROHLIGI VA TARJIMONLIK FAOLIYATIDA EVFEMISTIK TARJIMA MASALALARI

Annotatsiya. *Tadqiqotda gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyatida evfemistik tarjimaning ahamiyati yoritilgan bo‘lib, asosan, ingliz va o‘zbek tillari misolida tahlil qilinadi. Evfemizmlar tilning muhim qismi bo‘lib, nozik yoki taqiqlangan mavzularni xushmuomalalik bilan yoki qabul qilinadigan tarzda yetkazish uchun til vositalari vazifasini bajaradi. Tarjima, xususan, gid hamrohligi va tarjimonlik sohasida evfemizmlar muloqot madaniyatini saqlash va xabarning hech qanday tushunmovchiliksiz yetkazilishini ta’minlashda hal qiluvchi o‘rin tutadi.*

Kalit so‘zlar: *evfemistik tarjima, gid hamrohligi, tarjimonlik faoliyati, madaniyatlararo muloqot, to‘liq ekuivalentlik, qisman ekuivalentlik, madaniy kodlar.*

Эшчанова Мавжуда Худойоровна (аспирант базовой докторантуры Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруний; mavjudaeshchanova@gmail.com)

ПРОБЛЕМЫ ЭВФЕМИСТИЧЕСКОГО ПЕРЕВОДА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ГИДОВ-СОПРОВОЖДАЮЩИХ И ПЕРЕВОДЧИКОВ

Аннотация. *В данной статье освещается важность эвфемистического перевода в деятельности гидов-сопровождающих и переводчиков, анализируемая в основном на примере английского и узбекского языков. Эвфемизмы являются важной частью языка, выполняя функцию языковых средств для вежливого или приемлемого выражения деликатных или запретных тем. В переводе,*

особенно в сфере гидовой деятельности и переводоведения, эвфемизмы играют решающую роль в сохранении культуры общения и обеспечении передачи сообщения без каких-либо недоразумений.

Ключевые слова: *эвфемистический перевод, сопровождение гида, переводческая деятельность, межкультурная коммуникация, полная эквивалентность, частичная эквивалентность, культурные коды.*

Eshchanova Mavjuda Khudayorovna (PhD student at Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni; mavjudaeshchanova@gmail.com)

EUPHEMISTIC TRANSLATION ISSUES IN TOUR GUIDE AND INTERPRETATION ACTIVITIES

Annotation. *This article highlights the importance of euphemistic translation in tour guide and interpretation activities, analyzed mainly through examples of English and Uzbek languages. Euphemisms are an important part of language, serving as linguistic tools for expressing sensitive or forbidden topics in a polite or acceptable manner. In translation, especially in the field of tour guiding and interpretation, euphemisms play a crucial role in maintaining communication culture and ensuring message delivery without any misunderstandings.*

Keywords: *euphemistic translation, tour guide accompaniment, translation activity, intercultural communication, full equivalence, partial equivalence, cultural codes.*

Kirish (Introduction). Muloqotda evfemizmlardan foydalanish turizm sohasida alohida ahamiyatga ega, chunki samarali tarjima madaniy tafovutlarni bartaraf etib, sayyohlarning mazkur hudud haqidagi ijobiy taassurotlarini boyitadi. Gid hamrohlar va tilmochlar sayyohlar va mahalliy madaniyat o‘rtasida vositachi sifatida harakat qilib, ko‘pincha, tarixiy voqealar yoki ijtimoiy normalardagi nozik mavzularni to‘g‘ri yetkazish vazifasini bajaradilar. Buni amalga oshirishda evfemizmlarni aniq tarjima qilish, o‘zga madaniyatlarga hurmatni saqlab qolish nihoyatda muhim vazifalardan biridir.

Ushbu tadqiqotda ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasida tarjima qilishda paydo bo‘ladigan qiyinchiliklar va madaniy farqlarni e’tiborga olgan holda, gidlar va tarjimonlar tomonidan qo‘llaniladigan evfemistik tarjima strategiyalarini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu tadqiqot orqali biz evfemistik tarjimaning madaniyatlararo muloqotga, madaniy o‘ziga xoslikni saqlashga va turizmga oid tarjimaning samaradorligiga ta’sirini tushunishga intilamiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Evfemistik tarjima masalalari tarjimonlik va gidlik faoliyatida ijtimoiy-psixologik sezgirlikni talab qiladigan dolzarb yo‘nalishdir. Jumladan, evfemizm hodisasi til orqali tabu mavzularni yumshoq shaklda ifodalash imkonini berib, kommunikativ ziddiyatlarning oldini oladi. Allan va Burridj evfemizmlarni psixologik himoya mexanizmi sifatida baholab, ularning ijtimoiy-madaniy funksiyalarini chuqur tahlil qilganlar [2;117–121-b.]. Bu yondashuv gidlik faoliyatida, xususan, noqulay mavzularni madaniy jihatdan maqbul tarzda yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarjimashunoslikda M.Baker evfemistik tarjimada to‘liq va qisman ekvivalentlik muammolarini ko‘tarib chiqadi va madaniy moslik tamoyilini ilgari suradi [3]. Unga ko‘ra, evfemizmlar har doim ham to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinmaydi, balki kontekstga mos funksional muqobillar bilan almashtiriladi.

O‘zbek tilshunosligida H.Karimov va Z.Nizamova evfemizmlarning ijtimoiy-madaniy asoslarini yoritib, ularni tarjimada ehtiyotkorlik bilan qo‘llash zarurligini ta’kidlaydilar [4;72–74-b.]. Xususan, Karimov gid tarjimasida diniy, jinsiy yoki milliy nozik mavzularni madaniy jihatdan mos ifodalar bilan yetkazish kerakligini qayd etadi.

Gidlik faoliyatidagi amaliy tadqiqotlar (Richards & Munsters. 2010) esa evfemizmlarning turistlar bilan muloqotda hurmat va ehtiyotkorlik vositasi sifatida xizmat qilishini ko‘rsatadi [5]. Shuningdek, tarjimada substitutsiya, izohli tarjima, kontekstual almashtirish kabi usullar J.Catford va V.Komissarov tomonidan asoslab berilgan bo‘lib, bular og‘zaki tarjimada keng qo‘llaniladi [6;135-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu tadqiqot ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi evfemistik tarjima strategiyalarini o‘rganish maqsadida amalga oshirilgan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli qo‘llanilgan bo‘lib, gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyatidagi evfemizmlarning qo‘llanilishi, ularning tarjima strategiyalari va madaniyatlararo muloqotdagi roli tahlil qilingan. Ma’lumotlar to‘plash jarayonida adabiy manbalar tahlili, turizm sohasidagi amaliy misollar yig‘ish va til korpuslaridan foydalanish usullari qo‘llanildi. Tadqiqot doirasida ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarning lug‘aviy va madaniy ma’nolari, ularning tarjima jarayonidagi muammolari hamda yechim yo‘llari o‘rganilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Gid hamrohlari va tarjimonlarning faoliyati nafaqat tilni tarjima qilishdan iborat emas, bu madaniyatlar o‘rtasida vositachilik qilish, nozik mavzularni tarjima qili-

nayotgan tilda madaniyatli ifodalash va tilni turli ijtimoiy kontekstlarga moslashtirish qobiliyatini talab qiladi. Evfemistik tarjima bu jarayonda, ayniqsa, ko‘p madaniyatli va ko‘p tilli turizm muhitlarida markaziy rol o‘ynaydi, chunki noto‘g‘ri til tanlovi noqulaylik, odobsizlik, hatto obro‘ga putur yetkazishi mumkin.

Gid hamrohlari va tarjimonlar, ko‘pincha, tarixiy fojialar, mustamlakachilik, o‘lim, qashshoqlik yoki madaniy taqiqlar kabi mavzularni ko‘tarishadi, bular lingvistik did bilan yondashishni talab qiladigan mavzulardir. Masalan, qatl yoki urush sodir bo‘lgan joy tarixini tushuntirganda, rahbarlar qo‘pol yoki aniq terminlardan qochishadi. Ingliz tilida “people were killed here” o‘rniga “many lives were lost here” deb ifodalash, ayniqsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mahalliy sayyohlarga tarjimonlik qilayotgan gidlar esa “ko‘plab insonlar bu yerda hayotdan ko‘z yumgan” degan iborani ishlatishi mumkin, bu esa madaniy jihatdan bilvositalik va hurmatni aks ettiradi.

Evfemistik tarjima noto‘g‘ri yoki madaniy jihatdan nozik faktlarni yumshatib yetkazish orqali nutq va auditoriya o‘rtasida totuvlikni saqlashga yordam beradi. Bu xalqaro sayyohlarga murojaat qilganda alohida ahamiyatga ega, chunki ular turli madaniy darajaga yoki dunyoqarashlarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, G‘arbiy mamlakatlar vakillari to‘g‘ridan to‘g‘ri nutqni maqul ko‘rsa, Sharqiy Osiyo yoki Markaziy Osiyo mamlakatlaridan kelgan mehmonlar ko‘proq odobli va bilvosita uslubni afzal ko‘rishi mumkin. Shuning uchun malakali gid yoki tarjimon nafaqat manba tilini, balki auditoriyaning madaniy istaklarini ham hisobga olishi kerak [3;159–161-b.].

Gid hamrohlari va tarjimonlar tomonidan qo‘llaniladigan evfemistik tarjimaning umumiy strategiyalarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

Umumlashtirish. Aniqroq tafsilotlardan qochish uchun kengroq terminlardan foydalanish (masalan, “zo‘ravonlik” o‘rniga “qiyinchiliklar”).

Metafora. Figurali til ishlatish (masalan, “u endi biz bilan emas” deb “u vafot etdi” o‘rniga).

Madaniy moslashuv. Maqsad madaniyatiga tanish evfemizm bilan almashtirish (masalan, “ko‘zi yoridi” deb “tug‘di” o‘rniga, “blessed with a child” deb “give a birth” o‘rniga).

O‘tkazib yuborish yoki qayta shakllantirish. Nozik iboralarni tushuntirish yoki ularni madaniy jihatdan neytral tarzda ifodalash (masalan, “a bun in the oven” deb “pregnant” o‘rniga, “shirakayf” deb “mast” o‘rniga).

O‘zbekcha-inglizcha va inglizcha-o‘zbekcha tarjimada bu jarayon yanada nozik bo‘ladi, chunki Anglo-Sakson va o‘zbek an’analari o‘rtasida katta madaniy tafovut mavjud. Masalan, o‘zbek madaniyati kamtarlik, katta yoshlarga va dinga hurmatni yuqori qadrlaydi. Ba’zi ingliz iboralarini to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish o‘zbek tilida hurmatsizlik sifatida qabul qilinishi mumkin. Aksincha, ba’zi o‘zbek evfemizmlari ingliz tilida ekvivalentiga ega bo‘lmasligi mumkin va ularni tushuntirish talab qilinadi.

Turizm sohasida tijorat nozikligi ham mavjud. Rivojlanmagan infratuzilma, ijtimoiy muammolar yoki siyosiy masalalarni tasvirlashda manzilning imidjini (mavqeini) saqlab qolish uchun ehtiyot bo‘lish kerak. Evfemistik tarjima rahbarlar va tilshunoslarga haqiqatni yashirmasdan, ijobiy jihatlarni ta’kidlash imkoniyatini beradi [4;1–15-b.], [5;117–121-b.], [6;123–124-b.].

Ingliz tilidagi evfemizm	**Lug‘aviy ma’no (o‘zbek tilida)**	**O‘zbek tilidagi evfemistik tarjima**	**Lug‘aviy ma’no (ingliz tilida)**
Developing area	Poor infrastructure	Rivojlanayotgan hudud	Infratuzilmasi past hudud
Off the beaten track	Remote, hard to reach	Shahar yoki tuman markazidan chekkaroq hudud	Juda uzoq hudud
Authentic experience	Basic, not modern	Milliy an’anaviy tajriba	Juda eski
Local color	Underdeveloped, rustic	Mahalliy kolorit	Rivojlanmagan, kamba-g‘al hudud
Lively nightlife	Noisy, crowded at night	Jonli tungi hayot	Shovqinli, gavjum
Compact rooms	Small, cramped rooms	Ixcham xonalar	Tor, kichik xonalar
Traditional market	Old, possibly untidy bazaar	An’anaviy bozor	Eski, tartibsiz bozor
Vibrant atmosphere	Chaotic, busy	Fayzli muhit	Tartibsiz, gavjum
Up-and-coming destination	Not popular yet	Rivojlanayotgan manzil	Odamlar kam boradigan joy
Seasonal access	Sometimes inaccessible	Mavsumiy tashrif buyurish mumkinligi	Ko‘p hollarda borib bo‘lmaydigan

Evfemistik tarjima gidlar va tarjimonlar uchun muloqotda muhim vosita bo‘lsa-da, tilshunoslik, madaniy va kontekstual omillardan kelib chiqadigan bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ingliz va o‘zbek tillari kabi turli qadriyatlar va ifoda uslubiga ega bo‘lgan tillar o‘rtasidagi tarjima jarayonida bu qiyinchiliklar yanada kuchayadi. Turizm sohasida ravshanlik, sezgirlik va madaniy muvofiqlik jihatidan muhim bo‘lgani uchun, evfemistik tarjimada bir martalik noaniq ibora ham turistik tajribaga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

1. **To‘g‘ri mos keluvchi iboralarning yo‘qligi.** Evfemistik tarjimadagi asosiy qiyinchiliklardan biri tillar o‘rtasida to‘g‘ri mos keluvchi iboralarning yo‘qligi. Ingliz tilida tabiiy bo‘lgan evfemizm o‘zbek tilida madaniy yoki tilshunoslik jihatidan mos ekvivalentga ega bo‘lmasligi mumkin. Masalan, inglizcha “passed away” (vafot etdi) iborasiga o‘zbek tilida bir nechta evfemizm (masalan, “vafot etdi”, “olamdan o‘tdi”) mos kelsa-da, ularning har biri kontekst, rasmiylik darajasi va diniy tusdagi mazmunga ko‘ra, farq qiladi. Tarjimonlar til va madaniy muvofiqlikni saqlab qolish uchun qaysi variantni tanlashni ehtiyotkorlik bilan hal etishi kerak.

2. **Madaniy farqlar va tushunmovchiliklar.** Turli madaniyatlarga mansub sayyohlar evfemizmlarni har xil tarzda tushunishi mumkin. Bir madaniyatda oddiy hisoblangan ibora boshqasida noma’lum, chalkash, hatto aldovchi ko‘rinadi. Masalan, ingliz tilida gapiruvchilar ravshan va to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotni kutishsa, o‘zbek evfemizmlari ko‘proq bir ma’no va madaniy kodlangan bo‘lishi mumkin. Bu vaziyatda evfemizmlarni moslashtirilmasa yoki tushuntirilmasa, anglarilmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

3. **Evfemizmlarni ortiqcha yoki noo‘rin qo‘llash.** Evfemizmlar noxush haqiqatlarni yumshatish uchun foydali bo‘lsa-da, ularni ortiqcha ishlatish aniq tushunchani, ravshanlikning yo‘qolishi yoki soxtalik hissini paydo qilishi mumkin. Ekskursiyalarda tarjimonlar evfemizmlarni tarixiy, madaniy yoki faktologik ma’lumotlarni aniq yetkazish bilan muvozanatlashtirishi kerak. Evfemizmlarni haddan ortiq ishlatish muhim voqealarning hissiy ta’sirini pasaytirib, ta’limiy ahamiyatni yo‘qotadi.

4. **Tilshunoslikdagi noaniqlik va lug‘aviy ma’no yo‘qolishi.** Ba’zi evfemizmlar kontekstga bog‘liq va ma’no jihatidan noma’lum bo‘ladi. Tarjima jarayonida ularning nozik jihatlari yoki emotsional tuslari yo‘qolishi mumkin. Masalan, inglizcha “laid off” (ishdan bo‘shatildi) iborasi o‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinmasa, asl nuqtayi nazarning yumshatilgan ifodasini yo‘qotadi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi diniy yoki oilaviy hurmatga oid evfemizmlar ingliz tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinsa, ko‘p qatlamli ma’nolari saqlanmay qoladi.

5. **Malaka va resurslar yetishmasligi.** Yana bir muhim muammo – gid va tarjimonlar uchun evfemistik tarjima bo‘yicha maxsus tayyorgarlikning yetishmasligi. Ko‘p professional iboralarning madaniy ta’sirini to‘liq anglamay, noxolislik yoki noqulay vaziyatlarga sabab bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston kabi tez rivojlanayotgan turizm sohasida evfemistik tildan foydalanish va uning intermadaniy muloqotdagi tarjimasini o‘rgatadigan tuzilmali ta’lim dasturlari zarur.

Bu qiyinchiliklar evfemistik tarjimada faqat til bilimini emas, balki madaniy anglash va amaliy sezgirlikning ahamiyatini ta’kidlaydi. Gid va tarjimonlarning kasbiy rivojlantirishida bunday muammolarga real hayotdan olingan misollar, rolli o‘yinlar va tillarni qiyosiy o‘rganish vositalari bilan yondashish kerak.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, turizm sohasidagi evfemistik tarjima faqat lingvistik amaliyot emas, balki sayyohlarning bu mamlakat va uning xalqi haqidagi idrokini, tasavvurini, sterotiplarni shakllantiruvchi ijroiy va madaniyatlararo harakatdir. Evfemizmlarni samarali qo‘llash global auditoriya uchun hurmatli, professional va qiziqarli tarjimani ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

[1]. Crystal D. English as a Global Language. Cambridge: Cambridge University Press, 2003. 212 p.

[2]. Allan K., Burridge K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 2006, 117–121 pp.

[3]. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge, 2011, 324 p.

[4]. Karimov H., Nizamova Z. O‘zbek tilidagi evfemizmlarning ijtimoiy-madaniy asoslari. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, Toshkent, 2019, 3-son, 72–74-betlar.

[5]. Richards G., Munsters W. Cultural Tourism Research Methods. Wallingford: CABI Publishing, 2010, 256 p.

[6]. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. London. Oxford University Press, 1965, 135 p.

[7]. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). Москва, «Высшая школа”, 1990, 253 с.

Matyakubova Xolida Maksudovna (Ma'mun universiteti o'qituvchisi; holida.matyakubova.90@gmail.com)

KOGNITIV FAOLIYATDA TANQIDIY FIKRLASH VA FIKR BILDIRISH KO'NIKMASINING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kognitiv faoliyat jarayonida tanqidiy fikrlash va fikr bildirish ko'nikmasining ahamiyati va tanqidiy fikrlash orqali o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish, tahlil qilish va asosli fikr bildirish qobiliyatlarini rivojlantirish usullari yoritilgan. Fikr bildirish ko'nikmasi esa o'quv jarayonida samarali aloqa o'rnatish, tahliliy yondashuvni kuchaytirish va o'zaro tushunishni shakllantirishda muhim vosita sifatida talqin etiladi. Maqolada nazariy yondashuvlar bilan bir qatorda, amaliy tavsiyalar ham keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *tanqidiy fikrlash, kognitiv faoliyat, fikr bildirish, tahliliy yondashuv, o'quv jarayoni.*

Матякубова Холида Максудовна (преподаватель университета Мамуна; holida.matyakubova.90@gmail.com)

ЗНАЧЕНИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И НАВЫКА ОБРАТНОЙ СВЯЗИ В КОГНИТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *В данной статье освещается важность критического мышления и навыка предоставления обратной связи в процессе когнитивной деятельности. Автор показывает методы развития у обучающихся способностей к самостоятельному принятию решений, анализу и аргументированному выражению мнений. Навык обратной связи рассматривается как важный инструмент для установления эффективной коммуникации, углубленного анализа и формирования взаимопонимания в учебном процессе. В статье представлены как теоретические подходы, так и практические рекомендации.*

Ключевые слова: *критическое мышление, когнитивная деятельность, обратная связь, аналитический подход, учебный процесс*

Matyakubova Kholida Maksudovna (Lecturer at Mamun University; holida.matyakubova.90@gmail.com)

THE IMPORTANCE OF CRITICAL THINKING AND FEEDBACK SKILLS IN COGNITIVE ACTIVITYTITLE

Annotation. *This article highlights the importance of critical thinking and the skill of giving feedback in the context of cognitive activity. The author presents methods for developing students' abilities to make independent decisions, analyze situations, and express reasoned opinions. The feedback skill is viewed as a crucial tool for establishing effective communication, enhancing analytical approaches, and fostering mutual understanding in the educational process. The article includes both theoretical insights and practical recommendations.*

Keywords: *critical thinking, cognitive activity, feedback, analytical approach, learning process.*

Kirish (Introduction). Tez sur'atlarda o'zgarayotgan 21-asrda talabalar muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun tanqidiy fikrlash va ijodkorlik muhim ko'nikmalardandir. O'zbekistonda esa an'anaviy ta'lim tizimi asosan yodlashga asoslangan, o'qituvchi markazda uslubida dars o'tishi va tayyor bilimlarni yetkazishga yo'naltirilgan edi. Biroq hozirgi vaqtda talabalarning muammolarni hal qilish, tahlil qilish va ijodiy fikr bildirish jarayonlariga faol jalb qilinishini ta'minlovchi, dinamik ta'lim muhiti yaratishga ehtiyoj kuchaymoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Shu tamoyil asosida O'zbekistonda "Master klasslar" keng miqyosda va aniq maqsadlar asosida tashkil etilmoqda. Ayniqsa, mustaqil ta'lim va ko'nikmaga asoslangan darslarni tashkil etish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda Muslimov N.A., Azizxo'jayeva N.N., Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M. va To'rayev A.B. kabi olimlarning hissasi katta. Shuningdek, Ochilov M., Omonov H.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U., Azizxo'jayeva N.N. va Xoliqov A. kabi tadqiqotchilarning ishlari ko'nikmaga asoslangan darslarning ahamiyati va ularni tashkil etish jarayonlarini chuqur ilmiy-metodik asosda yoritib bergan [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Psixolog olimlar L.S.Rubinshteyn, V.V.Vigotskiy va I.A.Zimnyaya fikriga ko'ra, inson miyasi ikki funksional yarimsharga ega bo'lib, ular har xil kognitiv faoliyat uchun mas'uldir. Miyaning chap yarimshari, asosan, mantiqiy fikrlash, tahliliy tafakkur, yozma matnlar va raqamlarni eslab qolish kabi jarayonlarga ixtisoslashgan. Bu qism ko'proq an'anaviy, ketma-ketlik asosida fikrlashni ta'minlaydi va nisbatan cheklangan xotira salohiyatiga ega.

Aksincha, miyaning o'ng yarimshari ko'proq hissiy idrok, intuitiv anglash, vizual obrazlar va tasavvur bilan bog'liq faoliyatni boshqaradi. Bu yarimshar insonning 5 ta sezgi organi – ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va sezish orqali olinadigan ma'lumotlarni qayta ishlaydi va ularni ongda hissiy-ta'sirchan

tajribaga aylantiradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, miyaning o‘ng qismida inson xotirasining 90% salohiyati mujassam bo‘lib, uning 30% atrofidagi qismi aynan tasavvur va kreativ tafakkur bilan bog‘liqdir.

Bu holat shuni anglatadiki, inson tafakkurining rivoji faqat mantiqiy yoki tahliliy fikrlash bilan emas, balki hissiy-intuitiv va kreativ yondashuvlar bilan ham chambarchas bog‘liq. Tanqidiy fikrlash – bu ma’lumotni chuqur tahlil qilish, unga asoslangan holda xulosalar chiqarish va alternativ fikrlarni solishtira olish qobiliyati bo‘lsa, kreativ fikrlash esa yangicha, noodatiy yondashuvlar orqali muammoni hal eta olish va yangi g‘oyalar ishlab chiqish qobiliyatidir.

Shunday ekan, zamonaviy ta’lim jarayonida nafaqat chap miyaning mantiqiy imkoniyatlarini, balki o‘ng yarimsharning kreativ, vizual va hissiy salohiyatini ham har tomonlama faollashtirish zarur. Ayniqsa, xorijiy til o‘qitishda bu ikki yondashuvning uyg‘unligi – tanqidiy fikrlashni chuqurlashtirish, kreativlikni rivojlantirish hamda tilni nafaqat grammatika va lug‘at darajasida, balki madaniyat va emotsional kontekstda ham o‘zlashtirish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, samarali ta’lim tizimi miyaning har ikki yarimsharini faollashtiruvchi metodlarni qo‘llashni talab qiladi, bu esa tanqidiy va kreativ tafakkurni birgalikda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim sohasida axborot texnologiyasi va pedagogik texnologiyalardan keng turda qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalarning har biriga xos ishlatadigan tayanch tushunchalari (terminlar) mavjud. Masalan: “tyuter”, “fayl”, “slayd”, “prezentatsiya” va boshqalar axborot kommunikatsion texnologiyalarga xos tushunchalar bo‘lsa, “innovatsiya”, “insert”, “fidbek”, “fasilitator” va “kouching” terminlari esa pedagogik texnologiyalarda ishlatiladi [2]. Shundan “fidbek” so‘zining ma’nosiga diqqat qaratadigan bo‘lsak, Oksford lug‘atida unga shunday ta’rif berilgan: mahsulot yoki shaxsning vazifani bajarishiga nisbatan bildirilgan munosabati haqidagi axboroti bo‘lib, bu axborot yaxshilash uchun asos sifatida ishlatiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali muloqotni talab qiladi. Bu muloqotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bu fikr-mulohazadir. Fikr-mulohaza (feedback) bu o‘rganuvchiga o‘z faoliyati natijalari haqida axborot berish orqali uning o‘sishiga, xatolarini anglashiga va kelajakdagi faoliyatini yaxshilashiga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi. Bugungi kunda bu tushuncha nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilarning professional rivojlanishi uchun ham muhim vositadir.

Tahlil va natijalar. Fikr-mulohaza konsepsiyasi dastlabki bor psixologiya va pedagogika fanlarida o‘rganilgan bo‘lib, o‘rganish nazariyalariga asoslanadi. Masalan, B.F.Skinnerning behaviorizm nazariyasiga ko‘ra, insonlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lgan xatti-harakatlariga javoban berilgan signal orqali o‘rganadilar. Keyinchalik, kognitiv yondashuv vakillari (masalan, J.Piaget, L.Vigotsky) fikr-mulohazani bilimlarning shakllanishida muhim o‘rin tutuvchi metakognitiv vosita sifatida ta’riflaydi.

Sadler (1989) fikr-mulohazaning uchta asosiy shartini belgilagan:

1. O‘quvchi maqsadlarni tushunishi lozim.
2. Amaldagi faoliyat darajasi bu maqsadlarga nisbatan baholanadi.
3. Farqni bartaraf etish uchun nima qilish kerakligi tushuntiriladi [6].

Ta’limiy jarayonda fikr-mulohaza nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki tanqidiy fikrlash, o‘z-o‘zini baholash, hamkorlikda o‘rganish kabi ko‘nikmalarni ham shakllantiradi. John Hattie (2009) tomonidan olib borilgan metatahlil shuni ko‘rsatdiki, fikr-mulohaza o‘quvchilarning o‘quv yutuqlariga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biridir [3].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar fikr-mulohazani faqat baho emas, balki o‘rganishga yo‘naltiruvchi vosita sifatida qabul qilganlarida, ularning mustaqil fikrlashi va bilimni chuqur o‘zlashtirish darajasi ortadi.

Fil Reys o‘zining “Talabalarga o‘rganishga yordam berish uchun fikr bildirishdan foydalanish” maqolasida fikr bildirish turlarini sanab o‘tib, har bir usulning qanday afzalliklari va kamchiliklari borligini batafsil bayon qiladi [5].

Reys o‘z maqolasida bir nechta fikr-mulohaza berish usullarini keltirib, ularning har biri uchun alohida afzallik va kamchilik taraflarini ko‘rsatib bergan. Masalan, qo‘lyozma yoki qo‘lda yozilgan izohlar talabalarning yozma ishlariga izoh sifatida bevosita yozib beriladigan mulohazalar eng keng tarqalgan fikr-mulohaza shakllaridan biridir. Bunday shaxsiy va bevosita yozma izohlarning foydali jihatlari shundaki, ular har bir talabaning ishiga mos individual fikr beradi va talaba uni qayta-qayta o‘qib, o‘z ishlari ustida mulohaza yuritishi mumkin. Shu bilan birga, Reys ta’kidlaganidek, qo‘lyozma izohlarning kamchiliklari ham bor: masalan, qo‘lda yozilgan matn ba’zan o‘qish uchun qiyin bo‘lishi yoki keskin tanqidiy ohangda bo‘lganda, talaba uchun ruhiy jihatdan og‘ir tuyulishi mumkin.

Shuningdek, maqolada boshqa feedback turlari ham tahlil qilingan, jumladan: kompyuterda yozib chop etilgan individual mulohazalar, namunaviy javoblar yoki yechimlar (talabalarga namuna sifatida tar-

qatiladigan etalon javoblar), baholash varaqalari (assignment return sheets), butun guruhga mo‘ljallan-gan umumiy hisobotlar, maxsus kodlar yordamida beriladigan fikr bildirish, yuzma-yuz yoki og‘zaki fikr bildirish va elektron pochta orqali izoh qoldirish kabi usullar. Har bir usul bo‘yicha Reys 5–6 tadan afzallik va kamchiliklarni ro‘yxat qilib bergan. Masalan, namunaviy javoblar talabalarga o‘z ishini mustaqil tahlil qilishga yordam beradi va o‘qituvchilarning vaqtini tejashi afzal tomoni bo‘lsa, bunday yechimlar biror shaxsga qaratilmagan bo‘lgani uchun ba’zi talabalar unga yetarlicha qiziqmasligi ushbu usulning kamchiligi bo‘lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Kognitiv faoliyat jarayonida tanqidiy fikrlash va fikr bildirish ko‘nikmalarining rivojlanishi zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarga axborotni chuqur tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish va muammolarga ijodiy yechim topishda yordam beradi. Fikr bildirish esa o‘quvchilarning o‘zaro muloqotini mustahkamlab, bilimlarni chuqurlashtiradi va o‘rganishga faol ishtirokni rag‘batlantiradi. Bu ikki ko‘nikma ta’lim jarayonini interaktiv va samarali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Brookhart S.M. How to Give Effective Feedback to Your Students. ASCD, 2017.

(2). G.Yusupova, Z.Xudaybergenova, U.Jamalova. Fidbek – o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish instrumenti. 2016.

(3). Hattie, J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. Routledge, 2009.

(4). Majidovich, G.M. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion faoliyatni shakllantirishda mahorat darslarining ahamiyati. Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi, 5(2), 2024, 13–17-betlar.

(5). Race, Phil. Using Feedback to Help Students Learn. Higher Education Academy, 2005.

(6). Sadler D.R. Formative assessment and the design of instructional systems. Instructional Science, 1989,18(2), 119–144-betlar.

Xo‘janova Uringul Smayilovna (O‘zbekiston, Toshkent, UzDJTU; hojanovauringul01@gmail com)

O‘XSHATISHNING KOGNITIV XUSUSIYATI

Annotatsiya*. Ushbu maqola badiiy matnda o‘xshatishlarni konseptual tahlil qilishga bag‘ishlangan. O‘xshatish murakkab aqliy jarayondir, uning ortida turgan dunyoning lingvistik tasvirini izohlashda murakkab konseptual tahlil uslubini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. O‘xshatishlar tufayli biz obyekt, vaziyat yoki hodisalarning analitigi hisoblanamiz. Taqqoslash jarayonining mahsuli bo‘lmish o‘xshatish insoniyatning olam haqidagi tushunchalarini subyektiv tarzda boyitib kelar ekan, hozirda ham qizg‘in izlanishlar va tor-tishuvlar markazida qolmoqda.*

Kalit so‘zlar: *taqqoslash, o‘xshatish, o‘xshatish agenti, o‘xshatish referenti, ritorik figura, tasviriy va baholash funksiyalar, satirik funktsiya, aforistik funksiya.*

Ходжанова Урингуль Смайиловна (Узбекистан, Ташкент, УзГУМЯ; hojanovauringul01@gmail ком.)

КОГНИТИВНЫЙ ПОДХОД К ИЗУЧЕНИЮ СРАВНЕНИЯ

Аннотация. *Цель предлагаемой статьи обобщить на основе краткого обзора опыт использования когнитивного подхода к изучению языковых явлений в качестве образного сравнения и его функции и их взаимосвязи с когнитивными процессами (прежде всего, концептуализацией и категоризацией) в отечественной и мировой науке, дать общее представление о современном состоянии. В центре внимания находятся ключевые проблемы, решение которых объединяет разные дисциплины, а также современные тенденции развития когнитивного подхода в разных научных областях, фундаментальных и прикладных исследованиях.*

Ключевые слова: *сравнение, образное сравнение, имитационный агент, референт аналогии, риторическая фигура, образная и оценочная функции, сатирическая функция, аферистическая функция.*

Khojanova Uringul Smayilovna (Uzbekistan Tashkent; UzSWLU; hojanovauringul01@gmail com)

COGNITIVE CHARACTERISTICS OF SIMILARITY

Annotation. *The goal of the proposed article is to summarize, based on a brief review, the experience of using the cognitive approach to the study of language phenomena as a figurative comparison and its functions, and their interconnections with cognitive processes (primarily conceptualization and categorization) in domestic and global science, providing an overall view of the current state. The focus is on key issues whose solutions unite different disciplines, as well as modern trends in the development of the cognitive approach in various scientific fields, both fundamental and applied research.*

Key words: *comparison, simile, imitation agent, analogy referent, rhetorical figure, figurative and evaluative functions, satirical function, aphoristic function.*

Kirish. Antik davrdan beri olimlar tomonidan ilgari surilgan ko‘plab g‘oyalar ilm-fanda, asosan, mantiq, ritorika, falsafa, psixologiya, adabiyotshunoslik va tilshunoslik yo‘nalishlarida keng muxokama qilinmoqda. Tilshunoslikda lingvomadniyatshunoslik, pragmatika, diskurs, sintaksis, lingvostilistika, semantika, kognitiv semantika kabi sohalar bu yo‘nalishni yangicha yondashuvlar bilan boyitib bormoqda. Mantiqda o‘xshatish predmet va hodisalarning o‘ziga xos o‘xshash jihatlarni topish jarayoni sifatida o‘rganiladi. Ushbu pozitsiyaga muvofiq, taqqoslash natijasida to‘g‘ri xulosani olish uchun bir qator zarur shartlarga qat’iy rioya qilinadi. Birinchidan, faqat bir xil turdagi obyektlar va hodisalarni taqqoslash kerak. Ikkinchidan, obyektlarni muhim, zaruriy ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlariga ko‘ra solishtirish zarur [Mantiqiy lug‘at. 1971;498-b.]. Aflotun o‘xshatishni ikki yoki undan ortiq identifikatorlarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatuvchi usul deb tushuntiradi. Tilshunoslikda, odatda, qiyoslashning maqsadiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: Ikki predmetlar o‘rtasidagi farqni ko’rsatish maqsadida taqqoslanayotgan bo‘lsa, sof qiyosiy konstruksiya shakllanadi (so‘z–qilichdan o‘tkir), qiyoslash o‘xshatish maqsadida bo‘lsa o‘xshatish konstruksiyasi shakllanadi (so‘z qilichdek o‘tkir). Tilshunoslikda o’xshatishni hamma joyda topish mumkin: qiyosiy konstruksiyalarda, maqol va matallarda, aforizmlarda, badiiy personajlarning bayonotlarida foydalaniladi va natijada shaxs dunyoqarashining dialektik xususiyatini aks ettiradi. O‘tgan yillar voqeligini tasvirlash kabi badiiy hodisalar, ayniqsa, adabiy asarlar matnida aniq ifodalangan bo‘lib, ular orasida o‘xshatish alohida o‘rin egallaydi. Masalan, ma’lum bir ijtimoiy muhitga tegishli shaxs yoki voqealar suvrati til yordamida chiziladi. Xalqning benihoya boy tarixiy-madaniy, etnik-ma’naviy tajribalari, ya’ni, uning o‘zigagina xos “olamning lisoniy manzarasi” til vositasida shakllangani kabi mazkur tajribalarning barchasi aynan xalqning tilida o‘z ifodasini topadi, shu tilda yashaydi va muntazam ravishda ajdoddan keying avlodga o‘tib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Majoziy o‘xshatish har bir san’at asarining rassom tomonidan voqelikni obrazli bilish va aks ettirish natijasida dunyoga kelgan ijod mahsulidir. Badiiy matn tadqiqot obyekti sifatida ko‘plab tilshunoslarning e’tiborini tortgan. Jahon tilshunosligida V.F.Gumboldt, F.de Sossyur, A.A.Potebnya, E.B.Benevist, I.B.Sapir, B.L.Uorf, V.V.Vinogradov, B.A.Larin, G.O.Vinokur, K.R.Yakobson, I.R.Galperin, N.M.Shanskiy, O.I.Moskalskaya, A.N.Vasileva, L.Y.Maksimov, A.I. Efimov, G.O.Vinokur, V.M.Jirmunskiy, Y.M.Lotman, Lukin, Shanskiy. L.A.Novikov kabi olimlar tomonidan olib borilgan badiiy matn borasidagi tadqiqotlarga asosiy manba vazifasini bajarib kelmoqda.

Matveevaning lug‘atida “O‘xshatish bu ikkita hodisani grammatik jihatdan obrazli rasmiylashtirilgan shakli bo‘lib, uning maqsadi nutq obyektining ma‘ruzachi uchun muhim xususiyatini yoritib berishdir”, deb ta’rif beriladi. Shunday ekan, biz o‘xshatishni obraz hosil qiluvchi idrok mahsuli sifatida ko‘rib o‘tamiz.

O‘xshatish adabiyotshunoslikning turli sohalarida turli metodologik yondashuvlarni qo‘llagan holda ko‘rib chiqilgan. Adabiyotshunoslikda o‘xshatishni izohlashda yagona pozitsiya mavjud emas. Adabiyotshunoslikda o‘xshatishni obraz yaratuvchi troplarga kiritadi [Adabiy atamalar lug‘ati. 1974]. Ba’zi olimlar esa tropga kirmasligini ta’kidlaydilar, chunki o‘xhsatish so‘zlarning semantik chegarasini belgilab beradi, so‘zlarning asl ma’nosini o‘zgartira olmaydi. O‘xshatishga berilgan xilma-xil talqinlar troplarga yakuniy ta’riflar berilmaganligidandir. Badiiy matnning asosiy maqsadi maksimal ma’lumotni minimal miqdordagi tasviriy vositalar yordamida o‘quvchiga yetkazib berishdir. Bu holatda o‘xshatish qulay va ta’sir kuchiga ega ifoda vositalaridan biridir. A.G.Gornfeld zamonaviy tilshunoslikda troplar haqidagi nazariyalar antik davrdagi fikrlardan nariga o‘tmagan va ko‘p asrlik izlanishlar bo‘lsa-da, troplar borasida ko‘p tadqiqotlar zarurligini ta’kidlaydi [Gornfeld. 1911;337-b.].

A.N.Veselovskiy tarixiy poetikaning asoschisining so‘zlariga ko‘ra, afsona, til va she’riyat insonning psixologiyasi, tabiati, ongi yaqinlashish va parallell uzviylikka asoslangan psixologik texnikadir. Psixologik parallellikni rivojlantirishda o‘xshatishning ahamiyatini A.N.Veselovskiy “Inson o‘zini-o‘zi anglashi va rivojlanishi bilan birga, obyektlarni bir-biriga o‘xshatish, tabiat bilan uzviylikda yaratuvchanlik ko‘nikmasini takomillashtirib boradi”. Shunday qilib, tadqiqotchining fikriga ko‘ra, “chaqmoq – qush”, “odam – daraxt” tenglamalari “chaqmoq qush kabi”, “odam daraxtga o‘xshaydi” va boshqalarni o‘xshatish bilan almashtirildi. Shunday qilib, o‘xshatish “ongning nasriy harakati”dir. Boshqa tanqidchi va adabiyot nazariychisi P.V.Paliyevskiy ham taqqoslashda badiiy fikrning elementar modelini ko‘rgan. “So‘zning ichki shaklida taqqoslashning elementar belgilari yashiringanidek, deb yozadi u, taqqoslashda umumiy badiiy elementning eng muhim xususiyatlari–o‘zaro aks ettirish allaqachon ko‘rinib turibdi. To‘liq, katta badiiy

obraz uchun bu o‘zaro aks ettirishning boy tizimidir. Hissiyotli mavjudot ko‘z o‘ngida go‘zal g‘oya to‘-laqonli gavdalanmog‘i kerak va borliq haqidagi g‘oyaning to‘liq namoyon bo‘lishi obraz deyiladi”.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimiz obyekti majoziy o‘shatish bo‘lib, kognitiv modellashtirish metodidan foydalangan holda, badiiy matnning “chuqur mazmuni”ni yoritish uchun qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar. O‘xshatish – ikki xil narsani to‘g‘ridan to‘g‘ri solishtiradigan badiiy ifoda bo‘-lib, *kabi* yoki *singari* so‘zlaridan foydalaniladi. U, ko‘pincha, jonli tasvirlar yaratish yoki ma’noni aniqroq qilish uchun ishlatiladi. Ta'rif misoli: “Uning aqli po‘lat to‘siq kabi, tez va o‘tkir‘. Ushbu o‘xshatish asar qahramoni aqlining o‘tkirligini po‘lat to’siq bilan solishtirib, uning samaradorligi va kuchini ta’kidlaydi. Kognitiv tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, o‘xshatishlar tushunishni osonlashtiradi, mavhum yoki mu-rakkab tushunchalarni tanish tajribalarga bog‘lash orqali osonroq tushunishga yordam beradi. Bir miyaning o'ng yarim shar esa tasvirlar va kengroq bog‘lanishlar bilan shug‘ullanadi.

Quyida adabiy matnlardan tanilgan ba’zi o‘xshatish misollari, mualliflari va ularning ta’sirlarini qis-qacha tushuntirib berganlar: *“...like a man in pain, sobbing for his home...”* (“The Odyssey” Homer).

Odissey bu misolda yig‘layotgan holda ta’riflangan va o‘xshatish uning ko‘z yoshlari uy uchun has-ratlanayotgan odamning ko‘z yoshlari bilan solishtiriladi va jonsiz narsani insoniylashtirish orqali zaiflik va chuqur his-tuyg‘ularni ko‘rsatadi.

“O my Luve’s like a red, red rose / That’s newly sprung in June”. A Red, Red Rose” Robert Burns

Bu misoldan ko‘rinib turibdiki, sevgisini yangi, gullab-yashnayotgan atirgulga o‘xshatadi, bu esa go‘zallik, yangilik va ehtirosning ramziy belgisi ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar. Ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki, mantiqiy va majoziy o‘xshatishni farqlash ba’zan qiyin vazifadir. O‘xshatilayotgan obyektlar va hodisalarning heterojenlik (turli xil toifaga mansub) mezoni o‘xshatish tasvirini aniqlashda har doim ham hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Shu munosabat bi-lan shuni esda tutish kerakki, o‘xshashlik to‘g‘risidagi hukm taassurotlar asosida chaqiriladi va shuning uchun o‘xshashlik aldamchi bo‘lishi, o‘xshashlik vaqtinchalik hamda konstant-doimiy bo‘lishi mumkin. Maqolada o‘xshatishning semantik maydoni tahlil qilinib, lingvistik xususiyatlari yoritib berildi. Semantik maydon nazariyasi borasidagi izlanishlar va ularning ilmiy natijalari haqida izlanishlar va nazariy fikrlar ko‘paysa, kelajakda kognitiv tilshunoslik rivojiga kata hissa qo‘shgan bo‘lar edik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Исабеков С.Я. Картина мира во фразеологических единицах неродственных языков. Актуальные проблемы межкультурной коммуникации и перевода. Алма-ата, 2001.

(2). Spears R.A. Phrases and Idioms. A practical Guide to American English Expressions. NTC Publishing Group, 1998, p. 305.

(3). Матвеева Т.В. Полный словарь лингвистических терминов. Ростов н/Д., “Феникс”, 2010, с. 454.

(4). https://slovarozhegova.ru/ozhegov.php

Dosjanova Gulnaz Daryabaevna (QQDU “Qoraqalpoq tilshinisligi” kafedrasi dotsenti),
Kadirniyazova Biybijamal Sansizbay qizi (Qoraqalpoq filologiyasi 2-kurs talabasi)

T.MATMURATOV ASARLARIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK TURLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada T.Matmuratov asarlarida uchraydigan frazeologizmlarning semantik turlari tahlil qilingan. Ular frazeologik birikma, frazeologik birlik va frazeologik birikmalar sifatida ajra-tib ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, frazeologizmlarning emotsional-ekspressiv jihatlari hamda funksional-uslubiy xususiyatlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, frazeologik birikma, frazeologik birlik, frazeologik birikma, semantika, so‘z tarkibi.*

Досжанова Гулназ Дарябаевна (доцент кафедры каракалпакского языкознания КГУ),
Кидирниязова Бийбижамал Сансизбай кизи (студентка 2-курса каракалпакской филологии)

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ТИПЫ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ТВОРЧЕСТВЕ Т.МАТМУРАТОВА

Аннотация. *В этой статье проанализированы семантические типы фразеологизмов, ис-пользованные в творчестве писателя Т.Матмуратова. Особое внимание уделено вопросам их фра-зеологической запутанности, фразеологизму. Кроме того, раскрыты эмоционально-выразитель-ные стороны, функционально-стилевые качества фразеологизмов.*

Ключевые слова*: фразеологизм, фразеологическое сочетание фразеологическая единица, семантика, лексика.*

Gulnaz Daryabaevna (Associate Professor of the Department of Karakalpak Linguistics, KSU),
Kadirniyazova Biybijamal Sansizbay qizi (2nd year student of Karakalpak Philology)

SEMANTIC TYPES OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE WORKS OF T.MATMURATOV

Annotation. *This article analyzes the semantic types of phraseologisms found in the works of T. Matmuratov. They are distinguished as phraseological units and phraseological combinations. The emotional-expressive aspects and functional-stylistic features of phraseologisms are also revealed.*

Key words*: phraseology, phraseological unit, phraseological combinations, semantics, vocabulary.*

Kirish. Frazeologik birikmalar fikrni keng, obrazli va ta'sirli ifodalash xususiyatlari bilan boshqa til birliklaridan ajralib turadi. Shu bilan birga, ular qo'shimcha ma'nolarning kuchli ifodalanishi bilan ham alohida ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). A.Abdullayev aytib o'tganidek: "Frazeologizmlar nominativ va qo'shimcha ohanglarning ajralmas birligidan tashkil topgan maxsus nutq figuralaridir" [1;39-b.]. Frazeologik birikmalarning ifodalagan ma'nolari, ularning tarkibidagi so'zlarning alohada ma'nolari va butun birikmaning umumiy ma'nosi o'zaro bog'liqligiga ko'ra, har xil bo'ladi. Shu holatni inobatga olib, ularni ayrim guruhlarga ajratish frazeologik birikmalarni chuqurroq o'rganishda katta ahamiyatga ega [3;137-b.]. Shuning uchun biz ushbu maqolamizda T.Matmuratov asarlaridagi frazeologizmlarning semantik turlarini tahlil qilib o'rganishni maqsadga muvofiq deb bildik. Doimiy birikma sifatida qaraladigan frazeologik birikmalarning yana bir muhim xususiyati shundaki, ular ifodalovchi ma'no o'sha birikmani tashkil etuvchi har bir so'zning alohida holatdagi yoki boshqa bir so'z bilan birikkan paytdagi ma'nosidan butunlay farq qiladi. Bu birikmalar tarkibidagi so'zlar o'zining dastlabki leksik ma'nosini butunlay yo'qotadi. Shuning uchun bu frazeologizmlarning umumiy ma'nosi ularni tashkil etgan so'zlarning lug'aviy ma'nosidan mutlaqo ajralgan bo'-ladi.

Tahlil va natijalar. Frazeologik erishmalar ba'zan o'ta kuchli va butunlay yangi ma'noga ega bo'lib, o'tkir emotsional ifoda yaratadi. T.Matmuratov asarlarida frazeologik birikmalarning qo'llanishi orqali emotsional-ekspressivlik, obrazlilik va ta'sirchanlik aniq sezilib turadi. Masalan:

Joq etiwge yadrolıq quraldı,
At salısıp atırsız,
Bul jaqsı xabarlar
Qulaǵıma tiyip tur,
«Salqın urıs» xabarınan suwınǵan,
Kewlim qayta jibip tur. («Ana jer debdiwi»)

Turkiy tillarda, xususan, qoraqalpoq tilida ham lug'aviy tarkibda alohida guruh bo'lib ajralib turuvchi frazeologik birikmalarga boy. Aslida, frazeologizmlar qadim zamonlardan buyon o'ziga xos ekspressivlik, chuqur ma'no va ta'sirchanlik orqali ifoda qilinadigan fikrga funksional nuqtayi nazardan alohida tus beradi. Shu sababli ular badiiy adabiyotda leksik-semantik va stilistik vosita sifatida keng qo'llaniladi [2;4-b.]. T.Mátmuratov asarlarida frazeologik birliklarga ham tez-tez duch kelish mumkin. Bunday birikmalar semantik jihatdan yaxlit bo'lib, ularni alohida qismlarga ajratish mumkin emas. Ular tarkibidagi componentlarning alohida ma'nolari bir butun ma'no hosil qilish uchun birlashadi. Tuzilishi jihatidan ular frazeologik birikmalarga qaraganda nisbatan yumshoqroq, ya'ni unchalik qat'iy bo'lmagan bo'ladi. Frazeologik birliklar juda obrazli, kinoyali tarzda ifodalanadi va ularning ma'nosi tarkibiy so'zlarning ichki mazmuni bilan uyg'unlashgan bo'ladi. Frazeologik birliklarning semantik xususiyati shundan iboratki, ular badiiy adabiyot uslubida uslubiy til vositasi sifatida keng qo'llanish imkonini beradi. Masalan:

Tilge keldi tábiyat sonda:
–Bunıń ushın jemeńiz qayǵı. [5;18-b.]
Maqtanısh sezimi kókirekti kerner,
Miyrimlilik okeanınan
Suwsın berer awırsan ana,
Qabırǵası qayısıp shınnan,
Quwanıshtan geyde *kóz ilmedim*
Bári ketti kónil dártimniń. [5;61-b.]

Bu misollarda qo'llanilgan frazeologik birliklar ularga xos tabiiy poetik obrazlilikni aks ettiradi. Birinchi misoldagi «*tilge keliw»* frazeologizm «*sóylew*» degan ma'noni bildirsa, «*qabirğasi qayışiw»* frazeologizmi «qıynalıw» ma'nosini, *«ko'z ilmew»* frazeologizmi esa «uxlamaslik» ma'nosini anglatadi.

Frazeologik so'z birikmalarida frazeologik birliklar ko'proq uchraydi. Ularning har biri semantika, stillik jihatdan obrazli, astarli hamda qo‘shimcha ma’nolik ranglar bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ayniqsa, badiiy so‘z ustalari har qanday asarlarning tilida bu til boyliklaridan ko'p foydalanadilar. T.Matmuratov asarlarida bu guruhga kiruvchi xalq tilidagi frazeologik so‘z birikmalarining semantika-stillik o‘ziga xosliklarini inobatga olib, ulardan mualliflik ifodalashda hamda asar qahramonlarining tilida ham o'rinli va to‘g‘ri foydalanilishi ko‘rinadi. Shuning uchun badiiy asar, undagi tasvirlanayotgan voqea, hodisa, kartina o'quv-chiga ta’sir ko‘rsata-di.

Misol: Bayıp-bayıp ruwxıy paydalarǵa
Sher tarqatıp, debdiw shıǵardım. [5;61-b.]
Jaqsı kitap *jannıń azıǵı*,
Tez jetedi jigit qızlarǵa.
Duzı kem kitaplar dúkanda,
Qosılıp satıladı duzlarǵa. [5;26-b.]
Átirapqa báhár gezedi,
Shadlıq tawıp usı bostannan,
Quwanıshım sıymas qoyınǵa
Bolsın kewil girshiktey,
Aldamasın hesh kim de. («Appaq qardıń ústinde»).

Bu misollarda odamning kayfiyati bilan bog‘liq bo‘lgan “sher tarqatish”, “debdiw shig‘armoq”, “jonning ozi”, “duzini kamaygan”, “quvonişim qo‘yniga sig‘mas” kabi frazeologik birliklar birlashtirilgan. Shoir tuzi kam frazeologizmini stilistik maqsadda qo‘llagan. T.Matmuratov she’rlarida frazeologik birliklar juda ko‘p uchraydi. Ularning ko‘pchiligining komponent tuzilishi o‘zgartirilmasdan, o‘zining asl shakli va ma’nosida ishlatilgan. Ayrim frazeologik birliklarga zarurat bilan bog‘liq holda muallif tomonidan so‘zlar qo‘shilgan, o‘z-gartirilgan va qo‘llanilgan. Frazeologik so‘z birikmalarining bir guruhi, o‘z-o‘zidan tuzilgan so‘zlarning ma‘nosi bilan bog‘liq bo‘ladi. Aniqroq aytganda, bunday frazeologik so‘z birikmasining ulashuvchi ma’nosi, ularning tarkibidagi so‘zlarning birini yoki birini leksik ma’nosi bilan bog‘liq bo‘ladi. Mustahkam so‘z birikmalarining bu turi frazeologik birikmalarga taalluqli bo‘ladi. Ularga quyidagi frazeologizmlar misol bo‘lishi mumkin: *kózge túsiw, esinen tanıw, kewil kóteriw, bas iyiw, qabaq úyiw, tili shıǵıw* va boshqalar.

Frazeologik so‘z birikmalarining bu guruhi ham shoir o‘z asarlarida ko‘p ishlatgan. Masalan:

Tún. Sabır dep gúbirlenedi
Tún. Sabır dep *soǵar júregi*
Quwanǵanda ketip qalǵanım,
Janlarına tastay batpay ma? [6;304-b.]
El menen náwpirdur shadlıq dáryası
Alıs mánzillerge *kózimdi tigip.* [5;19-b.]
Qol sozıp baraman jańa jıllarǵa [5;20-b.]
Kónil qabarmasın qádirdanlarım,
Imaratlar qurıp qabarsın qollar, [5;21-b.]

Keltirilgan misollardagi “yuragi urish”, “joniga botish”, “ko‘zini tikish”, “ko‘ngil qabarish” frazeologizmlari frazeologik birikmalar hisoblanadi. Ularning tarkibidagi komponentlarning ma’nolari o‘zaro mustah-kam bog‘langan va barqaror tuzilishga ega. Ular ifoda etgan umumiy ma’noda esa o‘ziga xos mazmun va o‘zi-ga xoslik mavjudligi ayon. Frazeologik birikmalarning haqiqiy ma’nosi va obrazliligi faqat kontekstda ochiladi. Kontekstdan ajratilganda, ular oddiy so‘z birikmasiga aylanadi. Shoir asarlarida, ayniqsa, odamning xotirasini uyg‘otuvchi, hissiyotga ta’sir etuvchi frazeologik birliklarga ko‘p duch kelinadi. Masalan:

Men ótemen *oylarǵa talıp,*
Sol bir esteliktiń tusınan. [6.310-b.]
Sol elesti *esime salıp,*
Párwaz alıp qıyal qusınan,
Bawırına bastı da ásten,
Hám Sabırdı *túsirdi eske.* [6;266-b.]
Kúlkisine *esimnen tanıp*,
Aysanemniń *aqıl-xuwshi lal.* [6;264-b.]
Hám suw keldi bel buwarınan,

Hayran boldı Aysanem oǵan. [6;267-b.]

Frazeologik birikmalar tashqi ko‘rinishidan oddiy so‘z birikmalaridan farq qilmaydigandek tuyuladi. Buning sababi, ular oddiy so‘z birikmalaridan endi-endi shakllanib, obrazli ma‘noda qo‘shma ma‘noga o‘ta boshlagan birikmalar hisoblanadi va ularning ma‘nosi faqat kontekstda ochiladi. Shuning uchun ularni, ko‘-pincha, kontekstdan ajratib qarab bo‘lmaydi. Agar kontekstdan ajratilsa, oddiy so‘z birikmasiga aylanadi. Frazeologik birikmalarda obrazlilik kuchli bo‘ladi. Uning tarkibidagi so‘zlar o‘zining alohida ma’nosini saqlagandek tuyulsa ham, birikmadagi so‘zlarning alohida ma’nolarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan umumiy frazeologik ma’no ustunligi yaqqol sezilib turadi.

Koriskende kózlerdi kúlimletip,
Tatlı sezim tolqının dirildetip. [5;58-b.]
Aq kókirek bolsa hár adam
Sumlıq bolmas aqıl-oyında. [614-b.]

Xulosa. Ijtimoiy muhitdagi odamlarning ijobiy va salbiy xususiyatlarini ifodalashda yozuvchi T. Matmuratov frazeologik birikmalardan juda samarali foydalangan. Frazeologik birikmalar tashqi ko‘rinishidan oddiy so‘z birikmalaridan farq qilmagandek tuyuladi. Buning sababi barqaror so‘z birikmalarining bu turi oddiy so‘z birikmalaridan endiendi shakllanib, obrazli xususiyat va qo‘shma ma’noga ega bo‘lib bormoqda. Ularning ma’nosi faqat kontekstda aniqlanadi. Shuning uchun, ko‘pincha, ularni kontekstdan ajratib ko‘rib bo‘lmaydi. Biz T.Matmuratovning to‘plamlarida frazeologizmlarni semantik va ekvivalentlik tarkibi bo‘yicha uch turga ajratib ko‘rdik. Frazeologik birikmalarning bu uch turi ham asarlarda obrazli til vositalari sifatida xizmat qilib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Абдуллаев А.Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. Тошкент, 1993, 39-bet.
(2). Айназарова Г. Қарақалпақ тилинде теңлес еки компонентли фразеологизмлер. Нөкис, 2005.
(3). Бердимуратов Е. Ҳәзирги қарақалпақ тили. Лексикология. Нөкис, 1993.
(4). Мәтмуратов Т. Ашылысыў. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1977.
(5). Мәтмуратов Т. Жақсылық сарайы. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1986.
(6). Мәтмуратов Т. Сайланды шығармалары. Нөкис, «Қарақалпақстан», 2019.

Xalillayev Adilbek Kurambayevich (O‘zDJTU “Ispan tili nazariy fanlar” kafedrasi dotsenti f.f.f.d. (PhD); email: adilbek.xalillaev@gmail.com)

ISPAN TILIDA “HOMBRÍA” KONSEPTINING KOGNITIV TAHLILIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “mardlik” konseptining leksik-semantik sathlari ispan tili materialida namoyon etilgan. Ushbu konseptning kelib chiqish etimologik holati, izohli luatdagi ta’rifi va so‘z yasalish xususiyati semantik modellar yordamida tahlil qilingan. Tahlil jarayonidan “mardlik” konseptining qo‘shimcha sinonimik ma’nolari ham berilgan.*

Kalit so‘zlar: *konsept, kognitiv tilshunoslik, matonat, konseptual tahlil, semantik model, semantik maydon, sintagmatika, paradigmatika, qo‘rqinch, jasurlik.*

Халиллаев Адилбек Курамбаевич (доцент кафедры испанского языка теоретических дисциплин УзГУМЯ, д.ф.филол.н. (PhD); email: adilbek.xalillaev@gmail.com)

КОГНИТИВНО-АНАЛИТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОНЦЕПТА «МУЖЕСТВЕННОСТЬ» В ИСПАНСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В статье описывается лексико-семантический уровень объективации концепта “храбрость” в испанском языковом сознании посредством многоэтапного концептуального анализа, включающего в себя рассмотрение этимологии, словарных толкований, деривации, построение полевой модели. В ходе проведённого анализа были выявлены дополнительные значения.*

Ключевые слова: *концепт, когнитивная лингвистика, мужественность, концептуальный анализ, полевая модель, семантическое поле, синтагматика, парадигматика страх, храбрость, смелость.*

Khalillaev Adilbek Kurambaevich (Associate professor of Department of Theoretical Sciences of Spanish, PhD email: adilbek.xalillaev@gmail.com)

COGNITIVE-ANALYTICAL FEATURES OF THE CONCEPT OF “MASCULINITY” IN THE SPANISH LANGUAGE

Annotation. *The article describes the lexic-semantic level of objectification of the concept of “courage” in the Spanish language consciousness through a multi-stage conceptual analysis, which includes consideration of etymology, vocabulary interpretations, derivation, construction of a field model.*

During the analysis, additional values were identified.

Key words: *concept, cognitive linguistics, masculinity, conconceptual analysis, field model, semantic field, syntagmatics, paradigmatics, fear, courage, bravery.*

Kirish. Tilshunoslik rivojlanishining hozirgi bosqichi olimlarning mazkur obyektga bo‘lgan qiziqishining ortishi va ularning tilda ifoda etish usullari bilan tavsiflanadi. Ispan va o‘zbek tillaridagi “hombría/ mardlik” konseptini ifodalovchi lisoniy birliklar voqelikning mantiqiy amalga oshiruvchi axborot tuzilmalari sifatida ko‘rib chiqadigan kognitiv ilmiy paradigma asosida olib borildi.

XXI asr boshlaridan tilshunoslikda lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida tadqiqotlar olib borish odat tusiga kirdi.

Turli madaniyatlar olam lisoniy manzaralarining mohiyati madaniy konseptlar yordamida ochiladigan o‘ziga xos xususiyati lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv lingvistikaning tutashgan joyida tadqiqot uchun katta ahamiyat kasb etadi. Konseptlarning mohiyatini sharhlash jarayonida inson mavjudligining turli jihatlarini presuppozitiv tushunib yetish sodir bo‘ladi.

Til va kommunikatsiya tadqiqotiga antropo yo‘naltirilgan yondashuv kognitiv ilmiy paradigma bilan uzviy bog‘langan va mardlikni hamda nazokatni konseptlar statusiga yozib qo‘yish imkonini beradi [1], demak, ushbu tushunchalarning tadqiqoti kognitiv lingvistika sohasiga ko‘chirilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hozirgi lingvistikada to‘g‘ridan to‘g‘ri “botirlik” tushunchasining leksik reprezentatsiyasini ko‘rib chiqmaydigan, biroq turli tillar materiali misolida bir qator konseptlarning verballashuvini tadqiq qilishda bu tushunchaga to‘xtab o‘tadigan bir qator ishlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Shu sababdan ushbu maqola “mardlik” konsepti ispan tili sathida reprezentatsiya qilingan lingvistik vositalar tahliliga bag‘ishlangan.

Hozirgi paytda tadqiqotchi-tilshunoslar konseptual tahlilni borgan sari tez-tez qo‘llayaptilar, bu “tilning tadqiqot paradigmasi kengayganidan, shuningdek, hozirgi lingvistik tadqiqotlarning fanlararo xarakteri haqida guvohlik beradi [2;79–95-b.]. Til birliklarining konseptual tahlili voqelikni tilning inson ongini shakllantiruvchi tafakkur faoliyati bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganishni ko‘zda tutadi. Shuning uchun mardlik haqidagi tasavvur faqat tilda eks etib qolmaydi, balki aynan tuziladi, deb ta’kidlash mumkin.

Zamonaviy tilshunoslikning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, lingvomadaniyatshunoslik, pragmatik, sotsiolingvistik, psixolingvistik va kognitiv tilshunoslik kabi yo‘nalishning jadal rivojlanib borishida xorijiy tilshunos olimlar A.Babashkina, S.Vorkachev, Y.Kubryakova, V.Maslova, Z.Popova, Y.Stepanov, mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borgan A.A.Abduazizov, D.U.Ashurova, M.D. Djusupov, A.E.Mamatov, Sh.Safarov, O‘.Q.Yusupov, G‘.Xoshimov J.Yakubov kabi tilshunoslar o‘z ishlarida soha rivojiga muhim hissalarini qo‘shib kelmoqda.

Tahlil va natijalar. Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, konsept tushunchasini har tomonlama mohiyatini ochib berish quyidagi konseptual struktura tahliliga asoslanadi: 1) konseptni mujassamlashtiruvchi leksemalarning ma’nosini aniqlovchi etimologik tahlil; 2) konseptning semantikasini belgilovchi kalit so‘zlarning lug‘aviy tavsifini aniqlovchi tahlil; 3) konseptning ancha to‘liq xarakteristikasini beruvchi, kalit so‘zlarning boshqa so‘z turkumlari bilan birga ishlatila olishining sintagmatik tahlili. Ushbu metodika tahlilning umumiy manzarasiga konseptning obrazli mohiyatini ochib beradigan kognitiv metaforalarni kiritish bilan to‘ldirildi.

“Mardlik” konseptining o‘ziga xos semantik xususiyatlarini ochib berishda A.Morozovaning maqolasi katta ahamiyat kasb etadi. Biz mazkur maqolani yozishda muallifning nazariy fikrlariga suyandik va unda ushbu konseptga oid qiziqarli ma’lumot olish sharafiga muyassar bo‘ldik [5;82–88-b.].

Ispan tilida “dovyuraklik” konseptining asosiy leksik-semantik maydoni leksemalariga *hombría (hombredad, hombrada, hombradia), virilidad, masculinidad, vigor, energía, fuerza, entereza, firmeza, valor, valentía, osadía, audacia, honor (honra, honradez)* kiradi, unda ruscha *dovyuraklik* leksemasining tarjima ekvivalentlari bo‘lib *hombría (hombredad), virilidad, masculinidad* hisoblanadi.

Bu jihatdan *hombría* leksemasi eng aniq tuyiladi, chunki, birinchidan, u deyarli barcha lyeksikografik manbalarda ispan tilida “dovyuraklik” ma’nosini beradigan so‘z shakli sifatida ishtirok etadi, ikkinchidan, ispan madaniyatida asosiy dominantalarning ifoda belgisi sifatida, yorqin baholash konnotatsiyalarini o‘z ichiga oladi. *Ser hombre* (erkak bo‘lmoq) ispan tilida *poseer hombría* (molik bo‘lmoq, *hombría* ega bo‘lmoq) iborasiga ekvivalentlidir. Shunday qilib, *hombría*, o‘zini-o‘zi jamiyatda erkaklik tenglashtirishining o‘ziga xos belgisi bo‘lib xizmat qiladi: *Pórtate con hombría* mashhur iborasini “nimaga qodirligingni ko‘rsatib qo‘y, senda *hombría* bor” deb tarjima qilish mumkin (*portarse* fe’li so‘zlashuvda qo‘llanilganida so‘z-ma-so‘z “ajralib turmoq; o‘zini ko‘rsatmoq, mahorat ko‘rsatmoq; yarq etib ko‘rinmoq” deganidir). Shuningdek, leksik fondda *mostrar (namoyon qilmoq) hombría, dar prueba de (isbotlamoq) hombría, probar*

(boshdan kechirmoq, isbotlamoq) hombría, dudar de (shubhalanmoq) hombría de alguién, portarse con hombría (ko‘rsatmoq, namoyon qilmoq), actuar con hombría (bilan harakat qilmoq) iboralari ham talab qilingan hisoblanadi.

Ispan tilida “mardlik” konsepti “nominantlari” leksemalarining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularning har birida “erkaklik” jinsining aniq ustunligi ko‘rinib turganligiga qaramay, ular gender konseptining ayollarni atovchi “xotin-qizlar” yarimtaligiga ega emas. *Mujer* (ayol) lyeksemasi tilda ayollik gender bir xilligini ko‘rsatish uchun yetarli hisoblanmaydi. Bu jihatdan o‘sha lotincha *feminidad – masculinidad* so‘z shakllari universal bo‘ladi. Agar*hombredad*ni umumiy so‘z yasovchi formant tufayli *feminidad* leksemasiga qarama-qarshi qo‘yish mumkin bo‘lsa, biroq xotin-qizlarga nisbatan *hombría* ga ekvivalentli bo‘lgan atama ispan tilida mavjud emas.

“Mardlik” konseptining etimologik tahlili. “Mardlik” konsepti ispan tilida masculinidad, virilidad’, ‘hombría’ leksemalari orqali bayon qilingan bo‘lishi mumkin.

Ispan tili elektron etimologik lug‘atlarining ma’lumotlari bo‘yicha [http://etimologias. dechile. net; http://elcastellano.org], masculinidad leksemasi lotincha *mas* – erkakka oid, erkak... so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u avesto tilining *mah* – oy (o‘lim timsoli) [4] so‘ziga bog‘liq, bu yana bir bor hayotning nomuayyanligini va insonning o‘lishini ta’kidlaydi.

Nombría so‘zining etimologiyasi ‘hombrye so‘ziga borib taqaladi, u lotin tilidagi *homo, hominis* – odam so‘zidan kelib chiqqan. Bu so‘z lotin tilidagi *humus* – yer so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib [http://rae.es], bizga qadimgi mifologiyaning qo‘sh dixotomiyasini eslatadi, unda erkakning boshlanishi yer bilan assotsiatsiyalashgan. Bundan tashqari, hombrye so‘zining ma’nosi ho‘l, urug otib chiqaruvchi ma’nosiga bog‘liq bo‘lishi mumkin: lotincha *Homo* – odam, biroq lotincha *Umeo* – ho‘l bo‘lmoq, ya’ni, erkak organizmining fiziologik o‘ziga xos xususiyatlari verballashadi. Ayrim tadqiqotchilarning hisoblashlaricha, hombrye so‘zining semantikasi bir xil o‘zakli *homenaje* – sodiqlik qasamyodi, tabriklash marosimi, ehtirom so‘zi bilan yaqinlashadi [3;25–29-b.].

Virilidad so‘zining etimologik kelib chiqishi o‘z boshlanishini lotincha vir – odam, erkak so‘zidan oladi. Ushbu leksema olamning dastlabki elementlari (o‘t va suv) bilan bog‘liq: lotincha *Vir* – erkak, biroq hind-yevropacha *uer* – yonmoq, olov, shuningdek, toxarcha*A war* – suv, yoki toxarcha *A wir* – yangi, yosh, ya’ni, so‘z doimiy kosmogonik boshqacha shaklda ifodalanishlar haqida boryapti [6;387-b.]. Fikrimizcha, mardlikni stixiyalar bilan bog‘lash erkak organizmining jismoniy kuchini ta’kidlaydi, shuningdek, erkak, vayron qiluvchi stixiyalar kabi, tabiatda ham, maishiy hayotda ham hukmronlik qilishi mumkin.

“Mardlik” konseptining lug‘aviy tavsiflari tahlili. Tadqiq qilinayotgan konseptlarning lug‘aviy tavsiflari tahlili 1734-yildan 2001-yillarga chiqarilgan Ispaniya Qirollik Akademiyasining ispan tili lug‘atlari ma’lumotlari asosida olib borildi, ya’ni, leksemalarning ma’nolari o‘zgarishi dinamikasi kuzatib boriladi.

Masalan, masculinidad so‘zi muntazam chiqadigan Ispaniya Qirollik Akademiyasining Ispan tili lug‘atida [http://rae.es] 1734-yildan boshlab tilga olinadi. 1884-yildan boshlab ushbu leksema quyidagi variantda uchraydi: lacalidaddel sexo masculino o lo queespropio exclusivamentedeèl, t.ye. «erkak jinsining xususiyati yoki faqat ungagina xos bo‘lgan narsa». Nombria leksemasi – calidaddehombreo calidad buenadestacadadehombre, especialmentelaenterezao el valor (erkakning xususiyati yoki ajralib turuvchi erkaklik xususiyati, ayniqsa, matonat va jasorat) 1970-yildan eslatib o‘tila boshlandi. Ushbu leksemada erkaklik xarakterining aniq xususiyatlari, erkakka xos bo‘lgan, tashqi jihatdan uning xulq-atvori yordamida amalga oshadigan uning ichki fazilatlari aktuallashadi, ayni paytda, masculinidad leksemasidan erkaklik mohiyatining umumiy xususiyatlari va unga tegishli bo‘lgan barcha narsa tushuniladi. Virilidad so‘zi Qirollik Akademiyasining lug‘atlarida 1739-yildan boshlab eslatiladi; 1899-yildan boshlab ushbu leksema lug‘atlarda quyidagi qisqacha ta’rif bilan ishtirok etadi: ‘calidaddeviril’ – erkaklik fazilati. ‘Virilidad’ leksemasi oldingilaridan shu bilan farqlanadiki, uning semantikasiga umumiy va ichki alomatlardan farqli ravishda erkakning jismoniy alomatlari qo‘shib qo‘yilgan.

Ta’kidlash joizki, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan leksemalar o‘z mohiyatiga ko‘ra bir xildir; til sohiblari tomonidan ushbu konseptning tushunilishi va idrok qilinishining aniqligi buni tasdiqlaydi.

“Mardlik” konseptining derivasion tahlili. Morfema tahlili nuqtayi nazaridan masculinidad, virilidad, hombría leksemalari hosila va bo‘laklarga ajraluvchi hisoblanadi. Ular otlar suffiksal so‘z yasash usuli bilan hosil qilingan. Ularning tarkibida o‘zak morfemalari *masculin-, viril-, hombr-* va jenskiy rod suffikslari *-idad* va *-ía* umumlashgan “sifat, xususiyat, holat” ma’nolari bilan ajralib turadi. Nombría lek-semasining hosil qiluvchi asosi ot hisoblanadi, masculinidad, virilidad leksemalari esa sifatlardan hosil qilingan.

"Mardlik" konseptining sintagmatik tahlili. Mavjud til materialini tahlil qilib, biz "mardlik" konsepti ispan tilida alohida sintagmatik imkoniyatlarga ega ekanligini aniqladik. Masculinidad, virilidad, hombría leksemalari ham otli, ham fe'lli konstruksiyalar tarkibiga kirishi mumkinligini qayd qilamiz.

Ispan lingvomadaniyatida, bir tomondan, *entereza:* ichki kuch, aql ulug'vorligi, ichki o'zak *grandezadeánimo*, boshqa tomondan, qarashlarning barqarorligi, g'oyalarga, ideallarga mustahkam sodiqlik *firmeza, fortaleza.* Til ushbu belgiga nisbatan sinonimli birikmalarning katta sonini taklif qiladi: *entereza, firmeza, fortaleza,constancia, dureza, ánimo (fuerzade, grandezade…), tenacidad, solidez, fuerzadeespíritu, fuerzadevoluntad.*

Ikkinchi alomat ikkala lingvomadaniyatda konsept strukturasida eng ajralib turadigan belgilardan hisoblanadi. Biroq, odatda, rus tilida (*botirlik, dovyuraklik, jasurlik, shon-shuhrat...*) kabi sinonimik qatorning barcha leksemalarida asosiy sifatida qatnashadigan *dovyuraklik, xatar qarshisida qo'rqinchnng yo'qligi* semasi ustunlik qilsa, ispan tilida u uchta aniq ifodalangan tarkibiy qismlarga ajraladi:

–botirlik, qo'rqmaslik;

–dovyuraklik, quruq maqtanish, yolg'ondakam dovyuraklik;

–qo'pollik, surbetlik.

Ushbu semalar ispan tilida (*valor, valentía, osadía, atrevimiento,…*) konseptining deyarli barcha asosiy leksik reprezantlarida ishtirok etadi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, ko'rib chiqilgan mardlik sinonimik qatori ispan tili sohiblarining tafakkurida mardlik ichki, axloqiy, emosional alomatlar yordamida xarakterlanishi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Odamning tashqi qiyofasi bilan bog'liq mardlikning deskriptiv alomatlari sinonimik qatorlarda mujassamlashmagan. Mardlikni tashkil qiluvchilarning eng muhimlaridan biri, ruhning qat'iyligi, keskinlik, energiya bag'ishlangan erkak xarakteridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Витлицкая Е.В. Гендер как социально-культурно конструируемый феномен. Тр. ТГТУ, Тамбов, 2005, № 18, URL: http://tstu.ru/ education/elib/pdf/st/2005/vitlickays.pdf.

(2). Воркачев С.Г. Методологические основания лингвоконцептологии. Теоретическая и прикладная лингвистика: межвуз. сб. науч. тр., Воронеж, ВГУ, 2002, № 3, с. 79–95.

(3). Зыкова С.А. Способы выражения доминирующей маскулинности в лексическом фонде испанского языка. Вестн, ТГУ, Тамбов, 2009, № 1, с. 25–29. URL: http://sun.tsu.ru/mminfo/000063105/ 318/image/318-025.pdf.

(4). Маковский М.М. Сравнительный словарь мифологической символики в индоевропейских языках. Образ мира и миры образов, М., "Владос", 1996, 416 с.

(5). Морозова А.А. Концептуальный анализ структуры лексико-семантического уровня объективации концепта мужественность в испанском языке. Вестник Челябинского государствен-ного университета, 2010, № 22 (203), Филология. Искусствоведение, вып. 46, с. 82–88.

Xoliyorova Charosxon Davron qizi (tadqiqotchi, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston; charosxondavronovna@gmail.com)

AFAZIYA VA UNING O'ZIGA XOS TASNIFLARI

Annotatsiya. *Neyrolingvistikaning asosiy o'rganilayotgan muommolaridan biri bo'lgan afaziya- aynan miya neyronlarida yuzaga kelgan muommo tufayli nutqning buzilishi hisoblanadi. Aynan afaziyaga chalingan insonlarda nutqiy muommolar turlicha bo'lganligini hisobga olib, afaziya bir nechta turlarga bo'lingan va ularga berilgan tariflar ushbu maqolada o'z ifodasini topgan.*

Kalit so'zlar: *afaziya, neyrolingvistika, total afaziya, verneki afaziya, semantik afaziya, miya neyronlari.*

АФАЗИЯ И ЕЕ СПЕЦИФИЧЕСКИЕ КЛАССИФИКАЦИИ

Аннотация. *Афазия, одно из основных проблем, изучаемых в нейролингвистике, представляет собой нарушение речи, вызванное проблемами в нейронах головного мозга. Учитывая, что у людей с афазией наблюдаются различные речевые проблемы, афазию подразделяют на несколько типов, описания которых отражены в данной статье.*

Ключевые слова: *афазия, нейролингвистика, тотальная афазия, афазия верника, семантическая афазия, нейроны головного мозга.*

APHASIA AND ITS SPECIFIC CLASSIFICATIONS

Annotation. *Aphasia, one of the main problems of neurolinguistics, is a speech disorder caused by a problem in the neurons of the brain. Taking into account the fact that speech problems are different in people with aphasia, and aphasia is divided into several types. The descriptions of these aphasias are reflected in this article.*

Keywords: *Aphasia, neurolinguistics, Wernicke's aphasia, semantic aphasia, brain neurons.*

Kirish. Neyrolingvistika aynan fan sifatida qadimdan o‘rganilmagan bo‘lsa-da, uning asosini tashkil qilib kelgan muommolar davrlar mobaynida atroflicha o‘rganilib kelgan. Har bir obyekt o‘rganilishi uchun ma'lum bir davrni talab qilgani kabi, afaziya ham qadimdan buyuk faylasuflar yoki tibbiyot soha vakillari tomonidan bir necha bor tilga olingan va qo‘lyozmalarda muhrlangan.

Neyrolingvistikaning asosini turli ko‘rinishdagi nutqiy buzulish muommolari tashkil qilib, ushbu fan neyron kasalliklari bor shaxslarning nutqida uchraydigan muommolari o‘rganiladi. Ushbu fanning paydo bo‘lishida asosan afaziologiya, ya'ni, bosh miya shikastlanishi sababli inson nutqida buzilish yuzaga kelishi asos bo‘lgan desakto‘gri bo‘ladi. Aynan bosh miya shikastlanishi natijasida kelib chiqadigan nutqiy muommolar afaziya amaliy ehtiyojlari orqali qo‘llab quvvatlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Neyrolingvistika fanining paydo bo‘lishi fundamental kashfiyotlardan biri hisoblanadi va bu atamaning kelib chiqishi 1940-yillarning oxiri va 50-yillarda ijod qilgan olimlar Edit Krouell Trager, Anri Xeker va Aleksandr Luriya izlanishlarida o‘z o‘rniga ega bo‘lishni boshlagan. Bosh miya po‘stlog‘ida psixik jarayonlar yuzaga keladi va ubda insonning miya funksional assismetriyasi bogliqligi turadi. Neyrolingvistika fani, asosan, bu lokalizatsiya va funksiyalarini tilga bog‘liq xususiyatlarini o‘rganadi va shuning uchun ham biz bu fanning vujudga kelishini fundamental kashfiyot deb atadik. Afaziya esa neyrolingvistika fanining asosiy muommolaridan biri hisoblanib, aynan bosh miya nerv sistemasida vujudga kelgan zarbalar tufayli hosil bo‘ladi. Afaziya va uning kelib chiqish sabablari va uning inson sog‘lig‘i, ayniqsa, nutqiy muommolari haqida shu kungacha olimlar o‘z nuqtai-nazarlaridan kelib chiqqan holda izlanishlar olib borishgan. Loraine K.Obler, David Kaplan, Kurt Goldstein, Susan Edwards, Stephan Nadeau, Nency Helm-Estabrooks, Harold Goodglass va Sheila Blumstein, Marcia Radanovich Leticia Lessa hamda Paul Eling kabi olimlarning asarlarida afaziya nima, uning kelib chiqish tarixi va sabablari shuningdek afaziyaga uchragan bemorlar va ularda kuzatiladigan nutqiy va boshqa muommolar haqida batafsil yoritib berilgan.

Tahlil va natijalar. Afaziya neyrolingvistikaning asosiy o‘rganiladigan muommolaridan biri hisoblanadi. Tarixga nazar tashlasak, afaziyani o‘rganish lingvistik ta'limda hech qanday mutaxassisligi bo‘lmagan neyropsixolog va nevrologlar tomonidan shakllantirilgan. Bugungi kunda esa ushbu kasallikni nafaqat tibbiyot hodimlari, balki tilshunoslar ham atroflicha o‘rganib, o‘ziga xos yechimlarni taklif qilishmoqda. Shu o‘rinda takidlash joizki, tilshunoslar tinglovchi va so‘zlovchilarga tovushlar va ma'no o‘rtasini aniqlashga imkoniyat beruvchi kodni tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Shuningdek, ular, dekod qilish jarayonida tilning ishlab chiqarilishi va foydalanish tamoyillarini tahlil qilishni maqsad qiladilar. Shuningdek, tilshunoslar afaziyada tilni yo‘qotilishini kuzatib, mustaqil ravishda o‘zlarining nazariyalarini ishlab chiqishgan. Shunday izlanuvchilardan biri, Uitaker (1971) tilni o‘rganishdagi rivojlanish haqidagi davosi tilshunoslik va nevrologiya o‘rtasidagi ba'zi o‘rinli bog‘liqligi doim munozarali bo‘lib kelgan.

Afaziya – bu nutqning buzilishi, ya'ni, gapirish va tushunish o‘rtasida muommo maydoni yuzaga kelishi hisoblanadi. Afaziya yunoncha inkor qo‘shimchasi, ya'ni *yo‘q*, "fazis" – *ovoz*, nutq so‘zidan olingan bo‘lib, *nonutq* degan ma'noni anglatadi. Afaziya markaziy asab sistemasida nutqni idora etuvchi zonalarning buzilishi yoki shikastlanishidan kelib chiqadi. Ushbu jarayonda nafaqat nutq jarayoni, balki tushunish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon ham izdan chiqishini kuzatishimiz mumkin.

Olimlarning fikriga tayanib aytishimiz mumkinki, afaziya, asosan, orttirilgan til buzilishi hisoblanadi. Ko‘p holatlarda, keksa yoshdagi insonlarda miyaga qon quyilishi oqibatida nutqning susayishi, umuman, yo‘qolishi, shuningdek, til va tushunish o‘rtasida aloqani uzilishi holatlarini kuzatishimiz mumkin. Afsuski, bugungi kunda bunday kasallik nafaqat yoshi katta insonlarda, balki yosh bolalarda ham uchrab turibdi. Afaziologlar, tilshunoslar aynan shu kasallik bilan og‘rigan bemorlarni o‘rganib, ularning nutqini tiklash va fikrlash jarayonini qaytarish bilan shug‘ullanishadi. Bundan tashqari, afaziologlar miyaning aynan nutqiy hududlarini o‘rganish jarayonida, miyaning lisoniy hududlariga zarbalar, o‘simtalar yoki travmatik shikastlanishlar sabab bo‘lishini kuzatganlar.

Afaziyani tarixini o‘rganish jarayonida ba'zi olimlar uni o‘zlarining izlanishlari nuqtayi azaridan, turlicha tasniflarga ajratganini aniqladik. Lichgteim va A.R.Luriya kabi afaziologlarni biz bunga misol qilib keltira olamiz.

Lichtheim	**A.R.Luriya**
Brako afaziyasi	Dinamik afaziya
Vernike afaziyasi	Efferent motor afaziyasi
Konduktiv afaziya	Afferent motor afaziyasi
Transkortik sensorli afaziya	Semantik afaziya
	Sensor afaziya

Yuqoridagi jadvalda afaziologlarning tasniflagan turlarini jadvalga kiritdik [6]. Unga ko‘ra, bu ikki afaziologning turlarga ajratgan tasniflarining ba’zilari nom jihatdan farq qilsada, ma’no jihatdan bir biriga juda yaqin. Masalan, Lichtheimning *verneki afaziyasi* va A.R.Luriyaning *semantik afaziyasi* bir biriga juda yaqin ma’no kasb etadi. Ya’ni, ikkisida ham afaziyaga chalingan inson bemalol gapira oladi, lekin suhbatdoshini gaplarini to‘liq tushunmaydi. Eng e’tiborni qaratadigan nuqtasi shundaki, ular gaplarni grammatik jihatdan xato gapiradi va so‘zlarni xato tanlaydi, natijada ular gapirayotgan gap mantiqan tushunarsiz bo‘lib qoladi.

Bugungi kunda afaziologlar biz yuqorida ko‘rib chiqqan afaziyaning turlaridan tashqari boshqa turlarini amnestik va total afaziya turlarini ham ko‘rib chiqishmoqda. Ularning takidlashicha, *amnestik afaziyada* xotira chuqur darajada buziladi [3;179-b.]. Bunday bemorlar predmetlarni ko‘rganda ularni nima ekanligini tushunadi va biladi ammo nomini eslay olmaydi. Agarda bu vaziyatda kimdur yordam berib yuborsa, ular so‘zni to‘liq eslaydi va to‘g‘ri talaffuz qiladi.

Total afaziya esa kishi biror bir falokatdan yoki insultdan keyin darhol paydo bo‘ladigan holat sifatida qaraladi. Bunday vaziyatda bemor gapirmaydi, shuningdek, boshqalar nutqini tushunmaydi ham. Bunga sabab esa markaziy asab tolalarining bir necha zonalari bir vaqtning o‘zida birdaniga zararlangan bo‘ladi. Totalafasiya “total” – keng degan so‘zdan olingan bo‘lib, bunday holat afazikning holatidan kelib chiqib bir necha kundan bir necha haftagacha davom etishi mumkin [1;139-b.]. Bunday bemorlar, odatda, atrofidagi hamma narsaga beparvo bo‘lib qoladi. Uning nutqida butun nutq sistemasi, ya’ni, grammatik tomoni ham, semantik tomoni ham buzilgan bo‘ladi. Lekin nutqning qaysi tomoni ko‘proq buzilgan va unung nutqida qay darajada o‘z tasirini ko‘rsatishi dastavval noma’lum bo‘ladi. Vaqt o‘tgan sari hammasi oydinlashib boradi. Va uning g‘uldirab gapira oladigan nutqini yoki imo-ishoralardan foydalanib nutqini bayon etishini faqatgina uning atrofida doim birga yuradigan insonlargina oson tushuna olishadi. Mabodo, afaziya asabiy-ruhiy kechinmalar tufayli yuzaga kelgan bo‘lsa, u asta-sekin barham topib ketishi mumkin. Lekin afaziya miyada tayinli biror-bir kasallik sababli yuzaga kelgan bo‘lsa, u vaqt va o‘ziga yarasha davolash choralarini talab qiladi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunga kelib afaziyaning yana yangi turlari kashf etilishi, neyrolingvistikada bizga noma’lum va o‘rganilishi kerak bo‘lgan qirralarning salmoqli ekanligidan darak beradi. O‘rganishlarimiz davomida birgina inson miyasi inson organizmi uchun qanchalar muhim ekani va aynan undagi nerv sistemasi butun boshli insonning hatti-harakatlari va o‘z navbatida nutqiy faoliyati uchun asos bo‘lib xizmat qilishining guvohi bo‘ldik. Biz birgina afaziya va uning turlari haqida qanchadan qancha izlanishlar va ularning atrofida yuzaga kelgan muhokamalarni o‘rganib chiqdik. Bu orqali neyrolingvistikada hali bunday o‘z muommosi va uning yechimini kutayorgan qanchadan qancha yangiliklar bizni kutib turganini tasavvur qilish qiyin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Raxmonova V.S. Defektologiya asoslari. Toshkent, 2017, 139-bet.
(2). Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. М., 1975.
(3). Лурия А.Р. Письмо и речь- нейролингвистические исследования. М., 2022.
(4). David Caplan. Neurolinguistics and linguistic Aphasiology. Cambridge university Press, 1987.
(5). Kurt Goldstein. Language and language disturbances: Aphasic Symptom Complexes and their significance for Medicine and Theory of Language. Nyu-York, 1948.
(6). https://www.youtube.com/watch?v=fhspMYzuXZQ

Jumaniyazova Surayyo Ravshonovna (NavDU “O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi 1-bosqich magistranti)

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA TURG‘UN O‘XSHATISHLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA

Annotatsiya*. Mazkur maqolada tilshunosligimizning so‘nggi yillardagi taraqqiyoti haqida fikr bildirish barobarida, badiiy matnda lingvomadaniy birliklarning, xususan, turg‘un o‘xshatishlarning lingvopoetik actuallashuvi muammolari, Shukur Xolmirzayev hikoyalari misolida atroflicha yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *lingvomadaniy birlik, turg‘un o‘xshatishlar, lingvistik xususiyatlar, lingvokulturologik tal-qin, leksik birliklar, sintaktik birliklar, uslubiy xoslanish, poetik-estetik maqsad, rangin tasvirlar.*

Жуманиёзова Сурайё Равшоновна (Навоийский государственный университет, направление узбекского языка и литературы)

УСТОЙЧИВЫЕ СРАВНЕНИЯ КАК ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ЕДИНИЦЫ В РАССКАЗАХ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА

Аннотация*. В данной статье наряду с освещением тенденций развития современного узбекского языкознания рассматриваются вопросы лингвопоэтической актуализации лингвокультурных единиц, в частности устойчивых сравнений, в художественном тексте. Особое внимание уделяется анализу данных языковых явлений на материале рассказов Шукура Холмирзаева, что позволяет выявить их поэтическо-эстетическую функцию в структуре художественного дискурса.*

Ключевые слова: *лингвокультурные единицы, устойчивые сравнения, лингвистические характеристики, лингвокультурологический анализ, лексические и синтаксические структуры, стилистическая маркированность, поэтико-эстетическая функция, образность.*

Jumaniyazova Surayyo Ravshonovna (Navoiy state university. Faculty of Uzbek language and literature)

SET SIMILES AS LINGUOCULTURAL UNITS IN THE SHORT STORIES OF SHUKUR XOLMIRZAYEV

Annotation*.This article examines the progress of Uzbek linguistics in recent years while thoroughly addressing the issues of linguopoetic actualization of linguocultural elements – particularly fixed similes – in literary texts. The analysis is conducted on the basis of Shukur Xolmirzaev’s short stories, offering a comprehensive exploration of their linguistic and cultural dimensions.*

Keywords*: linguocultural unit, fixed similes, linguistic characteristics, linguocultural interpretation, lexical units, syntactic units, stylistic expression, poetic and aesthetic function, vivid descriptions.*

Kirish (Introduction). O‘zbek tilining rang-barang va serjilo ohangini, boy ma’naviy va madaniy mero-sini kelajak avlodlarga singdirish hamda qadrlash g‘oyasining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi tilshunoslar zimmasiga mas’uliyatli vazifalar yuklaydi. Yangi-yangi tadqiqotlar uchun keng yo‘l ochadi. Zero, Prezidenti-miz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichi – milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish” [1] masalasi dolzarb bo‘lib turgan ekan, o‘zbek tilini dunyo tilshunosligining zamonaviy tadqiq usullar orqali ilmiy asosda mukammal o‘rganishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Badiiy asarning bosh unsuri so‘z, umuman, til ekan, ana shu asarning chinakam san’at darajasiga ko’tara olishida uning tili, muallifning til vositalarini qay darajada qo‘llay olishi asosiy omildir. Adabiyotimizda iz qoldirgan har bir ijodkor asarlarining tilini o‘rganish, birinchidan, adibning mahoratini o‘rganish, shu bilan birga, tilimiz rivojiga uning asarlari tili ta’sirini, tadqi-qotning esa tilshunosligimiz taraqqiyotiga qay darajada ta’sir ko’rsatayotganligini belgilash ehtiyojidan kelib chiqadi. So‘nggi yillarda tilshunoslik sohasida muayyan ijodkorning til boyligidan foydalanish mahoratiga bag‘ishlandan ishlar ko‘lamining tobora kengayayotganligi quvonarlidir. O‘ylaymizki, til birliklarining badiiy matnlardagi badiiy-estetik vazifalarini tahlil qilish hali ko‘plab tadqiqotlarning yaratilishiga turtki bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqola mazmunini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, differensial-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mazkur maqolamizda badiiy matnda tasvir tiniqligini ta’minlashda, ta’sirchanlikni oshirishda, poetik qimmatni yuqori pog‘onaga ko‘tarishda o‘xshatishlarning o‘rni va ahamiyati haqida so‘z yuritamiz. Fikrimizni sevimli yozuvchimiz Shukur Xolmirzayev hikoyalarida mahorat bilan qo‘llangan lingvomadaniy birliklardan biri hisoblangan turg‘un o‘xshatishlar misolida ochib beramiz.

Tilimizdagi lingvomadaniy birliklar vazifasini faqat leksik birliklar emas, balki sintaktik birliklar ham bajara olishi mumkin. Taniqli tilshunos N.Mahmudov sintaktik birlik maqomidagi turg‘un o‘xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlarini quyidagicha ochib beradi: ”Sof qiyosga qaraganda o‘xshatishlar nutqda sezilarli darajada katta badiiy-uslubiy va lingvopoetik imkoniyatlarga ega bo‘lgan konstruksiyalardir. Shuning uchun ham o‘xshatishlar dunyo filologiya ilmida eng qadimgi davrlardan boshlab nutq ta’sirchanligini ta’minlovchi vosita sifatida turli tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelgan” [2].

O‘xshatishlar. Lingvomadaniyatshunoslikda til sohiblarining milliy-obrazli tafakkur tarzini va aksiologik munosabatini namoyon etuvchi, aksariyat hollarda lingvomadaniy kodlar vositasida shakllantirilgan, ikki obyekt o‘rtasidagi o‘xshashlik mazmunini ifodalovchi, til sohiblarining lisoniy xotirasida ma’-

lum bir qoliplar shaklida saqlanadigan konnotativ turg‘un birikmalar. Turg‘un o‘xshatishlarning o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan va milliy-etnik xususiyatlarga ega bo‘ladi. Masalan, beozorlik etalonining o‘zbek tilida musicha, ingliz tilida kabutar, koreys tilida esa sigir tushunchasini bildiruvchi so‘zlar vositasida ifodalanishi [3].

Chinakam xalqona asarlari bilan minglab kitobxonlar qalbidan joy olgan yozuvchimiz Shukur Xolmirzayev tomonidan qo‘llangan o‘xshatishlar matnda badiiylikni oshirish bilan birga milliy-madaniy qadriyatlarni, an’analar, tafakkur tarrzi, voqelikka bo‘lgan munosabat kabilarni ifoda etadi. Ularni millatga xos milliy-madaniy xususiyatlarni namoyon etuvchi va keyingi avlodga yetkazuvchi lingvomadaniy birliklar sifatida ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, adibning “Sog‘inch” hikoyasidagi quyidagi o‘xshatishga e’tibor qaratamiz: *“Azim maktab direktori oilasidan, Ismat maktab qorovuli oilasidan; Azim goho darsdan keyin yumshoq kulimsiraganicha Ismatlarnikiga borib, uni ovga taklif etar, ov deganda* ***oyog‘i kuygandek*** *tipirchilab qoladigan Ismat unga jon-jon deb rozi bo‘lar va ikkalasi togg‘a chiqib ketar edi”.*

Mazkur nutqiy parchada **oyog‘i kuygandek** tipirchilab o‘xshatishli qurilmasi Ismatning hayajonlanib, sabrsizlanib, betoqat holatga tushib, bir joyda tura olmayotgan holatini ifodalaydi. Chunki odamning oyog‘i kuyganda joyida tura olmaydi, tipirchilab ketadi. Mazkur holat o‘xshatishli qurilmasi orqali asar personaji – Ismatning ruhiy holatini, ichki hayajonini o‘ziga xos tarzda ochib berish maqsadida ishlatilgan.

Adibning “O‘zbeklar” hikoyasida ham asar qahramonlarining fe’l-atvori, tashqi ko‘rinishi, ichki kechinmalari va tabiat hodisalarining rangin tasvirlari turg‘un o‘xshatish orqali yanada tiniq tasvirlarda jonlanadi. Ma-salan, “*Havoda* ***zildek*** *og‘ir, qoramtir bulutlar aylanar, lekin etakdagi paxtazor yaqqol ko‘zga tashlanar edi. Ikkinchi terimdan chiqqan. Ko‘p g‘o‘zalar barg to‘kib, sarg‘ayib qolgan”.*

Mazkur misolda “**zildek** og‘ir, qoramtir bulutlar”o‘xshatishi kuz faslining o‘ziga xos tasvirini aniq va ravshan idrok etishga yordam beradi.

Zil yerdan uzib bo‘lmaydigan daraajada og‘ir (narsa, yuk haqida). **Zilday, =dek** Juda og‘ir ko‘tarib bo‘l-mas darajada og‘ir [6].

Og‘ir, juda og‘ir; azobli [3].

Hikoyadagi lingvomadaniy birlik – o‘xshatish asarga badiiy ruh berishga, tasvir tiniqligini ta’minlashga, insoniy kechinmalarni tabiat hodisalariga uyg‘unlashtirishga imkon beradi.

“O‘zbekning milliy iftixori uchun kurashyapman!”–deb o‘ylab tursangiz. Bitta o‘rtog‘ingiz o‘yinqaroqlik qilib, kamroq paxta tersa, ko‘zingizga yov bo‘lib ko‘rinsa... Bitta go‘zal, nozik qiz ***ipakdek barmoqlari*** *cha-noqlarga tilinib, qoni chiqib, doka bilan bog‘lab olib, endi zo‘rg‘a terayotganini ko‘rsangiz: “E, shaharlik oyimqiz! Soyapar-da, soyapar!”–deb ichdan haqorat qilar edingiz.*

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ipak quyidagicha izohlanadi: **ipak** 1 Pilla qurti chiqargan juda ingic-ka, pishiq, yaltiroq, tovlanib turadigan muloyim tola va undan yigirilgan ish. ko‘chma Muloyim, nozik. **Ipak-day**, **-dek** 1 Ipak singari muloyim, nozik. Ipakday mayin paxta. 2 ko‘chma Juda ham xushmuomala, shirinso‘z; muloyim [6].

Shukur Xolmirzayevning “O‘zbeklar” hikoyasida “ipakdek barmoqlar” turg‘un o‘xshatishi orqali qiz bo-la barmoqlarining muloyimligi va nozikligi ipakning ana shu xususiyatlariga qiyoslangan. Mazkur turg‘un o‘xshatish tilimizning o‘ziga xos boyligi, ifoda imkoniyatlari kengligi va so‘z san’atkorining milliy tafakkur tarzini namoyon etishga xizmat qilgan. *Men ham qiziqib, bolaning yoniga bordim. Shunda it g‘ingshib, sapchib turdi-da, devordan lippa oshib o‘tdi. Saldan so‘ng* ***mushtdek kuchukvachchani*** *tishlab, bu yoqqa sakrab o‘tdi. Yerga qo‘yib yaladi. Yana yotdi. – Qiziq-a? –dedim.*

“O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”da musht o‘xshatish etaloniga quyidagicha izoh berilgan. **Mushtday** kichkina, ixcham, mayda. Ko‘proq shaklan yumaloq yoki yumaloqqa moyil narsalar, shuningdek, yosh bola, katta odamning uncha yirik bo‘lmagan yoki ozib, kichraygan jussasi haqida [3].

“O‘zbeklar” hikoyasida mazkur o‘xshatish turli narsalarga nisbatan qo‘llangan. Masalan, *Keyin dikillab egatga kirardik. “Oq oltin”ni terardik. Bu qurmag‘ur “oq oltin” etakka tushgach, tugilib,* ***mushtdek*** *bo‘lib qo-lardi. Jiqqa ho‘l-da. A? Qanday qilib quritib topshirishlarini bilmayman.*

Nutqda o‘xshatishli qurilmalar kontekstual antonimlikni hosil qilishi ham ko‘p kuzatiladi. Bunday antonimlik ko‘chma va majoziy ma’nolarda qo‘llanishidan yuzaga keladi. Ular narsa va hodisalar o‘rtasidagi belgi-xususiyatlarni aniq farqlash maqsadi uchun qo‘llanadi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida tog‘-day va mushtday (-dek) turg‘un o‘xshatishlari kontekstual antonimlikni yuzaga keltirganligini “Odam” hikoyasi misolida ko‘rishimz mumkin: *Shodmon o‘shanda yurtdosh polvonlar bilan Afg‘onistonga ketgan edi. Bir haftadan keyin uyoqda yiqitgan polvonlari haqqi – bir tuya mol bilan qaytib keldi va uch kun yotib, tirnoqlari ko‘kardi,* ***tog‘day*** *odam* ***mushtdek*** *bo‘lib tirishib qoldi, o‘ldi.*

Tog‘day (kabi, singari) 1. Katta, ulkan; mustahkam; zo‘r, buyuk, ulug‘ [3].

Xuddi shu qo‘llanish adibning “Kuzda bahor havosi” hikoyasida ham uchraydi. Masalan, *Farg‘ona void-ysida “Kichkina” degan o‘yin bo‘larkan. Bir ko‘rik tanlovga borganimda ko‘ruvdim. “Kichkina” deb kuylaganingiz sari **tog‘day** odam bora-bora **mushtdek** bo‘lib qoladi.*

Quyidagi “O‘zbeklar” hikoyasidan keltirilgan nutqiy parchada o‘ziga xos obrazli tafakkur mahsuli sifatida yuzaga keladigan **qorningiz to‘ygan qo‘zining qornidek** bo‘lmasligi o‘xshatishli qurilma asarda badiiy-estetik qimmatga ega bo‘lish barobarida uning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligini ta’minlashga xizmat qiladi. *Terimda esa, hamma vaqt **qorningiz to‘ygan qo‘zining qornidek** bo‘lmasligi o‘zingizga ma’-lum... bir tuyur go‘sht-u makaron solib qaynatilgan sho‘lan sho‘rva mana shunday... joningizga tegib keta-di: rahmat.*

Yozuvchining mahorati shundaki, sofdil, kamtar kishilar (yozuvchilar) obrazi tasviri uchun qo‘llan-gan o‘xshatishli qurilmalar kitobxonni ifodalanayotgan fikrning mohiyatini teranroq anglashga undaydi. *Endi, ular ham jannatda emas edilar-da, qadrdon. Siz, yozuvchilar, injiq odamsizlar. Yaxshi odam degan-da, albatta, **sutdek oq, musichadek beozor** odamni tushunasizlar.*

*To‘g‘ri, qishloq tomonga bir-ikki qadam bosdim. Lekin, chamasi, kursdoshlar orasida yolg‘izlanib qolish, ming bir ta’nalarni eshitishdan ham qo‘rqdim, shekilli. Bundan tashqari, anglab olmagan esim-da, bu yigitlar to‘qlikka sho‘xlik qilmayotganlarini ham tushunib turardimki, garchi bu hol ularni oqlashga **tirnoqcha** asos bo‘lmasa ham, ko‘nglimga tasalli, o‘z-o‘zini aldash deysizmi –shularning biri edi.*

Turg‘un o‘xshatishlarning mohiyati o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashganligida namo-yon bo‘ladi.

Tirnoqday Juda ham kichik, arzimaydigan [3]. *Ikkalamiz ham jim, tashqarida shuvillab yog‘ayotgan yomg‘irga qarab o‘tiribmiz. Soy sohiliga ko‘kchil tuman o‘rmalayapti. Sohilning so‘l tomoni bug‘doyi kuyib ketgan **paykalday** qorayib ko‘rinadi. Uning ustiga bulutlardan yo‘l-yo‘l zangor chiziqlar osilib tushgan. Bora-bora u chiziqlar oqardi, qorayib ko‘rinayotgan yerlar ham yorishdi.*

Mazkur obrazli milliy tafakkur hosilasi bo‘lgan o‘xshatish etalonida muayyan milliy-madaniy kon-notatsiya ifodalangan. Til sohiblarining tashqi olamni idrok etish usulini namoyon qiluvchi yuqoridagi o‘x-shatish shunchaki qiyoslash ma’nosini ifodalab qolmasdan, milliy obrazli tafakkurni ko‘z o‘ngimizda yor-qin bo‘yoqlarda tasvirlovchi lingvomadaniy birlik sanaladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Keltirilgan misollar tahlilidan ijodkorning betakror lisoniy salohiyat egasi ekanligini anglashimiz mumkin. Adibning xalqona uslubini yuzaga chiqa-rishda barcha til birliklari bilan bir qatorda, o‘xshatishlar alohida ahamiyat kasb etishini anglash qiyin emas. Chunki o‘xshatishni yuzaga keltiruvchi birliklar olamning lisoniy manzarasida insonlarning, narsa yoki hodisa haqidagi tasavvurlarini voqelantirish uchun ifodalanuvchi lingvomadaniy vositadir. Turg‘un o‘xsha-tishlarning asosiy mohiyati shuki, unda o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi. Har bir so‘z ustasi o‘xshatishni yuzaga keltiruvchi vositalardan unumli foydalangan holda badiiy asar per-sonajlarini tipiklashtirishda, ularning o‘ziga xos jihatlarini ochishda, ruhiy holatlarini ifodalashda, tabiat manzaralarini tasvirlashda o‘zining betakror uslubini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ўзбекистон Республикаси Президентининг2019 йил 4 октябрдаги «Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили ҳақида»ги қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида»ги ПҚ-4479-қарори. Манба: https://lex.uz/docs/ 4664611?type=doc.

(2). Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. Тошкент, “Mumtoz so‘z”, 2017, 161-бет.

(3). Н.Маҳмудов, Д.Худойберганова. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. Тошкент, 2013, 320-бет.

(4). Жамолиддинова Д. Бадиий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультурологик хусу-сиятлари. Филол. фан д-ри (DSc)… дисс. автореф., Тошкент, 2021, 71-бет.

(5). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик, Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 1-жилд, 2006, 473-бет.

(6). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик, Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси дав-лат илмий нашриёти, 2-жилд, 2006, 165-бет

(7). Xudayberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent, 2024, 46-bet.

Файзиев Ахтам Асраевич (к.ф-м.н, доцент, Ташкентский экономический и педагогический университет, Республика Узбекистан; fayziev. axtam@bk. ru)

СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ДИНАМИКИ ЗАГОТОВЛЕННОГО ХЛОПКА КАРАКАЛПАКИСТАНА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. *Упорядоченные количества случайных явлений, меняющихся во времени, образует временный ряд. В статье, методом статистического анализа временных рядов, изучена статистическая закономерность $\overline{y_t}$ −среднего объема динамики ежегодно заготовленного хлопка Каракалпакстана в Республике Узбекистан (по материалам ЦСУ РУз за 2003–2023 годы). Выведены, с 95% ной гарантией точечные и интервальные оценки для среднего объёма динамики заготовленного хлопка Каракалпакстана, определены явные виды трендов и спрогнозирован ожидаемый объём хлопка в Каракалпакстане для последующих лет. С помощью статистических критериев Дарбина-Уотсона установлено, что средний объём хлопка в Каракалпакстане имеет автокорреляционную зависимость. Использованные методы обработки и анализ динамических рядов могут быть использованы в исследованиях магистров, научных работников.*

Ключевые слова: *дискретный, хлопок, динамический, ряд, объем, тренд, сезонность, компонент, линейный, наименьший, нормальный, гипотеза, автокорреляция, асимметрия, эксцесса.*

Fayziev Atham Asrayevich (fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent (f.n.), dotsent, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti, O‘zbekiston Respublikasi; fayziev.axtam@bk.ru)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QORAQALPOQISTON PAXTA TERIMI DINAMIKASINI STATISTIK TAHLILI VA PROGNOZ BERISH.

Annotatsiya. *Vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turadigan tasodifiy hodisalarning tartiblangan miqdorlari vaqt qatorini hosil qiladi. Maqolada vaqt qatorlarini statistik tahlil qilish usulidan foydalangan holda $\overline{y_t}$ − - O‘zbekiston Respublikasida Qoraqalpog‘istonda har yili terib olinadigan paxta dinamikasining o‘rtacha hajmining statistik qonuniyati (O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2003–2023-yillarga mo‘ljallangan materiallari asosida) o‘rganilgan. Qoraqalpog‘istonda terilgan paxtaning o‘rtacha hajmi bo‘yicha nuqta va intervalli hisob-kitoblar 95 foizlik kafolat bilan tuzildi, tendensiyalarning aniq turlari belgilandi va keyingi yillar uchun Qoraqalpog‘istonda kutilayotgan paxta hajmi prognoz qilindi. Darbin-Vatson statistik mezonlaridan foydalanib, Qoraqalpog‘istonda o‘rtacha paxta hajmi avtokorrelyatsiyaga bog‘liqligi aniqlandi. Dinamik qatorlarni qayta ishlash va tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan usullar magistrantlar va ilmiy xodimlarning tadqiqotlarida qo‘llanilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *diskret, paxta, dinamik, qator, hajm, trend, mavsumiylik, komponent, chiziqli, eng kichik, normal, gipoteza, avtokorrelyatsiya, assimetriya, ekssessa.*

Fayziev Atham Asraevich (candidate of physics and mathematics seience, associate professor (Ph.D), associate professor, Tashkent economik and pedagogical universitet, Republic of Uzbekistan; fayziev.axtam@bk.ru)

STATISTICAL ANALYSIS AND FORECASTING OF THE DYNAMICS OF HARVESTED COTTON IN THE KARAKALPAKISTAN REGION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation*. An ordered number of random events changing over time forms a time series. In the article, using the method of statistical analysis of time series, the statistical regularity of ($\overline{y_t}$) average volume of dynamics of harvested cotton in the Karakalpakistan region of the Republic of Uzbekistan (based on the materials of the Central Statistical Bureau of the Republic of Uzbekistan for 2003-2024) is studied. Point and interval estimates for the average volume of dynamics of harvested cotton in the Karakalpakistan region have been constructed with a 95% guarantee, clear types of trends have been determined, and the expected volume of cotton in the region for subsequent years has been predicted. Using the Durbin-Watson statistical criteria, it has been established that the average volume of cotton in the region has an autocorrelation dependence. Therefore, the average volume of cotton in the region this year depends on the volume of previous and subsequent years. The methods of processing and analysis of dynamic series after testing can be used in the research of masters and researchers.*

Keywords: *discrete, cotton, dynamic, series, volume, trend, seasonality, component, linear, least, normal, hypothesis, autocorrelation, asymmetry, excess.*

Введение. Почти в каждой области встречаются явления, которые важно изучать в их развитии и изменении во времени. Можно, например, стремиться предсказать будущее на основании знания прошлого, управлять процессом, описать характерные особенности ряда на основании ограниченного количества информации. При обработке временных рядов опираются на разработанные

математической статистикой, в настоящее время статистика располагает разнообразными методами анализа временных рядов ([1,2,3,4,5]).

Материалы и методы. В статье, проведена обработка и анализ среднего объёма динамики заготовленного хлопка Каракалпакстана, за период наблюдений 2003–2024 годы, как $\{y_t, t \in T\}$ дискретный стационарный временный ряд.

В общем случае временной ряд $\{y_t, t \in T\}$ состоит из четырех составляющих: тренд; колебания относительно тренда; эффект сезонности; случайная компонента .

В работе использована методы обработки и анализа временных рядов, такие, как методы определения тренда, проверки нормальности и случайности, а также проверка автокорреляции, метод скользящей средней, метод конечных разностей, метод наименьших квадратов, статистическая критерия Дарбина – Уотсона и другие методы.

Используя эти методы статистического анализа временных рядов, построены точечные и интервальные оценки для средней объем хлопка Каракалпакстана, определены явные виды трендов и спрогнозирован средний объем хлопка Каракалпакстана для последующих лет, проверены различ-ные статистические гипотезы.

Изучению и анализу динамических рядов посвящены работы: Андерсона [1], Кендала[2], Тихомирова [3], Сулайманова [4] , Файзиева [5] и другие.

Результаты и их обсуждение. Предположим, что средней объем ежегодно заготовленного хлопка Каракалпакстана за период наблюдений, 2003–2024 годы образует стационарный дискрет-ный временный ряд. Используя вышеизложенные методы статистического анализа временных ря-дов, построим точечные и интервальные оценки для среднего объема хлопка Каракалпакстана, оп-ределим явный вид тренда и спрогнозируем объем хлопка для последующих лет, проверим различ-ные статистические гипотезы.

